Go‘zal Mo‘minova uchrashuvda



“Shadu shir”ansambli

O‘zbek cholg‘u ijrochiligi tarixida ayol san’atkorlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning ijodiy faoliyati musiqiy merosning saqlanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Tadqiqot davomida Malika Ziyoyeva, Gulchehra Muhammedova, Iqbola Toshpo‘latova, Go‘zal Mo‘minova kabi dutorchilarning ijodiy yondashuvi, pedagogik faoliyati va shogirdlar tayyorlash borasidagi xizmatlari tahlil qilindi.Ayol dutorchilarning ijodiy faoliyati yakkaxon ijrochilikda, balki ansambllar tarkibida ham rivojlanib, milliy cholg‘u ijrochiligi an’analarini saqlash va yangi avlod san’atkorlariga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning sa’y-harakatlari natijasida dutor san’ati nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham keng targ‘ib etilib, musiqamizning jahon madaniy merosi tarkibidagi o‘rni mustahkamlanmoqda.Maqolada ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy musiqaning taraqqiy etishi, an’anaviy cholg‘u ijrochiligini kelajak avlodga yetkazish va uni ilmiy asosda o‘rganish jarayonida ayol san’atkorlarning roli katta. Shunday qilib, dutor ijrochiligi bo‘yicha ayol san’atkorlarning ilmiy va ijodiy faoliyati madaniy merosni boyitishda muhim omil sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyoyeva F. “Ustoz sozanda Malika Ziyoyeva” //Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan Maqolalar To‘plami.Toshkent -2019.(149-bet)

2. Muhammedova G.(2024) shaxsiy suxbat stenogrammasi [21-noyabr 2024]

3. Qosimov R. “An’anaviy ijrochilik” qo‘llanma. Toshkent, 2007 yil.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



ABDURASULOVA GULSANAM
MUHAMMADALI QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Torli cholg‘ular” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:dotsent,
Matveyeva Ye.N.

O‘ZBEKISTON MILLIY VA ZAMONAVIY IJROCHILIK SAN’ATINING YETUK VAKILASI – YELENA MATVEYEVA

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli skripkachi, dotsent Matveyeva Yelena Nikolayevnaning ilmiy-ijodiy va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Uning skripka ijrochilik san’atiga qo‘shgan hissasi, pedagog sifatida yetishtirgan shogirdlari va musiqiy ta’lim sohasidagi metodik ishlanmalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: skripka, ijrochilik san’ati, pedagogika, musiqiy ta’lim, metodika, innovatsion yondashuvlar, ilmiy tadqiqot, Matveyeva Yelena Nikolayevna, skripka ijrochiligi, zamonaviy musiqiy ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируется научно-творческая и педагогическая деятельность известного скрипача, доцента Матвеевой Елены Николаевны. Рассматривается её вклад в развитие искусства скрипичного исполнительства, подготовка учеников, а также её методические разработки в сфере музыкального образования.

Ключевые слова: скрипка, исполнительское искусство, педагогика, музыкальное образование, методика, инновационные подходы, научное исследование, Матвеева Елена Николаевна, скрипичное исполнительство, современное музыкальное образование.

Bugungi kunda ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega bo‘lgan sharoitda umrguzaronlik qilmoqdamiz va hatto hozirda xotin-qizlarga berilgan imtiyoz-imkoniyatlar har qachongidan yaxshiroq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dunyoda ayollarning turmush sharoiti tubdn o‘zgarganligini, hamda, o‘zini-o‘zi anglash va

shaxsiy o‘sish uchun ko‘proq imkoniyatlar paydo bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo‘lida dadil odimlab borar ekan, xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohada tengligini ta’minlashga, ularni ulug‘lash va qadrlashga, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlarni kuzatar ekanmiz, ayollarga bo‘lgan e’tiborni, ularning jamiyatda va davlat organlari va tashkilotlarining yuqori pog‘onalarini egallaganliklarini ko‘rib xulosa qilishimiz mumkin. So‘nggi yillarda, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, ularning qadr-qimmatini ulug‘lash Yangi O‘zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o‘ringa qo‘yilmoqda.

Qizlarimiz madaniyat va san’at sohasida ham O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarishmoqda. O‘tgan yili madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda 25 nafar, mamlakat miqyosidagi ko‘rik-tanlovlarda esa 71 nafar iste’dodli qizlarimiz g‘olib bo‘lganlari ham shundan dalolat beradi.

Shu qatori ustozim Matveyeva Yelena Nikolayevna ko‘p yillik pedagogik faoliyati, ilmiy-ijodiy faoliyati, konsert, ilmiy-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishtiroki bilan O‘zbekiston musiqa san’ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan ayol ijodkorlardandir.

Matveyeva Ye.N. 1978 yil 27 iyulda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan musiqaga qiziqishi sababli, o‘zining kelajakdagi ilmiy-ijodiy faoliyatini olib borishi maqsadida 1998 yili M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘qishga kiradi. O'zbekiston davlat konservatoriyasida 2002 yilda bakalavr, 2006 yilda skripka mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani tamomlagan[1]. Ko‘p yillar davomida u “O‘zbekiston iste’dodlari” orkestri, Gosteleradio kompaniyasining kamer orkestri, “O‘zbekiston solistlari” kamer orkestri, Milliy simfonik orkestri, G‘arbiy Qozog‘iston filarmoniyasi, Yoshlar simfonik orkestri, Davlat simfonik orkestri kabi jamoalarda orkestr faoliyati bilan shug‘ullangan [2]. Hozirgi kunda esa u O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Torli cholg‘ular” kafedrasida dotsent lavozimida ilmiy-ijodiy va pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda. Ustozim Ye.Nikolayevna ko‘p yillik mashaqqatli mehnati, tirishqoqligi, hamkasblari o‘rtasidagi cheksiz hurmati va samimiyligi, ijrochilik faoliyati, ilmiy izlanishlari, yosh avlodga beminnat berib kelayotgan bilim va ko‘nikmalari, O‘zbekiston san’ati va madaniyatiga o‘zining sezilarli xizmatlarini qo‘shayotgani munosabati bilan, 2022 yil, konservatoriya tashkil etilganining 85 yilligi munosabati bilan, u “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Ustozimning ijodini kuzatar ekanman, ularning ijodiy faoliyati juda ham qiziqarli va o‘zgacha bo‘lib, nafaqat jahon kompozitorlari, balki, O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarini ham juda chiroyli va maromiga yetkazib ijro etib kelayotgan ayol ijodkorlardan desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Matveyeva Ye.N. bir necha yillardan buyon tomoshabinlarga o‘z konsertlarini taqdim etib kelmoqdalar. Ustozim kompozitorlarning har bir asari ustida o‘ziga xos tarzda ishlaydilar va asarni ijroga tayyorlashdan avval o‘sha asar yaratilgan davrning holati, madaniyatini o‘rganib, tahlil qilib ko‘rishga harakat

qiladilar. Bax ijodi davrini misol tariqasida olsak, Yevropada rivojlangan barokko oqimi novatorligi, ijro uslubi, xarakteridan kelib chiqqan holda asarlar ustida ish olib boradi. Klassik davri kompozitorlari Gaydn, Motsart, Bethoven kompozitsiyalarini klassik ijrochilik uslublariga xos tarzda, romantik davr kompozitorlarining esa lirik, erkin tasvirlash orqali skripka cholg‘usida mahorat bilan yoritib bera oladilar. Ustozimning ta’kidlashicha, “*Не возможно исполнять только одного композитора. Каждый уникален по-своему. В.А.Моцарт пленит своей филигранностью, лёгкостью, задорностью. Ф.Мендельсон-романтик. Бесконечное движение музыкальных линий, эмоциональные всплески и печальные падения. И.С.Бах - барокко. Его музыка строга по стилю. Играя Баха, нужно слышать не только мелодическое или гармоническое движение, но и посредством нот и динамики передавать эмоциональное состояние, вложенное композитором”*.

Bugungi kunda, ustozim nafaqat jahon, balki, O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarini targ‘ib qiluvchi ijodkor, skripkachi va pedagogdir. Ijrochilik faoliyatida Varelas Anatoliy Sovetovich, Mustafo Bafoyev, Dilorom Saydaminova, Feliks Markovich Yanov-Yanovskiy kabi kompozitorlarning asarlariga qayta-qayta murojaat qiladilar. U milliy musiqa merosini skripka ijrochiligi orqali yuksak badiiy darajada namoyish etib, O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni talqin qilish va targ‘ib etishda faol ishtirok etadi. Uning ijodi milliy va jahon skripka san’ati an’analarini uyg‘unlashtirgan holda, o‘ziga xos badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Matveyeva o‘zbek musiqasining ohanglari va ijrochilik uslublarini chuqur o‘rganib, ularni skripka cholg‘usida jozibali hamda ta’sirchan tarzda ifoda etishga intiladi.

Matveyeva Ye.N. o‘tgan 2024 yil 20 fevral sanasida konservatoriyamizning kichik zalida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor, mohir pianinochi Sharipova Adiba Raufovna bilan “Adras – Reg” nomli konsert dasturi bo‘lib o‘tdi. Dasturda iste’dodli kompozitor Mustafo Bafoyevning skripka va fortepiano uchun yozilgan 1 “Nagma va usul” nomli konsertini ijro etishdi. Konsertga kompozitor Mustafo Bafoyevning o‘zlari ham tashrif buyurib, konsert so‘ngida ijrochilarni munosib ijro bilan qutladi.

Ustozimning ijro mahoratiga juda ham havasim keladi. Shundan bo‘lsa kerakki, menda ham sekin-asta o‘zbek kompozitorlarning asarlariga bo‘lgan qiziqish boshlandi. Buni qarangki, bir kuni ustozimning o‘zlari menga Mustafo Bafoyevning skripka uchun yozgan uchinchi konsertini ijro etish taklifini berdilar. Meni bu taklifdan boshim ko‘kka yetdi va asarni muvaffaqiyat bilan ijro etishga kirishib ketdim.

2024 yil 30 aprel kuni ustozim bilan birgalikda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining kichik zalida “Наставник - Ученик” nomli konsert qo‘ydik. Eng qiziqarlisi shundaki, konsert dasturi faqat o‘zbek kompozitori Mustafo Bafoyevning skripka uchun yozilgan asarlaridan iborat edi. Bu ustozim bilan konsertdagi ilk ijroyim bo‘ldi. Konsertga tayyorlanish jarayonida ustozimdan asarning ustida ishlash yuzasidan ko‘p bilimlarni, jumladan, texnik mahoratimni oshirish, kuyning xarakterini ko‘rsatish, kompozitor tafakkurini tushunish va his

qilish kabilarni o‘rgandim. Mustafo Bafoyev asarlarining xarakteri va musiqiy tili haqida juda ham ko‘p izlandik, o‘rgandik, hamda tahlil qildik. Konsertimiz juda ham muvaffaqiyatli bo‘lib o‘tdi.

Ustozim yurtimiz kompozitorlarining asarlarini mahorat bilan ijro etarkan, har bir kompozitorning asariga o‘zgacha yondashadilar va ijrodan so‘ng kompozitorning musiqiy tafakkuriga o‘zining badiiy fikrini bildiradi. *“М.Бафоев - композитор, который пишет потрясающую музыку. Посредством грамотного сочетания регистров,вводит и исполнителя и слушателей в экскурс восточного мира. Сочинения Р.Абдуллаева полны энергии и жизни. Использование разных штрихов в своих сочинениях даёт возможность прочувствовать характер произведения, национальный колорит. А. Варелас - композитор лирик-философ. Его музыка затрагивает тему «Быть или не быть, вот в чем вопрос...», как в пьесе “Гамлет” У.Шекспира”*- deb ta’kidlaydilar ustozim Matveyeva Ye.N.

Bugungi kunda ustozim nafaqat ijrochilik faoliyati bilan, balki ilmiy faoliyat bilan ham barakali mehnat qilib kelmoqda va izlanmoqda. Matveyevaning ilmiy tadqiqotlari torli cholg‘ularda ijrochilik san’ati va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarini targ‘ib qilishga qaratilgan. U o‘zbek kompozitorlari tomonidan torli cholg‘ular uchun yaratilgan asarlarni ijro etish bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi. Shuningdek, u talabalarga milliy musiqiy merosimizni o‘rgatish va uni keng ommaga yetkazish yo‘lida faoliyat yuritadi. Ustozimning ilmiy faoliyatiga oid o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy ilmiy qo‘llanma, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalardagi maqolalari aynan torli cholg‘ularda ijrochilik san’ati bilan bog‘liq muammo va masalalarni yoritadi.

Matveyeva Ye.N. o‘zining pedagogik faoliyati davomida ko‘plab yosh ijrochilarni tarbiyalab, ularning professional rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Matveyevaning pedagogik faoliyatida mashg‘ulotni nazariy va amaliy jihatdan uyg‘un olib borish ustuvor hisoblanadi. U talabalarga “Torli cholg‘ular ijrochiligi”, “Ansambl bilan ishlash uslubiyoti”, “Kvartet sinfi” va “Torli cholg‘ular” fanlaridan yakka mashg‘ulotlar olib boradi. U murabbiy sifatida iqtidorli talabalarga munosib sharoit yaratib berish, ularni respublika va nufuzli xorijiy musiqa tanlovlarida ishtirok etish kabi ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda. Uning sa’y-harakatlari natijasida o‘zbek kompozitorlarining asarlari nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham keng tanilgan va ijro etilmoqda. Ustozim Matveyeva rahbarligida skripka cholg‘usi ijrochiligi bo‘yicha 35 nafardan ortiq talaba tahsil olgan bo‘lib, ulardan deyarli barchasi respublika tanlovlari g‘olibi bo‘lgan. Ular bugungi kunda musiqa ta’limi muassasalari va orkestrlarda o‘z faoliyatini yuritmoqda. Ustozimdan ta’lim-tarbiya va ijrochilik sirlarini egallagan bir necha shogirdlar nafaqat yurtimizda, balki, AQSH ning nufuzli simfonik orkestrlarida ham o‘z ijrochilik faoliyatini olib bormoqda.

Shu o‘rinda, ustozimning suyukli shogirdlaridan biri Milliy simfonik orkestrining ikkinchi skripka konsertmeysteri Mamutov Dilyaver bilan uning talabalik yillarini eslab o‘tgan suhbatimizda, ustozimiz Matveyeva Ye.N. ni shunday xotirlaydilar: “…*Я Мамутов Дилявер, выпускник Государственной*

Консерватории Узбекистана с 2014 по 2018 года учился у педагога Матвеевой Е.Н.. Я считаю, что мне очень повезло с педагогом. Еще в детстве, будучи учеником школы, я часто посещал концерты симфонической музыки, в тот период Елена Николаевна была концертмейстером оркестра, я восхищался игрой Елены Николаевны, для меня было это что-то невероятное, в то время я даже и подумать не мог, что спустя года Елена Николаевна будет моим педагогом в Консерватории. С первых же дней занятий мне как студенту, было очень комфортно находиться на уроке, я думаю это очень важно для музыканта. Занимаясь на уроке, я с интересом слушал подробные, последовательные объяснения учителя. Елена Николаевна всегда мотивировала,придавала своим студентам уверенность в себе. В любой ситуации, подчеркну в любой ситуации, Елена Николавна всегда была готова помочь своим студентам, выслушать, дать совет, переживала как за своих родных детей, с ней всегда можно было обсудить неудачи и разделить радость. Я думаю она была мне больше чем учитель, у нас в классе всегда был уют. Думаю талант педагога заключается в умении передать знания другому и в умении делать трудные вещи легкими. Елена Николаевна учила меня выражать свои чувства и эмоции через исполнения произведений. С её помощью я научился многому: распределять своё время, добиваться поставленной цели, находить и исправлять свои ошибки. Я очень благодарен ей за всё. Сколько бы ни прошло времени, я всегда буду вспоминать свою учительницу с улыбкой, теплотой и благодарностью. Я хочу сказать огромное спасибо своему педагогу,которая не щадя сил и времени, терпеливо и настойчиво обучала меня".

Hayotda insonning samimiy, mehribon, toza qalb sohibi bo‘lishi, uning hayoti davomida ulkan zafarlar quchishiga sababchi bo‘ladi. Mana shunday insonning aynan sening hayotingda bo‘lishi, ana shu insondan-da ikki karra baxtli ekaningdan dalolatdir. Men, hayotimni ijod bilan bog‘laganimdan bugun mamnunman. Chunki, bu ajib ijod olami menga ustoz deb atalmish bebaho ne’matni in’om etdi. Bu mening jonajon va qadrli ustozim Matveyeva Yelena Nikolayevnadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni , 16.04.2002 yildagi PF-3052-son Toshkent Davlat konservatoriyasini O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirish to‘g‘risida
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2021 yildagi 278-son O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida O‘zbekiston davlat simfonik orkestrini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida
3. Шульпяков О. Работа над художественным произведением и формирование музыкального мышления исполнителя. – СПБ.: Композитор, Санкт Петербург, 2005. – 36 с.

4. Matveyeva Ye.N. Torli cholg‘ularda ijrochilik (skripka).Oliy ta’lim muassasalari uchun uchun o‘quv qo‘llanma. “Musiqa” nashriyoti-T.: 2020. – 104 b.

5. Матвеева Е. Методические рекомендации по изучению сольных партий скрипичных концертов композиторов Узбекистана. “Nur-star shines”,- Т.: 2023. -72 с.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



ATABOYEVA NIGINA
DAVLATJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish”
kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: professor, M.Bafoyev

BETAKROR FORTEPIANO IJRO SOHIBASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Madina Muxsinovna Fayziyeva va Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Azamat Jeltirguzov hamkorligida ijro qilingan asarlar va “Средь шумного бала” nomli vokal asarlarga bag‘ishlangan kontsert dasturi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Chaykovskiy, musiqa, vokal, fortepiano, tinglovchi, asar, romans, ijrochi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о произведениях, исполненных в сотрудничестве заслуженной артистки Узбекистана Мадины Мухсиновны Файзиевой и заслуженного деятеля искусств Казахстана Азамата Желтиргузова, а также о концертной программе, посвящённой вокальным произведениям под названием “Средь шумного бала”.

Ключевые слова: Чайковский, музыка, вокал, фортепиано, слушатель, произведение, романс, исполнитель.

Tarix zarvaraqlarini ziyraklik bilan varaqlar ekanmiz, o‘zbek va qozoq xalqlarining Qadim zamonlardan buyon do‘stu-birodarlikda, saxiy, ahil bo‘lib yashab kelayotganlarining guvohi bo‘lamiz. Diqqatga sazovorligi shundaki, bu xalqlar hozirgi kunga qadar iqtisodiy va boshqa jabhalarda pilla-poyalardan ko‘tarilishida bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqdalar. Fikrimga yorqin misol keltiraman. 2023- yilning bahorida “Рахманиновская весна” (“Rahmaninov bahori”) Sergey Vasiliyevich Rahmaninovning 150-yilligiga bag‘ishlangan xalqaro festivalda chiqish qildilar. Rahmaninovning fortepiano va orkestr uchun

yozilgan 2- konsertining ijrosi bo‘ldi. Orkestr rahbari Kamoliddin Turdimurodovich O‘rinboyev edilar.



Ushbu konsertda vokal partiyasini Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Azamat Kayratovich Jeltirguzov bariton ovozi sohibi, Qozog‘iston milliy san’at Universiteti vokal san’ati bo‘limi Professori, vokalistlar uyushmasi a’zosi, respublika va xalqaro konkurslar, Pavel Lisitsian nomidagi I xalqaro baritonlar kabi konkurslari laureati. 2022- yil “Звезды Содружества” mukofotiga sazovor bo‘lganlar.

Fortepiano qarshisida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Maxsus fortepiano bo‘limi mudirasi, mukammal bilimdoni. Madinaxonim Muxsinovna bo‘ldilar. O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligi rivoji va uning taraqqiy etishida hissalari kattadir. Shu ma’noda ularning na’munali hayoti va ijodini o‘rganish barchamizga samara beradi va yanada yuqori cho‘qqilarni zabt etishga zamin yaratadi. Aleksandr Vedernikov, Lev Shvarts, S. Endelmenlarning mahorat darslari faol qatnashganlar. 2003-yildan buyon nafaqat O‘zbekistonda va boshqa davlatlarda ham Respublika pianistlar konkurslari hay’at a’zosi sifatida faoliyat olib boradilar, o‘quvchilarni xalqaro konkurslarga tayyorlaganlari uchun “ Tasanno” mukofoti (2006,2007,2009,2011), “Xalq ta’limi a’lochisi” medali (2011), “Yil musiqachisi” (2018) mukofoti sovrindori. Madina Muxsinovna yurtimizning har xil shaharlarida shu bilan birgalikda Qozog‘iston, Xitoy, Germaniya, Latviyada ham yakkaxon ijrochilik konsertlarini qo‘yganlar. Ko‘plab dirijorlar bilan xususan: V.Neymer, E. Azimov, K. O‘rinboyev, A. Shohakimov, Aleksandr Pak. Zamonning mashhur vokalistlari bilan xususan: Sergey Yakovenko (Rossiya), Monik Makdonald (AQSH), Tatyana Rubinskaya (Rossiya), Fabio Andreotti (Italiya), Azamat Jeltirguzov (Qozog‘iston), chiqish qilganlar, fortepiano duetlari tarkibida ham ayniqsa Professor Marat Gumarov bilan chiqish qilganlar.

Fikrimga yana bir yorqin misol sifatida 2025-yilning 14-mart sanasida O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi katta zalida buyuk rus kompozitori Pyotr Ilich Chaykovskiyning 185- yillik tavalludiga bag‘ishlangan “Средь шумного бала” bo‘lib o‘tgan konsertini ta’kidlashimiz mumkin. Chaykovskiy romanslari

vokal ritmining rang-barangligi, intonatsion davralari qiyinchilik tug‘dirishi mumkin va bu intonatsion strukturalar faqat fortepiano ijrochisi bilan tinimsiz o‘z ustida ishlab maromiga yetkaziladi. Aynan shu vazifani Madina Muxsinovna va Azamat Kayratovich hamkorlikda uddasidam chiqishdi ham Ma’lumki solist ijrosidan kelib chiqib pianist-konsertmeyster baholanadi. Vaholangki, matnda tez va aniq mo‘ljal ola bilish ham mahorat aslida bu orqali qator vazifalar shakllanadi. Misol uchun: Romansning kirish qismi bu shunchki boshlanish emas, balki muallifning fikrlari bayon etiladigan qismdir. Bu kechaga qaytadigan bo‘lsak, Chaykovskiyning chuqur musiqiy tafakkur bilan yozilgan romanslar orasida 20 dan ortig‘i yuksak badiiy did, ichki madaniyat va mohirona ijro nuqtai nazaridan tomoshabinlarning e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Konsertda ilk ijro qilingan romans “Благославляю вас леса” deb nomlanadi. Aleksandr Konstantinovich Tolstoy o‘zining “Ioann Domaskin” poemasini ushbu romansning misralariga yozgan. Madina Muxsinovna bu asarda virtuozona musiqiy hamkorlik qildilarva qalblarining tub-tubidan kelayotgan o‘sha qaynoqva titroq emotsiyalarni muhabbat, mehr ila uyg‘unlashuvini o‘z ijrolari bilan biz tomoshabinlarga to‘laqonli yetkazib berdilar. Shu bilan birgalikda, XIX asrlarning murakkab musiqiy poeziyalarining dunyosiga sho‘ng‘ishga, o‘sha ufurib turgan takrorlanmas epoxa nafasini his qilishga muvaffaq bo‘ldilar.

“Нет только тот кто знал”, “Нам звезды кроткие сияли” Chaykovskiyning samimiy va lirik vokal asarlarini mayin umid, sog‘inch ila o‘z partiyalarini maromiga yetkazib ijro qildilar va bu taqsinga sazovordir.

“Средь шумного бала” yuqorida ta’kidlaganimdek, ushbu go‘zal kechada o‘tgan konsertning nomi bilan bog‘liq. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu asar yozilishida to‘liq hikoya bor. 1850-yilning qish faslida 33 yoshli ijodkor Tolstoy Yangi yil ball maskaradiga yo‘l oladi. U yerda noma’lum niqob ostidagi qiz bilan bo‘lgan tanishuv yosh ijodkorning hayotini o‘zgartirib yuboradi. Bu uchrashuvdan keyin otashin muhabbat uni o‘rab oladi va hech narsa haqida o‘ylamay qo‘yadi. Lekin bu qiz bir necha kun ichida shunday javohir, marvariddek kompozitsiyaning yaratilishida sababchi boldi. Ko‘plab kitoblarda o‘qiganmizki, vals-Chaykovskiyning ijodi orqali kirib kelgan. Misol uchun uning simfoniyalari, torli orkestr uchun serenadalari, instrumental pyesalari , dunyoga mashhur baletlari haqida eslamaslikni iloji yo‘q… “Средь шумного бала” romansi ham vals xarakterida yozilgan bo‘lib, ayniqsa fortepiano partiyasining bas qismida o‘ta yengillik va xromatik xarakatlar bilan Madina Muxsinovna yanada yoritib berdilar. Ta’kidlash lozimki, bu romans vokal lirikasini Azamat Jeltirguzov yuqori darajada ko‘rsatib berdilar.

Serenada shunday janr turi bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan. Kechki payt, tunda va ko‘p holatlarda oyna ostida yoqtirgan insoni uchun gitarada yoki skripkada ijro etiladigan asar. Bu kechada esa “ Серенада о дитя”, “Серенада Дон-Жуана” asari tinglovchilarga taqdim etildi. Asosiy g‘oyadan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, bu yerda qahramon o‘zining sevimlisi uchun serenadasini kuylaoqda. Ushbu asar Motsart va Gofman sharafiga bitilgan bo‘lib, Chaykovskiy o‘z navbatida Motsartning operalari haqida shunday degan ekan: “Barcha operalar orasida I darajaga “ Дон-Жуан” ni loyiq ko‘raman. Sababi

shundaki, u qancha go‘zallik, qancha musiqiy matoga boyitilgan. Hozirgi zamonaviy o‘z asarlarida realism, to‘g‘riso‘zlik, ishonch ortidan quvib, badiiy asarning go‘zalligiga urg‘u berish kerakligi haqida unutayozishmoqdalar… Qolaversa, hozirgi kunda pianistlar zamonaviy ijro davomida ko‘proq 3 tonallikga duch kelishmoqda: Muallif tonalligi si minor(h moll) bariton uchun ; lya minor(a moll) bas uchun va reminor(d moll) tenor uchun. Har bir tonallik uchun qulay applikaturalarni qo‘yish mumkin. Lekin shunday holatlar bo‘ladiki, konsert jarayonida 3 tonallikni har biri kelsa, applikaturani birlashtirish kerak bo‘ladi. Albatta, yana fortepiano ijrochising mahoratiga borib taqaladi ya’ni Madina Muxsinovna Fayziyeva ko‘p yillik mehnatiga , o‘z ustilarida tinimsiz ishlaganliklari natijasida buning uddasidan chiqdilar. “Растворил я окно”, “То было ранеею весной”, “Отчего”, “Мы сидели с тобой” romanslari o‘zbek pianistkasining ijrosida ilk notalardan musiqaning ajoyibliligi, musiqa olamiga sho‘ng‘ish va muallifning fikrlarini sezishimiz mumkin. O‘ylaymanki, hech bir qalb ba’zan faylasuflarcha, ba’zan o‘z-o‘zidan, ba’zan esa orzularga beriluvchan yorqin hislarga befarq munosabatda bo‘lmaydi.

Madina Muxsinovna Fayziyeva va Azamat Kayratovich chiqishlaridagi “Среди мрачных дней”, “ Серенада Дон-Жуанф”, “ Первое свидвние”, “Закатилось солнце”, “Моя баловница”, “Хотел б единое слово ” kabi romanslari ham ahamiyatlidir. Bu asarlar davomida Madina Muxsinovna royalning shunday ifodali bo‘yoqlarini topdilarki, qaysiki tomoshabinlar nigohida organ ohanglari aks etgandek go‘yo… Konsertmeyster-pianist: “Chaykovskiyning musiqasi butunlay yangi, hali tasdiqlanmagan tovushlar dunyosini ochadi. Men asarlarini soatlab har safar undagi yangida-yangi bo‘yoqlarni va ma’nolarni topaman”, deya mamnuniyat bilan fikrlarini yakunladilar.

Chaykovskiyning vokal asarlari orasida fortepianoning o‘rni beqiyosdir ya’ni fortepiano ovoz melodiyasining fon sifatida boyitish bilangina cheklanib qolmaydi. Ovoz ijrochisi va fortepiano ijrochisi teng huquqli deb sanayman. Ular ijro vaqtida partiyalarning uyg‘unlashuvi orqali ijodkorlarning o‘zaro suhbati, his-tuyg‘ulari yuzaga chiqadi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chaykovskiyning Серенада “Ты куда летишь как птица…” asari fikrimni asoslab beradi

“День ли царить” Ushbu yorqin kechani va fayzli kechani yakunlovchi asari hisoblanadi. 1880- yil mart oyida yozilgan bo‘lib, optimistic ruhda, virtuozliligi va rangba-rang garmoniyalari, murakkab passajlari bilan ajralib turadi.

Madina Muxsinovna Fayziyeva betakror musiqiy iqtidori tom ma’noda gullab, san’at maydonida bamisoli quyoshdek charaqlab kelayotgan, shaxs sifatida pozitiv va faol hayot tarzini olib boradilar. Kecha o‘ziga o‘zbek, rus millatiga mansub kishilarni , chet eldan kelgan turistlarni ham jalb qildi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda nafaqat O‘zbek musiqa madaniyatiga, boshqa davlatlar musiqa madaniyatiga va qudratli san’ati siymolariga hurmat va ehtiromni ko‘rib bo‘lganlarini e’tirof qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. kultura.uz
2. piano.competition.by
3. gnesintraditions.ru

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



AXMEDOVA DUNYOZODA
AMIN QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Orkestr dirijorligi” kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent,
Sahiyev A.J.

O‘ZBEK MILLIY OPERASIDA YANGI SAHIFA: DIRIJOR ZAMIRA QAYUMOVANING XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI BILAN BOG‘LIQ TASHABBUSI

Annotatsiya: Maqolada Zamira Qayumovaning dirijorlik san’atiga kirib kelishi, ta’lim olishi va ijodiy faoliyati yoritiladi. Uning xalq cholg‘ulari orkestri uchun milliy opera yaratishdagi tashabbusi va ijodiy izlanishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zamira Qayumova, ayol dirijor, milliy opera, xalq cholg‘ulari orkestri, dirijorlik san’ati.

Аннотация: В статье рассматривается творческий путь женщины-дирижёра Замиры Каюмовой, её образование, профессиональное становление и вклад в развитие национального музыкального искусства. Особое внимание уделено её инициативе создания первой национальной оперы для оркестра народных инструментов.

Ключевые слова: Замира Каюмова, женщина-дирижёр, национальная опера, оркестр народных инструментов, дирижёрское искусство.

Tarixdan ma’lumki o‘zbek ayol va xotin-qizlarining ko‘rsatgan jasoratlari xalqimiz orasida hali-haligacha e’tirof etib kelinmoqda. Deydilarki, ayol bir qo‘lida beshik, bir qo‘lida esa dunyoni tebratadi. Ularning nozik jussasida dunyolarcha kuch va g‘ayrat yotadi.

Bugungi kunda, yurtimizda xotin-qizlarning rivojlanishi va jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishi uchun qator chora tadbirlar ishlab chiqarilgan. Bulardan eng asosiysi, respublikada magistratura bosqichiga o‘qishga kirgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovi davlat budjeti tomonidan to‘lab berilishi misol bo‘la oladi. Ana shunday imkoniyatlarning ijobiy ko‘rinishi sifatida hozirgi kunda

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Orkestr dirijorligi” kafedrasida faoliyat olib borayotgan yosh dirijor Zamira Qayumova haqida suhbatlashamiz. Musiqani bir eshitishda ilib oladigan qizaloqni ismini rahmatli bobolari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Zamira Suyunovaga havas qilgan holda Zamira deb qo‘yganlar. Qizaloq musiqa haqidagi dastlabki bilimlarni Buxoro viloyatidagi Badiiy akademiya tasarrufidagi litseyning chang sozi mutaxassisligi bo‘yicha 2006 yildan boshlab Feruza Jumayeva Ortiqovna, so‘ngra Teshayeva Madina va Uzoqova Shohista Ochilovna sinflarida olgan va musiqa cholg‘u asbobida ijro etishning asosiy poydevorini mustahkam qo‘ygan. 9 yillik ta’limdan so‘ng, Zamira M.Ashrafiy nomidagi Buxoro san’at kollejida tahsil olishni davom ettiradi va aynan shu davrdan boshlab ziyrak o‘quvchida dirijorlik san’atiga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘ladi.

Dirijorlik saboqlarini ustozi Shohista Ochilovna va orkestr sinfining rahbari Hamrayev Dilmurod Bekmurodovichning to‘g‘ridan-to‘g‘ri orkestr mashg‘uloti davomida diqqatli kuzatish asnosida o‘rgangan Zamira, o‘quv jarayonida orkestr jamoasi bilan muvaffaqiyatli ishlaganlarini eslaydilar. O‘quv davri mobaynida moslashtirish, nazariya fanlarini ham puxta o‘zlashtiradi va o‘z ustida mustaqil ishlashni davom ettiradi. Musiqaga astoydil qiziqish samarasi o‘laroq 2017 yil O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga chang sozi va dirijorlik mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga imtiyozli qabul qilinadi. Aynan dirijorlik yo‘nalishi bo‘yicha O‘zDK professori Feruza Abdurahimova Ravshanovna sinfida o‘qishni davom ettiradi. Talabchan va qattiqqo‘l ustozda o‘qish o‘ziga yarasha mas’uliyat va sharaf edi. O‘qish yillari davomida Zamira ustozidan dirijorlik faninnig dastlabki nazariyasi, dirijorlik apparatini, qo‘l harakatlarini mukammal egallashni boshlaydi. Amaliy mashg‘ulotlarni esa sinfda jo‘rnavozlar yordamida, hamda talabalar o‘quv orkestri bilan davom ettiradi.

Bakalavr bosqichini tamomlagandan so‘ng, o‘zida qoniqish his qilmagan yosh mutaxassis, magistratura bosqichiga o‘qishga kiradi va ushbu yo‘nalishdagi bilimlarni puxta egallaydi. O‘z ustida tinimsiz ishlayotgan davrda, talaba xalq cholg‘ulari orkestri uchun yirik shakldagi asarlarning kamligini e’tiborga oladi va hech qanday moslashtirishlarsiz aynan xalq cholg‘ulari orkestri uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozilgan asarlarga ehtiyoj borligini payqaydi. Shu maqsadda, xalq cholg‘ulari orkestri uchun katta sahnaga mos myuzikl yozishga kirishgan Zamira, shoir Usmon Azimning “Kundussiz kechalar” asarini kompozitor Muhammadjon Otajonov bilan hamkorlikda yoza boshlaydilar. *“Keyinchalik esa, ushbu biz myuzikl deb o‘ylagan sahnaviy asar xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozilgan dastlabki milliy operaga aylandi»* deb, eslaydi dirijor. Mazkur opera, o‘zbek ma’rifatparvarlik yo‘lining so‘nmas quyoshi, jadidchilik harakati namoyondalaridan biri bo‘lmish Abdulhamid Cho‘lponning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan ilk o‘zbek milliy operasidir.

Darhaqiqat, ushbu operaning muvaffaqiyatli ijrosida o‘sha tirishqoq talaba Zamiraning, hamda uning bu fikrini qo‘llab quvvatlagan ustozlar, xususan, kafedra mudiri G‘ayrat Abrorov Shavkatovichning yordami, Musiqali teatr studiyasi xalq cholg‘ulari konsert orkestri rahbari va sozandalari, shu bilan birga “Akademik vokal” kafedrasinig mehnati tahsinga sazovordir.

Xulosa o‘rnida eslatib o‘tmoqchimanki, ushbu dastlabki milliy opera ko‘plab tomoshabinlar qalbidan joy olish bilan birga, tanqidlarga ham uchradi. Zero, tanqid kelajak mevasidir. E’tiborlisi shundaki, opera keng omma oldida bir

necha martta namoyish etilib, har safar tinglovchilarga olam-olam shodlik bag‘ishladi. Vatanimizda Zamiraning ishini davom ettiradigan, o‘zbek milliy musiqa san’ati rivojiga hissa qo‘shadigan xotin-qizlar ko‘payishini umid qilib kutib qolamiz. Zero, biz Prezidentimiz ishongan yoshlarimiz!

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



AZIMJONOVA MUAZZAM
ABDUQAHHOR QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Maxsus fortepiano” kafedrasi
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: professor,
Fayziyeva M.M.

DUNYO KLASSIK MUSIQASIDA O‘ZBEK AYOLI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, professor, mohir pianist va pedagog Madina Fayziyevaning ijodiy hamda ilmiy faoliyati yoritiladi. Uning kontsert faoliyati, mashhur dirijorlar va vokalchilar bilan hamkorligi, pedagogik yondashuvi va talabalari bilan ishlash uslubi tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ilmiy tadqiqotlari, xususan, M. Otajonov fortepiano konsertlari haqidagi kitobi va bu asarlarning ijrochilik hamda pedagogik ahamiyati haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Madina Fayziyeva, fortepiano, pianino, ustoz, konsert faoliyati, ilmiy tadqiqot, ijrochilik, musiqiy ta’lim, san’at.

Аннотация: В статье рассматривается творческая и научная деятельность заслуженной артистки Республики Узбекистан, профессора, талантливого пианиста и педагога Мадины Файзиевой. Анализируется её концертная деятельность, сотрудничество с известными дирижёрами и вокалистами, педагогический подход и методика работы со студентами. Также освещаются её научные исследования, в частности, книга о фортепианных концертах М. Отажонова, а также исполнительская и педагогическая значимость этих произведений.

Ключевые слова: Мадина Файзиева, фортепиано, пианист, педагог, концертная деятельность, научное исследование, исполнительство, музыкальное образование, искусство Узбекистана.

Musiqa dunyosi insonni o‘z ichiga olib kiruvchi eng kuchli hissiy rivojlanish tamoili hisoblanadi. Obrazlarga to‘la bu olamning asl mohiyatini tinglovchilarga yetkazib berish esa, ayni ijrochining zimmasidagi yoqimli hisdir.

O‘zining go‘zal ijrosi va har ijrosida obrazlarni yorqin ifodalab bera oluvchi, o‘z kasbiga mehr bilan yondashuvchi ijodkor Madina Fayziyeva o‘z ijodiy hamda ilmiy faoliyatlari davomida yuqorida sanab o‘tgan barcha sifatlarni

o‘zida mujassamlashtirib fortepiano ijrochilari orasida o‘z o‘rniga ega mohir ijrochi hamdir.

Madina Fayziyeva Muxsinovna – O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi “Maxsus fortepiano” kafedrasi mudiri, professor, xalqaro tanlovlar laureati, hamda, xalqaro tanlovlarga pianist-laureatlar tayyorlagani uchun “Tasanno” mukofoti (2006, 2007, 2009, 2011), “Отличник народного образование” medali (2011), “Музыкант года” mukofoti (2012) sohibasidir.

Pedagoglik faoliyatini faol kontsert faoliyati bilan uyg'unlashtirgan pianistning ijodiy tarjimai holi mamlakatimizning turli shaharlarida, shuningdek, Qozog'iston, Xitoy, Germaniya, Latviya, Estoniyada ko'plab yakkaxon konsertlarni o'z ichiga oladi. Madina Fayziyeva K.Usmonov, V.Neymer, S.Sondetskis, E.Azimov, K.O‘rinboyev, A.Shohakimov, A.Pak kabi taniqli dirijorlar boshchiligida turli orkestrlar bilan konsert dasturlari o‘tkazgan.

Sinfda o‘rnatgan iliq muhiti hamda talabalari bilan ishlashda o‘z bilimlarini ayamay, kuchli ijrochilar yetishtirish uchun qilayotgan say-harakatlari mevasini, uning talabalari erishayotgan yutuqlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Asarlarning asl mohiyatini tushuntirish uchun turli xil metodlardan foydalanib olib boradigan dars jarayoni orqali talaba nafaqat ijroviy bilimlar, balki kelgusida kerak bo‘luvchi pedagogik bilimlarni amaliy o‘rganib boradi. Madina Muxsinovnaning yorqin, aniqlik bilan tinglovchiga birdek yoquvchi ijrosi doim talabalar uchun o‘rnak bo‘la oladi.

Pianino ijrochisining kontsert faoliyatini yana bir yo'nalishi - davrimizning taniqli vokalchilari: Sergey Yakovenko (Rossiya Federatsiyasi), Monik Makdonald (AQSh), Tatyana Rubinskaya (Rossiya Federatsiyasi), Fabio Andreotti (Italiya), Azamat Jeltirguzov (Qozog'iston), Bibigul (Qozog'iston), shuningdek, professor Marat Gumarov bilan bo‘lgan ko‘plab duet ijrolari alohida o‘ringa ega.

Madina Muxsinovna yosh ijrochilar hamda, ilmiy faoliyat bilan shug’ullanayotgan yosh tadqiqotchilar uchun qo‘llanma sifatida yozib, 2011-yil ommaga taqdim etgan “M. Otajonov konsertlari maxsus fortepiano sinfida” nomli kitobi hozirgi kunda ham talabalar tomonidan hali hanuz foydalanilmoqda. Bu kitobda konsert janri ustida ishlash, pianino ijrochilarini o‘qitishdagi eng muhim tarmoqlardan biri ekanligi haqida so‘z borgan. O‘z asarlari bilan xalqimiz qalbida yashovchi kompozitor va pianinochi Muhammadjon Otajonovning ikkita konsertining shaxsiy ijrochilik va pedagogik tajriba asosidagi majmuaviy tahlili aynan shu kiobda yaqqol yoritib berilgan.

M.Otajonov fortepiano konsertlarini o‘rganish musiqachi-ijrochining kasbiy o‘sishi bilan bir qatorda, ma’naviy rivojlanishi uchun ham muhim hisoblanadi. Bu kitob orqali shu ikki konsertning obrazli olami va uning ustida ishlash shakllari hamda, maxsus fortepiano uchun moslashtirilgan partiturasini ishlab chiqish va uni mazkur qo‘llanmaga nota materiali sifatida joylashtirish imkonini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.kultura.uz/view_6_r_20747.html
2. Fayziyeva M. - M.Otajonov konsertlari maxsus fortepiano sinfida- “Musiqa” nashriyoti, Toshkent.: 2011

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



AWUTI NUERGULI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Akademik xonandalik va opera
tayyorlovi” kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: professor, M.Razzoqova

O‘ZBEK OPERA SAN’ATI: MUYASSAR RAZZOQOVA

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, Xalqaro va Respublika tanlovlari sovrindori, professor, ustoz-san’atkor Muyassar Razzoqova bilan intervyu bayon etiladi. Maqolada xonandaning ijodiy-ijrochilik faoliyati yuzasidan savollar o‘rin egallagan.

Kalit so‘zlar: opera, san’at, dramatik, emotsionallik, obraz, diksiya, ijrochilik uslubi.

Аннотация: В данной статье представлен интервью с народной артисткой Узбекистана и Каракалпакстана, обладательницуй орден “Mehnat shuhrati”, лауреатом международных и республиканских конкурсов, профессором, мастером-искусствоведем Муяссар Раззаковой. В статье освещаются вопросы, касающиеся творческой и исполнительской деятельности певицы.

Ключевые слова: опера, искусство, драматизм, эмоциальность, образ, дикция, исполнительский стиль.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, Xalqaro va Respublika tanlovlari mutloq g‘olibasi, professor, ustoz-san’atkor Muyassar Razzoqova o‘zbek milliy opera maktabining bugungi kundagi yorqin vakillaridan biridir. U 1964-yil 29-fevralda Nukus shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan. U o‘n farzandning beshinchisi bo‘lib, 1988-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida Saodat Qabulova va Rozalinda Louutdan tahsil olgan. 1988-yildan ijodiy-mehnat faoliyati Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta

teatrida yakkaxon xonandasi sifatida boshlangan. Teatr sahnasida Oyxon (“Maysaraning ishi“, S.Yudakov), Dilorom (“Dilorom“, M. Ashrafiy), Rozina (“Sevilya sartaroshi“, J.Rossini), Violetta, Jilda (“Traviata“, “Rigoletto“, J. Verdi), Lyuchiya (“Lyuchiya di Lamermur“, G.Donitsetti) kabi bosh partiyalarni ijro etgan. Konsert repertuaridan o‘zbek va chet el kompozitorlari asarlari o‘rin olgan. Ijro uslubi virtuoz texnika, musiqali obrazlarning emotsionalligi, samimiyligi va sahnaviy jozibadorligi, dramatik ifodaviy vositalarning oddiyligi va aniq diksiyasi bilan ajralib turadi. Germaniya, AQSH, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Misr kabi mamlakatlarda gastrolda bo‘lgan. Xalqaro xonandalar tanlovi (Riga, 1989; Vengriya, 1990; Rim, 1997) va opera festivali (Turkiya, 2003)da qatnashib mukofotlarga sazovor bo‘lgan.

O‘zbekiston va jahon opera san’atida o‘zining o‘zgacha ijrosi bilan tanilgan, ko‘plab yirik kompozitorlarning asarlarini muvaffaqiyatli ijro etgan. U nafaqat o‘zining san’ati, balki ko‘plab xalqaro muvaffaqiyatlari bilan ham tanilgan. Ustoz bilan ijodiy-pedagogik faoliyati yuzasidan intervyu olishga muyassar bo‘ldik.

Savol: Musiqaga bo‘lgan munosabatingiz qanday boshlangan?

Musiqaga bo‘lgan ilk munosabatim radio orqali boshlandi. Men qo‘shiqlarni sevib, radio orqali ularni tinglab, notalarni o‘rganishni boshladim. Onam yaxshi qo‘shiq aytardi, lekin otam meni opera ijrochisi bo‘lishga qarshi edi. U menga faqat o‘zbek qo‘shiqchisi bo‘lishimni xohlar edi. Lekin otam meni qo‘llab-quvvatladi, agar opera ijrochisi bo‘lsam, O‘zbekistonda birinchi bo‘la olishimni aytib, yo‘l ko‘rsatdi.

Savol: Ijro faoliyatingiz davomida qaysi kompozitorlar sizga eng katta ta’sir ko‘rsatgan?

Eng sevimli kompozitorlarimdan biri bu - Muxtar Ashrafiy. Uning asarlari menga opera yo‘nalishini anglashda yordam berdi. Shuningdek, Mustafo Bafoyevning asarlari ham menga juda katta ta’sir qilgan. Rustam Abdullayev va Anor Nazarov kabi kompozitorlar ham faqat men uchun maxsus qo‘shiqlar yozgan.

Savol: Ijro dasturini qanday tanlaysiz? Qalbingizga yaqin bo‘lgan asaringiz bormi?

Ijro dasturini tanlashda, ovozimning imkoniyatlariga qarab tanlayman. Mening ovozim lirik-koloraturali sopranodir, shuning uchun sahnaga qo‘yiladigan barcha lirik-koloraturali sopranodagi asarlar men uchun mosdir.

Savol: Asar talqini ustida qanday ishlaysiz? Ijroda siz uchun qaysi jihatlar eng muhim?

Asar ustida ishlashda, birinchi navbatda vokal texnikasini mukammal egallash zarur. Ijroda ovoz texnikasi va asarni to‘g‘ri talqin qilish muhimdir. O‘zim ikkita ustozdan dars olganman, biri Rozalinda Louut va ikkinchisi Saodat Qabulovadir. Bu ustozlardan o‘rgangan bilimlarimni asarlarni ijro etishda qo‘llayman.

Savol: Asar matni bilan qanday ishlaysiz? Ijrodan avval tahlil qilishning maxsus usullari bormi?

Asar ustida ishlashda, birinchi navbatda so‘z bilan musiqani birlashtirib, yadlashga harakat qilaman. Keyin, so‘z va notaning qanday birlashishini chuqur o‘rganaman. Iboralar ustida ishlash va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish orqali asar o‘z talqini va ifodasini topadi.

Savol: Tajriba va tadqiqotlarga koʻra, konsertdagi akustika ijroga taʼsir qiladimi?

Ha, akustika ijroda juda muhimdir. Yaxshi akustikaga ega boʻlgan joylarda ijro osonroq va samaraliroq boʻladi. Akustikasi boʻlmagan joyda, yaxshi oʻrganilgan vokal texnikasi yordamida, bu muammoni hal qilish mumkin.

Savol: Ijro uchun XX-XXI asr musiqa tarixi bilan tanishish qanchalik muhim?

XX-XXI asr musiqa tarixini bilish ijrochi uchun juda foydalidir. Har bir davrda qanday ijrochilar borligi, ular qanday ijro etganini va bu ijrolarning jamiyatga qanday taʼsir koʻrsatganini oʻrganish, ijrochi uchun zarur bilimlarni beradi.

Savol: Ilmiy tadqiqot va ijrochilik faoliyati bir-biri bilan qanday bogʻlangan?

Ilmiy tadqiqot va ijrochilik bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan. Vokal sanʼati va ijrochilik bilimga asoslanishi kerak. Ilmiy yondashuv vokal texnikasini takomillashtirishga yordam beradi. Shuning uchun ilmiy bilimlarni amaliyotda qoʻllash zarur.

Savol: Hozirgi ijro uslubingiz va avvalgisi oʻrtasida qanday farq bor?

Hozirgi ijro uslubi avvalgi uslubdan farq qiladi, chunki zamonaviy uslubda vokal texnika va sahnadagi ifoda yuksalgan. Mustaqillikdan keyin Muyassar Razzoqova oʻzining ilgʻor ijro uslubi bilan Oʻzbekiston opera sanʼatini qaytadan sahnaga olib chiqqan.

Savol: Ijrochilik sanʼati va anʼana va innovatsiya oʻrtasidagi muvozanat qanday?

Innovatsiya, ayniqsa, kompyuter yordamida notalarni yozishda qoʻl keladi. Lekin anʼanaviy metodlar ham muhimdir. Vokal sanʼatida yangi texnologiyalar yordamida asarlarni takomillashtirish mumkin, lekin eski usullarni ham qadrlash zarur.

Savol: Shaxsiy koʻz qarashingiz, ilhom manbalaringiz va ijodi faoliyatini ilhomlantiruvchi omillar qanday?

Ijodimni ilhomlantiradigan asosiy omil sanʼatsiz hayotning maʼnosiz boʻlishidir. Asarlarni sevib ijro etish, shaxsiy hissiyotlarimni ifodalash orqali sanʼatni jonlantirishga harakat qilaman. Ijodda ilhomni sanʼatning oʻzi beradi.

Savol: Ilmiy ish va ijroni birlashtirish haqida qanday fikrdasiz?

Ilmiy ish va ijro bir-birini toʻldirishi kerak. Ijrochilikda vokal texnikasi va nazariy bilimlarni birlashtirish, ularni amaliyotda qoʻllash zarur. Ijrochilikka ilmiy yondashuv sanʼatni yuqori darajaga olib chiqadi.

Savol: Vokal sanʼati va ijrochilikda eng muhim narsa nima?

Vokal sanʼatida eng muhim narsa – bu sogʻliqni saqlashdir. Badan sogʻligi vokalistning ijrosi uchun juda zarur. Sport bilan shugʻullanish, nafas olish mashqlarini bajarish vokalistni kuchaytiradi.

Savol: Musiqa sanʼati koʻproq inson haqidagi sanʼatmi yoki dunyo haqidagi sanʼatmi?

Musiqa sanʼati insonning ichki dunyosini va jamiyatdagi oʻzgarishlarni koʻrsatib beradi. Ikkisi ham bir-biri bilan bogʻlangan va bir-birini toʻldiradi.

Rahmat kattakon xurmatli ustoz. Xotima oʻrnida professor Muyassar Razzoqova sanʼatni ilmiy va amaliy jihatlarni birlashtirib, oʻzining ijodi orqali koʻplab yoshlarni ilhomlantirib kelmoqda. Bugungi kunda oʻzbek opera sanʼatini

yosh avlodga asl holida o‘rgatib kelish bilan birga, zahmatli pedagogik, ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib bormoqda. Muyassar Razzoqova – asrimizning opera san’ati primaddonasidir. Ustoz ijro etgan o‘zbek va jahon musiqa madaniyati hamda opera san’ati namunalari xalqaro va mamlakatimizda e’tirof etilib, yosh xonandalarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



BAXTIYOROVA MUSLIMA
FARXOD QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d.(PhD), dotsent,
Ergasheva Ch.E.

KOMPOZITOR SITORA NARTURAYEVA IJODIDA XALQ KUYLARINING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompozitor Sitora Narturaeva ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari va muallifligidagi ilmiy ishlari haqida bayon qilinadi. Kompozitor ijodida xalq kuylarining tutgan o‘rni uning “Yurtim navolari” nomli kompozitsiyasi tahlili misolida musiqiy misollar bilan keltiriladi.

Kalit so‘zlar: san’at, ijodkor, kompozitorlik, folklor, kuy, simfonizm, kanon, imitatsiya, tembr variatsiyalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается творческая деятельность композитора Ситоры Нартураевой, её произведения и научные труды. Особое внимание уделяется роли народных мелодий в её творчестве, что демонстрируется на примере анализа композиции «Юртим наволари» с использованием музыкальных примеров.

Ключевые слова: искусство, творчество, композиторство, фольклор, мелодия, симфонизм, канон, имитация, тембровые вариации.

Musiqa san’ati barcha san’at turlari orasida inson ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularini aks ettirishi, uning tafakkuri va ruhiyatiga chuqur ta’siri bilan ajralib turadi. Ijodkor yaratgan kuy yuragining tub-tubidagi hissiyotlari bilan yo‘g‘rilgan holda musiqada namoyon bo‘ladi.

Anglash, tafakkur qilish va fikrlarini qog‘ozga tushirgan kabi musiqada aks ettirish – yaratish mushkul. Balki, shu tufayli ijodkorlar safi ozchilikni tashkil qiladi.

Tafakkur va ijodni ayni saviyaga qo‘yishga ulgurgan ana shunday jonkuyar kompozitor – “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari” uyushmasi a’zosi, yosh va iste’dodli ijodkor, ko‘plab simfonik va fortepiano uchun yaratilgan asarlar muallifi Narturaeva Sitora Oribovna 1991-yil 23-sentabrda Toshkent

viloyati Yangiyo‘l shaxrida ziyolilar oilasida tavallud topdi[5]. Ilk musiqiy ta’limni Yangiyo‘l shahridagi Bolalar musiqa va san’at maktabida fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha Toshmatova Leyla Mansurovna sinfida oldi. 2007-yil “Hamza Hakimzoda Niyoziy” nomidagi Respublika musiqa kollejiga fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirib, kollejni 2010-yil Ilyasova Dilorom Donievna sinfida tamomladi.

2010-2014 yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Bastakorlik san’ati” yo‘nalishi bo‘yicha professor Farxod Olimov rahbarligida tahsil oldi. Kompozitor bakalavr bosqichini O‘lmas Umarbekovning romani asosida yaratilgan “Fotima va Zuxra” nomli simfonik poema va “Torli cholg‘ular uchun kvartet”i bilan yakunladi.

Talabalik yillarida xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan holda, o‘z kompozitorlik ko‘nikmalari va yutuqlari safini kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi.

2014-2016 yillarda professor Oydin Abdullaeva rahbarligida magistratura bosqichida tahsil olib, tahsilni “Ibn Sino” nomli simfoniyasi, “Ayol qalbi” fortepiano va soprano uchun vokal turkumi hamda “O‘zbekiston kompozitorlari ijodida psixologik xususiyatlar” nomli dissertatsiyasi bilan muvaffaqiyatli yakunladi. 2014-yildan boshlab, Yangiyo‘l shaxridagi 5-sonli BMSMda, 2021-yil esa Respublika musiqa va san’at kollejida musiqa nazariyasi fanlari va umumiy fortepiano o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritdi.

2022-yildan boshlab, hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasida o‘z mehnat faoliyatini olib bormoqda.

Shuningdek, Sitora Narturaeva musiqaga oid yozgan ko‘plab ilmiy maqolalar muallifi bo‘lib, ko‘plab ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘z maqolalari bilan ishtirok etgan:

“Yangi davrni boshlab bergan kinomusiqa” (2022), “Sergey Raxmaninovning fortepiano ijodi” (2023), “O‘zbekiston kompozitorlari ijodida fortepiano va yirik shakldagi asarlarda raqs janrining mavzuiylik masalalari” (2023), “Musical and psychological characteristics of images in the vocal cycle “The scream of Hiroshima” by composer Rustam Abdullayev” (2024), “O‘zbek kompozitorlik ijodiyotiga aleatorikaning kirib kelishi va rivojlanishi (2024), “Kompozitor Eola Pakning musiqiy dunyosiga nazar” (2024) va boshqalar kompozitorning maqolalari safidan o‘rin olgan.

Fortepiano uchun pyesalar, torli cholg‘ular uchun kvartetlar, damli cholg‘u va fortepiano uchun ansambllar, fortepiano va ovoz uchun romanslar, xalq cholg‘ulari orkestri uchun raqs, “Fotima va Zuxra” simfonik poemasi, “Ibn Sino” simfoniyasi, “Yurtim navolari” nomli simfonik syuita va boshqalar kompozitor muallifligidagi yorqin ijod namunalaridandir.

Sitora Narturaeva ijodida xalq kuylaridan keng foydalanilgan bo‘lib, kompozitor tomonidan fortepiano uchun yaratilgan pyesa – “Kuyla dutorim” (aynan shu nomli xalq kuyi asosida)da dutor zarblari immitatsiyalari, “Fotima va Zuhra” simfonik poemasida ham aynan shu kuy ohanglarining ishlatilishi hamda halq qo‘shiqlari va ashula yo‘llari asosida yaratilgan “Yurtim navolari” turkumi

[5] Biografik ma'lumotlar kompozitor bilan suhbat jarayonidan yozib olingan, 2025-yil, mart.

fikrimizning yorqin dalilidir. Quyida “Yurtim navolari” simfonik syuita (“tasvirlar”)sining tahlilini qo‘rib chiqqan holda halq kuylarining kompozitor ijodidagi tutgan o‘rni haqida so‘z yuritishni ma’qul topdik.

“Yurtim navolari” xalq kuylari asosida yaratilgan simfonik tasvirlar – barcha vohalar xalq kuylari va cholg‘u yo‘llarini o‘zida mujassamlashtirgan kompozitsiyadir. Asardan xalq kuylaridan – “Norim-norim”, “Dembermes”, “Sust xotin”, “Qari navo” va boshqa namunalar o‘rin olgan bo‘lib, ular simfonik orkestr cholg‘ulari aro immitatsion rivojlanishga uchraydi.

“Yurtim navolari” turkumi – fleyta solosidagi “Cho‘li Iroq” bilan boshlanadi:



Muqaddima vazifasini bajaruvchi cholg‘u yo‘lining qisqa ohanglaridan so‘ng, syutaning boshlanishi – Xorazm xalq kuylaridan “Norim-norim” kuyi vibrafon cholg‘usida boshlanib, violonchel jo‘rligida davom etadi:



Keyinchalik esa, avval yog‘och damlilarda so‘ngra damlilar va torlilar jo‘rligida kanonik tarzda kuy mavzusi immitatsiyalanadi. “Norim-norim” ikkinchi motivining strettoli kanon shaklida motiv ishlovi amalga oshirilgandan so‘ng, damlilar (bu safar mis damli) va torlilarda so‘ngi bor asosiy mavzu yangraydi va syuitadan o‘rin olgan navbatdagi folklor namunasi – Qoraqalpoq xalq kuyi “Dembermes” goboy cholg‘usida, so‘ng esa boshqa cholg‘ular aro kanonik tarzda variatsiyalanadi (tambr variatsiyalari):



Dembermes motiv ishlovlaridan so‘ng Surxandaryo-Qashqadaryo vohasi mahalliy-uslubiga xos xalq qo‘shig‘i “Sust xotin”ga kirishda – Chanqovus (vargan) cholg‘usidan foydalaniladi. Chanqovusning ohanglari va birinchi (kuchli) xissa urg‘usi “Sust xotin”ning aniq va tekis ritmikasini aks ettiradi:



Musiqiy misoldagi chanqovuz partiyasi (o-e, o-e) talaffuziy harflari cholg‘uda harf talaffuzi yordamida ovoz yo‘nalishi orqali baland va past tovushlar hosil qilinishini ifodalaydi.

Ilk bor mavzu fleyta cholg‘usida keladi:



Fleyta bilan ayni vaqtda torlilarda “Sust xotin” qo‘shig‘i so‘zda (pichirlagan holda), cholg‘usiz tallaffuziy ravishda keladi. Bu kuy xarakteriga o‘ziga xos rang-baranglik bag‘ishlaydi. Keyin esa cholg‘u bilan mavzuning o‘zi yangraydi.

Sust xotin qo‘shig‘ida zarblilar ostinatoli ritmikasi muham o‘rin egallaydi (keyinchalik, asar so‘ngida shu ritmikadan foydalaniladi):



“Sust xotin”dan Farg‘ona-Toshkent vohasi xalq kuyi “Qari navo”ga o‘tish oldidan “Surxon” guruxi repertuaridan “Sirg‘ali qiz” qo‘shig‘i mavzusi iqtibos sifatida keltirilgan:



Bu kuy ohangi “Qarinavo” motiviga juda yaqin bo‘lib, o‘xshash kuyi bilan keyingi – “Qarinavo” kuyiga kirish vazifasini ham bajaradi.

“Qarinavo” cholg‘ular aro tembr variatsiyalari shaklida rivojlanadi. Kuy mavzusi orasida mis damlilar (trombon va tuba) partiyasida oktava sakrashli ohanglar mavjud bo‘lib, ular final kayfiyatini ifodalaydi va to asar yakuniga qadar mavzu orasida takrorlanib turadi. Ular karnay-surnay sadolariga o‘xshatma (immitatsiya) tarzda mis damlilar partiyasida kelib, xalq marosim va bayramlaridagi ko‘tarinkilikni aks ettiradi:



“Sust xotin” qo‘shig‘idagi ritmika va zarbli cholg‘ular partiyasidagi (kuchli xissaga) urg‘uli ostinatali ritm jurligida “Qarinavo” kuyi ohangi ijrosida yuqori dinamikadagi tutti bilan “Yurtim navolari” simfonik tasvirlar o‘z nihoyasiga yetadi.

Sitora Narturaeva ushbu asarida O‘zbekistonning barcha vohalari xalq kuylaridan foydalanadi. “Yurtim navolari” syuitalarining so‘ngida barcha kuylar ritm va ohang elementlarini birlashtirgani – barchamiz bir xalq farzandlari ekanligimizning o‘ziga xos tasviri bo‘lib xizmat qiladi.

Kompozitorning O‘zbek kompozitorlik ijodiyotida xalq kuylaridan foydalanishi, ularni ritmik jihatdan boyitib, simfonik orkestr va boshqa cholg‘ular ijrosida birlashtirgani quvonarli holatdir. O‘zbek xalqining bayramona kayfiyatini o‘zida mujassam etgan marosim qo‘shiqlarining kompozitorlar ijodida namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonamiz kompozitorlik ijodiga qo‘shayotgan xissalari, qolaversa, xalqimizning boy milliy an’analari hamda ulkan merosini qadrlagan holda asarlarida tarannum etgan yosh ijodkorlar safi kengayishiga tilakdoshmiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek xalq musiqasi. II jild. To‘plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy. –Toshkent, “O‘zbek davlat badiiy adabiyoti”, 1957.
2. O‘zbek xalq musiqasi. VIII jild. To‘plovchi va notaga oluvchi A.Halimov. – Toshkent, “O‘zbek davlat badiiy adabiyoti”, 1959.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



BEKMURODOVA ZAXRO SARVAROVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (DSc), professor (v.b.),
Tursunova G.A.

O‘ZBEKISTON MUSIQA SAN’ATI RIVOJIDA OLIMALARNING O‘RNI

(musiqashunos Orzu Azimova ilmiy ijodiy faoliyati misolida)

Annotatsiya: Maqola san’atshunoslik fanlari doktori, musiqashunos, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, O‘zbekiston davlat Konservatoriyasining “Musiqa nazariyasi” kafedrasi professori Orzu Nishonovna Azimovaning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Mamlakatimizda tanilgan yirik musiqashunosning ilmiy-ijodiy, pedagogik faoliyati va targ‘ibotchilik ishlari haqida fikr yuritiladi. O.Azimovaning O‘zbekiston musiqa ilmi va ta’lim tizimi rivojiga qo‘shgan hissasi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Orzu Azimova, musiqashunos, ilmiy nashrlar, garmoniya, musiqiy oila, pedagogik faoliyat.

Annotation: The article is devoted to the creative work of Arzu Nishonovna Azimova, doctor of Arts, musicologist, master of the order of Labor fame, Professor of the Department of music theory of the State Conservatory of Uzbekistan. It discusses thought about the scientific and creative, pedagogical activity and propaganda work of the major musicologist known in our country. O.Azimova’s contribution to the development of the musical science and educational system of Uzbekistan is determined.

Key words: Orzu Azimova, musicologist, scientific publications, harmony, musical family, pedagogical activity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan oxirgi yillarda turli sohalarda olib borilayotgan islohotlari bugun o‘z samarasini

bermoqda. San’at sohasi jamiyatimizni ma’naviy poklanishida, ezgulik sari intilishida, barkamol yosh avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan o‘rta va Oliy musiqiy ta’lim maskanlarini qayta ta’mirdan o‘tkazish, zamon talabiga javob beruvchi yangi musiqiy jihozlar bilan ularni ta’minlash, san’at sohasida malakali kadrlarni tarbiyalash birinchi o‘ringa ko‘tarildi.[1] Bu borada sohaning ilmiy bazasini mustahkamlash, dunyo miqyosida ilmiy kashfiyotlar ochish, san’at borasida to‘planib qolgan va yoritilmagan muammolar yechimini topish san’atshunoslik (musiqashunoslik) sohasining dolzarb masalalari qatorida qayd etilmoqda. Bu vazifani Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, Oliy ta’lim muassasalari baholi qudrat amalga oshirilmoqda.

O‘zbek musiqashunosligi ilmida o‘z o‘rni, ilmiy izlanishlar bilan birga malakali musiqiy kadrlarni voyaga yetkazayotgan O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi bu borada ilmiy salohiyati bilan ko‘p yillar davomida e’tiborga tushgan.

Ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan ijodkorlar orasida san’atning turli yo‘nalishlarida o‘z ilmini targ‘ib qilayotgan professor o‘qituvchilar bisyor. Shular qatorida o‘zining ko‘p yillik pedagogik — ilmiy faoliyati bilan madaniyatimiz rivojiga hissa qo‘shayotgan musiqashunos — olima, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, mazkur dargohning “Musiqa nazariyasi” kafedrasi professori Orzu Nishonovna Azimovaning faoliyati alohida e’tiborga molik.

Bugunda Orzu Azimova nomi mahalliy va xorijiy musiqa ilmi vakillari orasida tanilgan va o‘zining qat’iyatli ilmiy nuqtayi nazari, chuqur va keng tafakkuri bilan ajralib turadi.

Olimaning ilmiy — pedagogik bisotida: to‘rtta monografiya, ko‘plab maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar o‘rin olgan. Muallif tomonidan yaratilgan har bir nashr musiqashunoslik nazariyasi, tarixi va amaliyoti uchun muhim. Ko‘plab abiturentlar qatori men ham o‘z vaqtida Orzu Azimovaning musiqashunoslik sohasining murakkab fani bo‘lmish “Garmoniya” bo‘yicha saboq oldim. Ushbu darslikda olimaning ilmiy izlanishlari bo‘yicha to‘plagan bilim va malakali tajribasi, garmoniya fanini o‘zlashtirishda metodologik (uslubiy) yondashuvi o‘z aksini topdi. O‘zbek tilida nashr yuzini ko‘rgan birinchi musiqiy adabiyotlardan biridir. Albatta, musiqashunosning bisotini yoritar ekanmiz bunga poydevor bo‘lgan va musiqashunos sifatida cho‘qqilarni zabt etishga sabab bo‘lgan faoliyati va hayot yo‘lini yoritish lozim.

Orzu Azimova 1948-yil 28-avgustda Toshkentda ziyolilar oilasida tavallud topdi. Otalari - Rahimov Nishon Rahimovich — poytaxtning Endokrinologiya ilmiy-tadqiqot institutida professori bo‘lib, ushbu klinikaga rahbarlik qilgan. Onalari — Dehqonxo‘jayeva Nazima Abdullayevna — Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi akademigi, professor va Mikologiya markazining direktori lavozimida ko‘p yillar davomida faoliyat olib bordi. Ilm sohasi vakillari oilasida dunyo kelgan ijodkor tabiiyki oila qadriyatlaridan uzoqlashmay san’at sohasining ilmiy izlanishlarini o‘zida aks etgan musiqashunoslikni kasb sifatida tanladi. [4]

Yoshlik chog‘laridayoq musiqaga ixlosi baland bo‘lgan O.Azimova madaniyat sohasida ro‘y berayotgan hodisalarga katta qiziqishini namoyon etdi: turli teatrdagi tamosha va spektakllari, Respublika va xorijdan kelgan san’at namoyondalarining konsert dasturlarini doimiy mehmoniga aylandi.

Uning professional musiqa san’atidagi birinchi qadami mamlakatimiz va xorijda tanilgan V.A.Uspenskiy nomidagi musiqa maktabida saboq olishdan boshlandi. U yerda fortepiano sinfida o‘qishni boshlaydi. Vaqt o‘tib tahlillarga va chuqurlashgan fikr — mulohazalarga qobiliyatini namoyon etgan maktab o‘quvchisi musiqa nazariyasi, garmoniya, solfedjio, musiqa adabiyoti kabi darslarga alohida mehr qo‘yadi. Maktabni tamomlagach 1967-yilda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat Konservatoriyasining musiqashunoslik bo‘limiga muvaffaqiyatli qabul qilindi. Konservatoriyada ta’lim olgan kezlari ilmiy nazariy bilimlarni kengaytirish borasida faollik ko‘rsatadi. Shu yillari o‘qish bilan birga mehnat faoliyatini ham boshlaydi. Avval xalq filarmoniyasida nazariy fanlar bo‘yicha saboq beradi, so‘ngra esa o‘z ta’lim maskani — V.A.Uspenskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa maktabda to‘rt yil davomida pedagogik faoliyatini davom ettiradi. U yerda musiqiy — nazariy fanlar — garmoniya va solfedjiodan dars beradi.

Konservatoriyaning talabalik davrida taniqli va malakali ustozlar qo’lida saboq oldi. Birinchi ustozlari san’atshunoslik fanlari doktori, professor Sabina Arturovna Zakrjevskiya keyinchalik aspiranturada ta’lim olgan vaqtida ham ilmiy ishlarida rahbarlik qildi.

San’atshunoslik fanlar nomzodi dissertatsiya mavzusi ashula shaklining tuzulmaviy masalalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan bo‘lsa (“Muzыkalnaya forma ashula (strukturnotipologicheskiy analiz)”) bo‘lsa (1980) doktorlik ilmiy ishi “Sharq monodiyasining sintaksis masalalari”ga bag‘ishlandi va muvaffaqiyatli himoya qilindi (2002). Konservatoriyada faoliyatini davom ettirgan davrda ilmiy izlanishlar olima-pedagogning qalamiga mansub o‘quv adabiyotlarida keng yoritildi.

Xususan, birinchi bo‘lib o‘zbek tilida “Garmoniya. Nazariy kurs” (1999); “Garmoniya” 2-nashr (2004); “Garmoniya” 3-nashr (2017) musiqashunos shogird Sh.Ibragimova bilan hammualliflikda “Zamonaviy garmoniya” (2015); “Garmoniya 1-kurs” (2018), “Garmoniya 2-kurs” (2021) o‘quv qo‘llanmalari2; M.Ro‘zmettova bilan hammualliflikda “Garmoniya fani tushunchalarining izohli lug‘ati” (2000), “Zamonaviy garmoniya. O‘zbekiston kompozitorlari ijodida akkordlar tarkibi” (2015) kabi o‘quv qo‘llanmalarida yoritildi. Litsey va kolledjlar, Oliy ta’lim musiqa dargohlarida o‘quv rejaga kiritilgan garmoniya fani “Garmoniya” 2-nashr darsligida lad, modulyatsiya, tonalliklar, akkord, ovoz yo‘nalishlari haqida keng bilimlar olish va ularni mustahkamlashda muhim poydevor beruvchi nashrga aylandi. [3]

Muallifning “Zamonaviy garmoniya” o‘quv qo‘llanmasi esa kompozitorlik ijodiyotida zamonaviy garmoniya masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. [2] Bu qo‘llanma musiqiy ta’lim yo‘nalishining magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib zamonaviy kompozitorlik ijodiyotini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Orzu Azimova garmoniya darsliklaridan tashqari yana bir qator kitoblar muallifidir. Shuni aytish lozimki musiqashunos olimaning ishlari sharq, jumladan o‘zbek musiqa san’atining serqqira janr va shakllari, lad tizimi, tuzulmaviy masalalari bilan bog‘liq va muhimi kam o‘rganilgan masalalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan. Ijodkorning ilmiy mehnati orqali ko‘plab musiqiy asarlar, maqomlar, sharq monodiyasining nozik sirlari ochib berildi. Bu borada

san’atshunoslik fanlari doktori, professor Orzu Azimova O‘zbekiston va butkul sharq ilm-fan va san’atga qo‘shgan hissasi ulkan.

Pedagog sifatida ularning guruhli, yakka va mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olib tarbiyalangan bir qator bakalavr, magistr, fan doktorlari (PhD) xorij va mamlakatimizning turli vohalarida samarali faoliyatlarini olib borib, bergan bilimlari uchun qalblarida chuqur hurmat va minnatdorlik hissi bilan tilga oladilar. Ziyoli, yuqori madaniyati pedagog va hamkasb sifatida e’tiborni tortadi.

Albatta, har bir ayolning muvaffaqiyati uning oilasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu borada ijodkorning turmush o‘rtog‘i har doim ularning oldida yelkadosh bo‘ldi. Eldor Azimov — O‘zbekiston xalq artisti, taniqli dirijyor, “Turkiston” kamer orkestrining badiiy rahbaridir. “Ular mening sadoqatli do‘stim va hamfikrim, eng qat’y tanqidchim” deya ta’kidlaydi ular haqida O.Azimova.

Olima ikki qizning onasi. Qizlar ota-onasining yo‘lini tanlashmagan. Biroq, opa-singillar ham ota-onalariga o‘xshab hech qachon ilm olishdan to‘xtashmadi, doimo oldinga talpinaverishdi. Musiqashunos O.Matyoqubov ham bu go‘zal oila haqida shunday ta’rif bergan: “Bu oilaning faoliyati doimiy ijodiy izlanishlar va san’at sohasida yangi kashfiyotlarga intilish bilan tavsiflanadi.” ”[1,45] (tarjima bizniki-B.Z)

“Ona” degan tushuncha faqat o‘zining farzandlariga taalluqli emas. Ijodkor ikki qizini qanday yaxshi ko‘rsa, g‘amxo‘rlik qilsa, o‘zining konservatoriya, san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutidagi talabalarini ham shunchalik ardog‘laydi. Mirtolipova Iroda, Kutluchurina Alina, Berdixanova Shoxista, Shokirjonov Gulsumoy, Muxsinova Nigora, kabi yosh olimlar va pedagoglar ularni sinflarida ta’lim olganlar. “O‘z kasbiga sadoqat bilan yondashadigan ustoz, bir oilaning oqila bekasi, farzandlarining dono maslahatgo‘yi, nabiralarining mehribon buvisi Orzu Azimova singari ayollardan faollik, fidoiylik bobida o‘rnak olsa arziydi” deb ta’riflaydi Konservatoriyaning “Musiqa nazariyasi” kafedrasining mudiri, ustoz shogirdi Mirtalipova Iroda.

Musiqashunos haqida ularning talabalari, yaqin insonlari, hamkasblari, taniqli ilm va san’at ahli namoyondalari o‘zlarini ularga bag‘ishlangan maqolalarida, turli chiqish va intervyularida ta’riflar berishgan. Bu borada “Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi professori, musiqashunos, musiqiy-jamoa arbobi Gulzarova Inessa Sergeyevna musiqashunos olimaning faoliyatiga bag‘ishlab yozgan monografiyalari va maqolalari bu ajoyib va yorqin ijodkorning cheksiz faoliyatini batafsil yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son qarori.

2. Azimova O. Zamonaviy garmoniya (O’zbekiston kompozitorlari ijodiyotida akkordlar tarkibi) [o’quv qo’llanma]-Toshkent: “Musiqa” , 2015.b-120.

3. Azimova O. Garmoniya.Nazariy kurs [Дарслик]- Тошкент : “ Qodiriy nomidagi zalq merosi nashri”, 2004. b - 192.

4. Гульзарова И. «Орзу Азимова ─ Либретто жизни « [Монография] - Ташкент: “ Asian book house”, 2023.b - 200 .

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



ERMATJONOVA JASMINA
JAHONGIR QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Akademik xor dirijorligi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor,
Ganiyeva I.A.

JUMAYEVA LYUBOV XABIBOVNANING XOR DIRIJORLIGI SAN’ATIDAGI MAVQEYI

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston davlat konservatoriyasi xor dirijorligi kafedrasi professori, musiqiy-jamoat arbobi, O‘zbekiston xor san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor, bir qancha talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini beminnat ulashib kelayotgan fidoiy ustoz- Jumayeva Lyubov Xabibovnaning hayoti va ijod yo‘liga bag`ishlangan.

Kalit so‘zlar: xor, dirijor, ijodkor, mutaxasis, konsert, festival, xormeyster, teatr, orkestr.

Аннотация: Данная статья раскрьвает жизненный и творческий путь профессора ГКУ Джумаевой Любовь Хабибовны- музыканта, общественного деятеля, внесшего большой вклад в развитие хорового искусства Узбекистана. Самоотверженного педагога, передающего свои знания и навоки студентам хорового кофедри дириживания.

Ключевые слова: хор, дирижер, творец, специалист, концерт, фестиваль, хормейстер, театр, оркестр.

Davlatimiz o‘zining yuksalish, taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, o‘tgan davr mobaynida barcha jabhalarda ko‘plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Hukumatimiz tomonidan har bir sohaga berilayotgan e’tibor yurtimizni buyuk kelajak sari olg’a yurishiga asos bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalar yanada yuksalmoqda. Barcha sohalar qatorida madaniyat va san’at sohasiga berilayotgan e’tibor ham yurtimiz ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Ayniqsa, bu borada yoshlarimizni dunyo miqyosiga chiqayotgani, albatta quvonarli hol. Shu bilan birga yurtimizda yoshlar ishtirokida tashkil

etilayotgan festival, konsertlar taqsinlarga loyiq. Davlatimiz rahbari milliy san'atimiz bilan bir qatorda akademik yo'nalishdagi san'at turlariga ham katta e'tibor qaratmoqda, shu jumladan xor san'ati bundan mustasno emas. Xor san'atiga berilayotgan e'tibor natijasida yuksalib kelayotgan mahoratli xor jamoalari bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Zero, san'at qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar insoniyatning ma'naviy ozuqasi hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli kitobida quydagi fikrlar bildirilgan: "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi...[6]".

Ilk marotaba "Xor dirijorligi" kafedrasi 1943-1944-yillarda o'z faoliyatini boshladi. 50-yillar oxiridayoq, xor jamoalari va musiqiy o'quv yurtlarini professional kadrlar bilan ta'minladi. 1955-1976-yillarda kafedrani B.Umidjanov, N.Qoziyev, A.Xakimova, L.Jumayeva, B.Shomahmudova, N.Sharafiyeva, N.Baxritdinova kabi bitiruvchilar tamomlab, kafedrada o'qituvchi sifatida ish boshladilar. Bulardan Jumayeva Lyubov Xabibovna hozirgi kunga qadar kafedrada fidokorona faoliyat yuritib kelmoqdalar.[7]

Mazkur maqola Professor Jumayeva Lyubov Xabibovnaning hayoti va sermahsul ijodini yoritishga bag`ishlangan.

Xor dirijorligi kafedrasi Professori, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi talabalar xorining rahbari Jumayeva Lyubov Xabibovna 1947-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Dastlab u Samarqand Shahar musiqa maktabida o'qib, uni Uspenskiy nomli maxsus musiqa bilim yurtida davom ettirdi. Undan so'ng esa Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent konservatoriyani a'lo baholarga (dotsent Kolnitskaya sinfida) tamomladi va hozirgi kunga qadar o'z faoliyatlarini davom ettirib kelmoqdalar. Faoliyatlari davomida 70 dan ortiq talabalar Konservatoriyani Lyubov Xabibovnaning sinfida tamomladilar. Bulardan , Xalqaro yosh xormeysterlar lauriyatlari Fayzulla Quldashev va Aleksandra Latipova-Zaharova, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi prorektori, DSO xori rahbari Yulduz Husnitdinova, "Akademik xor dirijorligi" kafedrasi mudiri, professor, Talabalar Xori va O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Musiqiy teatr studiyasi xori rahbari Sevara Kadirova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi TDPI dotsenti Ibrohim Ro'ziyev, O'zbekiston Davlat xori xormeysterlari Lyubov Petlina va Dilafruz Musaboyeva, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi dotsenti Barno Shaxnazarova va o'qituvchi Gavxar Xaydarovalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. "O'zbek xor musiqasi tarixidan", "O'zbek xor musiqasi", "O'zbek xor adabiyoti U ijodiy faoliyati davomida xrestomatiyasi"," Xor bilan ishlash mahorati" kabi mualliflik asarlari va "Vokal va xor ijrochiligi tarixi", "Xor sinfi va kamer xor" "O'zbek xor adabiyoti" "O'zbek xor musiqasi", o'quv qo'llanmalarini hammualliflikda nashr ettirdi. Yana bundan tashqari musiqa oliy o'quv yurtlari uchun o'zbek

[6] Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T. ; 2008, 29-bet

[7] Kadirova.S.P. Xorshunoslik T.2019, 8-bet

xoriga oid adabiyotlar bo‘yicha xor sinfi va mutaxassisligi bo‘yicha dastur tayyorladi[8].

L. Jumayeva 1988- yildan boshlab to hozirgi kunga qadar talabalar xorining rahbaridir. Uning rahbarligi ostida talabalar xori, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri jo‘rligida Shubertning “ Nemis messasi”, I.S.Baxning “ Rojdestvo” oratoriyasi va “Ioanndan iztiroblar”, J.Gaydnning “Dunyoning yaratilishi” oratoriyasi, Betxoven “9-simfoniyasi” finali, Gendel “Messiya” kabi bir qator asarlarni mahorat bilan ijro etishdi. Germaniya, AQSH. Fransiya va Isroil elchixonalari ko‘magida turli xil xalqaro loyihalar o‘tkazishga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Jahon xor musiqasidagi yirik asarlarning o‘zlashtirilishi talabalar xorining professionallik darajasining oshirilishiga sabab bo‘ldi. Vokal-xor masalalari bilan bir qatorda matinning o‘zlashtirilishiga ham katta e’tibor qaratildi. Barcha asarlar asl tilda ijro qilindi. Bundan tashqari talabalar xori tomonidan milliy kompazitorlar asarlarining ijrosiga guvoh bolishimiz mumkin.. M.Bafoyevning “Bahoriya”, “Freskiy”, R.Abdullayevning “Faryod”, D.Omonullayevaning “Xor simfoniyasi” kabi asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin[9].

L.Jumayeva faolligi, qat’iyatliligi sababli uzoq yillar davomida boshqaruv ishlarini olib bordi. Jumladan: O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi ilmiy kengash a’zosi, ekspert kengash raisi, “Vokal-xor fakulteti” dekani, “Malaka oshirish” fakulteti dekani va kafedra mudiri sifatida faoliyat olib bordi.

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi “Xalq cholg’ulari” kafedrasi professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Abduraximova Feruza Ravshanovna L.Jumayevaga shunday ta’rif bergan: Lyubov Xabibovna har qanday sharoitda ham o‘z kasbiga muhabbat, sadoqatni saqlab qolish va uni yosh avlodga yetkazib berish istagi, O‘zbekiston musiqa madaniyati rivojlanishining g’oyaviy pozitsiyalarini himoya qilishdagi yuqori odob-ahloqni nomoyon etishi chuqur hurmat hissini uyg’otadi, L.Xabibovna o‘zida yuqori profissionallik va ijodiy faollikni mohirona uyg’unlashtirgan oliy toifadagi pedagogdir”.[10]

U faoliyati davomida talabalar bilan ishlashning yangi usullarini qo‘llagan. Turli xil xor musiqa festivallar tashkil etgan va unda faqatgina tashkilotchi bo‘li qolmay, dirijor sifatida ham o‘zini namoyon etdi. Lyubov Xabibovna pedagogik faoliyati davomida talabaning ijodiy rivojlanishi va musiqiy ijrochilik mahoratini oshirishni asosiy deb hisoblaydi.

Ustoz bilan olib borgan suhbatimiz davomida ”O‘qituvchi talabaga har tomonlama o‘rnak bo‘lishi: odob-axloq, insoniylik, bilim, tajriba, va bir san’atkor shaxs sifatida” deya ta’kidladilar. Zero talaba yetuk kadr sifatida shakillanishi lozimdir. Jumayeva sinfidagi mashhulotlar davomida talaba bilan ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Ya’ni talabalar oldiga qo‘yiladigan asosoiy vazifa bu ijroni boshqarish.Talaba sinfda egallagan

[8] Shamaxmudova B. Xor lug’ati. T.; 2009-yil

[9] Jumayeva L. Xor bilan ishlash mahorati. T.; 2023-yil.

[10]Kadirova S.P. ”O`zbekiston Davlat Konservatoriyasi Akademik xor dirijorligi kafedrasining 80 yilligiga Monografik ocherklar (xotiralar, faktlar, hodisalar)” T.; 2025

bilimlarini amalda qo‘llashi kerak, chunki amaliyot o‘zlashtirilgan bilimlarni sinash vositasidir. Bu jihatdan Lyubov Xabibovnaning tajribasi bebahodir.[11]

2005-yil jurnalist Muhtabar Karimova tomonidan tayyorlanib, nashr ettirilgan “ Ayol yaratgan dunyo” nomli kitobda qahramonimiz Jumayevaga shunday ta’rif beriladi: “ Lyubatxonim mana 26 yildirki, Vokal-xor fakultetining dekanidir.Bilsangiz dekanlik juda og`ir vazifa. O‘z sohasining kuchli bilimdoni bo‘lgani uchun ham, har bir talaba va pedagog bilan umumiy til topa olgani, ularga mehrli bo‘lgani uchun ham bu ma’sul ishni uddalab kelmoqda bizning Lyubat Jumayeva! [12]”.

Darhaqiqat, Lyubov Xabibovna o‘z kasbida kuchli va professional bo‘lgan ayol ijodkoridir. U umrini Xor san’ati va Xor dirijorligi kafedrasi rivoji, yetuk mutaxasis-kadrlar tayyorlovi uchun bag`ishlagan. Xor san’ati rivoji yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib, ko‘plab talabalar hamkasblar hurmat-ehtiromiga va qolaversa O‘zbekiston hukumati Faxriy yorlig`i, “O‘zbekiston mustaqilligining 15 yilligi”, “O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi” yubiley medali va 2023-yil “Do‘stlik” ordeni kabilar bilan taqdirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Karimov I. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch T. ; 2008, 29-bet
2.Shamaxmudova B. Xor lug’ati. T.; 2009-yil
3.Kadirova S. Xorshunoslik. T;. 2019-yil. 8-bet
4.Husnitdinova Y. Xor dirijyorligi. T.; 2016-yil 3-bet
5.Jumayeva L. Xor bilan ishlash mahorati. T.; 2023-yil. 4-bet
6.Karimova M. Ayol yaratgan dunyo. T.; 2005-yil, 46-47-betlar
7.Kadirova S. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Akademik xor dirijorligi kafedrasi 80 yilligiga Monografik ocherklar

[11] Kadirova S.P. ”O`zbekiston Davlat Konservatoriyasi Akademik xor dirijorligi kafedrasining 80 yilligiga Monografik ocherklar (xotiralar, faktlar, hodisalar)” T.; 2025

[12] Karimova M .“ Ayol yaratgan dunyo” T.; 2005, 46-47 bet.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



FAXRIDINOVA DILBAR LAZIZOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish’’
kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: professor,
Tursunova (Hasanova) X.A.

AYOL – SAN’AT VA ILM-FANNING ILHOM MANBAI VA MEROS YARATUVCHISI

(oddiy kompozitor qizning hayot-ijod sahifalarida ijodkor Feruza Muxamedova…)

“Ish, o‘qish, oilani uyg‘unlashtirayotgan ayollar - zamonamizning haqiqiy qahramonlaridir”.
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda ijodkor ayollarni qo‘llab-quvvatlashning dolzarbligi, hamda O‘zbekistonning iste’dodli pianinochisi, O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, dotsent, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Feruza Nurmaxmatovna Muxamedovaning ilmiy-ijodiy faoliyati va uning O‘zbekiston fortepiano san’ati rivojiga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Uning ijodida O‘zbekiston kompozitorlarining fortepiano asarlarini yuksak badiiy mahorat bilan talqin etish, ularning xalqaro sahnalarda tanilishiga xizmat qilish muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: Feruza Muxamedova Nurmaxmatovna, O‘zbekiston fortepiano san’ati, ilmiy-ijodiy faoliyat, sahna madaniyati, milliy musiqa.

Аннотация: В данной статье рассматривается, важность поддержки творчества женщин в современном мире, а также анализируется научно-творческая деятельность талантливой узбекской пианистки, проректора по науке и инновациям Института национального эстрадного искусства имени

Б.Закирова при ГКУз, доцента, доктора философии (PhD) по искусствоведению Ферузы Мухамедовой Нурмахматовны и её вклад в развитие фортепианного искусства Узбекистана. В её творчестве важное место занимает высокохудожественная интерпретация фортепианных произведений узбекских композиторов и их популяризация на международной сцене.

Ключевые слова: Феруза Мухамедова Нурмахматовна, фортепианное искусство Узбекистана, научно-творческая деятельность, сценическая культура, национальная музыка.

Ayol… Yaratganning mo‘jizasi, borliqning go‘zal musavviri, olamning nafis nuri, ilhomning tug‘ilishi, go‘zallikning dunyoga kelishidir. Uning ovozi she’rlarda yangraydi, qo‘li tasvirlarda jonlanadi, qalbi kuy va musiqaga aylanadi. Ayol ijodkor bo‘lsa, u san’atga o‘ziga xos noziklik, ehtiros va samimiyat baxsh etadi. U hayotning ilhomi, go‘zallikning yaratuvchisi, ijodning cheksiz manbai.

Shak-shubhasiz, san’at va ilm-fan tarixida ayollarning o‘rni beqiyos. Ular nafaqat ijodkor, balki ilhom manbai, madaniy merosni asrab-avaylovchi va kelajak avlodni tarbiyalovchi shaxslardir. Bugungi kunda, ayollar san’at va ilm-fanda yangi cho‘qqilarni zabt etayotgani ko‘pchilikka ayon. Biroq, ularning ijodiy va ilmiy ishlari yetarlicha e’tibor topmayotgan holatlar ham uchraydi. Zamonamizning muhim masalalaridan biri shundaki, ko‘plab davlatlarda, jumladan, mamlakatimizda ham ayol kompozitorlar, rassomlar, shoira va yozuvchilar, musiqashunos-olimalar, ijrochilar, dirijorlar, xonandalar, hamda, raqqosalar o‘z iste’dodlarini jamiyat tan olishi uchun, tom ma’noda kurashishga majburlar. Albatta ularning ijodi ilhom baxsh etuvchi, nodir san’at asarlaridan iborat bo‘lishi mumkin, lekin qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, moliyaviy imkoniyatlarning kamligi yoki jamiyat tomonidan yetarli e’tibor berilmasligi, ularga o‘zlarini to‘liq namoyon qilishga to‘sqinlik qilishi tabiiy. Shu maqsadda, biz bugun birlashib jamiyatimizda san’atda o‘z o‘rni va mavqeiga ega, yurtimiz madaniyatiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shib kelayotgan ayollar haqida baralla gapiramiz. Ularning ijodiy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shamiz. Biz ayollarning san’atdagi yutuqlarini faqat tan olishni emas, balki ularning ijodi hurmat qilinishi, tanilishi va qo‘llab-quvvatlanishini maqsad qilamiz. Kelajak avlodlar ularning ibratidan ruhlanishini, erkin ijod qilishni orzu qilgan har bir ayol o‘z ovozi muhimligini, san’ati qimmatligini va madaniyatga qo‘shayotgan hissasi tarixda qolishini bilsin, deb istaymiz. Zero, san’atda ayolning o‘rni faqat tarix emas, balki jonli energiya, ilhom va kuchdir.

Nima sababdan ijodkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash shu darajada muhim? Men bu savolga, oddiygina bir kompozitor qiz sifatida hayotim va ijodimning ma’lum sahifalarida samimiy va ezgu insoniy fazilatlarga ega ijodkor-inson, mohir pianinochi Feruza Muxamedova siymosi, aniq va ravshan javob bo‘la olishini lozim deb topdim.

Ba’zan har bir ijodkorda shunday pallalar bo‘ladiki, ma’lum muddat ijodiy inqiroz yuzaga keladi, go‘yoki ilhom tark etganday tuyuladi, hech narsa qilishni xohlamaydigan holatga uchraydi. Lekin, men Feruza Muxamedovaning oldilariga borib, shunchaki suhbatlashishim bilan barcha narsa o‘zgaradi. Uning energiyasi, ichki kuchi meni go‘yoki uyg‘otadi. Ichimda kuchli turtkidek bir tuyg‘u paydo bo‘ladi – sergaklik, harakat qilish, ijodga qaytish, oldinga intilish istagi. Balki bu ijodkor shaxs chindan ham ilhom manbaidirki, men uning yonida o‘zimda yangi kuch topaman. Bu ijodkor kim? Nega aynan u men uchun ilhom manbai? Albatta bu kabi savollarga javobni shu yerda yozib qoldirmasam bo‘lmas. Zero, uning ko‘p yillik tinimsiz mehnatlari va bugungi kundagi energiyaga to‘la serqirra faoliyati atrofimizdagilar uchun haqiqiy ihom manbai bo‘lsin.

Biz F.Muxamedova bilan birga ko‘p kontsert dasturlarida, konferentsiyalarda, xalqaro loyihalarda ishtirok etdik. Shu kungacha ko‘plab kontsertlarda meni asarlarimni ijro etib kelmoqdalar. Bu insonning kamtarligi, keng dunyoqarashi, kasbiga muhabbati, erishgan va erishib kelayotgan yutuqlari, mehribon ona ekanligi, parallel ravishda ham ijod, ham pedagogika, ham ilm bilan mashg‘ulligi, eng asosiysi, barchaga birdek samimiyligi, do‘stonaligi va yuzidagi doimiy kulgusi, meni, “Axir qanday qilib hayotda bir vaqtning o‘zida inson shuncha rollarni ijro etishi mumkin?”, Bu uchun insonda qanday metin iroda bo‘lishi kerak?” kabi savollar doim diqqat markazimda. Shu bois, fursat izlab F.Muxamedova bilan yuzlanishga qaror qildim va bu safargi u bilan suhbatim har doimgidanda noodatiy, meni qiziqtirgan savollarga javob olishimdan iborat bo‘ldi. Quyida F.Muxamedovadan shunchaki bilishni istaganlarimdan parcha...

“Musiqachilar oilasida dunyoga keldim. Ota-onam singlim ikkimizni musiqa maktabiga berishdi. Yoshligimdan musiqa bilan shug‘ullanishimga qaramasdan, shu qadar gumanitar fanlarga qiziqar edimki, kelajakda filolog bo‘lish yoki “YUNESKO”, “BMT” kabi tashkilotlarda ishlash orzuim bor edi. 12 yoshimda Italiyada bo‘lib o‘tgan tanlovdagi ilk muvaffaqiyatli ishtirokim, meni musiqa olamiga astoydil kirib kelishimga tom ma’noda sababchi bo‘ldi. V.Uspenskiy nomli maktabdagi ustozlarim menga musiqa olamini tobora kengroq ochib borardi. Konservatoriya huzuridagi litseyda o‘tgan yillarim, ustozlarimdan olgan bilimlarim, do‘stlarim, tashrif buyurgan barcha kontsertlarim, sahnada ijro etgan har bir asarim bormi, xullas hamma-hammasi meni haqiqatdan ham ilhomlantirib, musiqa olamiga yanada chorladi. Oradan yillar ustozlarimdan bilim va ko‘nikmalar olish, yangiliklar o‘rganish, mashaqqatli, tinimsiz mehnat va uyqusiz tunlar bilan o‘tib borar, menda esa faqat va faqat oldinga shijoat bilan kasbimga bo‘lgan mehrim va harakatim ortib borardi... “.

Men F.Muxamedovani ilk uchratgan kun va aynan o‘sha lahzada ulardan menga kelib urilgan energiyaga boy to‘lqin, sahnada ijro uchun royal cholg‘usi tomon bosilgan har bir shaxdam qadamlari-yu, qaddi ravonligi, ijrodan so‘ng *“Qaniydi shu inson bilan bir oz bo‘lsada suhbat qursam edi”* istagim, kechagidek esimda.

Konservatoriyada talabalik yillarida ijrochilik va kontsertmeysterlik faoliyatini ham birdek olib borgan F.Muxamedova, keyinchalik magistratura, assistentura-stajirovka va doktoranturada muvaffaqiyatli tahsil oldi. Bugungi kunga kelib u o‘zining ko‘p yillik pedagogik, ilmiy-tadqiqot, kontsert-ijrochilik faoliyati, malakali va yetuk tashkilotchi, hamda rahbar sifatida O‘zbekiston san‘ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

F.Muxamedovaning ijodiy faoliyati, o‘ziga xos ifoda uslubi va yuqori darajadagi ijrochilik mahorati O‘zbekiston kompozitorlari yaratgan durdona asarlarni yurtimiz va jahon sahnalarida talqin qilish bilan ajralib turadi. Uning ijrochiligi milliy va jahon fortepiano an’analarining uyg‘unlashuvi bilan ajralib, har bir asarga o‘ziga xos nafislik va badiiy teranlik bag‘ishlaydi. U musiqiy asarlarning ichki tuzilishini aniq anglab, ularni ijro etishda did, his va texnik mukammallikni mujassamlashtiradi. Dotsent, kompozitor Jahongir Shukur bilan bo‘lgan suhbatlarimning birida, *“Nazarimda, Konservatoriyada ikki inson, hech qachon tinim bilmas, barcha bilan birdek samimiy va go‘zal qalb sohibalari, mohir pianinochilar Adiba Sharipova va Feruza Muxamedovalar, qachonki o‘zbek kompozitorlari, “Meni asarimni ijro etib bera olasizmi?”, deb oldilariga taklif bilan borishganida, biron marta ham ijrodan inkor etishmagan bo‘lsalar kerak”* deb ta’kidlagan edilar.

Feruza Muxamedova Nurmaxmatovna hozirgi kunda O`zbekiston davlat konservatoriyasi “Maxsus fortepiano” kafedrasi dotsenti, hamda, O`zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. F.Muxamedova 2013 yildan buyon o‘zining kontsert-ijrochilik faoliyati bilan barakali mehnat qilib kelayotgan ijodkorlardandir. U yakkaxon, jo‘rnavoz va ansambl ishtirokchisi sifatida ko‘plab Xalqaro va respublika tanlov-festivallarda, jumladan, Italiya, Gretsiya, Belgiya, Rossiya, Ozarbayjon, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda faol ishtroki bilan yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, F.Muxamedova turli yillarda taniqli dirijorlar A.Ergashev, E.Azimov, A.Raimjanov, K.Urinbayev, A.Shoxakimov, B.Xudoykulov, G‘.Abrarov, D.Mutalov rahbarligidagi orkestrlar bilan I.S.Bax, V.A.Motsart, F.Shopen, R.Shuman, S.Frank, A.Shnitke, K.Sen-Sans, M.Otajonov, M.Turajonov kabi kompozitorlarning fortepiano va orkestr uchun kontsertlarini ijro etgan. F.Muxamedova O‘zbekiston kompozitorlari fortepiano musiqasining targ‘ibotchisi bo‘lib, u R.Abdullayev, D.Omonullayeva, A.Mansurov, O.Abdullayeva, X.Hasanova, A.Zokirov, D.Zakirova kabi kompozitorlarning asarlarini ijro etib kelmoqda.

Doktoranturaga kirgan birinchi pianinochi-ijrochi sifatida ijod bilan parallel ravishda ilmiy faoliyatini olib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan F.Muxamedova, bu dovonni mashaqqatli mehnat, kuchli sabr, tirishqoqlik bilan, tanqidlar va cheklovlarga yuz tutmay oshib o‘tdi. Tun-u-kun qilgan tinimsiz va barakali mehnatlari, ilmiy rahbari san’atshunoslik fanlari doktori, professor T.B. G‘ofurbekovning unga bildirgan ishonchi va yaqinlarining qo‘llab-quvvatlashi

natijasida, F.Muxamedova 2020 yil “O‘zbekiston fortepiano musiqasining shakllanishi, janrlaring o‘ziga xosligi, interpretatsiya” mavzusidagi san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ko‘p yillar davomidagi mehnat faoliyatida O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligi san’atini rivojlantirish, pedagog sifatida yosh avlodni kasbiy musiqa san’ati bilan oshno qilish yuzasidan keng qamrovli pedagogik va kontsert ijrochiligi sohasida salmoqli yutuqlarga erishib kelmoqda. Uning rahbarligida o‘tkazilgan sinf kontsertlari bilan birga talabalar orasida o‘tkazilgan “H.Olimjonga bag‘ishlangan eng yaxshi vokal asari”, “H.Olimjon so‘ziga yozilgan qo‘shiqning eng yaxshi ijrosi” tanlovlari soha mutaxassislari va san’at muxlislari tomonidan yuqori baholangan.

U 2020 yildan O‘zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, “Musiqa”, “Eurasian music science journal”, 2022 yildan “Science and innovation” jurnallarida tahririyat a’zosi sifatida faoliyat yuritmoqda. F.Muxamedova 2020 yilda ZiyoForum Respublika ilm-fan va ta’limni rivojlantirish fondi tomonidan tashkil etilgan “100 ta yosh tadqiqodchilar” loyihasida ishtirok etib, bir qator tadbirlarda «O‘zbekiston fortepiano san’ati» mavzusidagi taqdimot-ma’ruzasi bilan ishtirok etgan.

F.Muxamedova o‘zining sahnaga bo‘lgan fidoiy munosabati bilan meni doim hayratga solib kelgan. Nimaga desangiz, har safar, Belgiyada bo‘lib o‘tgan loyihamizdan so‘ng, yurtimizga qaytishimiz bilanoq F.Muxamedovaning katta sahnaga chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib o‘tgan voqeani eslasam, bu yosh ayol-ijodkordagi qat’iyatlilik va ichi to‘la shijoatga lol qolaman.

“... Juda ham yaxshi eslayman, Belgiyaga borgan kunimizdanoq F.Muxamedova bo‘sh qoldim deguncha, mashg‘ulot xonasida fortepiano cholg‘usida shug‘ullanar, Belgiyadan yurtimizga qaytishimiz bilan “Ustoz-shogird” nomli konsert dasturida ijro etishi kerak bo‘lgan repertuarlarini birma-bir ijro etardi. Ba’zan men bir chekkada tinglardim ham. U insonni shu onda sahnaga loyiq ijrochi sifatida naqadar tirishqoqlik bilan harakat qilib, sahnaga munosib ijroni olib chiqish haqida qayg‘urayotganini his qilardim. O‘zbekistonga qaytayotib, Brussel aeroportida birdan royal cholg‘usiga ko‘zimiz tushdi. Hali parvozga yetarlicha vaqt borligi sabab, F.Muxamedova shu lahzada royal cholg‘usiga o‘tirdi-yu, Baxning D dur kontsertini ijro etishni boshladi. Men ikkilanmay bu onlarni saqlash uchun video tasmaga olishni boshladim. Parvoz juda ham og‘ir bo‘ldi, o‘zimizni biroz yomon his qildik. Parvozdan so‘ng hamma charchoq hissini tuygan, lanj ahvolda. Eng qizig‘i yurtimizga kelishimiz bilanoq, orada atiga 3-4 soat mizg‘ib olishga ulgurgan F.Muxamedovaning dirijor E.Azimov rahbarligidagi “Turkistion” kamer orkestri bilan repetitsiyasi bor edi. Ertasiga esa katta sahnada kontsert... Kontsert muvaffaqiyatli o‘tdi. Shu on kontsert zalida o‘tirar ekanman, parvozdan so‘ng kuchli charchoqni his qilganim,

hali ham tanamda charchoq hissi borligi uchun bu irodali ayolni hech qanday charchoqqa qaramasdan katta sahnaga chiqib ketganiga tan berdim!"

Hayot ham, ijod ham biz o‘ylaganchalik har doim ham oson emas. Lekin F.Muxamedova kabi insonlar borki, ularning energiyasi senga yuqadi va sen o‘zingda yangi kuch topasan. U meni har safar, *"Har bir qilayotgan ishimdan ijobiy tomonini topib, mehr berib qilaman. Maqsad qo‘yish, o‘ziga ishonish, qiyinchiliklarga e'tibor bermaslik va albatta, mehnat qilish eng muhimidir"* deb, meni ruhlantiradilar.

Bu yerda men o‘z hayot sahifamdan bir parchasini keltirdim xolos. Atrofimizga bir nazar tashlasak, qanchadan qancha insonlar borki, mana shunday energiyaga muhtoj. Niyat qilamanki, zero, har bir insonning hayotida mana shunday o‘zidan sof, go‘zal, hayrli va manfaatli energiya taratadigan insoni bo‘lishini. Fikrimning so‘ngida, Feruza Muxamedova meni hayot va ijod yo‘limda tom ma'noda ilhomlantira olayotgan ijodkor ayol deb xulosa qilsam, demak men juda ham baxtli inson ekanman. Xohlardimki, huddi shunday har bir ijodkor ayol keyingi avlodni mana shunday ruhlantira olsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mukhamedova F. Features of the performance of compositions by romantic composers (on the example of F. Liszt's creativity). Eurasian music science journal. 2020/2. https://uzjournals.edu.uz/ea _music. P. 112-120.
2. Мухамедова Ф. Фортепианное (органное) исполнительств о (Фортепианная музыка Узбекистана: формы и жанры). Ўқув қўлланма. ISBN 978-9943-8747-7-9 "Musiqa" nashriyoti, T., 2023.- 150 b.
3. Мухамедова Ф. К вопросу о специфике интерпретации мировой музыкальной классики в Узбекистане. "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1, issue 4, 2022. 201-207 p.
4. Мухамедова Ф. Исполнительские первопрочтения фортепианной музыки композиторов Узбекистана. "Актуальные вопросы узбекского музыкального искусства" сборник докладов Республиканской научно практической конференции. Т., 2020.– 145-151 с.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



GAIBOVA HABIBA
SODIQJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Maxsus fortepiano” kafedrasi
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, s.n.f.,
Islyamova D.R.

O‘ZBEKISTON MUSIQA SAN’ATI RIVOJILANISH KONTEKSTIDA SAYYORA GAFUROVANING FAOLIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli o‘zbek fortepiano ijrochisi, ko‘p yillik tajribaga ega ustoz va rahbar Sayyora Akmalovna Gafurovaning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Yillar davomida u o‘zining ko‘p tomonlama kasbiy faoliyati bilan dunyoning yetakchi saxnalarida O‘zbekiston san’atini targ‘ib qilib, yoshlarni ruhlantirib va ilxomlantirib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: san’at, musiqa, ayol, madaniyat, milliy an’analar, fortepiano ijrochiligi, pedagogika, tanlovlar, loyihalar.

Аннотация: Данная статья посвящена творческой деятельности выдающейся узбекской пианистки, педагога и руководителя с многолетним стажем – Сайеры Акмаловны Гафуровой. Вот уже на протяжении нескольких десятилетий своей многосторонней профессиональной деятельностью она пропагандирует искусство Узбекистана на ведущих мировых сценах, тем самым мотивирует и вдохновляет молодежь.

Ключевые слова: искусство, музыка, женщина, культура, национальные традиции, фортепианное исполнительство, педагогика, конкурсы, проекты.

Qadim zamonlardan beri ayollar go‘zallik, donolik va sabr-toqatni o‘zida mujassam etgan, an’analarni saqlash va madaniy merosni etkazishda muhim rol o‘ynagan. Ularning faoliyati barcha sohalarga ta’sir qiladi, lekin san’at rivojiga

qo‘shgan hissasi alohida o‘rin tutadi. Mustaqil O‘zbekistonda ular an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy tendentsiyalar bilan uyg’unlashtirib, jahon sahnasidagi mavqeimizni mustahkamlab, milliy madaniyatni yosh avlodga yetkazishda davom etmoqda.

Musiqa san’atining ana shunday yirik namoyandalaridan biri Sayyora Akmalovna Gafurova – O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, professor, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining fan va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori.

Sayyora Gafurova o‘zbek musiqa madaniyatining taniqli namoyandalari sulolasiga tegishli. Uning bobosi Qo‘qon shahrida mohir qo‘shiqchi sifatida tanilgan, uning oilasidagi ayollar ajoyib xonandalik qobiliyatlariga ega, onasi esa taniqli fortepiano ijrochisi, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonning xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Ofeliya Yunusovna Yusupova.

Sayyora Gafurova V. Uspenskiy nomidagi RIMMni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi T. Popovich va professor G. Kalmikova sinflarida a’lo baholar bilan bitirgan. Maktab o‘quvchisi bo‘lganida, O‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida Respublika tanlovining laureati bo‘ldi. Toshkent konservatoriyasida o‘qigan yillarida (professor A. Gekkelman sinfida, aspiranturada professor O. Yusupova sinfida) yosh ijrochi Bishkek (Qirg’iziston), Lids (Angliya), Marsala (Italiya), Kantu (Italiya), Enne (Italiya) Parij (Fransiya) shaharlarida bo‘lib o‘tadigan nufuzli xalqaro tanlovlar g‘olibasi bo‘ldi.

Sayyora Gafurova 10 yoshida birinchi marta katta saxnaga chiqib qirq yildan ortiq yakkaxon sifatida ijro etib kelmoqda va O‘zbekistonning yetakchi fortepiano ijrochilaridan biri hisoblanadi. Ijrochining keng repertuari turli janr va shakldagi asarlardan iborat. Jumladan, yigirmadan ortiq fortepiano va orkestr uchun konsertlarini o‘z ichiga oladi, ular orasida I.S. Bax, Y. Gaydn, V. Motsart, L.Betxoven, F.Shopen, Y.Brams, P.Chaikovskiy, S.Rahmaninov, R.Abdullayev, X.Rahimov konsertlari.

Sayyora Gafurova O‘zbekistonda jahon fortepiano repertuarining bir qator durdonalarining birinchi ijrochisi, ular orasida I.S. Baxning №2 klavir va orkestr uchun BWV 1053 konserti (E-dur) va №4 Bwv 1055 konserti (A-dur), F.E. Baxning klavir uchun konserti, L. Betxovenning «Yo‘qotilgan pul uchun g’azab» Rondo g-moll op.129 (F. Yanov-Yanovskiyning fortepiano va orkestr uchun versiyasi), F.Shopenning Andante Spianato va katta polonezi (fortepiano va orkestr uchun muallifning versiyasi), P.Chaikovskiyning №2 fortepiano va orkestr uchun G-dur op.44 konserti.

Keng konsert repertuariga ega bo‘lgan Sayyora Akmalovna nafaqat O‘zbekistonda, balki MDH mamlakatlarida (Rossiya, Belarus, Qozog’iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg’iziston) va xorijda (Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Isroil) yakka va ansambl konsertlari, shuningdek simfonik va kamer orkestrlari bilan doimiy ravishda konsert dasturlarini ijro etadi.

Sayyora Gafurova bir necha bor O‘zbekistonning ko‘plab taniqli dirijyorlari – Z.Xaknazarov, K.Usmonov, G.Tulyaganov, A.Ergashev, E. Azimov, V.Medylyanov, A. Raimjanov, K. Urinbayev, A.Shohakimov, shuningdek, Germaniya dirijyori – Y.Bartoldi, Buyuk Britaniya – G.Konevey, Belorussiya – A. Anisimov, Rossiya – D.Xokhlov, M.Golikov, V.Dulat-Aleyev, Italiya – G. Kolloyani, Fransiya – Natali Maren.

2022-yil 9-iyun kuni O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining katta zalida O‘zbekiston Respublikasi Xalq artisti, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi rektori Kamoliddin Urinbayev boshchiligidagi davlat simfonik orkestri bilan Sayyora Gafurova Rimskiy-Korsakov nomidagi Sankt-Peterburg davlat konservatoriyasining rektori, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan artist A. Vasiliev va YUNESKO artisti, Qozog’iston Xalq artisti A. Musaxodjayevalar bilan birgalashib L. Betxovenning fortepiano, skripka, violonchel va orkestr uchun op. 56 C-Dur konsertini O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining 85-yilligiga bag‘ishlangan konsertda ijro etishti. 2023-yil 14-yanvarda Sayyora Gafurova P. Chaykovskiy nomidagi Moskva davlat konservatoriyasining katta zalida Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan artist A. Trostyanskiy (skripka) va Rimskiy-Korsakov nomidagi Sankt-Peterburg davlat konservatoriyasining rektori, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan artist A. Vasiliev (violonchel) bilan Moskva davlat simfonik orkestri hamrohligida dirijyor M. Golikov boshchiligida shu konsertni ijro etishti. Ularning N. Jiganov nomidagi Qozon konservatoriyasi rektori V. Dulat-Aleyev bilan ijodiy aloqasi natijasida 2024-yil 21-mart kuni Solih Saydashev nomidagi Davlat katta konsert zali sahnasida I.S. Baxning 2 va 3-klavir uchun (F. Muhamedova va E. Pavlovskiy bilan birgalikda) konsertlari ijro etildi. 2024-yil 30-aprelda esa Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan artist, P. Chaikovskiy nomidagi Moskva davlat konservatoriyasining fortepiano fakulteti maxsus fortepiano kafedrasi professori, ko‘plab xalqaro tanlovlar laureati, yangi Angliya konservatoriyasida fortepiano professori Pavel Nersesyan va Sayyora Gafurova O‘zDK talabalar kamer orkestri hamrohligida dirijyor E. Azimov bilan I.S. Baxning 2 klavir uchun konsert va V.A. Motsartning 2 fortepiano uchun konsertlarni ijro etishdi.

S.Gafurova bir qator noyob loyihalarning muallifi, tashkilotchisi va ijrochisi. Ular orasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Eldar Azimov boshchiligidagi «Turkiston» kamer orkestri hamrohligida «Baxning oltita klavir konserti» oqshomi ajralib turadi, o‘sha kecha o‘zida bastakorning oltita klavir kontserti ijro etilgan. Keyinchalik I.S.Bax orkestri bilan fortepiano uchun konsertlarning kompakt-diski yozib olingan. Shuningdek, mamlakat madaniy hayotida uning «Lyudvig van Betxovenning barcha fortepiano konsertlari» loyihasi muhim rol o‘ynadi, uning davomida S.Gafurova orkestr bilan fortepiano uchun beshta konsert, fortepiano, xor va orkestr uchun fantaziya c-minor op.80 va skripka, violoncel va fortepiano uchun op.56 «uchlik» konsertini ijro etdi. Ushbu asarlar O‘zbekistonda birinchi marta bir tsikl doirasida ijro etildi. Ushbu yirik loyihalar mutaxassislar va klassik musiqa muxlislari

orasida katta taassurot qoldirdi. Bundan tashqari, S. Gafurova «Shopenga toji», «Fortepiano konserti evolyutsiyasi», «Oltin musiqa barglari tushishi» va boshqa loyihalarning tashabbuskori va tashkilotchisi.

S.Gafurova pianino ijrochilarning ko‘plab Respublika va ilg’or xalqaro tanlovlari hakamlar hay‘ati a’zosi bo‘lgan, ular orasida P. Chaykovskiy nomidagi yosh ijrochilar xalqaro tanlovi alohida o‘rin tutadi va yaqinda bo‘lib o‘tgan “Fujayrah International Piano Competition 6th Edition”.

Konsert faoliyati bilan bir vaqtda S. Gafurova yillar davomida ilmiy-metodik ishlar bilan faol shug‘ullanib kelmoqda. U uchta o‘quv-metodik qo‘llanma, bitta darslik va o‘ttizdan ortiq ilmiy-metodik maqolalar muallifi. Sayyora Akmalovna bir necha yil davomida O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining «maxsus fortepiano» kafedrasini boshqargan, 2017-yildan hozirgi kungacha esa O‘zbekiston davlat konservatoriyasining fan va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori lavozimi egallab turmoqda. Shu yillarda S. Gafurova tashabbusi bilan Xitoy, Rossiya, Tojikiston, Ozarbayjon, Fransiya va boshqa mamlakatlarning eng nufuzli musiqa Oliy o‘quv yurtlari bilan ikki tomonlama hamkorlik memorandumlar imzolandi. Shuningdek, Xitoy, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Fransiya, Tojikistonda ko‘plab xalqaro festivallar, konferensiyalar, yubiley kechalari, davra suhbatlari ishtirokchisi.

Sayyora Akmalovna o‘ttiz yildan o‘shiq O‘zDKning «maxsus fortepiano» kafedrasida dars berib kelmoqda. Yillar davomida uning talabalari o‘sishga muvaffaq bo‘lishdi va o‘z o‘qituvchining sevimli ishini davom ettirmoqdalar. Sayyora Akmalovna bitiruvchilarining ko‘pchiligi orasida xalqaro tanlovlar laureatlari va diplomantlarini Muxamedova Feruza (dotsent, san’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori), Dilyara Islyamova (katta o‘qituvchi, san’atshunoslik nomzodi), Abdullo Saidxonov (O‘zDKning Nukus filiali «maxsus fortepiano» kafedrasi mudiri), Gullola Egamberdiyeva (O‘zDKning o‘qituvchi) hamda Dilbar Riskimuhamedova, Vlada Osetrova, Hulkar Hakimova va ta’limning boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘inlarida kasbiy faoliyatini davom ettirayotgan boshqa mutaxassislar. «Ustoz-shogird» tizimning ko‘p asrlik an’analari doirasida professor Sayyora Gafurova bir necha bor turli asarlardan iborat sinf konsertlarni o‘tqazib kelmoqda, ular orasida Baxning 2, 3 va 4 klavir uchun konsertlarini o‘z tarbiyalanuvchilari bilan bir sahnada ijro etganlari alohida ajralib turadi. Birinchidan, fortepiano musiqasining durdonalari bo‘lgan ushbu asarlar bizda tez-tez ijro etilmaydi va shuning uchun kontsertlar tomoshabinlar uchun klassik san’atning haqiqiy bayramiga aylanadi. Ikkinchidan, ushbu loyihalar yosh ijrochilar uchun katta maktabga aylanadi, bu erda Ustoz boshchiligida ularning shaxsiy imkoniyatlarini ochish imkoniyati paydo bo‘ladi. Sayyora Akmalovna nafaqat o‘z sinfidagi talabalar uchun bunday imkoniyatlarni yaratadi, balki u turli ixtisoslarga ega iqtidorli, qobiliyatli yoshlarni alohida ta’kidlab va har doim imkon qadar munosiblarni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilmoqdalar. Ularning konservatoriyada fan va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor professional faoliyati davomida dotsent va professor darajasiga erishgan professor-o‘qituvchilari

ko‘paymoqda, xorijiy va o‘zimizning doktorantlarimizning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilinmoqda.

Mamlakatimizning musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan katta hissasi uchun Sayyora Gafurova O‘zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni bilan «Shuhrat» medali va «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artisti» yuqori unvon bilan taqdirlandi.

Albatta, Sayyora Akmalovna Gafurovaning ko‘p qirrali professional faoliyati respublikamiz san’ati va madaniyati rivojiga ta’sir ko‘rsatmoqda. U o‘z kasbiga fidoyilikning namunasidir, uning muvaffaqiyati musiqachilarning yosh avlodiga katta motivatsiya bermoqda!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Р. Сайера Гафурова: пора творческой зрелости – [электронный ресурс] – режим доступа: https://sanat.orexca.com/2009-rus/2009-1-2/rustam_abdullaev/ (дата обращения: 10.03.2025)

2. Багдасарова Г. Студенческий камерный оркестр ГКУз при участии солистов – Павла Нерсесьяна и Сайёры Гафуровой – подарил меломанам чудесный музыкальный вечер. – [электронный ресурс] – Режим доступа: https://kultura.uz/view_6_r_20869.html (дата обращения: 12.03.2025)

3. В Государственной консерватории прошел монографический концерт классической музыки – [электронный ресурс] – режим доступа: https://podrobno.uz/cat/calche/koncert-muziki/?ysclid=m7iwnmfol9900016886 (Дата обращения: 12.03.2025)

4. 5 сентября 2023 года состоялась дискуссионная площадка «Система непрерывного музыкального образования в национальном контексте: опыт стран Евразии» – [электронный ресурс] – режим доступа: https://www.dompressy.by/2023/09/06/5-sentyabrya-2023-goda-sostoyalas-diskussionnaya-ploshhadka-sistema-nepreryvnogo-muzykalnogo-obrazovaniya-v-nacionalnom-kontekste-opyt-stran-evrazii/?ysclid=m7iwpq9p9l797877790 (дата обращения: 12.03.2025)

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



GAIPOVA NARGIZA
KAMAL QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor,
Matyakubova S. K.

DIRIJORLIK PULTIDA AYOLLAR: FIRUZA RAVSHANOVA VA “SO‘G‘DIYONA” ORKESTRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayol dirijorlarning san’atdagi o‘rni, shuningdek, Firuza Ravshanova va “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari orkestrining ijodiy yo‘li, hamda ularning musiqiy merosimiz rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: dirijor, san’at, ayollar, xalq cholg‘ulari, “So‘g‘diyona”.

Аннотация: В данной статье освещается роль женщин-дирижёров в искусстве, а также творческий путь Фирузы Равшановой и оркестра народных инструментов “Согдиана”, их вклад в развитие музыкального наследия.

Ключевые слова: дирижёр, искусства, женщины, народные инструменты, “Согдиана”.

O‘zbekistonda ayollarning san’at va madaniyat sohasidagi rolini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident farmonlari asosida ayollarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish, ularning san’at sohasida erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda san’at va madaniyat sohasida ayollarning faoliyati yanada kengayib bormoqda. Ular san’atning turli yo‘nalishlarida muhim yutuqlarga erishib, o‘z ijodi orqali milliy madaniyatning rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Musiqaning rivojlanishida ayollarning roli turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, dirijyorlik kabi murakkab va mas’uliyatli kasbda ham ayollarning ishtiroki ortib bormoqda. Dirijyorlik uzoq vaqt davomida erkaklarga

xos deb hisoblangan bo‘lsa-da, ayollar ham shu sohada o‘z o‘rnini topib, muvaffaqiyatga erishgan. Ular orasida Veronika Dudarova alohida o‘rin tutadi. U Rossiyada mashhur ayol dirijyorlardan biri bo‘libgina qolmay, 50 yil davomida simfonik orkestrga rahbarlik qilgani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan ayol dirijyordir [3, 90].

O‘zbekistonda esa bu yo‘nalishda muhim iz qoldirgan yetuk san’atkorlardan biri – Dilbar Abdurahmonova. U O‘zbekistonning birinchi ayol dirijori bo‘lib, o‘zining faoliyati davomida milliy simfonik ijrochilik maktabini shakllantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Uning boshchiligida turli simfonik asarlar, jumladan, o‘zbek kompozitorlarining ijodi yuqori saviyada ijro etilgan. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istonda ham ayol dirijyorlarning san’at rivojiga qo‘shgan hissasi e’tiborga loyiqdir. Xususan, Aida Abdullayeva Qoraqalpog‘istonning birinchi ayol dirijyori sifatida milliy musiqa san’ati va orkestr ijrochiligini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan [2, 58].

Dirijor o‘zi kim, uning vazifasi nimalardan iborat?

Dirijor – ansamblning yaxlit va uyg‘un ijrosini hamda texnik mukammalligini ta’minlaydi, shuningdek, u o‘z boshqaruvidagi musiqachilarga badiiy qarashlarini yetkazishga, ijro jarayonida kompozitor ijodiy g‘oyasining mazmunini ochishga hamda ushbu asarning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini tushuntirishga intiladi. Uning ijrochilik rejasi asosida asarni chuqur o‘rganish va muallif partiturasining matnini iloji boricha aniq va ehtiyotkorlik bilan yetkazish yotadi [5, 52].

Bu kasb yuksak professionallik va chuqur ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda ayol san’atkorlarning muvaffaqiyati tobora ortib, ular o‘z mahorati bilan musiqiy merosni asrab-avaylash va orkestr ijrochiligini rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shmoqda. Firuza Ravshanova ham ana shunday san’atkorlardan biri bo‘lib, u o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri bilan olib borayotgan faoliyati orqali milliy musiqaning boyligi va jozibasini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlarining ohangi bolalikdan qulog‘imizga singib, milliy musiqiy merosimizning ajralmas qismiga aylangan. Xalq musiqasi, zamonaviy kompozitorlar ijodi va turli xalqlarning taniqli kuylarini qayta ishlash orqali milliy ijrochilik san’ati yanada boyib bormoqda. Bu an’analarni davom ettirayotgan professional, o‘quv va havaskor ansambllar soni tobora ortib, ular o‘z faoliyati bilan milliy san’atimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shmoqda. Shu o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonida «So‘g‘diyona» xalq cholg‘ulari kamer orkestrining tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri «So‘g‘diyona» 1991-yili 5-sentabrda tashkil etilgan.[1] Uning asoschisi va birinchi badiiy rahbari Firuza Ravshanova bo‘lib, orkestr shakllanishida Anvar Liviyev ham muhim rol o‘ynagan – u o‘zbek xalq cholg‘ularini takomillashtirish laboratoriyasiga rahbarlik qilgan va jamoaning faoliyatiga ko‘maklashgan. «So‘g‘diyona» orkestri tashkil topgan ilk kunlardanoq an’anaviy cholg‘u ijrochiligini saqlash va rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lib, milliy ohangni yangi badiiy shakllar bilan boyitishga intilgan. jamoning nomi ham bejiz tanlanmagan: “So‘g‘diyona” – qadimgi davlat bo‘lib, u yuksak madaniyati, jumladan, musiqiy san’ati bilan mashhur bo‘lgan. Shu tariqa, orkestr o‘zbek xalq musiqasini ijro etishda mahorat sari intilish timsoliga aylangan.

“So‘g‘diyona” orkestri O‘zbekistonning turli shaharlarida va xalqaro festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda. Uning konsertlari nafaqat milliy musiqiy merosni saqlab qolish va targ‘ib qilish, balki turli xalqlarning musiqa san’atini ommalashtirishga ham xizmat qiladi.

Orkestrning repertuari juda keng va rang-barang. Unga o‘zbek xalq kuy va ashulalari (“Bo‘l menga mahbub”, “Savti miskin”, “Yovvoyi ushshoq”, “Xiva go‘zali”) o‘zbek kompozitorlarning asarlari (A. Mansurov “Moziydan sado”, D. Saydaminova “Oy shulasi”, “Saraton”, “Miraj”, D. Yanov-Yanovskiy “Rivoyat”, M. Bafoev “Abadiyat”, “Jilolar”, “Qonun nag‘masi” v. h. k), turli xalq musiqalari va jahon klassik musiqasidan namunalar kiradi. Ayniqsa, o‘zbek bastakorlarining asarlarini xalq cholg‘ulari orkestri uchun moslashtirish (T. Jalilov “Gulistonim mening”, “O‘rgilay”, “Signal”, S. Jalil “Nvro‘z taronasi”, S. Kalonov “Ashula va raqs”, “Gul mavsumi”, “Dutorim”) va yangi ijodiy talqinlarda ijro etish orkestrning muhim vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, orkestr xorijiy kompozitorlarning mashhur asarlarini (D. Shostakovich “Vals-shutka”, “Noktyurn”, E. Doga “Vals”, Rimskiy-Korsakov “Palyot shmelya”, F. Gendel “Messiya 14”) o‘zbek xalq cholg‘ulariga moslashtirib ijro etib, xalq cholg‘ularining imkoniyatlarini keng namoyon etmoqda.

“So‘g‘diyona” orkestrining faoliyati respublika chegaralaridan ancha uzoqqa chiqib, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Jamoa Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Ispaniya, Koreya Respublikasi, Fransiya, Misr, AQSh, Hindiston, Shvetsiya, Avstriya va Turkiya kabi davlatlarda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro tanlov va festivallarda ishtirok etib kelmoqda.

1996-yilda Ispaniyaning Logronyo shahrida bo‘lib o‘tgan XXX xalqaro musiqa festivalida “So‘g‘diyona” jamoasi Grand-pri mukofoti va laureat unvoniga sazovor bo‘lib, yuqori professional mahoratini tasdiqlovchi Xalqaro Sertifikat bilan taqdirlangan. 2007-yilda orkestr AQShda o‘tkazilgan “Golden Trophy” xalqaro WEB-tanlovida I darajali laureat, 2010 va 2018-yillarda Qozog‘istonda o‘tkazilgan xalqaro festivalda I o‘rin sohibi bo‘ldi. 2020-yilda esa Turkiya va Rossiya tomonidan tashkil etilgan “SA AVE MUSIC -20” xalqaro masofaviy tanlovida Grand-prini qo‘lga kiritdi. 2023-yilda jamoa “O‘zbekistonning yangi yulduzlari” Milliy mukofoti g‘olibi bo‘lib, “Eng yaxshi jamoa” nominatsiyasida taqdirlandi.

Orkestr ijodiy faoliyati davomida 13 ta albom chiqargan, jumladan: “Sozlar navosi” (1995), “O‘zbek-Bavariya dialogi” (1998) – Bavariya konsert ansambli bilan hamkorlikda,“Interfolk” (2000) – Britaniyaning “Iron Horse” rok-folk guruhi bilan, Amerikalik “Old Grey Goose” kantri-musiqa guruhi bilan (2004), Arne Yansen boshchiligidagi nemis jazz guruhi bilan (2010), “G‘arb-Sharq devoni” – Gyote asari asosida D. Saydaminova musiqasi. 2014 va 2019-yillarda orkestr ilk bor “Chig‘anoqlar malikasi” va “Qo‘g‘irchoq” (1919-yilda Germaniyada suratga olingan) so‘zsiz filmlariga musiqiy hamrohlik qilgan. Bularning barchasi Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi musiqiy aloqani kuchaytirishga sabab bo‘lgan omillardir.

«So‘g‘diyona» orkestri nafaqat sahnalardagi chiqishlari bilan, balki yosh avlodga milliy musiqa san’atini yetkazish borasida ham faol ish olib boradi. Orkestr O‘zbekistonning turli hududlariga gastrol safari davomida musika maktablari va ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida ustozlar va o‘quvchilar uchun mahorat darslarini o‘tkazadi. Ushbu darslar orqali yosh musiqachilar xalq

cholg‘ulari ijrochiligiga oid muhim bilim va tajribalarga ega bo‘lishadi, bu esa hududlarda milliy orkestr san’atining rivojlanishiga turtki beradi.

Shuningdek, 1996-yildan boshlab “Navro‘z sadolari” xalq cholg‘u asboblari orkestrlari va ko‘p ovozli ansambllarning Respublika festivali o‘tkazilib kelmoqda. U nafaqat milliy musiqiy merosimizni targ‘ib etish, balki yosh ijrochilar uchun ham muhim sahnaga aylangan. 2008—2020-yillarda festivalga Xalqaro nodavlat fond “Sog‘lom avlod uchun” hamda “Tasviriy oyna” ijodiy birlashmasi qo‘shildi. 2012—2020-yillarda Shveytsariyaning O‘zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Hamkorlik byurosi uni qo‘llab-quvvatladi, 2015-yilda esa BMTning Axborot Markazi ham homiylik qildi. Aynan shu yilda festival xalqaro maqomga ega bo‘lib, har yili Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya va Mo‘g‘ulistonning nufuzli jamoalari unda ishtirok etmoqda. Festivalning asosiy maqsadi – O‘zbekistonning turli hududlarida xalq cholg‘ulari orkestrlarini rivojlantirish, ularni ommalashtirish va yosh iste’dodlarni kashf etishdir. Ayniqsa, musiqiy ta’lim muassasalarida xalq cholg‘ulari ijrochiligini qo‘llab-quvvatlash va yangi avlod orkestr ijrochilarini tarbiyalash ushbu loyiha doirasidagi muhim yo‘nalishlardan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki «So‘g‘diyona» orkestri ijodiy faoliyati orqali milliy va xalqaro musiqiy sohada o‘ziga xos o‘rin egallab kelmoqda. Uning boy repertuari, yuksak ijrochilik mahorati va musiqiy loyihalari nafaqat an’anaviy san’atni keng targ‘ib qilishga, balki madaniyatlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Firuza Ravshanovna Abdurahimova nafaqat “So‘g‘diyona” orkestrining asoschisi, balki uni an’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirgan yirik madaniy jamoaga aylantirgan yetakchi hamdir. Uning iste’dodi, tashkilotchilik qobiliyati va san’atga sadoqati tufayli orkestr xalqaro miqyosda tanilib, o‘zbek xalq musiqasining betakror ohangini saqlagan holda, uni zamonaviy talqinlar bilan boyitib kelmoqda. Uning mehnati nafaqat musiqa san’atimiz rivojiga qo‘shilgan ulkan hissa, balki dirijyorning jamoani birlashtirish va an’anaviy musiqaga yangi ufqlar ochish qobiliyatining yorqin namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахимова. Ф.Р. Непростая стезя оркестра «Согдианы» или 30 лет поисков.
2. Абдуллаева Ш. С. Труд побеждает все. // Вестник музыки и искусства – Н.: 2023., С. 57-60
3. Батагова. Т. Э. Исполнительское искусство дирижера Вероники Дударовой в отечественной культуре второй половины ХХвека. // Вестник МГУКИ – М., 2016. С. 86-91.
4. Дадабаев. Н. Женщины Узбекистана. // Смена – М.: «Правда». 1967., С. 15.
5. Келдыш. Ю.В. Музыкальная энциклопедия. – М.: 1974. С. 51-58
6. Мусин. И. А. Техника дирижирования – Л .: «Музыка», 1967.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025

HAYITOVA FERUZA
SHUHRAT QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d.(PhD),
dotsent, Abrarova M.F.

MUSIQASHUNOS OLIMALAR FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Annotatsiya: Maqolada musiqashunoslikning yuksalishida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan ikki ayol ijodkor O.N.Azimova va S.B.Qosimxo‘jayevaning hayoti va ijodiy yo'li haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning tadqiqotlari, o‘quv-uslubiy ishlari talabalar va keng musiqa ihlosmandlari uchun muhum manbadir.

Kalit so‘zlar: San’atshunos, musiqashunos, musiqa, ijod, ilm, ayol, darslik,o‘quv qo‘llanma.

Аннотация: В статье представлены сведения о жизненном и творческом пути двух женщин-музыковедов О.Н.Азимовой и С.Б.Касымходжаевой, интенсивно занимающихся исследовательской деятельностью. Их исследования, учебно-методические работы являются важным источником для студентов и любителей музыки.

Ключевые слова: Искусствовед, музыкавед, музыка, творчество, наука, женщина, учебник.

Ayol! Ona! Bu hayotning yaratuvchisi, uni mukammal etuvchi zotdir. Ayol sha'niga aytilayotgan hamdu-sano, ta'rifu tavsiflarning chek-chegarasi yo'q. O'zbek ayol va qizlarning qadr-qimmati, hurmati azaldan ardoqlangan. Hozirgi kunda ham muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ayol-qizlarimizga turli sohalarda imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Xususan, Ilm-fan sohasida ham ayollarga yaritilayotgan imkoniyatlar talaygina. Jumladan, magistratura talabasi bo'lgan xotin-qizlarga bepul ta'lim olish haqidagi qaror ,buning yoqrin isbotidir. Ushbu maqolada biz zamonamizning ikki musiqashunos ayoli, konservatoriyada

faoliyat yuritayotgan ustozlarimiz ijodiga to‘xtalamiz. Zero, musiqani yuksalishi va targ’ibotida, musiqashunoslarning o‘rni beqiyosdir. San’atshunoslik sohasining yo‘nalishi bo‘lgan musiqashunoslik - bir necha fanlar jumladan, musiqa tarixi, nazariyasi, tanqidi, folklorshunoslik, jurnalistika, musiqiy sharqshunoslik kabilarni o‘z tarkibiga oladi. Dastlab san’atshunoslik fanlari doktori, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqa nazariyasi” kafedrasi professori Orzu Nishonovna Azimova faoliyatiga to‘xtaltamiz.

O.N.Azimova butun hayotini ilmga bahshida etgan chinakam musiqashunos ijodkordir. 1948-yil 28- avgustda Toshkent shahrida ziyoli shifokorlar oilasida tug’ilgan. Yoshligidan musiqaga qiziqib, ko‘p kitoblar o‘qib, tengdoshlari orasida ilmsevarligi bilan ajralib turgan. Musiqaga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib, filarmoniya konsertlarini va Alisher Navoiy nomidagi Katta teatrdagi spektakllarni tomosha qilishni astoydil yaxshi ko‘rgan. Bu qiziqishlari esa Orzu Azimovani V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi sari yetaklagan. 1950-yillarning o‘rtalarida musiqa maktabga qadam qo‘ygan musiqashunos O.Azimova L.A.Kazarovaning fortepiano sinfida o‘qiy boshlagan. Shu bilan birga nazariya, solfedjio, musiqa adabiyoti fanlarini ham qunt bilan o‘zlashlashtgan. Keyingi qadam esa, aniq belgilangan edi. U Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga musiqashunoslik fakultetiga o‘qishga kiradi. 1970-1974-yillarda V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida garmoniya va solfedjiodan bolalarga dars beradi. Konservatoriyada atoqli nazariyotchi, musiqashunos Y.G.Konning shogirdi bo‘lmish Sabina Arturovna Zakrjevskaya qo‘lida mutaxasislik bo‘yicha saboq oladi. Rus musiqasi va musiqa tanqidi tarixi fani bo‘yicha esa, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Ya.B.Pekkerning shogirdi bo‘lgan musiqashunos-tarixchi olim G.V. Kuznetsovadan ta'lim oladi. O‘qituvchilik faoliyatini konservatoriyaning Musiqa tarixi kafedrasida davom ettiradi. Shu yillarda O.Azimovada aspiranturada o‘qish istagi tug’ilib, ustozi Sabina Arturovna rahbarligida ilmiy ishini yozdi. Shu bilan birga 1972-yildan Toshkent davlat konservatoriyasining Musiqa nazariyasi kafedrasida pedagogik faoliyatini davom ettiradi, U oddiy o‘qituvchilikdan-professorlikkacha bo'lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Professor O.Azimova monografiyalar, darslik, o‘quv qo‘llanma, maqolalar muallifidir. “Вопросы синтаксиса восточной монодии.Кн.1,(1989)”, “Вопросы синтаксиса восточной монодии.К истории его становления и развития.Кн.2.(1998), “Традиционный музыкальный язык узбекского, каракалпакскова и уйгурскова народов.(2008), “Звуковой мир каракалпаков (2008),“Гармония. Назарий курс.(1999) “Garmoniya. 2-nashr.(2004), “Garmoniya. 3-nashr (2017) kabi darsliklar; Azimova O., Ibragimova Sh. ”Zamonaviy garmoniya” O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida akkordlar tarkibi (2015). 4 ta darslikdan iborat “Zamonaviy garmoniya”loyihasining

ilmiy rahbari va mas’ul muharriri:1)Do‘smatov H.O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida sonorika.(2015);2)Abdikayumova G.O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura.(2015);3)Mirtalipova I O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida mikroxromatika.(2015);4) Nuritdinova H O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida modal ladlar.(2016) singari o‘quv qo‘llanmalar yozgan.

Zamonamizning ilg’or musiqashunoslaridan yana biri O'zbekiston davlat konservatoriyasi Musiqa tarixi va tanqidi kafedrasi mudiri, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Saida Botirovna Qosimxo‘jayevadir. S.B.Qosimxo‘jayeva 1965-yilning 28-oktabrda Toshkent shahri ziyolilar oilasida tavallud topgan. Yoshligidan musiqaga qiziqish uyg’ongan va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida o‘qiy boshlagan. Ushbu musiqa maktabini tamomlagach, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida, san’atshunoslik fanlari doktori, professor To‘xtasin Botirovich Gafurbekov sinfida musiqashunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olgan. Musiqashunos 1990-yillarda o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini San’atshunoslik fanlari institutida himoya qilgan. 2010-2012-yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimida ishlagan. Professor Saida Botirovnaning ilmiy qiziqishi musiqiy folklor, jadidlar davridagi musiqa, kompozitorlik ijodiyoti kabi mavzularga qaratilgan. Hozirgi kunda musiqashunos S.Qosimxo‘jayeva O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rahbariyati tomonidan qator mukofotlar bilan taqdirlangan. Professor Saida Botirovna yaratgan darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, maqolalari musiqashunoslikning dolzarb masalalariga oydinlik kiritadi. Jumladan, A.Xamidova bilan hamkorlikda ”Научные основы музыкальной критики. (История становления и развития узбекской оперы в журнально-газетных публикациях 1920-1940-х годов)”(2023); “Jahon musiqasi tarixi .S.S.Prokofyev, D.D.Shostokovich ijodlari- XX asrning musiqiy yilnomasi” (2020) o‘quv qo‘llanmalar “Jahon musiqasi tarixi. XX asrning birinchi yarmida rus musiqa madaniyati”(2019) darsligini yozgan. Hozirgi kunda S.Qosimxo‘jayeva qator shogirdlar yetishtirdi. Bakalavr, magistraturada tahsil olayotgan talabalari diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan Xususan, 2024-2025 yillarda shogirdlaridan Vlada Osetrova, Muzaffar Toshpo‘latovlar san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasida OAK tomonidan tasdiqlandilar. Bugungi kunda yana bir shogirdi Humoyun Haydarov ilmiy ishini himoya qilish arafasida turibdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, bu ikki ayol musiqashunoslar bor umrlarini musiqa sohasiga bag’shida etgan ijodkorlardir.Ular nashr ettirayotgan ilmiy darslik, o‘quv qo‘llanmalar butun O‘zbekiston musiqachi talabalari uchun kerakli bo‘lgan musiqiy meros desak, mubolag’a bo‘lmaydi. Biz ularga ilmiy izlanishlarida ijodiy barkamollik tilaymiz!

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025

IBODULLAYEV AZIZBEK

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:katta o‘qituvchi, Xaydarov X.

XORAZM VOHASI XALFACHILIK AN’ANALARI

Annotatsiya: Xorazm xalfachilik an’analari o‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Ushbu an’ana xalfa ijrochiligi orqali xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, milliy g‘ururi hamda ma’naviy merosi ifodalanadi. Xalfalar esa asosan qo‘shiqchilik va folklor asarlarini kuylashga ixtisoslashgan. Mazkur maqolada Xorazm xalfachilik an’analarining tarixi, ularning ijrochilik uslublari hamda bugungi kunda tutgan o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, xalfachilik, dostonchilik, xalq og‘zaki ijodi, folklor, an’ana, ijrochilik, madaniy meros, musiqiy san’at.

Аннотация: Хорезмские традиции халфа являются уникальными проявлениями узбекского народного устного творчества, формировавшимися и развивавшимися на протяжении веков. Эта традиция отражает историческую память, обычаи, национальную гордость и духовное наследие народа через искусство халфа. В то время как халфы преимущественно специализировались на исполнении песен и фольклорных произведений. В данной статье освещается история хорезмского халфачества, их исполнительские стили и роль в современном мире.

Ключевые слова: Хорезм, халфа, дастан, устное народное творчество, фольклор, традиция, исполнительское искусство, культурное наследие, музыкальное искусство.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi nihoyatda xilma-xil bo‘lib, janri va tarkibi jihatidan rang-barangdir. Shu bois uning ijodkorlari va ijrochilari ham turli nomlar bilan ataladi. Masalan, Xorazmda xalq qo‘shiqlari va epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarni xalfalar deb yuritiladi. Ushbu atama arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “shariat aqidalarini

yaxshi biluvchi”, “o‘qimishli kishi” ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, vohada ma’lum vaqtlar zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ni o‘qib, ularni xotin-qizlar davrasida targ‘ib qilgan ayollar ham “qalpa” deb yuritilgan. Biroq, ushbu o‘qimishli ayollar faqat diniy mavzudagi kitoblarni targ‘ib qilish bilan kifoyalanmasdan, buyuk shoirlarning asarlari, shuningdek, kitobga ko‘chirilgan xalq dostonlarini ham kuyga solib o‘qib berganlar.



Umuman olganda, “*xalfa* (arabcha)” so‘zining lug‘aviy manosi “ergashmoq”, “o‘rnini bosmoq”, “o‘rinbosar”, “davomchi”, “noib” demakdir6. Mazkur atamaning tarixiy ildizlari Arab xalifaligi davriga borib taqalishi borasidagi qarashlar ham bejiz emas, albatta. Jumladan, tadqiqotchi M.Saidovning yozishicha, Hazrati Alining qahramona sarguzashtlariga bag‘ishlangan bir turkum dostonlar arab tilidan turkiy tillarga tarjima qilingan. Bizgacha ushbu dostonlar bir qancha variantlarda yetib kelgan. Sababi, arablar islom aqidalarini targ‘ib qilish vositasi sifatida diniy dostonlardan ham foydalangan [1.2].

Xalfachilik-Xorazm vohasida keng tarqalgan mahalliy og‘zaki ijod namunalarini maromiga yetkazib, ijro etuvchi ayollar san’ati. Xalfalar faoliyat ko‘rsatish sharoitiga ko‘ra ma’lum yo‘nalishga bo‘linadi:cholg‘u orqali kuylarni chaluvchi “xalfa soziy”, to‘y va bazmlarda qo‘shiqlar ijro etuvchi “xalfa yodog‘iy”, doston va undagi terma- qo‘shiqlarni ijrochisi “xalfa dostonchi”, raqs tushuvchi ayollar “xalfa raqqosa yoki o‘yinchi” hamda “xalfa kitobiy”-ta’ziya va marosimlarda kitob o‘quvchi ayol. Ular ijodkor sifatida she’r va qo‘shiqlar mualliylari ham bo‘lishgan. Mashhur xivalik Ojiza xalfa (Onabibi Otajonova)ning 30 dan ortiq she’r-qo‘shiqlari ko‘pgina xalfalar tomonidan kuylanmoqda. O‘tmishda “ichkari”da ayollarga xizmat qilganlar.

Xalfachilik san’ati ikki turga bo‘linadi: *ansamblli xalfalar* (xalfa yodog‘i, sozi va raqqosa) va *yakka xalfalar* (xalfa kitobiy). Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat bo‘lib, *ustoz xalfa* (ayni vaqtda garmon (XIX asrda rus garmoni Xorazmda tarqalib, ommalashib ketgan va uni “qo‘l soz” deyiladi) chaladi va qo‘shiq aytadi, *doirachi* (qo‘shiqlarga jo‘r bo‘ladi, ba’zan raqs tushadi) va *o‘yinchi*lar (raqs tushadi, qayroq bilan o‘ynaydi, yetakchi xalfaga qo‘shilib qo‘shiq ham aytadi, ba’zan doira ham chaladi) birlashib, jamoani tashkil etadi. “Xalfa yodog‘iy” to‘y qo‘shiqlari, lapar va yallalar aytsa, “xalfa dostonchi” xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalar va doston terma-qo‘shiqlarini, birgalikda o‘zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini talqin etadilar. Yakka xalfalar doston, she’rlarni va termalarni cholg‘usiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan-og‘zaki yoki yozma an’anada, turli mavzudagi kitobdan yoqimli ohangda o‘qiydilar.

Xalfalar mahalliy xalqning barcha to‘y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig‘inlari va bayramlarda ishtirok etadilar, ba’zi hollarda uni boshqaradilar, jumladan, nikoh to‘ylarini “To‘y muborak” yoki “To‘y boshlovi” qo‘shiqlari bilan ochib beradilar hamda “To‘y javobi” bilan yakunlaydilar. Voha xalfalari orasida keng tarqalgan *xonish qilish, kuylarni mohirona ijro etish, g‘azallarni kuyga solib o‘qish, tinglovchilarni rom qilish, badihago‘ylik* xalfachilikning o‘ziga xos lokal xususiyatlaridan hisoblanadi. [3.31] Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san’ati sifatida Xorazm vohasi (hozirgi Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a viloyati) da bugungi kungacha keng davom etib kelmoqda.

Xalfachilik an’anasida ko‘pgina ustoz xalfalar o‘chmas iz qoldirgan. Ular xalqona ijrolari tufayli aholi orasida juda mashhur bo‘lib, alohida e’tiborga ega bo‘lganlar. Xalfalar xalq, asosan xotin-qizlarning dardu alamlari, hasrat-nadomatlari, dil isyonlari, muhabbat va sadoqati hamda insoniy tuyg‘ularini og‘zaki ifodalashlari bilan xalfachilikni yuksak san’at turi sifatida yuqori darajaga ko‘tardi.

XONIMJON SAYDAMAT QIZI. Ajoyib ovoz sohibasi bo‘lgan. Bu ayol Xonim xalfa, shuningdek, Xonim suvchi nomlari bilan el ichida mashhur bo‘lgan. Xonim suvchi deyishlarining sababi, uning eri xivalik Qutlumurod suvchi degan odam bo‘lgan. O‘sha vaqtlarda arik va hovuzlardan Inroq mahallalarga suvchilar (meshkob) meshlarda suv qatnaganlar. Shuningdek, alohida suvchilar mahallasi ham bo‘lgan. Xonim xalfani xam Xonim suvchi deb yuritganlar. Xonim xalfaning qaynoq ijodiy davri XIX asrning oxirlari XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Xonim xalfa she’riyatga ham juda kizikkan, she’rlar yozib o‘zining jarangdor ovozi bilan ashula aytgan, lekin biror cholg‘u asbobi chalmagan, ikki piyolani bir-biriga urib, ularning jo‘rligida ashula aytgan.

ONAJON SOBIR QIZI-Anash cho‘loq. Xivalikda 1885-yilda naqqosh oilasida tug‘ilgan. Xonim xalfaning shogirdi. Keyinchalik garmon chalishni o‘rganib, o‘zi alohida guruh tashkil etib sozandalik qila boshlaydi. Onajon Sobirovaning bir oyog‘i kalta bo‘lgani uchun unga Anash cho‘loq deganlar. U nihoyatda zo‘r raqqosa ham bo‘lgan. Anash cho‘loq raqsga, ayniqsa, “Lazgi”ga tushganda bir oyog‘ining kaltaligi mutlaqo bilinmas, hammani hayratda qoldirardi. 1939-yilda Madrahim Sheroziy va Gavharxonim tashkil etgan garmonchilar ansamblida xizmat qiladi. Bu san’atkor haqida ham maqolalar yozilgan.

ONABIBI QORI. Taxallusi Ojiza. Xivaning Doshko‘pir mahallasida yashab ijod etgan. Onabibi Otajon qizi 1901-yilda Xivaning Qushchi Kattabog‘ qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Onabibi ikki-uch yoshlariga kirganida chechak kasali bilan og‘rib ko‘zi ko‘rmay qoladi. U yoshligidan she’riyat va qo‘shiqchilikka qiziqan qizidagi bu iste’dodini sezgan otasi uni Bibijon xalfaga shogird qilib beradi. Tirishqoq Onabibi ustozning san’atini to‘la o‘zlashtiribgina qolmay, uni ijodiy rivojlantiradi ham. Onabibi Vatan, ozodlik va ishq-muhabbat haqida qo‘shiqlar to‘qib, ularga kuy ham bastalar edi. Shunday

kilib u Ojiza taxallusi bilan shoira sifatida ham elga mashhur bo‘ladi. Onabibi xalfa o‘zining odamiyligi, yoshlarga nisbatan mexribonligi tufayli juda ko‘p shogirdlar orttirdi. Uning eng sevimli shogirdlaridan biri Nazir xalfa edi. Ojiza va Nazir xalfalar haqida maxsus maqolalar yozilgan, kitoblar bitilgan (Zokirjon Madrahimov, Sa’dulla Nurmetov “Targuncha”, Urganch, 1999-yil). Ojiza repertuarida “Muboraklar bo‘lg‘ay”, “Arka qizlar”, “Xurshidi jahon galdi”, “Shodligim shodlik ustina”, “Tuninay”, “Galmadi-galmadi”, “Uyolaman”, “Xo‘sh galdingizlar”, “Sangar”, “Targ‘uncha”, “O‘lguncha sizni derman” kabi qo‘shiqlar bilan bir qatorda, “Asil va Karam”, “Oshiq Alban”, “Oshiq Mahmud”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga oid ayrim dostonlar maromiga yetkazilib kuylangan. Shu o‘rinda Onabibi xalfa tomonidan kuylangan “Olti xalfa” she’ri xalq xotin-qizlari tомonidan sevib ijro qilinadi.



NAZIR XALFA. 1922-yilda Xivaning Ichon qal’asida dunyoga kelgan. Bu ham yoshligidan musiqa, qo‘shiqchilik san’atiga qiziqqan. U Onabibi qori ustozi kabi kamol topib, elga mashhur bo‘lgan.

SHARIFA XALFA. Sherpa ma’ram deb ham yuritganlar. U ham garmon chalib ashula aytgan.

JONIBEK QORI. Xivaning “Mevaston” mahallasida dunyoga kelgan. Garmon chalib ashula aytgan.

RAHIMA XALFA-Xivaning Turt Shovvoz bobo mahallasida dunyoga kelgan. U ham garmon chalib ashula aytgan.

KICHCHI ANABIBI QORI-Xivaning “Alakchilik” mahallasida dunyoga kelgan. Garmon chalib qo‘shiq aytgan.

XOLJON QORI. Xivaning “Gadoylar” mahallasida dunyoga kelgan. Garmon chalib ashula aytgan. Yuqorida nomlari keltirilgan xalfalar faqat xotin-qizlar davrasida xizmat qilganlar. Bundan Anash cho‘loq mustasno. Anash cho‘loq birinchi bo‘lib katta davralarda xizmat kilgan. Ungacha xotin-qiz ashulachilar erkaklar bor davraga chiqmaganlar.

POSHSHOXON MATCHONOVA. Xivalik. Garmon chalib ashula aytgan. Popinoxon xalfalar aytadigan qo‘shiqlardan tashkari, Toshkent, Fargona navolarini ham, mumtoz ashulalarni ham ijro etardi. Shuning bilan birga ajoyib

raqqosa ham edi. Poshshoxoy 1 jahon urushi yillari harbiy ansamblda xizmat etgan. 1939 yili Madraxim Sheroziy va Gavharxonim rahbarligida garmonchilar ansamblida ancha yillar xizmat qilgan. Umrining oxirlarida havaskorlik to‘garaklari tashkil etib, yoshlarga san’at sirlarini O‘rgatish bilan shugullangan.

SORAXONIM OLLABERGANOVA. Sorixon ham deganlar. Xivaning “Mevaston” mahallasida dunyoga kelgan. Soz chalib ashula aytgan. Garmon chalishni Madraxim Sheroziydan o‘rgangan, u yoshligidan garmon chalishni havas qilib, uni o‘rganishga joni dili bilan intilgan, unga bu borada Rahimbergan ota ko‘p yordam etgan. Soraxon ham Toshkentda Madrahim Sheroziy va Gavharxonimlar bilan hamkorlikda garmonchilar ansamblida xizmat etgan. Qilgan xizmatlari evaziga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Ustoz xalfalarning fikricha, “xalfa” atamasi Xorazm madaniyatida “shogird”, ya’ni ustozning munosib shogirdi ma’nosida ishlatilib kelinadi. Binobarin, har bir shogird xalfaning o‘z ustozi bo‘lishi kerak. Shogird ustozi san’atini ko‘p yillik ta’lim-tarbiya davomida mukammal egallab hamda zarur insoniy fazilatlarga ega bo‘lgach, ustozining roziligiga erishadi va shundan so‘ng xalfachilikni bo‘yniga olishi mumkin. Shunga ko‘ra, “Ustoz ko‘rmagan xalfani xalq ham tan olmaydi”, degan gaplar aholi orasida uchraydi. Xalfachilik an’analarini o‘rganish ham o‘ziga xos maktab uslubiga ega bo‘lgan. Eski usul maktablarida xat-savod chiqargan, bilimga ixlosmand qizlar taniqli xalfalarga 4-5 yil davomida shogird tushgan. Ular shogirdlik davrida ustozlaridan to‘y va boshqa oilaviy marosimlarda aytiladigan qo‘shiq, doston hamda g‘azallarni o‘rgangan.



Bugungi kunda o‘zbek qo‘shiqchilik san’atini rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shayotgan xorazmlik ijodkorlar Iroda Iskandarova, Zumrad Madrimova, Sanamjon Otayeva, Xurshida Eshniyozova va Dilbar Bekturdiyevalar xalfachilik an’analarini ijobiy o‘zlashtirgan holda o‘z repertuarlarini zamonaviy qo‘shiq hamda termalar bilan boyitib, elga xizmat qilib kelmoqda. Ular ijrosida muhabbat motivlaridan tashqari milliy istiqlol, baxtli yoshlik va bugungi barkamol avlodni madh etuvchi qo‘shiqlar ham talaygina. Xalfachilikka qiziqqan qobiliyatli yoshlar ushbu barhayot san’atni bugungi kunda ham davom ettirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshchanova G. Xorazm xalfalari. Adabiy meros. T., 1993
2. Ollaberganova S. Xalfalar ijodining o‘zbek folkloridagi o‘rni. T., 2006
3. Eshchanova G. Xalfachilik-qadimiy ayollar san’ati. U., 2003

4. Madrahimov Z, Nurmetov S. Targ‘uncha. U., 1999
5. Sobirova S, Solayev S. Xiva bulbullari. Xiva., 2000
6. Yunusov R. Xiva xalfalari. U., 2020

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



IBROKHIMOVA SHAKHZODA
MUSINXON QIZI

The State Conservatory of Uzbekistan
1st stage master’s student of the
“Academic choir conducting”department
Research advisor: professor,
Khakimova A.X.

THE ARTISTIC JOURNEY OF NAIRA SHARAFIYEVA

Annotation: This article highlights the creative and pedagogical contributions of Professor Naira Sharafiyeva, one of Uzbekistan’s leading figures in choral art. It provides insights into her achievements in choral conducting, her contributions to national music, and the students she has mentored. Sharafiyeva has played a crucial role in the development of choral art, not only as a conductor but also as a composer, a pioneering female leader in the field.

Keywords: Naira Sharafiyeva, choral art, choral conducting, Uzbekistan Conservatory, choir ensembles, national music, pedagogy, female conductor, musical heritage, art.

Аннотация: В данной статье освещается творческая и педагогическая деятельность одного из ведущих представителей хорового искусства Узбекистана, профессора Наиры Шарафиевой. Представлена информация о её достижениях в области хорового дирижирования, вкладе в национальную музыку и воспитанных учениках. Шарафиева внесла значительный вклад в развитие хорового искусства не только как дирижёр, но и как женщина-лидер в этой сфере.

Ключевые слова: Наира Шарафиева, хоровое искусство, хоровое дирижирование, Консерватория Узбекистана, хоровые коллективы, народная музыка, педагогика, женщина-дирижёр, музыкальное наследие, искусство.

Art is not only about talent, it requires dedication and courage. In particular, achieving success as a female conductor in a field traditionally dominated by men demands great skill and perseverance. Among those who have made a significant contribution to the development of Uzbekistan's choral art, Naira Sharafiyeva holds a special place. Her talent, diligence, and devotion to art have made her not only an experienced conductor but also a source of inspiration for younger generations. Throughout her career, she has worked with numerous choral groups, adapted Uzbek folk songs for choir performances, and represented Uzbekistan's musical culture on the international stage.

Naira Sohibovna Sharafiyeva was born on September 3, 1947, in Tashkent. She is a recipient of the 'For Devotion to Culture and Art' Order, a composer, choral conductor, professor, and pedagogue. In 1965, she graduated from the V.A. Uspensky Special Music School, specializing in choral conducting under Y.I. Khurshudova. In 1970, she graduated with honors from the Choral Conducting Faculty of the Tashkent State Conservatory, studying under Professor V.I. Knyazyatov. She later completed an assistant-internship under the same professor. From her student years, Sharafiyeva actively participated in various choral groups, leading the 'Bulbulcha' Choir, as well as choirs in music schools and general education institutions. As a conductor, she has worked with the Conservatory Student Choir, performing works by composers such as G.F. Handel, J.S. Bach, A. Vivaldi, W.A. Mozart, G. Sviridov, S. Slonimsky, N. Sidelnikov, Yu. Falik, F. Yanov-Yanovsky, P. Medyulyanova, and R. Abdullayev. This choir has given concerts in cities like Moscow, Samarkand, and Bukhara.

In addition to her achievements as a conductor, Sharafiyeva is also a distinguished composer. She has arranged and composed numerous choral pieces based on Uzbek folk music. Her works include: 'Uzbekistan Songs' choral suite, 'Khorezm Melodies', 'Sayri Bog'', 'Ey, Nozanin', 'Ey Mehribonim', 'Tasadduq', 'Shabboda', 'Deydi-yo', 'Hazil', 'Uyghur Dance', 'Faryod', 'Tarona', 'Nasihat', and 'Omar Khayyam's Rubaiyat'.

As a teacher, Naira Sharafiyeva has played a crucial role in developing a new generation of choral conductors. She has not only provided technical instruction but has also instilled confidence and resilience in her students, particularly young women entering the field. Over 100 students have graduated from her class, many of whom have become prominent choral conductors in Uzbekistan and abroad. Among her most notable students are: T. Tlegenov (Kazakhstan), A. Tolepova (Karakalpakstan), M. Bobokhonov, G. Mansurova (Associate Professor), V. Nazarmukhammedova, D. Sobirova, B. Khudoyqulov, A. Olimov, N. Rasulova, and M. Muratova. She has actively encouraged young female musicians to pursue leadership roles in choral music. Her teaching method goes beyond technical training, focusing on overcoming self-doubt and embracing artistic individuality. She has facilitated opportunities for her students to gain international experience and perform on prestigious stages.

Traditionally, conducting has been considered a male-dominated profession. However, in the modern music world, more and more female conductors are emerging, and figures lika Naira Sharafiyeva play a vital role in paving the way for tham. Naira Sharafiyeva has challenged these stereotypes with her strong will, dedication, and professional excellence. As a female conductor, she has: increased the number of female choral conductors in Uzbekistan and actively supported them, served as a motivational role model for younger generations in the arts, and promoted gender equality in choral conducting. She has demonstrated that women can achieve the highest level of success in choral conducting, overcoming societal barriers; by leading choir with precision and emotional depth, she has established her own distinctive conducting style; she has inspired and mentored aspiring female conductors, proving that leadership in music is not defined by gender.

Naira Sharafiyeva's contributions to choral conducting go beyond her personal achievements—she has actively shaped the future of choral music in Uzbekistan by mentoring, inspiring, and empowering a new generation of musicians. Her influence is evident in the success of her students, many of whom have gone on to lead prestigious choirs and contribute to the field both nationally and internationally. As a female conductor, she has not only broken barriers but has also redefined leadership in choral music, proving that women can excel in a field historically dominated by men. Her dedication to preserving and innovating within Uzbekistan's rich musical traditions has ensured that national choral heritage continues to evolve and gain recognition worldwide.

Sharafiyeva's legacy is one of excellence, perseverance, and inspiration. Through her work, she has elevated the status of female conductors, advocated for greater inclusivity in the arts, and demonstrated that true leadership in music is defined not by gender but by passion, skill, and commitment. Her story serves as a beacon of hope and motivation for young musicians, proving that talent and determination can overcome any obstacle.

References:

1. Asafyev B. "About the choir art".
2. Shomakhmudova B. "Choir dictionary".
3. Kazachkov S "From lesson to concert".
4. Sharafiyeva N. "Songs of Uzbekistan".
5. Sharafiyeva N. "Choir class".

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



IRKINOV TEMUR
QAXRAMON O‘G‘LI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor,
Qosimxo‘jayeva S.B.

AYOL MUSIQASHUNOSLAR IJODIGA BIR NAZAR

(Saida Qosimxo‘jayeva faoliyati misolida)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonamizning musiqashunoslik yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislaridan biri Saida Qosimxo‘jayeva haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada olimaning pedagogik, targ‘ibotchilik jihatlari yoritilgan. Maqola Saida Qosimxo‘jayeva bilan olib borilgan suhbatlar va ilmiy-ijodiy materiallari asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar: musiqashunoslik, Saida Qosimxo‘jayeva, musiqa tarixi, musiqa tanqidi, pedagogika, ilmiy faoliyat.

Аннотация: В данной статье речь идет об одном из специалистов, работающих в области музыкознания в наше время, Саиде Касымходжаевой. Также в статье освещены педагогические и пропагандистские аспекты её деятельности. Статья написана на основе бесед с Саидой Касымходжаевой и её научно-творческих материалов.

Ключевые слова: музыковедение, Саида Касымходжаева, история музыки, музыкальная критика, педагогика, научная деятельность.

Musiqashunoslik sohasi uzoq o‘tmishdan boshlab o‘zining kasbiy omillari asosida shakllanib, asrlar osha muayyan an’analari negizida rivojlanib kelgan. O‘zbekiston musiqashunosligining XX asr boshlaridagi holati, o‘zbek xalq musiqa merosini o‘rganish, amaliyotda mavjud bo‘lgan xalq va mumtoz musiqa merosi namunalarini yig‘ish va zamonaviy nota yozuviga olish hamda Yevropa musiqasi ilmiga oid kitoblarni tarjima qilish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash bilan boshlandi. O‘tmish musiqashunosligida yuzaga kelgan klassik an’analarida o‘ziga xos tartib yoki qonuniyatlar shakllanganligi va ushbu qoidalar asosida ilmiy ishlar tarkib topganligi hamda shunga xos bayon etilganligini guvohi bo‘lamiz. Unga ko‘ra asosiy maqsad va vazifalar, musiqaning tarixiy, nazariy, kompozitsion usul, cholg‘ular va namoyandalar haqida bayon etish kabi

yondashuvlar shaklida tartiblashtirilgan. Har bir ilmiy ish, avvalo musiqa ilmining o‘tmishdagi holati va zamona musiqa san’ati va ilmiy tavsifi hamda ijodiy munosabatlari bayoni shaklida keltirilgan. Ilk musiqashunoslar Natalya Yanov-Yanovskaya, Irina Karelova, folklorshunoslar Ilyos Akbarov, Hafiyahonim Muhammedova, Karima Olimboyeva (Axmedova) va boshqalardir.

Shu o‘rinda o‘zbek musiqashunoslikning tarmoq va yo‘nalishlarga ajratilganligi hech kimga sir emas. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston musiqashunoslik maktabi namoyandalarining olib borgan ilmiy-ijodiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash o‘rinlidir:

1. Musiqiy folklorshunoslik.
2. Manbashunoslik.
3. Musiqa tarixi va tanqidi.
4. Musiqa nazariyasi.
5. Organalogiya (Cholg‘ushunoslik).
6. Musiqa ijrochiligi, maqomshunoslik.
7. Musiqiy sharqshunoslik.

Musiqa tarixi va tanqidi yo‘nalishida o‘zbek va jahon musiqa tarixining tub ildizlaridan tortib zamonaviy musiqiy jarayonlarni ilmiy izohlab kelayotgan mutaxassislardan biri Qosimxo‘jayeva Saida Batirovnadir.

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi dotsenti, Qosimxo‘jayeva Saida Batirovna ham mashaqqatli sohada halollik, fidoyilik bilan mehnat qilib, o‘z jamoadoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan ham musiqashunos, ham ijodkor, ham yaxshi ona, ham fidoyi ustoz sifatida alohida hurmat qozongan. “Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi mudiri, professor o‘qituvchi Saida Qosimxo‘jayeva 1965-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ma’lumoti oliy. 1989-yilda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Musiqashunoslik” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishni tamomladi. 1997-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutidagi ixtisoslashgan kengashning tavsiyasiga ko‘ra fanlar nomzodi, 2006-yil 29-iyunda “Dotsent” ilmiy unvoni berilgan. “XX asrda o‘zbek tarixiy musiqashunosligi va tanqidchiligi shakllanishi”, “Формирование узбекского музыкознания и музыкальной критики в XX веке” nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlagan. Musiqashunos olima 2015-yil 10-fevraldan buyon “Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi mudiri va o‘qituvchisi sifatida ixtisoslik (musiqashunoslik), “Jahon xalqlari musiqasi tarixi”, “Zamonaviy musiqa”, “Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari” kabi fanlar hamda “Bitiruv malakaviy ishi”ga rahbarlik, “Magistrlik dissertasiyasi”ga rahbarlik kabi faoliyat turlarini olib borib, “Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasining ilmiy va o‘quv ishlarini takomillashtirishda katta hissa qo‘shib kelmoqda. Saida Botirovnaning rahbarligida kafedradagi ilmiy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning tashabbusi bilan “Jahon musiqasi tarixi”, “Zamonaviy musiqa”, “Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari” kabi fanlarning o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga kiritildi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratgan.

Saida Qosimxo‘jayevaning ilmiy-ijodiy faoliyati keng qamrovli bo‘lib, serbarakali ijod qilib kelmoqda. Mutaxassis 50 dan ortiq ilmiy-ijodiy ishlarning muallifi bo‘lib, ularning ichida 9 ta o‘quv adabiyotlari, 41 ta ilmiy-uslubiy maqolalar, tezislar va monografiyalar mavjud. Ulardan “Jahon musiqa san’ati”, “San’atshunoslikka kirish”, “Musiqa sehri” kabi metodik qo‘llanmalari, “Jahon musiqa san’ati”, “Musiqa san’ati tarixi”, “Musiqa tarixi”, “XX-asrning birinchi

yarmida rus musiqa madaniyati”, “XX-asrning ikkinchi yarmida rus musiqa madaniyati”, “Jahon musiqasi tarixi”, “Jahon musiqasi tarixi” - (S.S.Prokofev, D.D.Shostakovich ijodlari – XX-asrning musiqiy yilnomasi), “Новейшая история Узбекистана”, “Методические рекомендации по программе развития государственной консерватории Республики Узбекистан на 2019-2021 годы” kabi bir qator o‘quv qo‘llanma va darsliklari hamda “Фольклор в Узбекской опере” monografiyasi, “Из истории музыкального образования”, “Musical instruments” singari ko‘plab maqolalari san’at sohasida o‘qiyotgan va musiqa ilmiga qiziquvchi yoshlar uchun dasturiy amal bo‘lib xizmat qiladi. Uning musiqa san’atining tarixiy, nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlari musiqa-shunoslik sohasidagi muhim manbaalar sifatida qadimdan e’tirof etish joiz. Uning rahbarligida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma va uslubiy qo‘llanmalaridan Respublika miqyosida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Faoliyatlari faqat O‘zbekiston bilan cheklanibgina qolmay, balki Polsha, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda “Узбекистон и Япония: Диалог культур”, “Koreya-O‘zbekiston musiqa an’analari” kabi ilmiy ishlar bilan muvaffaqiyatli ishtirok etganligi, O‘zbekiston musiqa san’ati, musiqa ilmi rivojini dunyoga tanitish, tajribalar almashish, hamda xalqaro aloqalarni mustahkamlashda salmoqli hissa qo‘shadi.

Saida Qosimxo‘jayeva kafedra mudiri sifatida jamoat ishlarida faol ishtirok etib, o‘ziga nisbatan juda talabchan, mehnatsevar, o‘zining pedagogik faoliyatini sidqidildan bajaradigan talabalarning sevimli ustozidir. Musiqashunos olima O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi Kengashi a’zosi sifatida ham musiqa san’atining dolzarb masalalarini muhokama qilishda, yangi loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Saida Qosimxo‘jayevaning shogirdlari uning ilmiy-pedagogik faoliyatining eng muhim natijasi o‘laroq, ustoz har bir shogirdi bilan individual ishlab, huddi o‘z farzandi kabi munosabatda bo‘ladi. Shogirdlarining ko‘pchiligi hozirgi kunda musiqa-shunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, bitiruv malakaviy ish, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilmoqdalar. Ustozning rahbarligida 27 nafar bakalavr, 19 nafar magistr va 3 nafar PhD doktorantlari tayyorlanib, yuqori natijalarga erishmoqda.

Saida Qosimxo‘jayevani O‘zbekiston musiqa san’ati va ilmining rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan, ko‘p yillik mehnati bilan milliy madaniyatning mash’aliga aylangan shaxs deyishimiz mumkin. Uning pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyati nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo musiqa madaniyatining rivojiga xizmat qilmoqda. Saida Botirovnaning merosi – bu kelajak avlodlar uchun namuna va ilhom manbaidir.

Kamtar inson S. Qosimxo‘jayeva ilmiy faoliyatidagi yutuqlarga qaramay hali hamon izlanishlar olib borayotganligi taqsinga sazovodir. Bu esa biz yosh shogirdlar uchun chin ma’nodagi maktab bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Saida Batirovna haqida qancha yaxshi fikrlar aytsak shuncha oz. Sababi, ustoz tufayli qanchadan-qancha yoshlar rivojlanmoqda va ma’lum bir darajada yutuqlarga erishib kelishmoqda, ilmiy ishlari esa dasturiy amal vazifasini bajarmoqda. Ustozning kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tilab, qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev R. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2022.

2. Ahmedova E. “O‘zbek ayoli hayotida musiqa”. – Toshkent: 1966.
3. Jabborov A. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari”. – Toshkent: 2004.
4. Oripov Z. “Sharq musiqiy manbashunosligi”. – Toshkent: 2008.
5. Янов-Яновская Н.С. “Узбекская музыка и XX век”. – Ташкент: 2007

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



ISMOILJONOVA MADINA SAYFULLOJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (PhD),
dotsent, Abrarova M.F.

ILM VA IJOD FIDOYISI – MAXINA ABRAROVA

“Ilm va ijod tutashgan manzilda, musiqaning tirik xotirasini yuragida saqlagan, har bir ohangning ichidan tarixni o‘qigan bir inson bor. U – Maxina Abrarova!”

M.Ismoiljonova

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqashunos Maxina Abrarovaning ilmiy va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Uning milliy va jahon musiqa tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, O‘zbekiston kompozitorlik maktabiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari bilan borasida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada uning O‘zbekiston davlat konservatoriyasidagi pedagogik tajribasi, ilmiy izlanishlari va musiqashunoslikka qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ilm**,** musiqashunoslik, jahon musiqa tarixi, kompozitorlik san’ati, anjuman, izlanishlar, xalq musiqasi, pedagogika, ilmiy tadqiqot, konservatoriya, dotsent, milliy musiqa madaniyati.

Аннотация: В статье анализируется научная и педагогическая деятельность музыковеда Мохины Абраровой. Рассматриваются её исследования в области национальной и мировой музыкальной истории, а также научные труды, посвящённые узбекской композиторской школе. Особое внимание уделяется её педагогическому опыту в Государственной консерватории Узбекистана, научным изысканиям и вкладу в развитие музыковедения.

Ключевые слова: наука, музыковедение, мировая музыкальная история, композиторское искусство, конференция, исследования, народная музыка, педагогика, научное исследование, консерватория, доцент, национальная музыкальная культура.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlash, ijodiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash hamda san’atning turli yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan qator muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-sonli Farmon – “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjat bilan ushbu sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Unga muvofiq, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, san’at sohasi xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy va ilmiy izlanishlariga shart-sharoit yaratish kabi masalalar ko‘tarildi. Shuningdek, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinib, ijodiy jamoalar faoliyatini rag‘batlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari belgilab berildi. Mazkur islohotlar doirasida ayniqsa ayol-qizlarning san’at sohasidagi ishtirokini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ularning ijodiy va ilmiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan grantlar, stipendiyalar va mukofotlar joriy etildi. Davlat rahbarining tashabbusi bilan san’at va madaniyat sohasidagi ayol ijodkorlar uchun maxsus mukofotlar ta’sis etildi. Ulardan eng nufuzlilari – “Zulfiya” mukofoti, “Ilm yulduzlari” mukofoti, “San’at fidoyisi” mukofoti bo‘lib, ularning har biri o‘z yo‘nalishida iqtidorli ayollarni rag‘batlantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda ta’lim, fan, san’at va madaniyat sohalarida ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, musiqashunoslik, pedagogika va san’atshunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan ayollar nafaqat O‘zbekiston madaniyati va san’atining rivojiga, balki xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqotlarga ham muhim hissa qo‘shmoqda. Bu borada fidoyi olimalardan biri M. Abrarova bo‘lib, u musiqashunoslik sohasida samarali ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislardan biridir. Uning tadqiqotlari o‘zbek musiqasi rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda, shuningdek, yosh musiqashunoslarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda.

Maxina Abrarova 1980-yil 9-oktabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1988-1995-yillarda 1-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabida fortepiano mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan. 1995-1999-yillarda Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida «Musiqa nazariyasi» bo‘limida o‘qigan. 1999-yilda Toshkent davlat konservatoriyasining «Kompozitsiya» bo‘limiga qabul qilinib, shu bilan birga «Musiqashunoslik» yo‘nalishida tahsil olgan. M. Abrarova zamonaviy o‘zbek musiqashunosligi va pedagogikasida chuqur ilmiy izlanishlari va o‘qituvchilik faoliyati borasida yetuk mutaxassislardan biri. U san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘lib, hozirda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining «Musiqa tarixi va tanqidi» kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yuritadi. Uning tadqiqotlari milliy va jahon musiqa tarixi bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etib, o‘zbek musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Musiqashunos sifatida kompozitorlik ijodiyotiga aloqador mavzularda tadqiqotlar olib borgan. Uning ilmiy ishlari Sharq va G‘arb musiqa an’analari, o‘zbek kompozitorlik maktabi va xalq musiqasi tarixi kabi mavzularni qamrab

olgan. U o‘z tadqiqotlarida zamonaviy ilmiy metodlardan foydalangan holda milliy musiqa madaniyatining rivojlanishini chuqur o‘rgangan. Ilmiy ishlari orasida o‘zbek kompozitorlik ijodi tarixi, mumtoz musiqa janrlari va ularning rivojlanish bosqichlari alohida o‘rin tutadi.

M.Abrarovaning dissertatsion tadqiqoti “XX-XXI asr kompozitorlarining adabiy-tanqidiy ijodiyotida milliy va umuminsoniy tamoyillar mavzusida bo‘lib, kompozitorlik ijodini o‘rganishda alohida e’tiborga loyiq. Ushbu tadqiqotda xalq musiqasi va zamonaviy kompozitorlik uslublari uyg‘unligi, an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda B.Bartok va V.Uspenskiy ijodi solishtirilib, folklorning kompozitorlik ijodidagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, neoklassitsizm va impressionizm kabi yo‘nalishlarning o‘zbek kompozitorlari asarlariga ta’siri tahlil etilgan. DSc bosqichida «O‘zbekiston musiqiy mualliflik ijodiyotida tafakkur mohiyati» mavzusini yoritib, ijodiy tafakkurning musiqiy mualliflikka ta’siri va uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilgan. Uning «Zamonaviy musiqa» nomli o‘quv qo‘llanmasi (T., 2023) XX–XXI asr boshidagi kompozitorlik ijodiyotidagi yangiliklar va o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Bu qo‘llanma bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, zamonaviy musiqa fani mavzularining murakkab jihatlarini tizimli o‘rganish imkonini beradi. M.Abrorova nafaqat musiqashunos, balki tajribali pedagog sifatida ham talabalarga chuqur bilim berib kelmoqda. U O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Jahon musiqa tarixi”, “Musiqashunoslik asoslari”, “Zamonaviy musiqa”, “Mutaxassislik” bo‘yicha dars berib, yosh musiqashunoslarni tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. O‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalangan holda talabalar bilimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Talabalari orasida ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqish uyg‘otish maqsadida u amaliy tadqiqotlarga jalb etish, ilmiy anjumanlarda ishtirok etishga rag‘batlantirish va interaktiv ta’lim usullaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan. Bu pedagogik yondashuv talabalar bilimini chuqurlashtirishga hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

M. Abrorova nafaqat musiqashunos, balki, kompozitor sifatida ham o‘ziga xos ijodiy yo‘lni shakllantirgan. U o‘zbek kompozitorlik an’analarini zamonaviy musiqiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, kompozitorlik yo‘nalishida ta’lim olish davrlarida betakror musiqiy asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Uning ijodida fortepiano uchun sonata va romanslar, nay, tanbur va doira uchun pyesa, litavra uchun pyesa, shuningdek, “Bir gul umri” simfonik poemasi kabi asarlar o‘rin olgan. 1999–2003 yillarda yaratilgan ushbu asarlar kompozitorning musiqiy dunyoqarashi, milliy va zamonaviy ifoda vositalarini uyg‘un qo‘llash mahoratini yaqqol namoyon etadi. M.Abrarova o‘z asarlarida an’anaviy ohanglarni zamonaviy kompozitorlik uslublari bilan birlashtirib, o‘ziga xos musiqiy olamini yaratishga erishgan. Uning ilmiy ishlari zamonaviy musiqa ijodi va kompozitorlik tafakkurining shakllanishi, Sharq mutafakkirlari merosining zamonaviy kompozitorlik uslublariga ta’siri, o‘zbek kompozitorlarining ijodiy tafakkuri hamda zamonaviy musiqaga munosabati kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

M.Abrarova musiqiy targ‘ibotchi sifatida ham faoldir. U OAV televideniye va radioda 40 dan ortiq ko‘rsatuv va eshittirishlarda kompozitorlik ijodini targ‘ib kelib kelmoqda. Shuningdek, ko‘plab konsertlarda boshlovchi sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Respublika va Xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda dolzarb mavzulardagi ma’ruzalari bilan qatnashib kelmoqda. Jumladan, Qozog'iston, Rossiya, Ozarbayjon, Italiya, Avstriya konferensiyalaridagi ishtiroki so‘zimizning dalilidir.



Shuningdek, u zabardast kompozitorlar – Ikrom Akbarov, Dadaali Soatkulov, Akram Hashimovlarning ijodiy tafakkurini chuqur o‘rganib, ularning musiqiy merosi va zamonaviy ijodiy jarayonlarga ta’sirini tahlil qilgan. Musiqashunoslikda ilm-fan va ijodning mushtarakligi masalasiga ham alohida e’tibor qaratib, ilmiy izlanishlar va amaliy musiqiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etgan. Mohina Abrorova ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib, opera san’ati, balet va kompozitorlik tafakkurining zamonaviy musiqa ijodiyotidagi aks etishi bo‘yicha o‘z nutqlarida ta’kidlaydi. Uning Kazan konservatoriyasida “Kompozitorlik tafakkuri turlarini tizimlashtirish” mavzusidagi onlayn ma’ruzasi bunga yorqin misoldir. Mohina Abrorova ilmiy maqolalari asosan «Musiqiy tanqid va tadqiqotlar», «Kompozitorlik san’ati», «O‘zbek musiqasi va zamonaviy muammolar», «O‘zbek musiqa san’ati va tarixi», «Jahon musiqasi» mavzulariga bag‘ishlangan bo‘lib, turli mamlakatlarda nashr etilgan nufuzli jurnallarda chop etilgan.

2020-2023 yillarda olima “Musae” xalqaro grant loyihasida qatnashdi. M.Abrarovaning musiqiy merosni chuqur tadqiq etish va uni kelajak avlodga yetkazish yo‘lida samarali mehnat qilmoqda. Uning o‘nlab shogirdlari bugungi kunda respublikamizdagi madaniyat va san’at dargohlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanmoqdalar. Samimiy va o‘ziga ishongan shogirdlariga nisbatan M.Abrarovaga ilmiy va pedagogik faoliyatiga omad tilaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6000-son Farmon. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaror. – Toshkent, 2022 y.
3. Abrorova M. «Zamonaviy musiqa». -Toshkent.: «Musiqa» nashriyoti, 2023. -86 b.
4. Abrorova M. «XX–XXI asr kompozitorlarining adabiy-tanqidiy ijodiyotida milliy va umuminsoniy tamoyillar», -Toshkent.: 2018. –133 b.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



ISMOILJONOVA MADINA
SAYFULLOXON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi”
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (PhD),
dotsent, Abrarova M.F.

AMERIKANI ZABT ETGAN O‘ZBEK GOBOY IJROCHISI

(Madina Rashidovaning g‘alaba sari yo‘li)

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste’dodli goboychi, musiqashunos Madina Rashidovaning san’at sohasidagi yo‘li va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari yoritiladi. Uning ijodiy izlanishlari, O‘zbekiston san’atini dunyoga tanitish yo‘lidagi harakatlari va yirik musiqiy anjumanlardagi ishtiroki haqida so‘z boradi. Maqola san’atga bo‘lgan fidoyilik va mashaqqatli mehnat natijasida erishilgan yutuqlarni aks ettirib, yosh ijodkorlar uchun ibrat va namuna bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: goboy, O‘zbekiston san’ati, Madina Rashidova, xalqaro tanlovlar, musiqashunos, xalqaro konferensiya, O‘zbekiston madaniyati, musiqiy ta’lim, iste’dodli yoshlar, san’at fidoyilari.

Аннотация: В статье освещается творческий путь талантливой гобоистки и музыковеда Мадины Рашидовой, а также её успехи на международной арене. Рассматриваются её художественные поиски, вклад в популяризацию узбекского искусства за рубежом и участие в крупных музыкальных форумах. Особое внимание уделяется преданности искусству и упорному труду, благодаря которым были достигнуты значимые результаты. Статья может служить примером и вдохновением для молодых творцов.

Ключевые слова: гобой, искусство Узбекистана, Мадина Рашидова, международные конкурсы, музыковедение, международная конференция, культура Узбекистана, музыкальное образование, талантливая молодежь, подвижники искусства.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning o‘rni va mavqeini yuksaltirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, erkin, farovon hayot kechirishlari uchun munosib shart-sharoit yaratish – davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridandir. Ayniqsa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni mustahkamlash borasida keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodlar farovonligi yo‘lida muhim qadamlardan biri sanaladi. Respublikamizda ayol-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligimiz takomillashtirilib, ayol-qizlarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Xotin-qizlarning ta’lim olishi va rivojlanishi har bir jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda aynan shu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qizlarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning intellektual va kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida bir qator imtiyozlar joriy etilgan. Oliy ta’limga kirishda ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar uchun qo‘shimcha davlat grantlari ajratilishi, kasb-hunar ta’limida bepul o‘qish imkoniyatining yaratilishi, tajribali, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan ayollar uchun maxsus kvotalar belgilanishi – bularning barchasi ularning jamiyatda faol va munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, “Zulfiya”, “Nihol”, “Ilm yulduzlari” kabi bir qator mukofotlar iqtidorli yosh qizlarni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynab, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga turtki bo‘lmoqda. «Ayollar daftari» tizimi orqali esa ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning ta’lim xarajatlari qoplanib, ularning ilm olishiga amaliy yordam berilmoqda. Bu imkoniyatlar shunchaki hujjatlar yoki rejalar emas – bu har bir qizning bilim olishi, mustaqil fikrlashi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi uchun yaratilgan sharoitdir. Xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha yangi ish tizimi joriy etilishi: 2020-yil 8-oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida xotin-qizlar va yoshlarning jamiyatdagi rolini oshirish hamda ularning bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi. Ayollar ta’limi – bu jamiyat kelajagiga qo‘yilgan eng katta sarmoya. Va bu yo‘nalishda qilingan har bir qadam nafaqat bugun, balki, ertangi kun uchun ham mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir san’atkorning yo‘li – bu fidoyilik va mashaqqatga to‘la sayohatdir. Ba’zan bu yo‘lda yutuqlar, ba’zan esa o‘ziga yarasha sinovlar ham bo‘ladi. Ammo haqiqiy iste’dod egasi o‘z orzulari sari intilib, har bir qadamida yangi marralarni zabt etishda davom etadi. Goboy sadosi bilan dunyoni rom etayotgan o‘zbek qizi-Madina Rashidova ham aynan shunday fidoyilardan biri. Uning musiqaga bo‘lgan mehr-muhabbati, ijodga bo‘lgan sadoqati va xalqaro sahnada O‘zbekiston nomini sharaf bilan tanitishi bunga yorqin misol.

Madina Rashidova 2001-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida dunyoga kelgan. San’atga bo‘lgan muhabbat uning bolaligidanoq shakllandi. To‘rtinchi sinfgacha oddiy maktabda ta’lim olgan yosh ijodkorning iste’dodi erta namoyon bo‘ldi va u Toshkent shahridagi Respublika

ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyiga o‘qishga qabul qilindi. Aynan shu yerda u goboy cholg‘usi uning hayotining ajralmas qismiga aylandi. U bilan ilk bor tanishdi. Uning yuragida birdan nimadir uyg‘ondi, o‘ziga tortuvchi sehrli kuchni his qildi. Bu ovoz unda unutilmas taassurot qoldirdi – go‘yo goboy cholg’usini ilk bir eshitishi bn, uni o‘z quchog‘iga olgandek, o‘ziga chorlayotgandek edi. Shu lahzadan boshlab, bu nafis cholg‘u uning maqsadiga, hayotining ajralmas bir qismiga aylandi. San’atga bo‘lgan ishtiyoqi tufayli Madina yoshligidanoq nufuzli musiqiy tanlovlarda ishtirok eta boshladi.

2013-yilda “San’at g‘unchalari” Respublika tanlovida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgani uning musiqiy faoliyatidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Keyingi yillarda ham u respublika va xalqaro miqyosdagi nufuzli tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab keldi. 2019-yilda litseyni tamomlagan Madina o‘z mahoratini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil oldi. Musiqashunoslik yo‘nalishi bo‘yicha san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Mohina Abrorova sinfida ta’lim olib, goboy cholgusi tarixiga bag’ishlangan bitiruv malakaviy ishini muvaffaqqiyatli himoya qildi. Cholg‘u ijrochiligi goboy turi bo‘yicha esa Iqboljon Imomov sinfida ta’lim oldi. U ilmiy tadqiqotlar bilan ham shug‘ullandi. Ijodiy izlanishlar bilan bir qatorda, u professional faoliyatini ham davom ettirdi. 2020-yilda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi orkestrida goboy ijrochisi sifatida ish boshladi. Bu tajriba unga yirik sahnalarda, professional musiqachilar bilan bir safda turib ijro etish imkoniyatini berdi. 2021-yildan esa u “Muqumiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatri”da o‘z faoliyatini musiqiy spektakllarda ishtirok etdi.

Madina nafaqat iste’dodli ijrochi, balki, jamiyatga foydali bo‘lishga intiladigan, bilim va tajribasini boshqalar bilan bo‘lishishga tayyor inson sifatida ham namoyon bo‘ldi. Pandemiya davrida ko‘plab yoshlar uchun ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha bepul darslar o‘tkazdi, viloyat yoshlari uchun fortepiano saboqlarini tashkil etdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tomonidan uyushtirilgan xayriya konsertlarida faol ishtirok etdi. Ijodiy izlanishlar va mehnatkashlik Madinani yanada katta marralar sari yetakladi.

2024-yilda u “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendianti sifatida AQShning Kolorado davlat universiteti magistraturasiga o‘qishga yo‘llandi. Bu unga nafaqat ta’lim olish, balki, O‘zbekiston musiqasini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini berdi. Yaqinda u dunyoning eng nufuzli anjumanlaridan biri – “International Double Reed Society” xalqaro konferensiyasida ishtirok etish va yakkaxon konsert berish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. 2025-yil iyun oyida AQShning Indianapolis shahrida o‘tkaziladigan ushbu konferensiyada u o‘zbek kompozitori Muhammadjon Otajonovning asarlarini goboyda ijro etib, xalqaro auditoriyaga o‘zbek musiqasining nozik ohanglari va kompozitori jozibasini yetkazadi. Bundan tashqari, u O‘zbekiston musiqasi haqida maxsus taqdimot o‘tkazib, milliy san’atimizning boy merosi va rivojlanish istiqbollari haqida so‘z yuritadi. Goboy mayin va chuqur ohanglari bilan yurakni larzaga soluvchi, har bir nafasda hikoya so‘zlaydigan nafis cholg‘u asbobi. **Madina Rashidova repertuarida esa ushbu sehrli ohanglarni yanada jonlantiruvchi asarlar**

jamlangan. Uning oxirgi besh yillik ijro repertuarida o‘zbek va boshqa kompozitorlarning asarlari o‘rin egallagan. O‘zbek bastakorlaridan A. Xoshimovning «Raqs» va M.Ashrafiyning «So‘zsiz qo‘shiq» asarlari goboy va fortepiano uchun yozilgan bo‘lib, milliy ohanglar bilan boyitilgan. Shuningdek, M.Otajonovning «Yig‘i» va «Qalb» asarlari goboy uchun solo tarzida ijro etilgan. Bundan tashqari, jahon bastakorlarining goboy uchun yozilgan mashhur asarlari ham repertuarga kiritilgan. W.A.Motsart, A.Vivaldi, J.Gaydn, R.Strauss kabi bastakorlarning konsertlari, F.Poulencning «Sonata»si, E.Morriconening «Gabriel’s Oboe»si ham bu ijro dasturining muhim qismidir. Shuningdek, F.Ferlingning mashhur 48 etyudidan ayrim qismlar, B.Brittenning «Olti metamorfoza»si ham repertuar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, N.Rimskiy-Korsakovning goboy va orkestr uchun yozgan variatsiyalari ham milliylik va akademizm uyg‘unlashgan ijod namunalari sirasiga kiradi. Madina Rashidova repertuarida klassik, romantik va zamonaviy bastakorlarning asarlari jam bo‘lib, ular orasida o‘zbek, rus, italiyalik, fransuz va boshqa milliy kompozitorlarning ijod namunalari keng o‘rin olgan. Madina Rashidovaning ushbu yutuqlari nafaqat uning shaxsiy g‘alabasi, balki, O‘zbekiston san’atining xalqaro miqyosdagi yorqin ifodasi bo‘lib, yosh iste’dod egalarining cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Eng e’tiborlisi, u san’atning ikki yo‘nalishini – ijrochilik va musiqashunoslikni birdek o‘zlashtirib, o‘z ustida muntazam ishlash orqali har ikkala sohada mutaxassis sifatida shakllanib bormoqda. Bu esa uni nafaqat iste’dodli ijrochi, balki musiqaning mohiyatini anglab, uni tahlil qila oladigan bilimdon mutaxassis sifatida ham yetuklik sari yetaklamoqda.

Madina Rashidovaning ijodiy yo‘li – iste’dod va mehnat birlashganida qanday yuksakliklarga erishish mumkinligining yorqin namunasidir. Davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar, jumladan, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari va ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi unga o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, musiqaga chuqur sho‘ng‘ish imkonini berdi. Madina kabi yoshlar intilishi, sabr-qanoati va fidoyiligi bilan kelgusi avlodga ibrat bo‘la oladi. Ularning muvaffaqiyati nafaqat shaxsiy yutuq, balki milliy san’atimiz rivojiga qo‘shilgan ulkan hissa hamdir. Har bir yoshga o‘z orzulariga erishishda g‘ayrat va shijoat tilab, shuni ta’kidlash kerakki, maqsad sari qat’iy intilgan inson uchun barcha eshiklar ochiq! Uning yo‘li fidoyilik va matonat bilan to‘ldirilgan bo‘lsa-da, bu hali boshlanishi. Oldinda yangi yutuqlar, yangi sahnalar va yangi g‘alabalar turibdi. U san’at orqali millatimiz madaniyatini dunyoga tanitayotgan iste’dodli yosh ijodkor. Uning har bir bosib o‘tgan yo‘li musiqaga bo‘lgan cheksiz muhabbat va mehnat natijasi. Amerika sahnasida goboy sadosi ostida milliy ohanglarimiz jaranglashi – bu nafaqat bir ijrochining yutug‘i, balki, butun millatimiz san’ati va madaniyatining yuksalishidir. Madinaning musiqiy sayohati hali davom etmoqda, va u o‘zbek musiqasi bilan dunyoni zabt etishda davom etishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaror. – Toshkent, 2022 y.
2. «Musiqa ijodiyoti masalalari» maqolalar to'plami. II kitob. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2002. - 112 b.
3. Nigmatov R. «Goboy ijrochiligi» – Toshkent, 2010. – 63 b.
4. Ijodkor bilan suhbatdan olingan*

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



JUMABAEVA MADINA
AMANKELDI QIZI

O‘zbekiston davlat
konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
2-bosiqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi,
Maxmudova S.M.

KOMPOZITOR SITORA NARTURAYEVANING IJODI YOSH MUSIQASHUNOS NIGOHIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa san’atida ayol kompozitorlarning o‘rni va yosh kompozitor Sitora Narturayevaning hayoti va ijodi haqida so‘z yurtiladi. Uning “Ayol qalbi” nomli vokal turkumi mazmun, musiqiy tili kompozitsion tuzilishi kabi jihatlarga ahamiyat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: vokal turkum, she’r, musiqiy til, garmoniya, sillabik tamoyil, yashirin polifoniya.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль женщин-композиторов в музыкальном искусстве, а также жизнь и творчество молодого композитора Ситоры Нартураевой. Особое внимание уделено содержанию, музыкальному языку и композиционной структуре её вокального цикла «Аёл калби».

Ключевые слова: вокальный цикл, стихотворение, музыкальный язык, гармония, силлабический принцып, скрытая полифония.

Musiqa san’ati jamiyatda madaniy hayotining muhim qismi bo‘lib, uning rivojlanishida erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham katta hissa qo‘shib kelishmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimdan ayollar musiqiy an’analarni saqlab kelgan, ya’ni qo‘shiqlar aytib, cholg‘u asboblarida ijro qilib va hatto yangi musiqiy janrlarning shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata olgan. Sharq madaniyatida hofiza ayollar, maqom ijrochilari va bastakorlar tarixda alohida o‘rin egallagan. O‘zbek xalq musiqasida esa ayollar nafaqat ijrochi, balki mumtoz va zamonaviy musiqa yo‘nalishlarida ijod qiluvchi san’atkor sifatida ham tanilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat oldida teng

huquqliligi va ularning musiqa san’atidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator qonunlar va davlat dasturlari mavjud[13].

“O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi ro‘lini kuchaytirish bo‘yicha 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi” da madaniyat va san’at sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularga sharoit yaratish va ularning huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan. Bu qonun va dasturlar ayollarning san’at sohasida, xususan, kompozitorlik yo‘nalishida ham o‘z ijodini rivojlantirishiga imkon yaratmoqda. Ayol kompozitorlarning paydo bo‘lishi va ularning yangi musiqiy asarlar yaratishi yurtimizda musiqa san’atining yanada boyishiga, va dunyo sahnasida o‘zbek musiqasining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ham yurtimizda ana shunday san’at fidoiylari bo‘lgan ayol kompozitorlarimiz ham soni kam emas. Bulardan; Shohida Shoymardonova, Zumrad Tuychiyeva, Diloram Saydaminova, Dilorom Omonullaeyeva, Xurshida Xasanova, Oydin Abdullayeva, Polina Medyulyanova, Dilnoza Zakirova, Sitora Narturayeva va boshqalar.

Bular orasida yosh kompozitor “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari” uyushmasi a’zosi Narturayeva Sitora Oribovna hozirgi kunda o‘zbek musiqasida samarali ijod qilib kelmoqda.

Kompozitor 1991-yili Toshkent viloyati Yangi yo‘l shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Musiqaga qiziqishi tufayli musiqa maktabda fortepiano sinfida tahsil oladi. 2007-yili Xamza Xakimzoda Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kollejiga fortepiano bo‘yicha o‘qishga kiradi. Kollejni tamomlagach, kompozitorlikka qiziqishi uyg‘onib, 2010-2014 yillari O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “Bastakorlik san’ati” yo‘nalishi bo‘yicha professor Farxod Alimov sinfida tahsil oladi. Va bakalavr bosqichini O‘lmas Umarbekovning romani asosida “Fotima va Zuxra” nomli simfonik poema va torli cholg‘ular uchun kvartet bilan yakunlaydi. Magstratura bosqichini “O‘zbekiston kompozitorlari ijodida psixologik xususiyatlar” nomli dissertatsiyasi hamda “Ibn Sino” nomli simfoniya, “Ayol qalbi” nomli fortepiano va soprano ovozi uchun vokal turkum bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Kompozitor talabalik yillarida turli xalqaro va Respublika ko‘rik-tanlovlar ishtirokchisi va musiqaga doir ko‘plab ilmiy maqolalar yozgan. Bundan tashqari fortepiano uchun turli pyesalar, torli cholg‘ular uchun kvartetlar, damli cholg‘u va fortepiano uchun ansambllar, soprano ovozi uchun romanslar, xalq cholg‘ulari orkestri uchun raqs, “Yurtim navolari” nomli simfonik syuita va boshqa asarlar muallifidir. Kompozitorning asarlarida uning o‘ziga xos uslubini va albatta o‘zbek an’analarini aks ettiruvchi milliy ohanglarni ham kuzatamiz.

Kompozitor o‘z ijodida ayollar simosiga bag`ishlab **“Ayol qalbi”** nomli vokal turkumini yozgan. Turkumda ayolning umidi, uning pok qalbi, orzu-umidlari, ichki kechirmalari va farzandiga bo‘lgan mehri mahoratli tasvirlangan. Mazkur vokal turkumi Gulchehra Nurullayeva she’rlari asosida soprano va fortepiano uchun yozilgan. Turkum beshta romansni o‘z ichiga oladi, bular: “Vokaliz”, “Alla”, “O‘g‘lim Ulug‘bekka”, “Yetishmay turarkankan chaqnoq ko‘zligim…”, “Ayol baxti” momli romanslardir. Bu romanslarning mazmuni

[13] Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan.

yuqorida aytib o‘tkanimizdek bir birga juda yaqin. Har bitta romans musiqasi bir-birini takrorlamaydi, har biri o‘ziga xos musiqiy ohangiga ega.

Turkumni “Vokaliz” romansi boshlab beradi, musiqasi hayojanli va qayg‘uli, sokin kuy xarakterini dissonans akkordlar bilan ifodalaydi. Undan so‘ng soprano ovozida kuy boshlanadi. Bu qism vokal partiyasi so‘zsiz kuylanadi. Bu ayolning ichki kechinmalarini ohanglar orqali aks ettirganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi qismi “Alla” romansi. Biz bilamizki ona farzandini uxlatish maqsadida alla aytyotganida bolaga bo‘lgan mehrini, tilaklarini kuyga solib aytadi. Bu romansni eshitganimizda ham xuddi shunday. Romansning she’rida ham alla mazmuni juda chiroyli yoritilgan:

Ko‘kning oltin hiloli
Mening bag‘rimga tushdi alla,
Umrim bo‘ldi jiloli,
Borligimdan nur ko‘chdi alla.

Vokal partiyasi asosan sillabik tamoyilga asoslangan holatda musiqaga tushurilgan.

Ko‘p allalarda kuzatiladigan usul ya’ni fortepiano cholg‘usi partiyasidagi bas ovozida ostinato usuli qo‘llanilgan, bu deyarli asar ohirigacha saqlanib qolingan. Bundan tashqari fortepiano fakturasida yashirin polifoniyalarni ya’ni akkordlar ostida kichik motivli kuylar mavjudligini sezamiz. O‘zbekona kayfiyat bag‘ishlash uchun xalq ladlaridan eoliy, miksolidiy, frigiylardan foydalanilgan. Har doim alla ohanglari bizga sokinlik, hotirjamlik kayfiyatini bergan. Bu romansning o‘ziga xosligi shundaki kuyda avjga chiqish xolatlari va soprano ovozidagi *forte* dinamikasidir. Bu orqali faqatgina farzandini allalab, unga tilak bildirayotgan ona emas balki, alla yordamida ayol o‘zining hayollari, izrtiroblarini yetkazyatganini bildiradi. Alla sokin xarakterda past dinamika bilan yakunlanadi.

Uchunchi qism “O‘g‘lim Ulug‘bekka” romansi. Bu romans xarakteri xush kayfiyat bag‘ishlovchi, quvnoq shijoatli. Bunda ayol o‘z farzandi kelajagini yorqin bo‘lishiga umidi, orzusi va tilaklarini bildiradi[14].

Bedorlikda ko‘p ma’no,
Mo‘y qalamni yonib ol,
Chizmoq bo‘lsang avvalo,
Yuraklarni tanib ol.

Kirish qismi gomofon-garmonik fakturasida yengil, sho‘x kayfiyatni beruvchi ohang bilan boshlanadi. Aynan ko‘taringki kayfiyatni berish uchun kompozitor ikkala partiyada ham o‘n oltitalik notalarning to‘lqinsimon harakatlarini ko‘rishimiz mumkin. Va asar ohiri avj nuqtasiga kelib yakunlanadi.

Turkumning to‘rtinchi qismi “Yetishmay turarkan chaqnoq ko‘zligim…” deb nomlanadi. Romans aynan shu misralar bilan boshlanadi. Xaraketeri, o‘ychan va sokin kayfiyatni beradi. She’rning mazmunida endi onaning emas balki ayolning ichki tuyg‘ulari va iztiroblari aks ettirilgan.

[14] Romans mi major tonalligida yozilgan.

Yetishmay turkan chaqnoq ko‘zligim,
Yoshligim jura’tlari shaddod sho‘xligi.
Menga alam qilar kenja qizligim,
Alam qilar ukam singlim yo‘qligi.

Fortepiano partiyasi fakturasi gomofon-garmonik. Soprano ovozi sekunda intervali bo‘yicha harakatlanib boradi. Romansda ayolning iztiroblarini ko‘rsatishda melizim va forshlaglardan foydalangan. Bas ovozida garmonik tuzilmadan tashqari yashirin polifoniyalarni ham kuzatamiz. Ushbu asarning o‘rta qismida ritmning nomuntazamligi ya’ni o‘lchov o‘zgarishi ham uchraydi. Romans kirish qismidagi ohangi bilan yakunlanadi.

Vokal turkumning yakuniy qismi “Ayol baxti” romansidir. Xarakteri matonatli ayol ohangini beradi. She’riy mazmunda ayolning hayotdagi o‘rni, baxti va ichki qudrati ifoda etilgan bo‘lib, soddalik va ichki baxt tuyg‘usiga urg‘u berilgan. Bu aynan shu misralarda:

Hayot tayanchi u o‘zi yaralib,
Qodir bo‘lganidan yaratmoqqa ham.
Yana bir tomchida tursin taralib,
Onalikning baxti bo‘lmasin u kam.

Romans gomofon-garmonik fakturasi asosida yozilgan bo‘lib fortepiano partiyasida o‘n oltitalik notalarda bitta mavzudagi harakat har xil balandlikda takrorlanadi. Bundan tashqari bas ovozida akkordlar bilan birga bir ovozli kuyni ham ko‘ramiz. Bu holat deyarli asar so‘ngicha davom etadi, faqatgina bitta kupletdan keyingi kupletga o‘tishda nimchorakdagi notalarda forshlaglar bilan bezatilgan kuy yangraydi. Asar jo‘shqin ohangda garmonik akkordlar bilan yakunlanadi.

Umuman olganda yosh kompozitor o‘z asarida milliy musiqiy an’analar va zamonaviy kompozitorlik uslublarini uyg‘unlashtirib, ayol qalbining nozik kechinmalari, orzu-umidlari va ichki iztiroblarini tasvirlashga alohida e’tibor qaratgan. Ayniqsa, “Ayol baxti” romansida ayolning matonati, onalik baxti va jamiyatdagi o‘rni musiqiy ifodada namoyon bo‘lgan. Har bir romans o‘ziga xos ohang va kayfiyatga ega bo‘lib, ayollarga bo‘lgan ehtirom va hurmatni musiqiy vositalar orqali yetkazib bera olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, yosh kompozitorning ijodi o‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga yangi ruh bag‘ishlab, milliy musiqamizning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Sitora Narturayeva ijodi o‘zbek musiqasida ayol kompozitorlarning o‘rnini yanada mustahkamlashga, san’at yo‘lida ularning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish borasida xizmat qilayotganlar qatoridadir.

Albatta ayol faqatgina ijodkor emas, balki san’atning ilhomchisi hamdir. Uning qalbi, dard-u shodligi, his-tuyg‘ulari o‘z asarlar orqali namoyon bo‘ladi. Ayolning nazokati san’atga hayot baxsh etadi, uni yanada jozibali va mazmunli qiladi. Shunday ekan ayol ijodkorlarimiz har doim yurtimizda qadrlanib kelgan .

Bugungi kunda ham xotin-qizlarning san’at va madaniyat sohasidagi faoliyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun turli dasturlar amalga oshirilayotgan bir paytda biz

san’atshunos ayol va qizlar albatta bundan unumli foydalanib, yurtimiz san’ati rivojiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz darkor. Zero ayol bor ekan – san’at yashaydi, san’at yashar ekan – qalblar nurlanadi va shu o‘rinda davlatimiz san’ati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.H.Jabbarov “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” T., 2004.
2. O.N.Azimova, Sh.E.Ibragimova “Zamonaviy Garmoniya” T., 2015.
3. G.Abdikayumova “Zamonaviy Garmoniya” T., 2015.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



KURBANOVA GULCHEKHRA ABDULLAEVNA

Head of the department of Practice of the SCU, associate professor of the department of Music pedagogy, candidate of Psychological sciences, academician of the Academy of Sciences Turan.

INCREASING THE ACTIVITY OF INDEPENDENT WOMEN CREATIVES IN RAISING SOCIETAL MORALITY: THE EXAMPLE OF SUYUNOVA ZAMIRA RAJABOVNA

Annotation: The article highlights the contributions of Zamira Suyunova, a renowned Uzbek singer, composer, and educator, to the preservation and development of Uzbek musical traditions. It details her early life, education, and artistic journey, emphasizing her role in the Dutorchilar Ensemble and her academic career. The text lists her notable songs and compositions, as well as the numerous awards she has received. Additionally, the article underscores the importance of supporting women in the arts and acknowledges their influence on cultural heritage.

Keywords: Zamira Suyunova, uzbek music, Dutorchilar Ensemble, composer, performer, educator, uzbek musical heritage, traditional music, artistic legacy, cultural preservation, music awards, women in the arts, artistic inspiration.

Аннотация: Статья посвящена вкладу Замиры Суюновой, известной узбекской певицы, композитора и педагога, в сохранение и развитие узбекской музыкальной традиции. Описаны её ранние годы, образование и творческий путь, с особым акцентом на её роль в ансамбле «Дуторчилар» и педагогической деятельности. Приведён перечень её известных песен и композиций, а также многочисленные награды. Кроме того, статья подчёркивает важность поддержки женщин в искусстве и их влияние на культурное наследие.

Ключевые слова: Замира Суюнова, узбекская музыка, ансамбль “Дуторчилар”, композитор, исполнитель, педагог, музыкальное наследие Узбекистана, традиционная музыка, культурное наследие, музыкальные награды, женщины в искусстве, вдохновение в искусстве.

A significant amount of work is being carried out in our country to maintain peace, restore national values, achieve spiritual and economic prosperity, and develop a strong national ideology. Women undoubtedly play a crucial role in

addressing high socio-political tasks aimed at strengthening national independence.

It is natural for our government to take active measures to ease women's labor, improve the lives of mothers and children, protect their health, and enhance their political participation. The social activism of women is an essential factor in strengthening and stabilizing national independence.

Historically, women have held a high status in social governance, family structure, and child-rearing. Figures such as Tomaris, Turkon Khotun, Bibikhanim, Zebuniso, and Nodirabegim exemplify women's significant contributions to society.

According to psychologists, social activism generally begins at the age of 25. This is when most women fully mobilize their strength, intelligence, and potential for their careers, social activities, and community work. At this stage, women develop a greater sense of responsibility not only for their own actions but also for those of others.

Psychologists such as V. Shevchuk, Fulds, Raven, and Bellis have studied the nature of social engagement and found that physical strength, spirituality, mental alertness, hard work, intellectual ability, professional skills, and life experience contribute to women taking bold steps towards success.

Abu Ali ibn Sina states that if any event occurs due to internal or external causes, then a person's life and actions must also have reasons, one of which is «spiritual strength.» A woman's mental state and peace of mind play a crucial role in her vitality.

Women fulfill their fundamental social and natural function by nurturing human resources within the family. Their active participation in child-rearing and caring for the elderly should be recognized as an essential part of societal development. Parents share responsibility for raising children, and there should be no barriers preventing mothers from engaging in societal life.

Women and families make significant contributions to national stability and independence. Their increasing civic role is vital for our country's progress. Today, women play a key role in all spheres of life, strengthening their families' economic situation, educating their children in national traditions, and preserving folk applied arts. Entrepreneurship is also flourishing among them.

Throughout history, the debate on gender equality has persisted. However, the current stage of socio-economic development highlights human potential, and legal equality has ensured the active participation of women in social life. As psychologist E. Goziev states, «the ability to fully utilize physical and mental capabilities emerges not through sheer exertion but through skills, qualifications, and experience.»

During this period, women may experience feelings of hopelessness, depression, and apathy. However, with the support of family, peers, and colleagues, this process becomes more positive. While initiative and activism begin at 25, as women mature, they gain new perspectives on family, social life, and human dignity, becoming more active in societal development.

For example, our renowned poet Zulfiyakhanim, who embodies the spirit of Uzbek women, has inspired millions with her poetry, teaching lessons of humanity, love, and loyalty. Despite personal hardships, she remained a symbol of devotion and resilience.

Today, several women continue this legacy, including Professor of the Uzbek National Institute of Music named after Yu. Rajabiy and People's Artist of Uzbekistan, Zamira Suyunova; People's Artist of Uzbekistan, Professor Munojot Yulchiyeva; Honored Artist of Uzbekistan, Professor Malika Ziyoyeva; and Honored Artist of Uzbekistan, Associate Professor Komila Aminova. These women have earned a place in people's hearts, passing their artistic knowledge to younger generations.

The Life and Contributions of Zamira Suyunova, Zamira Suyunova was born in 1958 in the Kitab district of the Kashkadarya region. She studied music at the Glier Music School in Tashkent and later at the Tashkent State Conservatory. Her creative career began in 1979 when she joined the «Dutorchilar Ensemble» led by G. Tashmatov as a student. From 1979 to 1984, she worked as a soloist, from 1984 to 1994 as a music director, and from 1995 to 2002 as an artistic director. In 2002, she began her teaching career at the State Conservatory of Uzbekistan. She was awarded the title of Associate Professor in 2009 and later continued her work at the «Yu. Rajabiy Institute of Uzbek National Musical Art.»

Zamira Suyunova's scientific achievements were recognized, and she was awarded the title of professor in 2023. More than 200 of her singing performances have been recorded in the Golden Fund of the State Radio and Television of Uzbekistan.

Her notable songs include *«Oybulok,» «Bakhtimdan,» «Bilmam adashdimmi,» «Savti Chorgokh,» «Ufori Oromijon,» «Mushkuldur,» «Ishk seli,» «Bogi shalol,» «Dugoh,» «Talqini Bayot,» «Aziz Diyor,» «Watan Ishqi,» «Ona,»* and *«Alla.»*

Zamira Suyunova has also composed over 80 works, performed by the «Dutorchilar Ensemble,» herself, and young singers. Some of her compositions include *«Ona tilim,» «Holing nechuk,» «Aziz Diyor,» «Men rozhuzhen yurt,» «Beds are golden,» «Bogimuzama kirgan edik,» «Teng tengiga,» «Ustoz buyuk,» «Kelmading yor,»* and *«Boylarini korgoli.»*

Her students are accomplished singers, educators, and laureates of the Zulfiya State Prize. Since November 2024, she has served as the artistic director of the «Dutorchilar» ensemble of the State Philharmonic of Uzbekistan.

Zamira Suyunova's outstanding contributions have been recognized with numerous awards:

- *Youth Prize Laureate (1982)*
- *Honored Artist of Uzbekistan (1990)*
- *People’s Artist of Uzbekistan (1999)*
- *Order of Merit for Labor (2019)*
- *«Devoted to Spirituality» Award (2022)*
- *«Respected Woman» Breastplate (2025)*

She remains dedicated to research, creativity, and teaching, imparting knowledge to young artists.

Women, when given attention and encouragement, can achieve extraordinary things. As M. Madzini said: *«Love and respect women; seek from them not only comfort but also strength for your inspiration, a power that will double your spiritual and intellectual abilities.»*

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



KUTLUCHURINA ALINA ALFREDOVNA

Doctor of Philosophy in Art sciences (PhD), doctoral student – DSc, senior lecturer of the department of Music Theory at the State Conservatory of Uzbekistan.

ARZU NISHANOVNA AZIMOVA – FIRST UZBEK WOMAN TO RECEIVE A DOCTORATE IN THE FIELD OF MUSICAL ART

Annotation: This essay is dedicated to the first Uzbek woman who received a doctorate in art criticism (music) - Azimova Arzu Nishanovna, who made a great contribution to the development and establishment of contemporary musicology. The article analyzes its research, pedagogical and popularizing activities, thanks to which it is possible to appreciate the outstanding role of professor A.N.Azimova in the musical art not only of Uzbekistan but also beyond it.

Keywords: Arzu Nishanovna Azimova, woman, scientist, professor, doctor, art history, contribution, role, musicology, harmony, music, language.

Аннотация: Данный очерк посвящен первой узбекской женщине, получившей докторскую степень в области искусствоведения (музыкальное искусство) – Азимовой Арзу Нишановне, внесшей огромный вклад в развитие и становление современного музыковедения. В статье анализируется ее научно-исследовательская, педагогическая и популяризаторская деятельности, благодаря которым можно оценить непревзойденную роль профессора А.Н.Азимовой в музыкальном искусстве не только Узбекистана, но и за его пределами.

Ключевые слова: Арзу Нишановна Азимова, женщина, ученый, профессор, доктор, искусствоведение, вклад, роль, музыковедение, гармония, музыкальный, язык.

Arzu Nishanovna Azimova - leading national musicologist, doctor of art criticism, professor of the department of theory of music at the State Conservatory of Uzbekistan, author of fundamental research and educational works. She has devoted her life to musicology - a science of music, a multifaceted and complex profession that requires highly intellectual abilities and musical talent. She made a huge contribution to the art history of Uzbekistan, leaving behind a valuable scientific heritage and a host of talented students. Arzu Nishanovna is a person with great life and professional experience, inexhaustible knowledge and tireless creative energy.

Azimova Arzu Nishanovna is one of the prominent musicology scholars of the Republic of Uzbekistan, whose pedagogical and scientific activities are characterized by efficiency, initiative and high professional culture.

She was born on August 28, 1948 in Tashkent. in 1972, Arzu Nishanovna graduated from the Tashkent State Conservatory name of M.Ashrafi in «musicology», and in 1976 - graduate study in the class of professor S.A.Zakrjevskaya (here it is undoubtedly worth saying that the influence of the teacher had a great impact on the scientific development of A.N.Azimova as a musicologist. Sabina Arturovna laid down the basic knowledge and attitudes that formed Arzu Nishanova, which was manifested, above all, in the high demands to all parties of professional activity). Arzu Nishanovna – in 1974 teacher, in 1980 - candidate of art criticism, in 1985 - assistant professor. From 1991 to 1998 - Head of the Department of Music Theory at the State Conservatory of Uzbekistan, from 1996 to 1999 - Vice-Rector for scientific and creative work. In 2001 - professor of the department of theory of music of the State Conservatory of Uzbekistan, in 2002 - doctor of art criticism.

Professor A.N.Azimova became widely known as a musicologist, researching current issues of the theory of oriental music. In 1980, she successfully defended her candidate dissertation on «Musical form of ashula (structural-typology analysis) « in Moscow and in 2002 - doctoral dissertation on «Syntactic issues of eastern monody», becoming the first Uzbek woman, DSc in musicology.

Characterizing the bright and erudite personality of Arzu Nishanovna, it is important to note two mutually overlapping directions of its fruitful activity - research and teaching.

Research activity of A.N. Azimova is rich and multifaceted. The main areas of her scientific interests are related to various aspects of Eastern traditional music and compositional creativity of the Central Asian region. Arzu Nishanovna is the author of scientific monographs, textbooks, teaching aids, numerous articles published in Tashkent, Almaty, Dushanbe, Moscow, as well as Berlin and Istanbul. Her name is known not only in our republic, but abroad.

She is the author of important and fundamental research on current theoretical problems of Eastern traditional music. This is evidenced by 4 monographs and more than 100 articles devoted to the study of musical languages of the Turkic peoples, as well as 1 textbook (in several editions) and 7 manuals on various aspects of modern harmonic language and teaching methods of

solfeggio. The first two scientific monographs - «Issues of syntax of eastern monody» (book I, T.,1989; book II, T.,1998) attracted the attention of the scientific public not only in Central Asia, but also in Russia and Europe. In 2008, in the series «Dialogue of Cultures of Central Asia», A.N.Azimova published two more monographs 1.»Traditional musical language of Uzbek, Karakalpak and Uyghur people» and 2.»Sound world of Karakalpaks» (in Russian and English), where for the first time universal regularities regulating the functioning of Turkic musical languages are investigated. These works are also highly valued not only in Uzbekistan, but also outside of it.

We can say that Arzu Nishanovna is a musicologist-scholar with big letter, musicologist-theorist, musicologist-researcher, highly qualified specialist in his field. Working for 51 years in the State Conservatory of Uzbekistan, she lectures at high professional level bachelors, masters, leads a special class. She conducts classes with great interest and exactness, both in Russian and Uzbek languages on specifically complex musical-theoretical subjects such as «Harmony», «Modern harmony», «Basics of the theory of eastern monody» for musicologists and composers, and also for master performers. Reading special courses on these disciplines, A.N.Azimova created for the first time textbooks on harmony in Uzbek language, which were reissued several times («Harmony. Theoretical course», T.,1999, « Harmony « T.,2004,» Harmony», T.,2017).

The wide range of her interests is reflected in the variety of topics studied by her students, ranging from problems of rhetoric of the Baroque era, symmetry, modal structure, rhythm of Uzbek and Karakalpak traditional music, modern harmony of composers of Uzbekistan, the peculiarities of compositional creativity in the context of monodic thinking to innovative issues related to the educational process and, in particular, the first searches in the creation of ethno-solfeggio, textbooks on solfeggio, harmony and music theory. Professor A.N.Azimova's intensive and successful pedagogical activity contributed to the attraction of foreign specialists. Thus, her special class graduated from a graduate student from Germany - Kerstin Krenke, who successfully defended the candidate's dissertation on Uzbek pop music.

Today, Arzu Nishanovna continues to educate the young generation of musicologists and is a scientific supervisor for bachelor's, master's and doctoral students. During her 51 years of pedagogical activity, she educated more than 25 bachelor's degrees, 15 master's degrees and more than 10 doctoral students, not counting undergraduate and graduate students. Among them - D.Karomat (PhD, doctoral student DSc), SH.Berdikhanova (PhD, doctoral students DSc), A.Kutluchurina (PhD, doctoral student DSc), I. Mirtalipova (PhD), Sh.Lutfullaeva (doctoral student PhD), K.Azimov (doctoral student PhD), H.Mullajanova (doctoral student PhD), M.Hikmatullayeva (doctoral student PhD), Y.Bazarbayeva (doctoral student PhD), D.Payzieva (doctoral student PhD), G.Muhiddinova (doctoral student PhD).

Along with the intensive pedagogical activity of Arzu Nishanovna - author of various research and methodological projects. Under her direction from 2010 to 2014 years developed current projects in various areas of musical art. Thus, in

order to implement the objectives set out in the decree of the first President of the Republic of Uzbekistan I.A.Karimov «On the development of professional education in the field of continuous improvement of music schools until 2014», at the initiative of Professor A.N.Azimova were written and published textbooks - «Solfeggio» for music schools from I to V classes.

Also along with the project «Solfeggio», in 2015 A.N.Azimova and a group of students won a grant for the implementation of the project «Zamonaviy garmoniya» («Modern harmony»), within which was published a collection of five textbooks covering the main areas, in the modern harmonic language. In each of the five teaching aids, the history and theory of new directions of modern music are revealed, the specifics and forms of manifestation of new techniques of writing in the creativity of composers of Uzbekistan are deeply explored. This collection, highlighting the most important aspects of the modern musical language, allows us to build a fairly complete picture of the state and level of composer creativity in Uzbekistan. Work of this kind has not been carried out before and therefore it can be said with confidence that the realized by Azimova Arzu Nishanovna and her students - the first experience of complex study of modern harmony, turned out to be very successful and fruitful. List of authors and titles of the textbooks:

1. A.Azimova, Sh.Ibragimova. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida akkordlar tarkibi;
2. I.Mirtalipova. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida mikroxromatika;
3. G.Abdikayuova. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida faktura;
4. H.Dosmatov. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida sonorizm;
5. H.Nuritdinova. O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida modallik

The presented project is a result of many years of work of A.N. Azimova with talented students, who, taking the experience of their mentor, try to find their place in the scientific profession.

Thus, if we try to give a brief description of the activities of Azimova Arzu Nishanovna, it can be stated that she is the founder of a new direction - a comprehensive study of the modern harmonic language of Uzbek composers, as well as prominent a researcher whose works have made a significant contribution to the creation of the theory and history of the syntax of the Eastern monody.

Arzu Nishanovna is not only the scientific director of fundamental projects, but also stimulates the younger generation to conquer new heights of musical olympus, supports and literally «covers» his students. Although she is very strict, principled and demanding of her students, she never denies them the desire to stand up for their ideas. Arzu Nishanovna’s classes are always rich and interesting, stable and effective. We can say that she is a teacher from god. After each lesson, you always learn something new. Sometimes you are amazed by the depth of her knowledge, accumulated experience and professional skill. She has a rich vocabulary and extraordinary analytical, logical and creative thinking. She will always make critical remarks, point the right way, inspire to get acquainted with a new book, musical opus or creative personality.

Professor A.N.Azimova is the author of more than 100 scientific and methodological articles, an active participant in republican and international

conferences and symposiums held in Germany, China, Turkey, Russia, Kazakhstan, Tajikistan. She gave presentations at the International Musicology Symposiums in Samarkand, at scientific conferences of the International Festival of Traditional Music - «Shark Taronalari».

An authoritative mentor of the youth, A.N.Azimova actively participates in the work not only at the State Conservatory of Uzbekistan, but also in other musical organizations. She is a member of the Union of Composers of Uzbekistan, where for several years she worked actively as a board member. A.N.Azimova was a member of the organizing council for the festival «Shark Taronalari», the National Committee on Music of the Republic of Uzbekistan at UNESCO, the scientific Council for the publication of the National Encyclopedia of Uzbekistan, the Expert Council on Art Studies and Architecture. Currently a doctor of art history, professor A.N.Azimova is a member of the Specialized Councils for the protection of doctoral theses (PhD, DSc) of the State Conservatory of Uzbekistan and the Institute of Art Studies, as well as a member of the editorial board of the republican magazine «Musiqa» and the international online publication «Music art of Eurasia».

Very important part of the activity A.N.Azimova - popularization. In this capacity, on television and radio, she prepared a large number of programs devoted to individual genres, outstanding performers of Uzbek traditional music, the work of composers of Uzbekistan.

Azimova Arzu Nishanovna by her principled approach, care and attention to colleagues and students, constant work on raising his professional level earned deep respect from colleagues. Through her research and teaching activities, she has made a great contribution to the development of scientific thought in the field of musicology, becoming an example to be emulated.

Arzu Nishanovna Azimova - a person endowed with high intelligence and knowledge, strength and confidence, principled and strict, inexhaustible working capacity and responsibility, demanding to himself and the surrounding, inexhaustible life energy and optimism. She is a model of wisdom, humanism, warmth and faithfulness in the service of her profession, the cause of her life.

References:

1.Azimova, A.N. Issues of syntax of the eastern monody /A.N.Azimova. - Tashkent: Fan, 1989.– 90 p.

2.Azimova, A.N. Dialogue of Cultures of Central Asia: traditional musical language of the Uzbek, Karakalpak and Uyghur people/ A.N.Azimova. - Tashkent: Swiss Confederation, 2008. –161p.

3. Gulzarova, I.S. Orzu Azimova - Libretto of Life. - Tashkent: Asian book house, 2023. –200p.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



MAMADALIYEVA GULASALXON MANSURJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:katta o‘qituvchi,
Ibragimova Sh.E.

MUSIQA SAN’ATIDA RO‘ZIBI HOJIYEVANING IJODIY FAOLIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa san’atida ayollarning o‘rni va ularning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tahlil berilgan. Ayollarning qadimiy davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan musiqiy faoliyati, ularning ijro, bastakorlik, pedagogika va tadqiqotchilik yo‘nalishlaridagi hissasi yoritiladi. Shuningdek, dunyo va O‘zbekiston musiqiy an’analarida mashhur ayol san’atkorlarning o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Ro‘zibi Hojiyevaning ijodiy faoliyati misolida ayol musiqachilarning milliy va xalqaro sahnadagi muvaffaqiyatlari hamda boshqa xalqlarga o‘zbek xalq kuylarini o‘rgatganligi haqida yoritilgan. Maqola musiqiy san’atda ayollarning hissasini yanada chuqurroq anglashga va ularning ijodiy faoliyatini keng targ‘ib qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa san’ati, ayol o‘rni, pedagogika, opera, ijodkorlik faoliyati, ish faoliyati, tajriba, sinov, zarba, bastakor.

Аннотация: В данной статье представлен анализ роли женщин в музыкальном искусстве и их творческой деятельности. Рассматривается вклад женщин в музыкальную сферу с древних времён до настоящего времени, включая исполнение, композиторское мастерство, педагогику и научные исследования. Также анализируется роль известных женщин-исполнителей в мировых и узбекских музыкальных традициях. На примере творческой деятельности Рузиби Ходжиевой раскрываются достижения женщин-музыкантов на национальной и международной сцене, а также их вклад в популяризацию узбекской народной музыки среди других народов. Статья направлена на более глубокое осмысление вклада женщин в

музыкальное искусство и широкое распространение их творческой деятельности.

Ключевые слова: музыкальное искусство, роль женщины, педагогика, опера, творческая деятельность, профессиональная деятельность, опыт, испытание, удар, композитор.

Musiqa san’ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, unda ayollarning roli har doim alohida e’tiborga sazovor bo‘lib kelgan. Musiqachi ayollar nafaqat ijrochi sozanda yoki xonanda, balki bastakor, pedagog, tadqiqotchi va musiqashunos sifatida ham san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Tarixning turli bosqichlarida ayollarning musiqiy faoliyatiga cheklovlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ular o‘z iste’dodi va matonati bilan san’atda yetuk natijalarga erishgan.

Qadimgi davrlardan boshlab ayollar musiqa san’atida muhim rol o‘ynagan. Sharq madaniyatida mug‘iyalar va hofizalar saroylarda, marosimlarda va xalq orasida ijrochilik san’atini rivojlantirgan. O‘rta asrlarda Yevropada ayollar ko‘pincha diniy xor jamoalarida kuylash bilan shug‘ullangan, biroq ularga kengroq ijod qilish imkoniyatlari cheklangan edi. Renessans va Barokko davrlariga kelib, ba’zi ayollar bastakor sifatida ham tanila boshlagan. Misol uchun, Barbara Strozzi o‘z davrining yetuk bastakori sifatida mashhur bo‘lgan. Keyinchalik, Mariya Anna Motsart va Klara Shuman kabi ayol musiqachilar ham o‘z ijodiy faoliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lgan.

Hozirgi kunda ayollar musiqaning barcha yo‘nalishlarida faol ishtirok etmoqda. Klassik musiqada opera yulduzlari Mariya Kallas, Monserrat Kabalye va Anna Netrebko kabi hofizalar butun dunyoga tanilgan.

O‘zbek musiqasida ham ayollarning roli katta. Mumtoz maqom san’atida O‘zbekistonda Muhabbat Shamayeva va Munojot Yo‘lchiyeva kabi hofizalar ham o‘z o‘rniga ega. Milliy estrada va zamonaviy musiqa yo‘nalishida ham xotin-qizlar o‘zlarining yorqin chiqishlari bilan san’atimiz rivojiga katta hissa qo‘shmoqda.

Musiqada nafaqat ijro, balki bastakorlik va pedagogika sohasida ham ayollar katta yutuqlarga erishgan. Ayol bastakorlar orasida Sofiya Gubaydulina, Grazhina Bacevich singari nomlar mashhur. Musiqiy pedagogika sohasida esa ko‘plab ayol ustozlar yetuk san’atkorlarni tayyorlashda katta hissa qo‘shmoqda. Ushbu san’atkorlarning barchasida Ayollik fazilatlaridan tashqari ijodkorlik faoliati ham e’tiborlidir. Shu fazilatlar qatorida mohir sozanda hamda ijrochi Ro‘zibi Hojiyevani keltirsak. Ro‘zibi Hojiyeva — taniqli dutorchi, O‘zbekiston milliy musiqa san’atining yorqin vakillaridan biridir. Uning ijodi va pedagogik faoliyati dutor ijrochiligi an’analarini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Mohir ijrochi, 1978-yilda tashkil etilgan «Dutorchi qizlar» ansamblining faol a’zolaridan biri bo‘lib, ushbu jamoa tarkibida faoliyat yuritgan. Ansambl o‘zbek xalq qo‘shiqlari va kuylarini ijro etib, milliy musiqamizni keng targ‘ib qilgan. Ijodiy faoliyati davomida Ro‘zibi Hojiyeva yosh avlodga dutor ijrochiligini o‘rgatish bilan shug‘ullangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida xalq cholg‘ular kafedrasida o‘z ish faoliyatini olib bormoqda. Uning pedagogik faoliyati natijasida ko‘plab iste’dodli dutorchilar yetishib chiqqan. Masalan, 2024-yil mart oyida Kaliforniya universitetining Markaziy Osiyo ansambli bilan hamkorlikda o‘tkazilgan konsertda ishtirok etib, o‘zbek

dutor musiqasini xalqaro miqyosda namoyish etgan. Huddi shu yilning o‘zida “Sharq taronalari” festivalida ishtirok etib, o‘z shogirdi Tanya Marchand bilan birga dutor ijrochiligining nozik jihatlarini namoyish etdi. Ushbu festival va ilmiy konfrensyalar orqali o‘z ijrochilik va pedagogik faoliyatini ochib berdi.

Har bir o‘qituvchi ham bir paytlar o‘quvchi bo‘lganidek, Ro‘zibi Hojiyeva ham o‘quvchi bo‘lganlar. Ularning dastlabgi o‘qituvchiari ya’ni san’at sohasiga kirib kelishiga sababchi bo‘lgan inson Fazilat Shukurovadir. Ushbu inson O‘zbekistondagi birinchi chang asbobini mohir ijro etgan inson bo‘lib, talabalik paytlarida “Lenin mukofoti”ning birinchi laureatlardan bo‘lgan. Hamda shu insonga xavas bilan Ro‘zibi Hojiyeva san’at sohasiga qadam qo‘ygan. Keyinchalik kollej paytlarida Sotvoldi Karimovning ta’limlarini olganlar. “Ustozda o‘qib yurgan vaqtlarimda menga katta talab qilardilar. Davlat imtihonini topshirganimda ham men eng yuqori ballni olganman”[15] – deydi mohir ijrochi. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida esa F.N.Vasilyevda ta’lim olgan. “Talabalik davrlarimda menga O‘zbekiston Teleradio kompaniyasining dutorchi qizlar ansanbliga yo‘llanma berilgan edi. Lekin davlat imtihon topshirganimda cholg‘uchilardan imtihon olish uchun O‘zarbayjonda mashhur kompozitor Sulaymon Aliskerov tashrif buyurib rais sifatida qatnashganlar. Men davlat imtihoniga Listning 2-rapsodiyasini dutor prima cholg‘usida ijro etganman va shu paytda Aliskerovni mening ijroim haqida o‘qituvchilardan - “Bu kimning o‘quvchisi” deb qidiryotganlariga ko‘zim tushdi, va havotirga tushdim. Bir kun o‘tib Ahmad Adilov meni o‘z xonalariga chaqirdilarda va - “Sulaymon Aliskerov sizni konservatoriyada qolishingiz kerakligini va iqtidorli kadrlar bizga kerakligini ta’kidladilar”. Shu payt men juda hayajonlandim va kechagi mening ijroim ularda yaxshi taasurot qoldirgan degan fikrga keldim” – deya ta’kidlaydi ijrochi. Shu tariqa aspirantura o‘qishga kirib, birgalikda konservatoriyada pedagogik faoliyatini ham boshlagan. Dastlab, mutaxassislikdan besh nafar birinchi kurs o‘quvchilar berilgan. Hamda Vasilyevning uchinchi kurs o‘quvchisini ham Ro‘zibi Hojiyevaga o‘tkazib yuborishgan edi. “Bu qiz menga kelganda unchalik yaxshi ijro eta olmasdi”, - men u bilan har kuni birga ishladim va yilning oxiriga kelib bu qizning yaxshi ijrosini ko‘rib o‘qituvchim Vasilyev “Bu qizga nima qilding? ” –deya so‘radilar, men esa juda qo‘rqib ketdim va men: “Xech narsa qila olmabman, - deb o‘ylab turgan vaqtim, - “Bu qiz juda yaxshi ijro etdi, uni ilmi salohiyati o‘sibdi, demak, sen yaxshi pedagog ekansan”, - dedilar. Men o‘z ustozimdan besh yil mobaynida eshitgan eng yaxshi gapim shu edi. Hattoki imtihon paytida hamma meni maqtayotganda ham Vasilyev indamagan ekanlar, keyinchalik o‘zim chalgan asarlarimni majburan dutor alt uchun yozdirardilar, skripka uchun yozilgan Ramoning “Beshta variatsiaya”sini, Zatayevichni violonchel uchun yozgan “Kuzgi oqim” asarlarini va shunga o‘xshash bir qancha kuylarni dutor alt uchun yozar edim. Keyinchalik, Vasilyev vafot etgandan keyin Doktaranturaga tayyorlanayotganimda, kitob chiqarishim kerak deb yurgan paytimda Vasilyev menga shu darajada bilim bergan ekanlarki, hattoki mening kitobim tayyor ekan. Shunday bo‘lib, men o‘quv qo‘llanmani 1999-yilda chop ettirdim. 2007-yilda Dotsent bo‘lgan bo‘lsam, 2010- yilgacha yana bitta kitob chiqarishim kerak edi. Men oldin bajargan ishlarimga nazar

[15] 13.03.2025. Rozibi Hojiyeva bilan bo‘lgan suhbatda.

tashladim: Vasilyevning menga yozdirgan kuylari, gammalarini dutorga moslashtirganlarim – men uchun tayyor hom ashyo edi. Men bundan ham foydalanib, o‘z o‘quv qo‘llanmamni chiqardim, va o‘qituvchimning menga bo‘lgan qattiqqo‘lliklari – bu mening foydamga ekanligi tushinib yetdim va yana shuni tushinib yetdimki ular meni o‘zlarini o‘rnilariga tayyorlab kelgan ekanlar. Ustozim o‘z maktablarini davom ettirishimni hohlab, meni o‘z davomchisi sifatida ko‘rgan ekanlar. Ish faoliyatimda ham ustozning so‘zlarini esga oldim “Hech qachon o‘quvchilar bilan ishlashda ularga yomon munosabatda bo‘lmagin” – degan edilar. Men shu metodika va ustozimning so‘zlari bilan shogirdlarimga dars beraman. Ularning ba’zilari o‘qib yurgan paytlarida, ba’zilari esa ish faoliyatini boshlaganida meni tushunishadi, va hozirgi kunda barcha talabalarim pedagogik faoliyatini olib bormoqdalar va hech qaysi talabam ishsiz emas. Xattoki ularning o‘quvchilari konservatoriyaga imtihon topshirgani kelganida ko‘nglim sezadiki, demak bu ham mening metodikam, Vasilyevning maktabi davomchisi ” [16] , - deya Ro‘zibi Hojiyeva ta’kidlaydi. Shu tariqa ijrochining pedagogic faoliyati ham boshlangan. Hozirgi kunga kelib Ro‘zibi ustoz yuzlab va undan ortiq talabalarning ikkinchi onasi hamdir. Mohir ijrochi nafaqat pedagogic jihatdan faoliyat olib borganlar, balki bir qancha sahnalrda hamda konkurslarda ham faol ishtirok etgan.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida talabalik paytlarida “Yosh ijrochilar” konkursida ishtirok etgan. Ushbu konkurs ijrochiga muvofaqiyatli bo‘lmagan. Keyinchalik esa “Ijrochilik” konsertlarida televideniyada bir qancha chiqishlarda faol bo‘lgan. “Aspiranturada o‘qib yurganimda, To‘rtinchi Respublika “Yosh ijrochilar” konkursida ishtirok etib, ijro texnik jixatdan judayam murakkab bo‘lganligi sababli, barmoqlarim hattoki qonab ham ketgan. Lekin, hayat a’zolariga ijro yoqgan. Ikkinchi turda esa “Samoiy dugoh” asarini dutor alt cholg‘usida ijro etganman. Ushbu ijroni eshitgan hayat a’zolaridan biri Otanazar Matyoqubov juda hayratlanib “Chalsa bo‘lar ekanku an’anaviy tarzda” degan fikrlarni bildirgan. Uchunchi turda To‘xtasin Jalilov nomidagi filarmoniyaning orkestrida Farux Sodiqov dirijorligi ostida yakkaxon sifatida ijro etganman”, - deya eslaydilar Ro‘zibi ustoz. Konkurs yakunida Ro‘zibi Hojiyeva va A.Muhiddinovga mezrobli cholg‘ular orasida birinchi o‘rin berilgan. Kamonli cholg‘ulardan esa Qahramon Nazirov taqdirlangan. Ushbu konkursdan so‘ng juda ham ko‘p konsertlarda ishtirok etgan. G‘ulom Qo‘chqorovning plastinkalaridan bir kuyni yoqtirib qolib, uni qunt bilan o‘rganadi va “Dutorchi qizlar” ansanblining rahbari G‘anijon Toshmatovga etdirganda “Bu kuyning nomi “Malikai Turondod” deb nomlanadi. Bu musiqali dramadan olingan kuy” deb tushuntirish bergan. Ushbu kuy bahor faslining oxirgi kunlarida televideniyada jonli efirda ijro etildi. Ro‘zibi Hojiyeva esa ushbu kuyda yakkaxon sifatida ijro etdi. - “Ushbu kuy ijro etib bo‘linganidan keyin qizlar bilan vodiyga sayohatga yo‘l oldik va shu sayohatda har xil viloyatlarga yo‘l oldik. Birinchi bo‘lib, Andijonning O‘sh shahriga bordik, keyin Farg‘onaning Oliariq, Beshariq, Marg’ilon kabi shaharlariga bordik. Marg‘ilonga bir qizimizning opasinikiga boradigan bo‘ldik. U yerga yetib borib, eshikni taqillatganimizda, eshikni ochgan kishi meni ko‘rishi bilan “Malikayi Turandod kelibdiku!”- degan edilar. Lekin

[16] 13.03.2025-yil Rozibi Hojiyava bilan bo‘lgan suhbat. O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi.

mening atrofimda barcha mashhur qizlar, qo‘shiqchi qizlar bor edi. Shu tariqa qiziq voqealar bilan safarimiz ham davom etgan. Hamda qizlar bilan birgalikda Rossiyaga borganmiz. U yerda Abu Ali ibn Sinoning yubileyi munosabati bilan kolonnali zalda tadbir bo‘layotgan edi va biz ham bunda ishtirok etdik”, - eslaydi ustoz. Ushbu gastrol Hojiyevaning birinchi chet el safari edi. Bundan keyin ko‘plab sayohatlar amalga oshirildi. O‘zbekiston bo‘yicha Samarqand, Xorazm, Jizzax, Paxtakor, Farg‘ona shaharlarida paxta terim paytida bir qancha konsertlarda ishtiroq etgan. Qirg‘izistonning Frunze shahrida va bir qancha shaxarlarida ansabl bilan birgalikda konsertlarda ijro etgan. Ularning ijrolari radio va televideniyalarda ham yangragan. Radioning oltin fondida ko‘plab yozuvlar bo‘lib hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

“Shu tariqa aspiranturada o‘qiganimda simpoziumda dutorchi qizlar bilan chiqishga to‘g‘ri kelgan. Lekin, o‘sha paytning o‘zida mening imtihonim ham bor edi. Men imtihondan qolishim noto‘g‘ri bo‘ladi dedimda, imtihon topshirishni tanladim, va imtihon ham simpozium ham o‘tdi va men ansanblga qaytganimda G‘anijon Toshmatov “Sizga javob, siz simpoziumga kelmadingiz” deya, meni ansanbldan chiqarib yuborishdi. Keyinchalik mustaqillik maydonidagi tilla muzeyining director yordamchisi Raximaxon degan dugonamning yoniga bordim. U qiz bilan hunarmand qizlarni yoniga meni chaqirib qolishdi va hunarmand qizlarga dutor chalishni o‘rgatganman. Ular bilan birgalikda Moskvadagi O‘n ikkinchi yoshlar festivalida ishtirok etishgan. Shu hunarmand orasida men Raximaxon bilan tanishib qoldim. Men uning yoniga juda ko‘p borib turar edim. Bir kun borgan paytimda muzey direktori meni ko‘rib “Nima sababdab dutorchi qizlardan kettiz?” deya so‘radilar. Men esa bo‘lgan voqeani aytib berdim. Ular aytdilarki “Men G‘anijon bilan gaplashaman nega seni ishdan bo‘shatadi” dedilar va men uyga ketdim. Oradan bir necha kunlar o‘tib Ga‘nijon aka meni chaqirayotganliklarini aytishdi. Men ustozning yonlariga kirdim “Siz ishga keling” deya menga murojaat qildilar va yarim stavka ish qilib berdilar. U paytda yarim stavka degan gap yo‘q edi. Lekin meni qabul qildilar”[17]. Ikkinchi marotaba ishlab yurdilar va oilaviy sabablarga ko‘ra yana ishdan ketishga majbur bo‘lgan. 2008-yilgacha Doni Zokirov nomidagi orkestrda ishlagan.

Bu orada Hojiyeva o‘zining ansamblini tashkil etdi. Mart oylarida esa G‘anijon Toshmatovning “Dutorchilar ansanbli” tarqab ketgan edi. Iyun oyida teleradio kompanianing badiy jamoalarning direktori Isroil Ismoilov Ro‘zibi Hojiyevani yana takroran o‘z ansanbli bilan chaqirtilib rahbar etib tayinlaydi. 7 yil mobaynida rahbar sifatida faoliyat olib boradi. Shu vaqt orasida Yaponyadan kelgan sozandalar bilan konsertlar bo‘lib o‘tgan. Yapon markazlari tashkil etilgan. Hamda ko‘plab konsert va gastrollar amalga oshirilgan.

2016-yilga kelib ma’lum bir sabablarga ko‘ra yana ishdan ketishga ya’ni ansanblni tark etishga majbur bo‘lgan. Undan keyin o‘zining dirijiorlik faoliyatini ham sinab ko‘rgan.

Ro‘zibi Hojiyeva nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham o‘zbek musiqasini targ‘ib qilishda faol ishtirok etgan. Hojiyeva Kiyev, Ukraina,

[17] Rozibi Hojiyeva bilan suhbat. 13.03.2025-yil.

Yaponiya, AQSH, kabi bir qancha mamlakatlarga safarlar amalga oshirgan. Uning AQShdagi Kaliforniya universitetida o‘tkazgan mahorat darslari va konsertlari bunga misol bo‘la oladi. Ijrochining ushbu konsertdan tashqari ham ko‘plab qo‘shni xalqlarga jumladan, sharq mamlakatlariga o‘z milliy musiqamizni tarqatish hamda singdirish maqsadida ijro etib bergan, hamda ko‘plab talaba yoshlar va san’at ixlosmandlariga ijro etish sirlarini ochib bergan. 2010-yilda Yaponyaning Tokio shaxrida elchixona tomonidan masterklasslar bo‘lib o‘tdi. Maibashi shahrida esa do‘mbirachilar festivali bo‘lib o‘tgan va Hojiyeva ham dutor cholg‘usida qisqacha konsert bergan. 2005-yildan beri Yapon markazida Ro‘zibi Hojiyeva sharqona kuylarni o‘rgatish darslarni qiziqarli tarzda hozirgi kungacha o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Ro‘zibi Hojiyeva xayotidan yana bir qiziqarli bo‘lgan voqea – u Amerika fuqarosi Tanya Merchandga dutor asbobini chalishni o‘rgatgan. Tanya o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini o‘rganib, hozirda Amerikaning Santa Kruz universitetida dars bermoqda.



Ro‘zibi Hojiyeva 2024- yilda bir oy mobaynida Amerikada Tanya Merchand bilan bigalikda turli xil masterklasslar o‘tkazishgan va o‘zbek xalq kuylarini jahon xalqlari orasida keng tarqatishdi. Bundan tashqari 10 dan ziyod konsertlarni faol olib borishgan.

Ro‘zibi ustoz o‘z shogirdlari bilan birgalikda milliy musiqa madaniyatini butun dunyoga tarqatishda davom etmoqda. Islom akademyasida ham konsertlar amalga oshirilgan va akademya rektori Rustam Qosimov “Mening talabalarimga ham dutor o‘rgatasiz” deya aytganlar va bir yil davomida dutor chalib Turkiston san’at saroyida konsertlar berishgan.

Umuman olganda, Ro‘zibi Hojiyevaning san’at sohasidagi xizmatlari juda katta bo‘lib, uning ijodiy va pedagogik faoliyati o‘zbek milliy musiqasining jahon sahnasida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. U dutor ijrochiligining yetuk ustalaridan biri sifatida o‘zbek musiqasini asrab-avaylash va rivojlantirish yo‘lida faol mehnat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Musiqa san’ati. // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000.
2. Shukurova F.// O‘zbek musiqa san’ati tarixi. Toshkent, 1985.
3. Karimov S.// Musiqa pedagogikasi va ijrochilik an’analari. Toshkent, 2000.
4. Toshmatov // G. Dutor ijrochiligi asoslari. Toshkent, “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyoti, 2005.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025

MAMAJONOVA SOLIHA
NE’MATJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish”
kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.d (PhD), professor,
Gafurova Sh. A.

AYOL OVOZ REJISSORLARI: KINEMATOGRAFIYADAGI O‘RNI, HISSASI VA GENDER MUAMMOLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayol ovoz rejissorlarining kinematografiyadagi o‘rni, ularning film ovoz dizayniga qo‘shayotgan hissasi va ularning duch keladigan gender muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol mutaxassislar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va kelajak istiqbollari ham o‘rganiladi. Ushbu tadqiqot orqali kino san’ati sohasida gender tengligi masalasiga e’tibor qaratilib, ayol ovoz rejissorlarining kasbiy o‘sishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi global tendensiyalar va ayollar uchun rivojlanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ayol ovoz rejissori, gender tengligi, ovoz dizayni, kino.

Аннотация: В данной статье анализируется роль женщин-звукорежиссёров в кинематографе, их вклад в звуковой дизайн фильмов, а также гендерные проблемы, с которыми они сталкиваются. Кроме того, рассматриваются возможности, создаваемые для женщин-специалистов, и перспективы их дальнейшего развития. В рамках данного исследования акцентируется внимание на вопросе гендерного равенства в сфере киноискусства, а также анализируются факторы, препятствующие профессиональному росту женщин-звукорежиссёров. Также рассматриваются глобальные тенденции в данной области и возможности развития для женщин.

Ключевые слова: женщина-звукорежиссёр, гендерное равенство, звуковой дизайн, кино.

Kinematografiya rivojlanib borar ekan, texnologiya va badiiy ifodaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ovoz san’ati ham tobora takomillashib bormoqda. Ovoz dizayni, ovoz rejissyorligi va post-ovoz ishlov berish jarayonlari filmlarning hissiy ta’sirini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, bu sohada ayol mutaxassislarning ishtiroki hali ham erkaklarga nisbatan sezilarli darajada kam ekanligi kuzatiladi. Ovoz rejissorligi texnik va ijodiy yondashuvni talab qiladigan soha bo‘lib, bu jarayonda gender tengligi muammolari ham mavjud.

Tarixan, ovoz texnologiyalari va ovoz san’ati sohalari erkaklar hukmronligi ostida bo‘lgan. Bunga sabab sifatida texnik jihatdan murakkab ish muhitining ayollar uchun to‘siq bo‘lishi, kasbiy stereotiplar va gender diskriminatsiyasi ko‘rsatiladi. Ammo so‘nggi yillarda kino va audiovizual san’atda ayol mutaxassislarning roli ortib bormoqda. Ovoz rejissorlari orasida ayollar o‘ziga xos badiiy qarash va ishlov berish uslublari bilan ajralib turib, film atmosferasini yaratishda yangi yo‘nalishlarni olib kirishmoqda.

Kinematografiya tarixida ovoz doim muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, ovoz rejissorligi sohasida ayollar uzoq vaqt davomida kam ko‘rinish bergan. Erkaklar hukmronlik qilgan texnik sohalardan biri bo‘lgan ovoz san’atida ayollar asta-sekin o‘z o‘rnini topib, bu sohaga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda. Quyida ayol ovoz rejissorlarining tarixiy rivojlanishi, ularning muhim ishi va sanoatda tutgan o‘rni haqida ma’lumot beriladi.

Dastlabki bosqich: Ayollar ovoz san’atiga ilk qadamlar

1920-1930-yillarda ovozli kinoning rivojlanishi bilan ovoz rejissorligi sohasi shakllana boshladi. Biroq, bu davrda ayollar ushbu kasbga deyarli yaqinlasha olmagan. Kinoindustriya texnik jihatdan murakkab va og‘ir mehnat talab qiluvchi soha deb hisoblanganligi sababli, ayollar asosan stsenariy yozish, montaj yoki kostyum dizayni kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritgan.

Shunga qaramay, ba’zi ayol mutaxassislar ovoz sohasida ishlashga harakat qilgan. Ular asosan post-prodaksiya jarayonlarida yoki ovoz yozish yordamchisi sifatida faoliyat yuritgan. Bu davrda ayollarning texnik sohalarga kirishi uchun ko‘plab to‘siqlar mavjud edi.

1950-1980-yillar: Ayollarning ovoz texnologiyalaridagi ilk yutuqlari

1950-yillarga kelib, texnologiyaning rivojlanishi va jamiyatdagi gender tengligi harakatlari natijasida ayollar texnik kasblarga, shu jumladan ovoz san’atiga kirib bora boshladi. Ushbu davrda ayollar ko‘proq radio va televideniya sohalarida ovoz muhandisligi bilan shug‘ullana boshladilar. Kinematografiyada esa ayollar hali ham kamchilikni tashkil qilgan bo‘lsa-da, ba’zi tajribali ayollar ovoz texnologiyalariga o‘z hissalarini qo‘shdi.

1970-1980-yillarda ayol ovoz rejissorlari mustaqil filmlar va hujjatli filmlar sohasida faol rol o‘ynay boshladilar. Ayniqsa, feminist harakatlar tufayli ayollar o‘z ovozlarini eshittirishga va erkaklar hukmronlik qilgan texnik sohalarda o‘z ishtiroklarini oshirishga harakat qilishdi.

1990-2000-yillar: Ayol ovoz rejissyorlarining tan olinishi

1990-yillardan boshlab, ayollar ovoz san’atida katta yutuqlarga erishishni boshladi. Bu davrda, **Anna Behlmer** kabi ayol ovoz rejissorlari yirik Hollywood filmlarida ishlashga muvaffaq bo‘ldi. U «Braveheart», «Gladiator» va boshqa ko‘plab mashhur filmlar uchun ovoz muhandisligi qilgan.

Ayollar ovoz dizayni va post-prodaksiya jarayonlarida faol ishlay boshladilar, bu esa sanoatda ularning nufuzini oshirdi. Kino akademiyasi va boshqa tashkilotlar tomonidan ayollar ovoz rejissorlarining ishi tan olinib, nominatsiyalar va mukofotlar bilan taqdirlanish boshlandi. Ushbu davrda ayollar faqat mustaqil filmlarda emas, balki yirik tijorat loyihalarida ham faol rol o‘ynay boshladilar.

Zamonaviy davr (2010-yillar va hozirgi kunlar)

Hozirgi kunga kelib, ayol ovoz rejissorlari sanoatda katta rol o‘ynay boshlagan. Yangi texnologiyalar va inkluziv tashabbuslar tufayli ayollar ovoz dizayni, post-prodaksiya va ovoz rejissyorligi bo‘yicha katta yutuqlarga erishmoqda.

Lora Hirshberg – «Inception» filmi uchun ovoz rejissorligi bo‘yicha ishlagan va Oskar mukofotiga sazovor bo‘lgan birinchi ayol ovoz rejissorlaridan biri bo‘ldi.

Alyson Moore kabi ovoz dizaynerlari animatsiya, hujjatli filmlar va eksperimental loyihalarda o‘z o‘rnini topdi.

Dolby Atmos va 3D audio texnologiyalari rivojlanishi bilan ayollar zamonaviy texnologiyalarni egallab, ovoz sohasida yangi yondashuvlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, turli tashkilotlar (masalan, **Women in Sound**, **SoundGirls**) ayollar uchun imkoniyatlar yaratib, ularga professional tarmoq va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini taqdim etmoqda.

Ayol ovoz rejissorlari tarixan texnik sohalarda duch kelgan muammolarga qaramay, kinomotografiyada o‘z o‘rnini topdi. Bugungi kunda sanoatdagi audio muhandislar va ishlab chiqaruvchilarning atigi 5-7 foizini ayollar tashkil etishiga qaramasdan ular innovatsion texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlab, yangi yondashuvlar bilan filmlarning audio tajribasini boyitmoqda.

Kelajakda ayollarning ovoz san’atidagi ishtirokini kengaytirish va ularga ko‘proq imkoniyatlar yaratish orqali kinematografiyada yanada xilma-xil va chuqur badiiy tajribalar shakllanishiga erishish mumkin.

Ovoz rejissyorligi sohasida gender muammolari. Ovoz rejissorligi texnik va badiiy mahoratni talab qiluvchi soha bo‘lib, tarixan erkaklar hukmronligi ostida bo‘lgan. Ayollar ushbu sohada faoliyat yuritishda turli muammolarga duch kelishadi:

Sanoatda ayollar ulushining kamligi. Ko‘plab statistika ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kinematografiyada ovoz rejissorlari orasida ayollar nisbatan kam uchraydi. Hollywood va boshqa yirik kinoindustriyalarda ovoz dizayni va texnik ishlov berish bo‘yicha mutaxassislarda gender nomutanosiblik saqlanib qolmoqda.

Stereotiplar va kasbiy cheklovlar. Ovoz rejissorligi texnik jihatdan murakkab soha sifatida ko‘riladi, shuning uchun ayollar bu sohaga kamroq yo‘naltiriladi. Ba’zan ayollar texnik bilim va tajriba yetishmasligi haqida noto‘g‘ri qarashlarga duch kelishadi.

Ishga olish va imkoniyatlar masalasi. Ayol ovoz rejissorlari o‘zlarini tasdiqlash uchun ko‘proq harakat qilishlari va erkaklarga qaraganda ko‘proq isbot talab qiluvchi holatlarga tushib qolishlari mumkin. Ishga olish jarayonida genderga asoslangan qarorlar qabul qilinishi ba’zan ayollarni cheklaydi.

Maqom va ish muhiti muammolari. Ko‘plab ayol ovoz rejissorlari kinostudiyalardagi erkaklar ustunlik qiluvchi muhitda o‘z o‘rnini topish qiyinligini ta’kidlaydilar. Ayollar ba’zan kam e’tibor qozonadi yoki muhim loyihalarga jalb qilinmaydi.

Shuning uchun bu sohaga qiziquvchi ayollarni qo‘llab-quvvatlash lozim. Ayollar jamoasini tuzish va bunda ularga imkoniyatlar berish ayol ovoz rejissyorlarini ko‘payishiga yordam beradi.

Ayol ovoz rejissorlarining kinematografiyadagi hissasi. So‘nggi yillarda ayol ovoz rejissorlari kinematografiyada o‘ziga xos uslublari va yondashuvlari bilan ajralib turishmoqda. Ularning ovoz san’atiga qo‘shayotgan hissasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Yangi badiiy uslublar va ovoz dizayni tajribalari: Ayollar ovoz rejissorligi sohasida o‘ziga xos, innovatsion yondashuvlar yaratib, film atmosferasiga yangi elementlar qo‘shishmoqda. Ovoz orqali hissiyotlarni yanada chuqur ifodalash, realistik va noan’anaviy tovushlardan foydalanish ayol ovoz rejissorlari tomonidan faol qo‘llanilmoqda. Ayol ovoz rejissorlari tomonidan ishlab chiqarilgan filmlarda ovoz dizayni orqali ayollar hayoti, hissiyotlari va ijtimoiy mavzular yanada ta’sirli ifodalangan.

Ovoz va musiqaning uyg‘unligi: Ayol ovoz rejissorlari ko‘pincha musiqaviy uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratadilar, bu esa filmlarning hissiy ta’sirini kuchaytiradi.

Hissiyotlarni kuchaytirish: Ayollar ovoz dizayni va post-produksiyada hissiy chuqurlik yaratishda innovatsion yondashuvlarni kiritishmoqda. Ovoz orqali voqealar dinamikasini shakllantirish va vizual tasvir bilan uyg‘unlashtirishda ayol mutaxassislarning o‘ziga xos hissasi bor.

Lesli Enn Jons, Trina Shoemaker, Gvendolin Yates Uitl va Marsella Araika kabi ayol ovoz rejissorlari kino sanoatiga qimmatli hissalarini qo‘shganlar. Lora Xirshberg va Anna Behlmerlar esa asosan kino saonatida faoliyat yuritib, mukofotlanganlar. Kristina C. Miserendino va Pud Cusacklar ham kino sanoatida ovoz rejissori, dizayner sifatida ishlaganlar. Afsuski, shu kunga qadar o‘zbek ovoz rejissorlari ichida ko‘zga ko‘rinarli ayol ovoz rejissorlari aniqlanmadi. Kelajakda bu sohada ayollar ko‘payishiga umidvorman.

Ayol ovoz rejissorlari uchun rivojlanish imkoniyatlari O‘zbekistonda deyarli yo‘lga qo‘yilmagan. Ammo “Women and sound” nomli xalqaro tashkilotlar ayollarning ovoz san’atidagi rolini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ayol ovoz rejissorlari kino san’atida muhim o‘rin tutib, o‘ziga xos badiiy va texnik innovatsiyalar bilan film atmosferasini boyitmoqdalar. Ular duch keladigan gender muammolariga qaramay, sohada o‘z o‘rnini topish va rivojlanish uchun intilmoqda. Sanoatda gender tengligini ta’minlash va ayollarning ovoz rejissyorligi sohasidagi ishtirokini oshirish orqali kinematografiyada yangi ovoz va yondashuvlarga yo‘l ochish mumkin.

Ovoz san’atining rivojlanishi va ayol mutaxassislarning rolini kuchaytirish orqali kinoning hissiy va badiiy ta’siri yanada oshishi shubhasiz. Shu sababli, sanoatda ayollar uchun yanada qulay sharoit yaratish va ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan dasturlar va tashabbuslarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreopoulou, A., Mathew, M. (2016). *Women in Audio: contributions and challenges in music technology and production.*
2. Chion, M. (1994). *Audio-Vision: Sound on Screen*. Columbia University Press.
3. Altman, R. (1992). *Sound Theory, Sound Practice*. Routledge.
4. Holman, T. (2010). *Sound for Film and Television*. Focal Press.
5. Buhler, J., Neumeyer, D., & Deemer, R. (2010). *Hearing the Movies: Music and Sound in Film History*. Oxford University Press.
6. Sonnenschein, D. (2001). *Sound Design: The Expressive Power of Music, Voice and Sound Effects in Cinema*. Michael Wiese Productions.
7. Cook, P. (2004). *The Cinema Book*. British Film Institute.
8. Doane, M. A. (1985). *The Voice in the Cinema: The Articulation of Body and Space*. Yale French Studies, 60, 33-50.
9. Weis, E., & Belton, J. (Eds.). (1985). *Film Sound: Theory and Practice*. Columbia University Press.
10. Stilwell, R. J., & Powrie, P. (2006). *Composing for the Screen in Germany and the USSR: Cultural Politics and Propaganda*. Indiana University Press.
11. O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi rasmiy ma’lumotlari.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



MAXMUTBOYEVA SARVINOZ
DILSHOD QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi kafedrasi”
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.n.d.(PhD), professor,
Azimova.A.N.

MUSIQANING NAZARIY OLAMIGA BIR NAZAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada san’atshunos, musiqashunos olimalardan biri bo‘lgan professor Azimova Arzu Nishanovnaning ijodiy yo‘li, ilmiy izlanishlari va mualliflik kitoblari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, garmoniya, zamonaviy garmoniya, solfedjio, darslik, dissertatsiya, monografiya, o‘quv qo‘llanma.

Аннотация: В данной статье рассматривается творческий путь, научные исследования и авторские книги профессора Арзу Нишановны Азимовой, одной из выдающихся ученых-искусствоведов и музыковедов.

Ключевые слова: музыка, гармония, современная гармония, сольфеджио, учебник, диссертация, монография, учебное пособие.

Musiqa sohasi bugungi kunga kelib shakllanib va rivojlanib kelayotgan san’at turlaridan biridir. Har bir ishning tagida katta mehnat yotgani kabi, musiqa san’atining tub-tubida ham katta mashaqqat yotadi. Doim o‘z ustida ishlab yanada yuqori cho‘qqilarga erishish uchun insonda avvalo xohish, ishonch va harakat bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, musiqashunoslik sohasi musiqa san’atining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. O‘z navbatida bu yo‘nalish 3 ta kafedrani qamrab olgan. Ular Jahon musiqa tarixi va tanqidi”, “O‘zbek musiqasi tarixi” va “Musiqa nazariyasi” kafedralaridir. Shular orasidan “Musiqa nazariyasi” kafedrasiga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

1946- yilda tashkil etilgan “Musiqa nazariyasi” kafedrasi O‘zDK ning faol va yetakchi kafedralaridan biri hisoblanadi. Kafedra professional kadrlar yetishib chiqishida muhim o‘rin egallaydi. Bu kafedrada ko‘p yillar davomida professor, yuqori malakali nazariyotchi ustozlar ishlashgan. Jumladan: Yu.Tyulin, Yu.Kon, I.Akbarov, I.Karelova, O.Polikarpova, A.Kotlyarevskiy, N.Yudenich, G.Balter kabi yirik fan arboblari. 1960-1995-yillar mobaynida esa S.Zakrjevskaya, S.Galitskaya, Yu.Plaxov, M.Kovbas, D.Shtern, L.Koval, Ye.Matsokina, A.Koralskiy, L.Krasutskaya, V.Shapkunova, I.Sotnikova, I.Malmberg, I.Fedorenko, Yu.Kats kabi malakali nazariyotchilar o‘z faoliyatlarini olib borganlar.[18]

Ular orasidan ko‘p yillardan beri “Musiqa nazariyasi” kafedrasida musiqaning nazariy olamiga umrini bag‘ishlab kelayotgan san’atshunoslik fanlari doktori, professor, “Mehnat shuhrati” ordeni va “Mo‘tabar ayol ko‘krak” nishoni sohibasi musiqashunos olima Arzu Azimova hamda ularning ijodiy faoliyatlari haqida so‘z yuritmoqchiman.

Arzu Azimova hozirda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ishlab kelmoqdalar. O‘z faoliyatlari davomida talabalarga “Garmoniya”, “Zamonaviy garmoniya”, “Monodiyaning nazariy asoslari” kabi fanlardan rus va o‘zbek tillarida ma’ruzalar o‘qiganlar. Bugungi kunda esa ular bakalavriat o‘quvchilariga mutaxassislik fani “Musiqashunoslik asoslari” dan va magistiratura bo‘limining “Bastakorlik hamda musiqashunoslik” yo‘nalishidagi talabalariga “Zamonaviy garmoniya” fanidan dars bermoqdalar. Bundan tashqari 1983-yildan buyon “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari” uyushmasi a’zosi, san’atshunoslik falsafa doktori (PhD) va fan doktor (ScD) dissertatsiyalari bo‘yicha ilmiy rahbar.

2021- yil sodiq o‘quvchilaridan biri bo‘lgan Mirtolipova Iroda Mirtahirovna “Mikroxromatika. Nazariya, tarix va amaliyot” mavzusida san’atshunoslik falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2022-yilning 14-may kunida esa Berdixanova Shohida Nurlbayevna “Ритмические основы каракалпакской традиционной музыки” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini ijobiy darajada himoya qila oldi. Bu kabi ko‘plab shogirdlarini yutuqlarini keltirish mumkin.

Arzu Azimova juda ko‘p ilmiy maqolalar yozgan. “Garmoniya”, “Solfedjio” 1-sinf (N. F. Bahtiyorova bilan birgalikda T., 2016-yil), “Solfedjio” 4-sinf (Z. M. Badelova bilan birgalikda T., 2016-yil), “Solfedjio” 5-sinf (M. E. Turg‘unboyeva bilan birgalikda T., 2016-yil) “Zamonaviy garmoniya” (O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida akkordlar tarkibi, Sh. E. Ibragimova bilan birgalikda T., 2015) kabi bir qator darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning muallifi.

Bilamizki, eng murakkab musiqiy – nazariy fanlardan biri bu garmoniya darsligidur. Dubovskiy I.I, Yevseyev S.V, Sposobin I.V va Sokolov V.V larning “Garmoniya” darsligini oladigan bo‘lsak, unda klassik garmoniya, mumtoz g‘oyalari yotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni aniq qonun qoida asosida

[18] O‘zbekiston davlat konservatoriyasi (80-yiligi).

klassik uslubdagi garmoniya ekanligi ma’lum. Bu darslikning o‘zbek tiliga tarjima qilingan variantida tarjima borasidagi kamchiliklar sezilgan. Boshlang‘ich mavzular tushuntirib o‘tilgan bo‘lsa ham pedagog ustozlar ko‘magida o‘rgangan ma’qul.

Matonatli va samimiy ustoz Arzu Azimova ijodiy faoliyatida ilk marotaba o‘zbek tilida yozilgan “Garmoniya” nazariy kurs darsligining asoschisidir. Bu darslikning o‘zi uch marotaba qayta nashrdan chiqqan. Arzu Azimova Duboviskiyning boshqa nazariyachilar bilan birgalikda yozgan “Garmoniya” darsligidan farqli o‘laroq o‘zning darsligida klassik uslub bilan birgalikda zamonaviy garmoniyaga xos akkordlar, lad tizmlari haqida so‘z yuritganlar. Undan tashqari Arzu Azimova “Garmoniya” fani bo‘yicha 2-qismli o‘quv qo‘llanma ham yozganlar.

Ta’lim jarayonlarining davlat tilida o‘tkazilishi munosabati bilan ma’ruzaviy materiallarning dolzarbligi kuchaydi. Ayni paytda maxsus atamalar va asosiy tushunchalarning ta’rif bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yo‘q emas. Shuningdek, garmoniyaga oid qoidalarning O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida namoyon bo‘lishini o‘rganish zaruriyati yaqqol sezilmoqda.[19] Shu boisdan yuqorida aytib o‘tilgan mualliflik kitoblari aynan shu masalalar ham qamrab olingan.

Ayol musiqashunoslar orasida Arzu Azimovaning ijodiy yo‘li talaba yoshlar uchun poydevor bo‘la olganli uchun ham ularning hayot yo‘li hamkasblari tomonidan nazardan chetda qolmadi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, musiqashunos, professor Gulzarova Inessa tomonidan “Орзу Азимова Либретто жизни” nomli monografiya 2023-yil nashrdan chiqdi. Ya’ni ushbu kitobda ustozning butun hayoti ochib berilgan. Foto lavhalardan orqali ham ularning umr yo‘lini, sermahsul ijodiy izlanishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Azimova Arzu Nishanovnaning ijodiy faoliyati haqida qancha gapirsak shuncha oz. Biz uchun ularning barakali ilmiy izlanishlari katta maktab bo‘la oladi. Ular hali-xanuz o‘z kasblari rivojiga sadoqatlik bilan xizmat qilmoqdalar. Biz yosh avlod uchun o‘z yordamlarini ayamasdan qo‘llaridan kelganicha o‘zlarini bilim va ko‘nikmalarini ulashib kelmoqdalar. Shuni ta’kidlash lozimki, ayol musiqashunoslar orasida ularning o‘rni beqiyosdir.

Darhaqiqat, musiqaga o‘zini sadoqati va mehnati bilan xissasini qo‘shib kelayotgan barcha ijodkorlar biz uchun o‘rnak bo‘la oladi. Ularni ijodlarini o‘rganish esa bizga farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimova A. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2000.
2. Azimova A. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2004.
3. Azimova A. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2017.
4. Azimova A. Garmoniya (bastakorlik va musiqashunoslik yo‘nalishlari uchun) o‘quv qo‘llanma. T.,2018.

[19] Azimova A. Garmoniya Nazariy kurs. T., 2017.

5. Azimova A. Garmoniya (bastakorlik va musiqashunoslik yo‘nalishlari uchun) 2-qism. o‘quv qo‘llanma. T., 2021.
6. Dubovskiy I. I, Yevseyev S.V, Sposobin I.V va Sokolov V.V “Garmoniya darsligi” (2-nashr). T.,1979.
7. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T., 2004.
8. Гулзарова И. Орзу Азимова Либретто жизни, Монография. Т., 2023.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



MIRZAAHMEDOVA
FARANGIZ ILHOMOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (DSc),
professor(v.b),Tursunova G.A.

O‘ZBEKISTON DUTOR IJROCHILIGI MAKTABI VAKILLARI: RO‘ZIBI HOJIYEVA

Annotatsiya: Maqolada mohir sozanda, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining «Xalq cholg‘ulari ijrochiligi» kafedrasi professori Ro‘zibi Hojiyevaning ijodiy faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan. Musiqa ijrochiligi va pedagogika sohasida ayollarning o‘rni, bu borada Ro‘zibi Hojiyevaning qo‘lga kiritgan katta yutuqlari, ustoz san’atkorning bugunda yoshlarni tarbiyalashda dutor ijrochiligi an’analari va sir-asrorlarini egallash va targ‘ib qilishda katta hissasi ochib beriladi. Ro‘zibi Hodjayevaning ilmiy-pedagogik faoliyati muallifning nashr ettgan o‘quv-uslubiy kitoblarida o‘z aksini topdi.

Kalitli so‘zlar: konservatoriya, dutor ijrochiligi, professor, ansabl, radio, ilmiy-uslubiy nashrlar.

Аннотация: Статья посвящена творческой деятельности выдающейся исполнительницы, профессора кафедры «Исполнительство на народных инструментах» Государственной консерватории Узбекистана Рузиби Ходжиевой. В статье рассматривается роль женщин в музыкальном исполнительстве и педагогике, а также значительные достижения Рузиби Ходжиевой в этой сфере. Особое внимание уделяется её вкладу в воспитание молодого поколения, сохранение и популяризацию традиций исполнения на дуторе. Научно-педагогическая деятельность Рузиби Ходжиевой нашла отражение в её учебно-методических изданиях.

Ключевые слова: консерватория, исполнение на дуторе, профессор, ансамбль, телевидение, радио, научно-методические издания.

Dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlari qatorida O‘zbekistonda ham ayollarga bo‘lgan e’tibor va ularning huquqlarini himoya qilish alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, davlatimiz taraqqiyotidagi mavqeyi ahamiyatlidir. Har qanday jamiyatning rivojlanishi kelajakni quruvchi yoshlarning tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Bu borada

farzandlarimiz tarbiyasi, oila va jamiyatning mustahkam poydevorini qurishda ayollarning hissasi katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoniga binoan ayollarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi faolliklarini oshirish, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarini yaxshilash, huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha bir qator masalalar ko‘tarilgan.

Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish yo‘lida samarali faoliyat olib borayotgan o‘zbek ayollarimiz orasiga musiqa olamidagi xotin-qizlarimiz ham o‘z ijodlarini ushbu qatorga qo‘yish ahamiyatlidir. [1] Shu jumladan, Respublikamizda ko‘p yillar mobaynida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida, shuningdek respublikamizning madaniy faoliyatida samarali ijod qilib kelayotgan sozanda, pedagog Ro‘zibi Hodjayevaning ijodi shular jumlasidan. Ko‘p yillik pedagogik va ijrosilik faoliyati davomida qo‘lga kiritgan yutuqlari yoritishni maqsad qildik.

R.Hojiyevaning musiqa sohasida professional qadamini G‘anijon Toshmatov rahbarligidagi dutorchi-qizlar ansamblida boshlagan. Ma’lumki, ushbu dasta 1979-yilda tashkil etilgandan bo‘lib, uning tarkibida respublikamizning yetakchi sozanda-dutorchilar: Zamira Suyunova, Zamira Rahmatullayeva, Fotima Rahmatullayeva, Zaynab Mirzatillayeva, Zulfiya Suyunova, Dilorom Muhammedova, Ozoda Madrahimova, Sanobar Karimova, Ra’no Bo‘ronova, Mohira Asadova kabi bir qator istedodli ayollar bilan birga Ro‘zibi Hodjayeva faoliyat olib bordi. Ansabl xalq orasida unutilib ketilgan yalla, lapar va qo‘shiqlarni, ayollar talqinida, og‘zaki ravishda saqlab asrab kelingan milliy asarlarni muhim targ‘ibotchilariga aylandilar. Ushbu jamoada dutor ijrochilik mahoratini oshirish bilan birga milliy repertuar kengaytirish borasida katta ish qilindi. Ro‘zibi Hojiyeva ansamblda sozandachilik faoliyatidan tashqari ma’lum muddatda ushbu jamoaga rahbarlik ham qilgan.

Xususan, G‘anijon Toshmatov vafotidan so‘ng dastani Zamira Suyunova (1995), Zamira Rahmatullayeva (2002) lardan keyin R. Hojiyeva (2009) boshqarib badiiy rahbar sifatida ham boshqarib keldi. Ushbu dastadagi faoliyati mobaynida ijrochilik sir-asrorlarini o‘zlashtirib, sozanda sifatida mahorati takomillashib bordi. Ro‘zibi Hojiyeva O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi “Xalq cholg‘ulari ijrochiligi” kafedrasida dutor cholg‘usi bo‘yicha 1984-yildan buyon o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ularning qo‘l ostida shu yillar mobaynida yuzlab shogirdlar tarbiyalanib, ular mamlakatimizning nufuzli musiqiy dargohlarida, o‘quv maskanlarida faoliyat olib borib, milliy ijrochilik san’atimiz rivojiga o‘z ulushini qo‘shib kelmoqdalar.[2] Ko‘plab shogirdlari qatorida Dono Rahimova, Durdona, Haydaraliyeva va Malohat Nabiyevalar bevosita Ro‘zibi Hojiyeva maktabining davomchisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Nafis tarovati bilan odamlarni xayratda qoldiruvchi xalqimizni azaldan milliy cholg‘u bo‘lmish dutorda cholg‘u sir-asrorlarini egallash, ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish katta bilim, ko‘nikma va tajribani talab etadi. Bugunda bu sir-asrorlarni nafaqat bizning sozandalar, balki o‘zga xalqlar vakillari ham katta qiziqish bilan o‘rganmoqda [3].

R. Hojiyevaning Yaponiyada 200 dan ortiq o‘quvchilari, AQSHning Koliforniya shtatida bugunda ustoz-shogird an’analarini davomchisi bo‘lgan amerikalik shogirdi Tanya xonim ham, dutorchilar ansamblini tuzib, bugunda chet elda bu yunalishda faoliyat olib bormoqda. Ro‘zibi Hojiyeva 2005-yildan to bugungi kunga qadar ular O‘zbekiston-Yaponiya markazi qoshidagi yaponliklar uchgun maxsus ochilgan 'Dutor kursi'ning tashkil etilishida rahbarlik qilayotgani etiborga sazovor. Mazkur mashg‘ulotlar yaponiyalik erkak va ayollar milliy o‘zbek san’atimizga nafaqat qiziqishlari ortishi, balki ularni milliy ijrochilik sir-asrorlarini o‘zlashtirib, shu orqali keng taassurot va bilim, ijro ko‘nikmalarini orttirishi ham muhim. Koreyaning Seul universitetida bugunda Li xonim O‘bekistonga tashrif buyurib, dutor cholg‘usidan bilim-ko‘nikmalar egalladi. Bu yil 2-8-fevral kunlarda Ro‘zibi Hojiyeva AQSHning Kaliforniya shtatining

“Santa Kruz” universiteti professori Tanya Merchant tashabbusi bilan amalga oshirilgan loyihada Roʻzibi boshchiligida 'Dutorchilar ansambli' bilan mashgʻulotlar, maʼruzalar va mahorat darslarini oʻtkazishi ham shular jumlasidan. Yaʼni Olis mamlakatda xalqimizning jozibali kuylarini yangrashi, oʻzga ijrochilar tomonidan mehr va mahorat bilan dutorda tarannum etilishi, oʻzbek madaniyatiga qiziqishni namoyon etgan holda milliy qadriyatlamizni iftihor bilan tilga olishga zamin yaratmoqda.

Yurtimizda dutor ijrochiligi sanʼati boʻyicha R. Hojiyevadek yuqori saviyali va isteʼdodli ustozlar tomonidan hozirda dunyo bo'ylab malakali mutaxassislar yetishib chiqishi dutor ijrochilik sanʼatiga, cholgʻu ijro etish va oʻrganish uslubiyoti rivoji va targʻibotiga ijobiy taʼsir etmoqda.

Oʻzbekiston davlat konservatoriyasini R. Hojiyeva qoʻlida tahsil olib ketgan barcha talabalar oʻz sohalari boʻyicha ish faoliyatlarini olib borib, yosh dutorchilarni tarbiyalab kelmoqdalar. Shogirdi Dono Rahimova Koreyada magistraturani tamomlab, “Tanovor” haqida koreys tilida kitobni nashr qildi.

Malakali ustozning oʻzi oʻz shogirdlari, jumladan oʻrta va Oliy musiqiy taʼlim muassasalari uchun dutor cholgʻusini oʻrganish boʻyicha qator oʻquv qoʻllanma va darsliklar yaratgan. Nashrlar tarkibida muallifning metodik (uslubiy) qarashlari va tasviyalari bilan birga turli xalq kuylari, kompozitorlarning cholgʻu uchun yaratgan asarlari kiritilgan. Ularning ayrimlari ijro amaliyotiga dutor sozining ijroviy imkoniyatlarini kengaytirishda, musiqiy ifodaviy va texnik mahoratini oʻstirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, keng ommalashib oʻquv amaliyotida keng joriy qilingan “Dutorim-sozim” nomli oʻquv qoʻllanma alohida eʼtiborni tortadi.

Toʻplam tarkibiga dutor cholgʻusiga mahsus moslashtirilgan xilma-xil asarlar o'rin oldi. Bu hozirgi kunda shuningdek dutor cholgʻusi oldida repertar muammosini yechishda ham oʻz vazifasini bajaradi. Shuni qayd etish lozimki, dutor cholgʻusi uchun yaratilayotgan aksariyati asarlar konsert sahnaviy chiqishlarga moʻljallangan. (kompozitorimiz X. Rahimov asarlari shular jumlasidan). Ammo koʻpincha milliy va yevropa asarlari yetakchi pedagog sozandalar tomonidan turdosh cholgʻular repertuarida yigʻilib, moslashtirilib oʻrganishga beriladi. Shu nuqtai nazardan Roʻzibi Hodjayeva qilgan toʻplamdagi ishi eʼtiborga molik.

Qoʻllanmaning birinchi qismi Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist, dutor cholgʻuchisi Gʻulom Qoʻchqorovning repertuarlaridan o'rin olgan asarlar tashkil topgan. Ikkinchi qismida tojikistonlik sozandalar A.Moʻminov va M. Moʻminovlarning dutor joʻrnavozligida ijro etgan asarlarini oʻz ichiga oladi. Toʻplamning uchinchi qismi tarkibini 'Dutorchi qizlar' jamoasi repertuaridan o'rin olgan kuylar tashkil etadi. Yaʼni shu yoʻl orqali dutor ijrochilik maktabining yorqin vakillari va jamoalarini repertarini saqlab qolishi, ijrochilik anʼanalarini davom ettirish va targʻib qilish imkoni yuzaga keldi.

Janr jihatidan ham R. Hojiyeva turli asarlarni oʻz nashrlariga kiritgan - bu oddiy pyesalardan tortib yirik shakldagi konsertlar, sonata shakllari, erkin va murakkab ijro mahoratni talab etuvchi rapsodiyalar, fantaziyalar va boshqalar. Qolaversa, ular tomonidan Oʻzbekiston kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlari ham qayta ishlangan. Biz ijodkorning ayrim idmiy-ijodiy ishlarida toʻxtab oʻtdik. Bugunda yosh sozandalarni tarbiyalashda R. Hojiyeva kabi ijodkorlar faoliyatidan ibrat olish maqsadga muvofik. Ijodiy va pedagogik xizmatlari uchun Roʻzibi Hojiyevaga 2021-yili Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan “Esdalik nishoni”, 2022-yili Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining 85 yilligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan “Sodiq xizmatlari uchun” medali topshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirziyayev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Shukurova F. Dutor ijrochilik uslubiyoti masalalariga doir // J. “Musiqa” 2024, №4, 48-b.
3. Haydaraliyeva D.Dutor cholg‘usi tarixiga bir nazar // EJSSPC. 2024. №6-1. электрон ресурс: //cyberleninka.ru/article/n/dutor-chol-usi-tarihiga-bir-nazar: 29.09.2024.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



NARTURAYEVA SITORA ORIBOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi o‘qituvchisi.

KOMPOZITOR D.ZAKIROVANING IJODIDA ZAMONAVIY KOMPOZITSION TEXNIKALAR

(“Yumoreska” asari misolida)

Annotatsiya: Maqolada kompozitor D.Zakirovaning ilmiy-ijodiy faoliyati hamda kompozitorlik san’atidagi o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ijodkorning simfonik orkestr uchun “Yumoreska” (“Kayfiyat”) nomli asari misolida zamonaviy kompozitsion texnikalarning qo‘llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kompozitor, musiqiy ifoda vositalari, cholg‘ulashtirish, tembr, polifoniya, imitatsiya.

Аннотация: В статье описывается научная и творческая деятельность композитора Д.Закировой и её роль в композиторском искусстве. Также анализируется использование современных композиционных приемов на примере произведения композитора «Юмореска» («Настроение») для симфонического оркестра.

Ключевые слова: композитор, средства музыкальной выразительности, инструментовка, тембр, полифония, имитация.

Dilnoz Zakirova (Kamilova) – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, iste’dodli kompozitor, pedagog va serqirra ijodkordir. Uning yaratgan asarlari ko‘plab horijiy davlatlarda va xalqaro tanlovlarda ijro etiladi. Dilnoz Sabihullayevna musiqachilar oilasida tug‘ilganligi sababli, bolaligidan ijodiy muhitda o‘sib ulg‘aydi va bu albatta kompozitorning ijodiy faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Kompozitor O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori A.Mansurov sinfida

bakalavriat va magistratura bosqichlarini tamomladi. 2002-yildan hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasida dotsent lavozimida ish faoliyatini olib bormoqda hamda “Mutaxassislik”, “Partitura o‘qish”, “Cholg‘ulashtirish”, “Cholg‘ushunoslik”, “Kompozitsiya asoslari” kabi fanlardan dars berib kelmoqda.

Kompozitor ijodiy faoliyati davomida fortepiano uchun asarlar, fortepiano uchun 2 ta pyesalar, xor va fortepiano uchun qo‘shiqlar, nay va fortepiano uchun kuylar, qashqar rubobi va fortepiano uchun asarlar, “Quvonch” nomli qashqar rubobi va xalq cholg‘ulari orkestri uchun, nay va xalq cholg‘ulari orkestr uchun kuylar, fortepiano va simfonik orkestr uchun kontsert, “O‘tmish va Zamon” nomli simfoniya, simfonik orkestr uchun “Yumoreska”(“Kayfiyat”) kabi musiqiy asarlar muallifidir. Shuningdek, kompozitor Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri uchun “Tuzoq”, “Bu chollar, yomon chollar” nomli musiqali spektakli, “Operetta” musiqali komediya teatri uchun “Prostite, dorogoy” musiqali spektakllariga musiqa bastalagan.

Ijodiy faoliyatidan tashqari D.Zakirova “O, yalli-yallo” fortepiano uchun asarlar, “Partitura o‘qish”, “Cholg‘ulashtirish” kabi o‘quv qo‘llanmalar, respublika va horijiy jurnallarda chop etilgan turli ilmiy maqolalar mualifidir. Kompozitorning talabalari esa xalqaro va respublika tanlovlari ishtirokchisidir.

Kompozitorning simfonik orkestr uchun yozilgan “Yumoreska” nomli asari dastlab “Kayfiyat” deb nomlangan. Ushbu simfonik asar hajviy janrda bo‘lib, unda Nasriddin Afandi obrazi, sharq bozorlaridagi shovqin-suron, o‘zbek milliy urf-odatlari va otaxonlarning choyxonadagi kulgu obrazlari tasvirlangan. Yumoreska murakkab uch qismli shaklda yozilgan. Kompozitor ushbu simfonik asarni yaratishda cholg‘ulashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. D.Zakirova uchun musiqiy asar yaratish jarayonida eng avvalo ritm, cholg‘ulashtirish masalalari muhim rol o‘ynaydi.

Yumoreska 11taktli qisqa kirish qismi (Andante) dan boshlangan. Aytib o‘tish kerakki, musiqiy asarning boshidanoq kompozitor aynan ritm va cholg‘ulashtirishga alohida e’tibor bilan yondashgan. Kirish qismining boshidanoq musiqiy cholg‘ular tembrida polifonik elementlardan samarali foydalanilgan. Damli cholg‘ulardagi mavzuning ko‘rsatilishida birgina cholg‘u emas, balki, barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligida faol ishtirok etadi. Kirish qismida tong otishi, tabiat, qushlar va odamlarning uyqudan uyg‘onib, kunni boshlashga bo‘lgan harakati tasvirlanadi. Asar boshidanoq quvnoq,

ko‘tarinki kayfiyat seziladi, shuningdek, kompozitor damli cholg‘ularining texnik imkoniyatlaridan ham samarali foydalangan.



Birinchi qism Allegro tempida violonchel cholg‘usidagi yorqin usul bilan boshlanadi. Pizzicato shtrixida ijro etiluvchi ushbu usul milliyligimizni o‘zida aks ettirgan.



Fleyta pikkolo va ksilofon cholg‘ularida mavzu usulning fonida ilk bor yangraydi. Mavzuning o‘ziga xosligi shundaki, unda kuchsiz hissalarda atayin urg‘ular qo‘yilgan. Ushbu urg‘ular yordamida kompozitor mavzuning ritmida o‘ziga xos ichki kontrast hamda poliritmiya vositalarini mohirona ifodalab bergan:



Shuningdek, trombon va tuba cholg‘ularida glissandoning qo‘llanilishi musiqiy asarda o‘ziga xos kolorit va kayfiyatni hosil qiladi:



Yumoreskadagi ritmik cho‘zilishlar, ya’ni, ritenuto va glissandolar orqali kompozitor kayfiyatni ko‘taruvchi quvnoq va xandon kulgu obrazini tasvirlaganini ta’kidlaydi. Ushbu musiqiy asarni yaratish jarayonida D.Zakirova kompozitsion texnika va cholg‘ulashtirish xususiyatlari bo‘yicha juda ko‘p kompozitorlarning asarlarini tinglagan hamda o‘rgangan. Xususan, D.Ligeti, B.Bartok, D.Shostakovich, T.Shaxidi, A.Shnitke kabi kompozitorlarning musiqasi shular jumlasidandir. Kompozitor o‘rganilgan zamonaviy kompozitsion texnikalardan “Yumoreska”da samarali foydalangan. Shunga qaramay, musiqiy asarda milliylik ohanglari to‘la saqlanib qolgan. Torli cholg‘ularda foydalanilgan con legno shtrixi asarning kayfiyatini tasvirlashda o‘zgacha milliylik koloritini yaratadi.



Asarni rivojlantirish jarayonida kompozitor polifoniyadan samarali foydalangan. Ushbu asarda damli cholg‘ularning ishlatilishida ko‘pgina zamonaviy kompozitsion texnikalardan foydalanilgan. Damli cholg‘ulardagi tovushlarning bir-biriga ustma-ust tushib borishi, glissando va klasterli ohanglar kompozitorga ma’lum bir effektlarni hosil qilish uchun zamin yaratdi. Aynan damli cholg‘ular orqali kompozitor hazilni ko‘rsatib bera olgan:



Yumoreska ijro texnikasi jihatidan murakkab asar bo‘lganligi uchun damli cholg‘ularda mavzu ikki cholg‘uning bo‘linishi hisobiga juda sifatli yangraydi. Bunda kompozitor ijrochining imkoniyatlarini hisobga olgan holda, musiqiy asarning har bir jihatiga alohida e’tibor bilan yondashgan.

Yumoreskaning birinchi qismi tantanavor, fanfarali ohanglar bilan keyingi qismlarga ulanib ketadi. O‘rta qism, ya’ni rivojlovda polifonik elementlardan ko‘p foydalanilgan. Ostinatoli mavzu va ritmlar, cholg‘ular imitatsiyasi, turli musiqiy bezaklar, o‘z o‘rnida qo‘llanilgan glissandolar hazilomuz kayfiyatni to‘laqonli ravishda ochib bergan. Ushbu asarda ksilofon cholg‘usining ishtirokini alohida e’tibor bilan ta’kidlab o‘tish zarur. Ksilofondagi texnik imkoniyatlar “Yumoreska”da maksimal darajada ishlatilgan. Ushbu cholg‘uning o‘ziga xos tembri tinglovchida beixtiyor multiplikatsion janrdagi musiqani ham eslatadi.

Uchinchi qism, ya’ni, repriza mavzuni yanada yorqinroq va tantanali tarzda ko‘rsatib beradi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, kompozitor juda ko‘p asarlarida minor frigiy hamda major miksolidiy ladlaridan foydalanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Yumoreska”da hech bir musiqiy cholg‘u shunchaki fon vazifasini bajarmaydi. Kompozitor har bir cholg‘u o‘zini to‘laqonli

namoyon etishi uchun imkoniyat yaratgan hamda texnik murakkab, yorqin mavzular taqdim etgan. T.Qurbonov simfoniyalaridagi kabi bu yerda ham ustma-ust mavzuning tushishlari, polifonik imitatsiyalar, dissonans tovushlar, o‘zgacha garmonik funksiyalarining samarali qo‘llanilishi kuzatiladi.

“Yumoreska” (“Kayfiyat”) simfonik asarida turli zamonaviy kompozitsion texnikalar, xususan, lad, tembr, cholg‘ulashtirish, ritmik mavzular, noan’anaviy shtixlar, dinamik kontrastlar, kuchsiz hissadagi kutilmagan urg‘ular, polifonik imitatsiya va mavzularning turli cholg‘ularda ustma-ust tushib, dissonans va klasterli akkordlarini hosil qilishi asarning yangiligi bo‘ldi. Shuningdek, ko‘pgina kompozitorlarning simfonik asarlarida mis damli cholg‘ular guruhi garmonik funksiya vazifasi bilan cheklanib qoladi. Kompozitorning “Yumoreska” simfonik asarida esa barcha damli cholg‘ularda birdek murakkab texnik ijro imkoniyatlari va uslublari qo‘llanilgan hamda solo partiyalari berilgan. Zamonaviy usullardan samarali foydalanilganiga qaramasdan, ushbu asar haqiqiy o‘zbekona milliy kayfiyatni saqlagan holda, tinlovchiga hazilomuz obrazlarni to‘liq yetkizib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Golovyans T.A. Y.S.Meyke “Композиторы и музыковеды Узбекистана”, -Toshkent.: 2018. 118-b.
2. Zakirova D. partiture. “Yumoreska” (kayfiyat), -Toshkent.: 2024.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



NOSIRJONOVA NIGINA NARIMONOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d., professor (v.b),
Tursunova G. A.

KOMPOZITOR DILOROM OMONULLAYEVA

Annotatsiya: Maqola O‘zbekiston madaniyatida ayollarning o‘rni va jamiyatimiz ravnaqiga qo‘shayotgan hissalarini ochishga, shu o‘rinda, mamlakatimizda tanilgan ko‘plab estrada qo‘shiqlari, Xalqaro “Sharq taronalari” festivali madhiyasining muallifi - taniqli kompozitor, O‘zbekiston Respublikasining xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor, «Do‘stlik» ordeni sohibi, B. Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati institutining estrada xonandaligi kafedrasi mudiri Dilarom Омонуллаева ijodiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: musiqa, jamiyat, kompozitor, ayol, qo‘shiq, ijod.

Аннотация: Статья посвящена раскрытию роли женщин в культуре Узбекистана и их вкладу в развитие нашего общества. В этом контексте особое внимание уделяется творчеству известного композитора, заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан, профессора, кавалера ордена «Дӯстлик», заведующей кафедрой эстрадного вокала Национального института эстрадного искусства имени Б. Закирова — Дилором Омонуллаевой. Она является автором множества популярных эстрадных песен, а также гимна Международного фестиваля «Шарк тароналари».

Ключевые слова: музыка, общество, композитор, женщина, песня, творчество.

“Ayol-ona, millat tarbiyachisi” – iftixor bilan jamiyatimizda so‘zga olingan bunday ta’rifda katta ma’no bor. Darhaqiqat, bugun ayollar va xotin-qizlar jamiyatimiz taraqqiyotida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lmoqdalar. O‘nlab opa-

singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq artisti”, “O‘zbekiston xalq shoiri” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Jamiyat va davlat hayotidagi faollik, tashabbuskorlik ko‘rsatishlari hammaga ma’lum. O‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga davlatimiz tomonidan beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etilishi ham shular jumlasidan.

Tarixdan ma’lumki, To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi mamlakatimizning yorqin tarixiy shaxslari ayol bo‘lishiga qaramay davlatchilik, siyosat, san’at va ta’lim sohalarida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Zamonaviy O‘zbekiston hayotida ham bugungi kun izlanishlarida o‘zini hozirjavobligi va dadil faoliyati bilan e’tiborga tushgan ayollar qatorida san’at borasida ijrochilik, kompozitorlik va bastakorlik, musiqashunoslik va dirijyorlik sohalarida nom qozongan ko‘plab o‘zbek ijodkor ziyoli ayollari bor.

Shular qatorida zabardast va yetuk kompozitor, O‘zbekiston Respublikasining xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, «Do‘stlik» ordeni sohibi, B. Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati institutining estrada xonandaligi kafedrasi mudiri, professor Dilorom Darvinovna Omanullayeva nomi alohida o‘rin tutadi. Ijodkor ayolning hayoti va samarali faoliyati davomida qo‘lga kiritgan yutuqlari bu haqda dalolat beradi.

Kompozitor 1959-yil 1-oktabrda Toshkent shahrida san’atkorlar oilasida dunyoga kelgan. San’at borasida uchinchi avlod vakili bo‘lgani bois ularning oilasining musiqiy sulolalar qatorida e’tirof etish mumkin. Bobosi musiqali drama teatri artistlaridan biri Muhammadjon Xolmuhamedov, onalari – ushbu teatrning yetakchi aktrisasi San’atxon Xolmuhamedova o‘z farzandlariga san’atga bo‘lgan mehr uchqunini yondirgan. Yosh qizaloqning qalbiga, tinglagan ona allalari bilan birga musiqa mo‘jizalariga bo‘lgan qiziqish va muhabbat uyg‘onadi. Qobiliyatli qizchani V.Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabiga, “fortepiano” sinfi bo‘yicha o‘qishga berishadi va bu kelajakda ijodkorning kasbiga birinchi jiddiy qadam bo‘ldi. 12 yoshida u, respublikamizda tanilgan kompozitor, professor Boris Zeydman sinfida kompozitorlik bo‘yicha dastlabki saboqlarini oladi. Musiqani bastalash, atrof-muhitni kuzatish va tovushlar orqali taassurotlarini yoritishga bo‘lgan kuchli qobiliyati uni kompozitorlik borasida dadil qadamlarini tashlashga undaydi, ilk ijodiy asarlarida, jumladan, “Torli orkestr, urma cholg‘ular va fortepiano uchun 5 qismli syuita”sini muvaffaqiyatli ijro talqinida o‘z aksini topdi.

Dilorom Omonullayeva 1978-yilda maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasida ustozi professor Boris Zeydman sinfda o‘qishni davom ettiradi, keyinchalik esa kompozitor Rumil Vildanov sinfida imtiyozli diplom bilan o‘qishni bitiradi. Yosh mutaxassis yo‘llanma bilan Guliston san’at bilim yurtida 1984-1986-yillarda mehnat faoliyatini boshlaydi. 1986-1990-yillarda ijodkor konservatoriyada professor T.Qurbonov sinfida

assistent-stajyor sifatida saboq oladi. So‘ngra 1990-1993-yillar ichida konservatoriyaning “Bastakorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasi”da va V.Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishladi.

Kompozitorning serqirra ijodiy bisotida ushbu sohaning turfa janrlari va shakllarida yaratgan asarlar o‘rin olgan. Shularga simfonik orkestr uchun yaratilgan yirik asarlar: simfoniyalar, fortepiano va simfonik orkestr uchun yozilgan konsertlari, turli tarkib ijrosiga mo‘ljallangan asarlar (“Baxtnomamiz taronasi”, “Istiqlol madxiyasi”, xor va orkestr uchun turk qo‘shiqlari asosida yozilgan “Syuita”, xor akapella, solistlar, fleyta va doira uchun “Ko‘ngil soxili”), shuningdek, ko‘plab kamer-cholg‘u namunalari. Xususan, muallif ustozi 1982-yili B.Zeydman xotirasini yod etib, unga o‘zining torli kvartetini bag‘ishlaydi. Torli kvartetlardan tashqari fortepiano uchun sonata, yengil asarlardan tortib (“Bolalar albomi”, 5 ta kichik pyesa), dastlabki qadamlarini fortepiano cholg‘usida boshlashiga qaramay bir muncha mahoratli ijroni talab etuvchi asarlar (“Rechitativ va tokkata”, “Tokkata”, “Yomg‘ir”, “Bekinmachoq o‘yin”, “Karvon” kabi asarlar shular jumlasidan) kirdi.

Bu borada kompozitor o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor berib, 1985-1993-yillar mobaynida “Kichkintoylar uchun musiqa”, bola bog‘chasi tarbiyalanuvchilari uchun 20 ta qo‘shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan to‘plamni yaratdi. Ko‘plab asarlari turkum shaklida nashr yuzini ko‘rdi: “Topishmoq aytishuv” 6 ta qo‘shiqdan iborat turkum, so‘ng, shoir P.Mo‘min she’rlariga bastalangan 10 ta qo‘shiqdan iborat “Topishmoqlar qo‘shiqlari” turkumi, 1994-yili chop etilgan “Alifbo qo‘shiqlari” e’tiborga molik. Ushbu turkum aynan birinchi sinf o‘quvchilari uchun, lotin alifbosi mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z ichiga, alifboning alifboning har bir xarfiga 30 ta qo‘shiq yaratilgan. Qo‘shiqlar muallifi ham shoir P.Mo‘mindir. Kompozitorning ko‘plab qo‘shiqlari o‘z vaqtida O‘zbekiston Teleradiokompaniyasining “Bulbulcha” xor jamoasi va Estrada simfonik orkestri jo‘rligida ijro etilib yozib olingan. Ijodkorning qo‘shiqlari kichik va katta yoshlarga mo‘ljallangan.

Kompozitor D. Omonullayeva zamonaviy estrada qo‘shiqchilik sohasini rivojida katta hissasini qo‘shib kelayotgan ijodkordir. Ularning 100 ortiq qo‘shiqlari zamondosh shoirlardan U.Azimov, Z.Obidov, J.Jabborov, B.Rajab she’rlariga, turli tematik mavzular doirasini qamrab oladi: vatanparvarlik, vatanga muhabbat, sadoqat, sevgi ishqiy mavzular. Mamlakatimizning har bir xonadoniga o‘z vaqtida kirib kelgan qo‘shiqlar hanuz mehr bilan xalq orasida xirgoyi qilib kuylanadi: taniqli xonanda, estrada qo‘shiqchiligi san’atining yorqin vakillari, jumladan, Kumush Razzakova ijrosidagi “Men seni hech kimga bermayman”, “Yomg‘ir yog‘di”, “Saraton”, “Siz yoqqansiz menga hamisha”, “Ikki daraxt”, hamda “Sen qaydasan”, “Azizim”, “Baxtiyorim”, “Yashnayver, O‘zbekiston”, “Qora atlas”, “Armon bo‘lmasin”, “Ko‘nglim qushi qo‘lingda”, “Yig‘lama”, “Yolg‘on dunyo”, “Otash zamon”, “Bilsang edi” va boshqalar shular jumlasidan. Ushbu dilbar taronalar o‘z vaqtida K. Qayumov, M.Oynaqulova, A.Raximova,

R.Bo‘ronova, aka-uka Saidoripovlar ijrolarida mashhur bo‘ldi. 1997-yili U.Azim she’riga yozilgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali uchun yozilgan madhiya, yorqin va go‘zal esda qoluvchi ohanglari bilan barchani e’tiboriga tushdi.

Kompozitorning ijodida ona zamin tarixi, buyuk siymolari, ulug‘ tarixiy shaxslarning xizmatlari ochilishi alohida mavzular bor. Kompozitor to‘g‘ilgan ko‘hna makon, azim Samarkand bilan bog‘liq “Bibi-xonim harobalari oldida», «Gur-Emir», «Bogishamol», «Ulugbek yulduzlari» kabi fortepiano uchun yaratilgan asarlar shular jumlasidan. Ayni paytda kompozitor A. Temur siymosiga bag‘ishlangan balet ustida ish olib bormoqda. D. Omonullayeva yaratilgan har bir ijodiy janri bu borada alohida yoritilishi mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, sulolaviy an’analari nafaqat musiqiy ijodkorlik borasida balki, pedagogik qirrasida ham o‘zini aksini topdi. Kompozitor otasi Darvin Omonullayev o‘z vaqtida konservatoriyani “opera xonandaligi” bo‘limini tugatib, Nizomi nomidagi pedagogika institutining “Musiqiy fanlarni o‘qitish” kafedrasida ko‘p yillar mobaynida samarali faoliyat olib borib, mazkur kafedra rahbari, professori sifatida boshqarib kelgan. Onalari ham musiqachi-pedagog edi. Dilorom Omonullayeva ushbu qadamlardan borib o‘zini ma’rifat, ta’limga bag‘ishlab Oliy ta’lim muassasalarida, jumladan O‘zbekiston davlat konservatoriyasida, bugunda B.Zokirov nomidagi milliy estrada institutida qator shogirdlarni tarbiyalab kelmoqda. Ularning nomlari nafaqat respublika balki xorijda ham tanilgan.

Kompozitorning O‘zbekiston musiqasining rivojiga qo‘shgan hissalari ulkan hissasi Hukumatimiz tomonidan bir necha bor rag‘batlantirilgan. 1996-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, 2006-yilda “O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi” faxriy unvoni, 1998-yili “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanadi. Kompozitor, xonanda D. Omonullayeva shuningdek, “Ofarin” mukofotining sohibasi va “O‘zbekiston-Vatanim manim” tanlovi sovrindoridir.

Xulosa o‘rnida shuni belgilash joizki, Dilorom Omonullayeva nafaqat kompozitorlik va pedagogik faoliyatida, balki ijodiy qarashlari va ijtimoiy pozitsiyasi bilan tanilgan ijodkor. Targ‘ibotchilik borasida nafaqat musiqiy, balki ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga molik bo‘lgan masalalarni ko‘tarib, shogirdlarini mustaqil fikr yuritishiga undaydi. Uning asarlari bu borada hayotning zavq-shavqi, pat-ballanligi, murakkabligi, insoniyatning o‘zgarishlariga bo‘lgan ehtiyoji va insoniylikka bo‘lgan ishonchi yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov A. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” to‘ldirilgan 2-nashr- Toskent.: 2015 yil. 38-bet.

2. Omonullayev D. Estrada xonandaligi. – Toshkent.: 2007 yil.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



OBIDALIYEVA MARJONA
UMIDJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi,
Maxmudova.S.M.

DURDONA XAYDARALIYEVANING DUTOR IJROCHILIGI, PEDAGOGIK FAOLIYATI VA MILLIY MUSIQA RIVOJIDAGI O‘ZIGA XOS O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi va ularning san’at, xususan, dutor ijrochiligi sohasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Turkiston jadidlari davridan boshlab, bugungi kungacha ayollarning ilm-ma’rifatga intilishi va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash borasida olib borilgan sa‘y-harakatlarga e’tibor qaratilgan. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi katta o‘qituvchisi Xaydaraliyeva Durdona Erkinovnaning dutor ijrochiligi, pedagogik faoliyati va milliy musiqa rivojidagi o‘ziga xos o‘rni haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy faollik, ta’lim, jadidlar, dutor, ijrochilik, an’ana, musiqa, pedagogika, innovatsiya, meros.

Аннотация: В данной статье анализируется социальная активность женщин и их роль в сфере искусства, в частности исполнительского искусства. В статье основное внимание уделяется усилиям, предпринимаемым для усиления стремления женщин к знаниям и их положения в обществе со времен современного Туркестана до наших дней. Старшему преподавателю кафедры «Исполнение на народных инструментах» Хайдаралиевой Дурдоне Эркиновне будет рассказано о ее исполнительской, педагогической деятельности и ее уникальной роли в развитии национальной музыки.

Ключевые слова: социальная активность, образование, джадиды, дутар, исполнительское искусство, традиция, музыка, педагогика, инновация, наследие.

Hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, ularning davlat va jamiyat miqyosidagi ahamiyati, ayollar mavqeini yuksaltirish maqsadida ularning ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, davlat va jamiyat taraqqiyoti, ilm-ma'rifatli farzandlar tarbiyasi esa ma'rifatli xotin-qizlarga bog'liqdir.

Turkiston jadidlari davrida ham ayollarning bilim olishlari va jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'zlariga munosib ish bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratishni ko'zlaganlar. O'tmishimiz va bugunimizga nazar solsak, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquqlikni ta'minlash uchun harakat qilganlar.

Hozirgi kunda, barcha sohalar qatorida cholg'u ijrochiligi sohasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan "Dutor ijrochiligi" ni misol tarzida keltirishimiz mumkin. Dutor ijrochilik maktablarini saqlab qolish va rivojlantirish yosh avlodga dutor cholg'usining sir-asrorlarini o'rganish orqali milliy musiqiy merosini saqlash hozirga qadar dolzarb masalalardan biridir. Shu bilan birga, zamonaviy texnalogiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida dutor ijrochiligi yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda, maxsus musiqiy ta'lim muassasalarida dutorchilik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, bundan tashqari, xalqaro festival va tanlovlarda dutor ishtiroki milliy cholg'ularimizni butun dunyoga tanitish imkonini bermoqda.

Aynan dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Alisher Navoiyning zamondoshi Zaynulobiddin al-Husayniyning "Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari" nomli risolasida uchratamiz. Ota-bobolarimiz izidan borib, cholg'u ijrochiligiga katta e'tibor qaratilgan. An'anaviy ijro yo'nalishiga asoslangan cholg'ularda tovushqator diatonik holatda bo'lib, ularda jahon xalqlarining musiqiy asarlarini ijro etish imkoniyati yo'q edi. Bundan tashqari, cholg'ulardagi diapazonning nisbatan chegaralanganligi va ovozning kamer xususiyati o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish masalasiни ilgari surdi. 1938-yili cholg'ularni qayta ishlash bo'yicha A.I.Petrosyans [20] boshchiligida ish olib borildi. Ushbu takomillashtirish asosan ikki yo'nalish-cholg'ularni xromatizatsiya va temperatsiyalash hamda cholg'u guruhlari(oilalari)ni yaratish yo'nalishida amalga oshirildi.

Albatta bu harakatlar besamar ketmadi. Qancha imkoniyatlar yaratilgan sari ijodkor ayollar, bilimga chanqoq yoshlar ko'paya boshladi. Shu qatorda o'zbek

[20] Ashot Ivanovich Petrosyans (1910-1978)- yirik cholg'ushunos olim, dirijyor, pedagog, musiqiy jamoat arbobi. O'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish bo'yicha tajribaviy labaratoriya rahbari.

ijodkor ayollarni matonat va ilhom timsoli sifatida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi katta o‘qituvchisi Durdona Xaydaraliyevaning siymosida ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda, dutor ijrochiligi maktabi o‘z rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda. Bu jarayonda mohir ijrochi, pedagog Durdona Xaydaraliyevaning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud.

Durdona Xaydaraliyeva 1975-yil 27-sentabr Toshkent viloyatida ijodkorlar oilasida tavallud topgan. Boshlang‘ich musiqa ta’limini otalari Erkin Karimjonovdan olgan, keyinchalik esa B.B.Nadejdin nomidagi 5-bolalar musiqa maktabining dutor sinfida Fotima Raimova qo‘lida tahsil olgan. 1989-yili “San’at g‘unchalari” shahar ko‘rik tanlovida 1-o‘rinni olib keyinchalik esa Pespublika tanlovida 3-o‘rinni egallab, 1991 yili Xamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga kiradi. Yetakchi o‘qituvchi Ilyos Lutfullayev sinfida tehsil oladi. 1995-yil Xamza nomidagi musiqa bilim yurtini imtiyozli tamomlagan ва shu yili Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi)ning “O‘zbek xalq cholg‘ulari” bo‘limiga o‘qishga qabul qilingan va professor Ro‘zibi Xodjayeva sinfida tahsil oladi va imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tamomlagan.

Ish faoliyatini dastlab professor Abduraximova Feruza Ravshanovna rahbarligidagi **“Sug‘diyona”** davlat kamer orkestrida sozanda bo‘lib boshlagan (1995-1999 y.). **“Sug‘diyona”** orkestri bilan birgalikda 1996-yili Germaniyaga, 1997-2000 yillarda Misr, 1998-yili Fransiya va Ispaniya shaharlarida bo‘lib o‘tgan musiqa festivallarida ishtirok etadi.



Orkestrda faoliyat yuritish bilan bir qatorda dutor sinfi bo‘yicha o‘zining pedagogik faoliyatini o‘zi tahsil olgan B.B.Nadejdin nomidagi 5-BMMda, keyinchalik 1999 yildan 2004 yilgacha Yangiyo‘l Shahar 11-BMMda dutor sinfi bo‘yicha o‘qituvchi sifatida ish olib bordi. 2005-2007 yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining magistratura bosqichida dutor mutaxassisligi bo‘yicha professor Ro‘zibi Xodjayeva sinfida tahsil oladi. 2007 yildan boshlab esa

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida dutor ixtisosligi bo‘yicha faoliyat yuritib kelmoqda.

Pedagogik faoliyati bilan hamohang ravishda ustozi professor Ro‘zibi Xodjayeva boshchiligidagi G‘anijon Toshmatov nomidagi **“Dutorchi qizlar ansambli”** da sozanda sifatida faoliyat yuritib ko‘pgina davlat tadbirlarida ishtrok etgan.



Pedagog, sozanda sifatida faoliyat olib borish bilan bir vaqtda “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish labaratoriyasida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritib “Umrboqiy sozlar”, “Usta Usmon Zufarovlar sulolasi yaratgan dutorlarning umumiyligi”, “Ustoz shogird an’anasi etadi davom”, “Xalq cholg‘ularida boshlang‘ich ta`lim” kabi mavzulardagi maqolalarи bilan ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etdi. Shu bilan birga «Xalq cholg‘ularida ijrochilik “Dutor” nomli o‘quv qo‘llanma muallifidir.

Mohir ijrochi Durdona Erkinovna o‘z ijodi bilan cheklanib qolmay yosh ijodkorlar kamoli uchun ham mehnat qilib kelmoqda. Pedagogika bo‘yicha yillar davomida shug‘ullangan, nafaqat o‘zining ijodi balki o‘ziga o‘xshagan yetuk, barkamol ayol-qizlarning bilim olishlari uchun sharoit yaratdi. Berilgan bilim va imkoniyatlardan foydalanib shogirdlar ham bir necha faxrli o‘rinlarni egallab kelishmoqda, masalan bulardan: Sarvinoz Isroilova - O‘zbekiston davlat konservatoriyasi yoshlar yetakchisi lavozimida ishlagan, uchinchi kursda Alisher Navoiy stipendiyasi sohibasi bo‘ldi.



Yana bir talabalaridan biri Sug‘diyona Abduvaliyeva tanlovda ishtirok etib faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi. Farg‘onalik shogirdi Durdona Murodova O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bakalavr bosqichini tamomlab, hozirda, Farg‘ona pedagogika universitetida magistratura bosqichini tugatib, doktaranturada tamomladi va PhD ilmiy darajasini oldi va o‘z mexnat faoliyatini davom ettirmoqda.

Bolalar musiqa maktablarida dutor cholg‘usini ommalashtirish va yoshlarni cholg‘u soziga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida san’at maktablarida doimiy mahorat darslarini olib boradi.



Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ta’lim olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir. Yurtimizda ayollarga bo‘lgan e’tibor yuqoriligi sababli ijodkor ayollarning sermahsul ijod qilishiga barcha sharoitlar yaratilgan. Durdona Xaydaraliyeva ham yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan xolda, ijodiy faoliyatini yutrimiznning musiqiy merosini yanada boyitish, dutor ijrochiligida shogirdlar yetishtirish, hamda ijrochilikning yangi bosqichlarga olib chiqish uchun harakat qilib kelmoqda. Ustozining izidan borayotgan shogirdlar ham yurtimizda va chet elda yuksak natijalarga erishib, o‘zbek musiqiy merosining davomchilari bo‘lib yetishmoqda. Milliy cholg‘ularimiz san’atini yanada rivojlantirish, yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Ijodkor ayollarimiz qatorida

Durdona Xaydaraliyeva ham fidokorona mehnati orqali dutor musiqasi ixlosmandlariga ilhom bag‘ishlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurashidov Munavvar Qori. “Jadidlar” T., 2022.
2. Abdullayeva O. “Ansambl cholg‘ularini o‘rganish” T., 2006.
3. Rahimov Sh. - “Cholg‘u ijrochiligi. Dutor” T., 2010.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025



OMONJONOVA ODINAXON FARRUXJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: professor, Tursunova (Hasanova) X.A.

KOMPOZITOR XURSHIDA HASANOVA IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

(yorqin xotiralar, kompozitor bilan bo‘lgan suhbatdan parchalar)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompozitor Xurshida Hasanovaning kompozitorlik faoliyatiga kirib kelishi, yorqin xotiralari, kompozitsiya san’atida ijodiy yo‘nalishlari haqida so‘z boradi. Ijodkorning ko‘p qirrali faoliyatida kompozitorlik ijodining o‘rni, yozgan asarlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ayol kompozitor, bolalar qo‘shiqlari, estrada, kamer cholg‘u, prelyudiya, kinomusiqa, ijodkorlik**.**

Аннотация: В данной статье рассказывается о творческом пути Хуршиды Хасановой как композитора, ярких воспоминаниях и творческих направлениях в композиторском искусстве. Приведено место творчества композитора в многогранной деятельности художника, даны сведения о его произведениях.

Ключевые слова: композитор-женщина, детские песни, эстрада, камерный инструмент, прелюдия, киномузыка, творчество.

O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida ayol kompozitorlarning o‘rni juda ahamiyatli. Ularning asarlarida ayol qalbi, nafosat, musiqaning o‘zgacha ohang tasvirlari namoyon bo‘ladi. Shohida Shoymardonova, Dilorom Saydaminova, Xurshida Hasanova, Oydin Abdullayeva, Dilnoz Zakirova kabi kompozitorlar o‘zlarining musiqiy asarlari va ijodiy faoliyati bilan milliy kompozitorlik maktabiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Kompozitor Xurshida Hasanova 1967-yil 7- sentabrda Toshkent shahrida yetuk sozanda Otaboy Hasanov oilasida tavallud topgan. Ijodkorning musiqaga bo‘lgan qiziqishi bolaligidanoq paydo bo‘lgan. “-Oilamizda otam san’atkor bo‘lganliklari sababli uyimizda musiqiy muhit bor edi. O‘z davrining yetuk sozanda, xonandalari barchasi bizning uyga mehmoga kelishar, milliy merosimiz maqomlar, bastakorlik namunalarini ijro etib, o‘zlari birgalikda musiqiy bastalar ijod qilishar edi. Bu mening musiqaga bo‘lgan hurmatim va qiziqishimni yanada oshirgan. Otam, kichikligimda (adashmasam 5-6 yoshlar) doimo “ – *Sen kompozitor bo‘lasan* “ der edilar. Kompozitor o‘zi kimligi, nima qilishini tushunmasdim, lekin kelajakda kompozitor bo‘laman deb aytardim. Keyinchalik kompozitor musiqa yozishini bilib oldim. Musiqa maktabiga boragnimizda u yerda kompozitor borligini bildim va o‘zim yozgan kichik musiqalarni mening birinchi ustozim, atoqli kompozitor Avaz Mansurovga ko‘rsatganman” deb hotirlaydi kompozitor [4].

Ijodkorning ilk ustozi, mashxur kompozitor, hozirgi kunda Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti rektori, professor Avaz Mansurov suhbatlarning birida shogirdi Xurshida Hasanova bilan birinchi uchrashganlari haqida samimiyat bilan esladilar:

“- Talabalik yillarim, musiqa maktabida yaqindagina faoliyat boshlagandim, o‘quv xonamda pianino chalib, ijod qilib o‘tirsam bir kichik qizaloq eshikni taqillatib, “-Bu yerda bir qariya bormi?” deb so‘radi. Men “Yo‘q” deb javob berdim. Qizaloq ketdi. Ertasi kuni yana shu holat takrorlandi. Men undan kimni qidirayotganni so‘rasam, “Kompozitor”ni qidiryabman dedi. Kompozitor ekanligimni aytganimdan so‘ng o‘zi ham kompozitor bo‘lmoqchi ekanligini bildirdi. O‘zi basatalagan musiqiy namunalarini olib kelishini vazifa qilib berdim, shunda solfedjio fanidan yozgan diktantlari, kichik bir ovozli musiqiy asarlarini papkaga solib keldi. Xurshidaning bilimga chanqoqligi, zehni o‘tkir, ko‘zi chaqnab turishi, qat’iyatliligi, musiqaga bo‘lgan muhabbatini ko‘rib dars o‘tishni boshladim. Uning o‘ziga xos qalb ohanglari bor edi. Kompozitor chiroyli kuylar bastalashi uchun qalb ohanglariga quloq tutishi kerak. Bu ijodkor uchun juda muhim bo‘lgan xislatdir. Men kompozitsiyadan yosh o‘quvchilarga mos tarzda, unga dars o‘tishni boshladim. Darslar jarayonida kichik musiqiy asarlar bastaladi.”[4]

Keyinchalik Xurshida Hasanova kompozitor o‘zining musiqiy bilimlarini yanada oshirdi. 1982-86 yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqali bilim yurtining “Musiqa nazariyasi” mutaxassisligid taxsil olgan. 1991 yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini, 2003-yilda assisentura-stajirovkani dotsent Mirhalil Mahmudov sinfida tamomlagan. 2009-yildan O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasida (hozirgi kunda Professor lavozimida) faoliyat yuritib kelmoqda. 2003-yilda Yaponiyada LCA orqali amaliyot o‘tab, o‘z mahoratini oshirgan [2].

Kompozitor Xurshida Hasanovaning faoliyati ko‘p qirralidir:

- kompozitorlik ijodi;
- pedagogik faoliyati;

- O‘zbekiston musiqiy madaniy hayotida faolligi.

Xurshida Hasanovaning kompozitorlik ijodi keng va qamrovli bo‘lib, turli janrlardagi asarlarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

- bolalar qo‘shiqchiligi;
- kamer-cholg‘u asarlar;
- estrada qo‘shiqlari;
- orkestr uchun yozilgan yirik janrli asarlar;
- kino musiqa ijodi.

Kompozitor ijod davring eng yetuk qismi bu – bolalar qo‘shiqlari hisoblanadi. Bolalar uchun yozilgan qo‘shiqlarning deyarli barchasi Respublika miqyosida bog‘cha, maktab, va musiqa maktablari o‘quv dasturlariga kiritilgan.



Qo‘shiqlardagi melodik tuzilishi, unga mos garmoniya, she’r mazmunini yanada ifodalovchi elementlar bolalarga xos beg‘uborlik aks etgani barcha kuylovchi bolajonlarning va tomoshabinlarning ko‘nglidan joy egallagan. “- Bolalar uchun musiqa bastalash juda ma’suliyatli. Bolalar to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni oqni oq, qorani qora deydi. Ular dunyo boshqacha ko‘z bilan ko‘radilar. Kompozitor ham musiqa bastalashda bolalarning fikrlari, ularning erkaliklari, bolalarcha dunyosini xis qilib yozishi kerak. Chin dildan bolaligiga qaytib, o‘zi zavq bilan kuylab musiqa bastalasa, kompozitor bolalar uchun juda chiroyli ohanglar yoza oladi. Yana bolalar uchun qo‘shiqlar yozishda kompozitordan mahorat talab qilinadi. Bolalarning yoshi, ovoz diapazonlari inobatga olinishi lozim. So‘z matni, mazmuni esa aniq, sodda va tushunarli bo‘lishi kerak. Bu, bola o‘zi kuylayotgan musiqasini ma’nosini tushunib, harakter berib, maromiga yetkazib kuylashida asosiy unsur hisoblanadi.” deya ta’kidlaydi Xurshida Xasanova [4].

Bolalar qo‘shiqlari janrida samarali mehnat qilgan kompozitor bolalar uchun 200 dan ziyod qo‘shiqlar bastalagan. Jumladan, “O‘zbekiston jannat” (Dildosh Rajab so‘zi), “Tabassum qil” (N.Narzullayev so‘zi), “Sevinch”(S.Muzaffarova so‘zi), “Turnalar” va “Vatan” (H.Rahmat so‘zi), “Kamalak” (P.Mo‘min so‘zi), “Humo qushi” (O‘.Hoshimov so‘zi), “Sog‘lom avlod” (U.Qo‘chqor so‘zi), “Lola” (I.Muslim so‘zi), “Majnuntol” (I.Jiyanov so‘zi) va boshqalar. [Jabborov, 456-bet] albomini va qo‘shiqlar yozilgan “Qo‘shiqlar sehri”, “Sehrli dunyo” kabi mualliflik disklarini taqdim etgan. “Qo‘shiqlar sehri”, “Vatanimni kuylayman” va “Mening Diyorim” kitobi muallifi. Kompozitorning qo‘shiqlari Mustaqillik, Navro‘z va ko‘plab davlat tadbirlari repertuaridan o‘rin egallagan.

Estrada ijodida esa, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, estrada xonandasi K.Razzoqova repertuaridan quyidagilar: “Chinni gullar”, “Sog‘inaman” (N.Narzullayev so‘zi), “Yetolmayman” (M.Yo‘ldoshev so‘zi), “Kuz gullari” (Humoyun so‘zi), “Rostini ayting” (E.Oxunova so‘zi), “Alangadan nido” (M.Yo‘ldoshev so‘zi), I.Yo‘ldosheva ijrosida «Sen uchun» (N.Qurbonova so‘zi) kabi qo‘shiqlarni bastalagan. [1,456-57 b.]

Simfonik asarlar: Simfonik she’r, “Otam xotirasiga” simfoniyasi, Fortepiano va orkestr uchun konsert, Torli orkestr uchun musiqa, “Iltijo” kapella xori (E.Vohidov so‘zi), Kamera cholg‘u asarlari: Yog‘och damli cholg‘ular uchun kvartet - 1991, “Omnibus” ansambli uchun: “Tarixning kichik sahifasi” - 2013, “Holat” -2014, “Sehrli kitob” -2015. Xalq cholg‘ulari orkestri uchun “Ohanglar yog‘dusi” uvertyurasi, prima rubob va XCHO “Orzular parvozi” fantaziyalarini yaratgan.

Fortepiano uchun asarlari: Sonatina, Variatsiyalar, M.Ashrafiyning “Rustami Doston” oratoriyasi mavzusidagi “Fantaziya”, Fleyta, fagot, goboy, klarnet, fortepiano bilan skripka va pianino bilan gijjak uchun ikkita asarlar basatalagan. Kompozitorning fortepiano uchun yozgan kamer asarlari (asosan fortepiano prelyudiyalari) o‘ziga xos milliy bo‘lishi bilan bir qatorda zamonaviy tuzilishga ega bo‘lgan, o‘zida bir necha musiqiy oqimlar (impressionism va ekspressionizm) an’analarini mujassam etgan. “My soul’s river”, “Glare of the moon” kabi prelyudiyalari o‘zlarining kompozitsion tuzilishi, fakturaviy izchilliklar va rangbaranglik, tembrlarning tasvirdagi ahamiyati bilan o‘zbek kompozitorlarining fortepiano prelyudiyalari janrida alohida musiqiy o‘rni bilan namoyon bo‘ldi. Ushbu kompozitsiyalar yaqin yillardan buyon AQSH musiqiy dunyosining nufuzli festivali - “Mannes Sounds” repertuarlaridan o‘rin olib kelmoqda. Shuningdek, 2025-yil fevral oyida bo‘lib o‘tgan festivalda kompozitorning “Ostinato, Tributo to Schedrin” nomli asari mahoratli pianino ijrochisi King Chang tomonidan ijro etildi.

Shu bilan bir qatorda kompozitorning asarlari Moskva, Qozog‘iston, Peterburg, AQSh (Nyu York), Italiya shaharlarida bo‘lib o‘tgan tanlov va festivallarda ijro etilib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.





Kompozitorning kino musiqa janriga kirib kelishi 2005-yil “Tog‘da o‘tgan quvnoq yoz” bolalar kinosi uchun yozgan musiqasi bilan boshlangan. “Kichkina izquvar”, “Umid”, “Insho”, “70 yoshli bolakay” bolalar kinosiga ham musiqalr muallifi Bundan tashqari 2014-yili “Gumrohlar”, “Baxtsiz kuyov”, “Repititsiya” nomli filmlarga, “Muhabbat liboslari” “Yo‘l ustida”, “Farishta”, “O‘gay ona”, “Malak” seriallariga, “Otalar so‘zi”, “Omonat”, “Aldangan qiz” , “Chegaradagi qishloq ”kabi bir qancha serial va kinofilmlar musiqalar bastalagan.

Kompozitor Xurshida Hasanova o‘zining kompozitorlik faoliyati bilan bir qatorda pedagogik faoliyatida ham juda ko‘plab yutuqlarga va natijalarga erishmoqda. “Yilning eng yaxshi bastakori”, “E’tirof - 2013”, “Do‘stlik” ordeni, Madaniyat va san’at fidokori va yana ko‘plab mukofotlar bilan taqdirlandi. Hozirgi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Professori lavozimida faoliyat yuritib o‘zining kompozitorlik saboqlarini o‘rgatib, shogirdlarini tarbiyalab kelmoqda. Ustoz- shogird an’analarini davom ettirib kelayotgan kompozitorning talabalari Xalqaro va Respublika tanlovlari g‘olibi bo‘lib, O‘zbekiston milliy kompozitorlik maktabini jahon miqyosida nufuzini yanada oshirishiga ishonchimiz komil. Kompozitor Xurshida Hasanovaning ijodida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqasunoslari, T – 2004.
2. https://www.commus.uz/index.php/ru/35-struktura/russian/289-khasanova-tursunova-khurshidakhon

3. Kompozitor Xurshida Hasanova bilan bo‘lgan suhbat jarayonlaridan.
4. Kompozitor Avaz Mansurov bilan bo‘lgan suhbat jarayonidan.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



PATXULLAYEVA UMIDA
AXROR QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (PhD), dotsent,
Abrarova M.F.

SAN’ATGA BAXSHIDA UMR

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni sohibasi, professor Galina Muxamedova Iminovnaning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: opera san’ati, vokal, musiqa, ustoz-shogird, teatr, repertuar, xonanda.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о жизни и творчестве обладательницы нагрудного знака “ Маданият ва санъат фидокори”, профессора Галины Мухамедовой Иминовны.

Ключевые слова: оперное искусство, вокал, музыка, наставник-ученик, театр, репертуар, певица.

Zamonamizda shunday ijodkorlar borki, ularning ijodiy faoliyati O‘zbekiston madaniyati va san’ati ravnaqida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, opera xonandaligi va vokal san’atining yorqin namoyondalaridan biri, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Akademik xonandalik” kafedrasi mudiri, professor Galina Muxamedovaning ilmiy-ijodiy faoliyati alohida diqqatga sazovordir. Opera xonandalari ichida o‘zining betakror ovoz tembri, ijro mahorati va texnikasi bilan tinglovchilar qalbidan joy olgan G.Muxamedova bugungi kunda ham tinimsiz ijodiy izlanishdadir. U sermahsul va sermazmun pedagogik faoliyati davomida yuzlab shogirdlar yetishtirdi. Hayot yo‘lining qariyb 30 yildan ziyod vaqtini O‘zbekistonda opera san’ati ravnaqiga xizmat qilayotgan shogirdlar tarbiyasiga bag‘ishladi.

G. Muxamedova 1958 yilning 24 iyunida Toshkent viloyati Kalinin tumanida, ishchilar oilasida tavallud topgan. Bolaligidan musiqa san’atiga mehr

qo‘yib, katta qiziqish bildirgan. Garchi, G.Muxamedovaning oila a’zolari musiqadan yiroq bo‘lsalar-da, ularning xonadonida hamisha musiqa yangrab turgan. Onasi - Shtox Yelena Lukyanovna asli rossiyalik bo‘lib, kutubxonada ishlagan. U 1921 yil Krasnoyarsk o‘lkasida tavallud topgan. Otasi - Azimov Eminjon 1909 yilda Prjevalskda tug‘ilgan va keyinchalik ular O‘zbekistonga ko‘chib kelishgan. G.Muxamedovaning otasi sartaroshlik bilan shug‘ullangan.

Galina Muxamedovaning san’at yo‘liga kirib kelishi esa, akalari bilan bog‘liqdir. Ular bayan (akkordeon) cholg‘u ijrochisi bo‘lishgan va ijodkorimizni ham mazkur cholg‘u asbobi o‘ziga jalb qilgan. Qiziqishlar Galina Muxamedovani “Pionerlar saroyi”ga yetaklagan, mazkur dargohda “Quyoshcha” bolalar opera studiyasi to‘garagi mashg‘ulotlarini ko‘rib qiziqib, ularning safiga qo‘shilgan. To‘garak rahbarlari Tamara Matveyevna Igunova va Gennadiy Ivanovich Igunovlarning bolalar uchun sahnalashtirgan operalarida yosh qizaloq sifatida ishtirok etgan. San’atga bo‘lgan muhabbat uni konservatoriyaga yetaklaydi. G. Muxamedova ikki yil konservatoriyaga tayyorlov kursida tahsil oladi. Unga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent, lirik-koloraturali soprano ovoz sohibasi Raisa Konstantinova Arzumanova saboq beradi. Aynan u G. Muxamedovaning vokal xonandasi sifatida shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. U san’atning eng nozik jihatlarini teran anglashi bilan nafaqat sahnada, balki pedagog sifatida ham o‘z maktabini yaratgan tajribali mutaxassislardan edi. G. Muxamedova ilk ijodiy va ovozni boshqarish bo‘yicha texnik asoslarini aynan undan o‘rgandi. Ikki yil davomida tayyorlov bosqichida, so‘ngra besh yil konservatoriyada tahsil olayotganda, R.K.Arzumanova unga ovoz postanovkasini shakllantirishga amaliy yordam bergan. Uning maslahat va yo‘riqlari nafaqat vokal texnikasini shakllantirishda, balki sahnaviy ifoda erkinligini rivojlantirishda ham asosiy o‘rin tutdi.

G.Muxamedovaning badiiy kamolotga erishishida yana bir ustozi Sofiya Anatolyevna Tsoyning hissasi katta bo‘ldi. Nafaqat talabalik yillarida, balki keyinchalik ham, kafedrada uzoq yillar birga faoliyat yuritgan S.A.Tsoy, unga kamer ijrochiligining nozik sirlarini o‘rgatdi. Natijada, G. Muxamedova nafaqat opera sahnalarida, balki kamer vokal san’atida ham o‘ziga xos uslub yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Uning talabalik yillarida, o‘qigan kursida 20 nafar talaba bo‘lib, ular juda ahil bo‘lishgan. Darslardan tashqari vaqtning katta qismini opera truppasida o‘tkazishgan. Ushbu jamoaviy ruh ularning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. O‘qish davrida G. Muxamedova 8 ta spektaklda rol ijro etgan. Xususan, 1982 yil endigina birinchi kursga qabul qilingan davrida P.Chaykovskiyning “Iolanta” operasida, bosh rolni ijro etgan. Shuningdek, F.Yanov-Yanovskiyning “Petrushka” operasi o‘sha kezlari 5-6 tagina ijrochi ishtirokida sahnalashirilib, ular orasida G. Muxamedova ham Petrushka ro‘lini ijro etgan. O‘sha vaqtda u opera tayyorlov kursida tahsil olayotgan bo‘lib, opera premyerasida birinchi ijrochilardan biri sifatida qatnashgan. Uning sahnadagi faoliyati shu bilan cheklanmaydi.

Kompozitorlar uyushmasida 1981 yil 11 fevralda Nurilla Zokirovning “Uyg‘onish” operasi kontsert ijrosida Jamila rolini ijro etib, tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan, 1982 yil 9 aprelda Sh.Gunoning “Faust” operasida Margarita ro‘lini ijro etgan. Bu spektakldan bir oy avval u ko‘richak yalig’lanishi bilan kasallanib, jarrohlik amaliyotini boshidan o‘tkazgan bo‘lishiga qaramay, bor artistik mahoratini ishga solib sahnaga chiqqan. Operaning syujetiga ko‘ra, so‘nggi qismda Margarita vafot etadi va pardalar yopiladi. Aynan shu lahzada G. Muxamedova charchoqdan holsizlanib, o‘rnidan zo‘rg‘a turgan. Chunki, vokal ijrosi jarayonida asosan qorin mushaklari ishlaydi va bu operani kasallikdan keyin ijro etish uning uchun ancha qiyin kechgan. 4 kursida o‘qiyotgan kezlari esa R.Leonkavallaning “Payatsi” spektaklida Neddo ro‘lini ijro etib, o‘zining sahnadagi mahoratini yana bir bor namoyon qilgan.

G. Muxamedova tirishqoqligi, noyob qobiliyati va namunali xulqi bilan kursdoshlari orasida hamisha ajralib turgan. Uning ilmiy va ijodiy salohiyati yuksak baholanib, “Muhiddin Qori Yoqubov” nomidagi davlat stipendiyasi sohibasiga aylangan. O‘z umr yo‘ldoshini ham konservatoriyada uchratgan. Ilk uchrashuvlaridanoq Nurmaxmat Muxamedovning kamtarin va soddadilligi Galinaning e’tiborini tortgan. O‘sha kezlari Nurmaxmat opera san’atini yaxshi tushunmas va estrada bo‘limiga o‘qishga kirishni maqsad qilgan edi.

Bir necha oy o‘qigandan so‘ng, u Samarqandga qaytishga qaror qildi va Samarqanda ish topadi. Kunlarning birida, Nurmaxmatning uyiga telegramma keladi va unda shunday so‘zlar yozilgan edi, *“ Zudlik bilan Toshkentga keling, aks holda, o‘qishdan haydalasiz”*. Keyinchalik ushbu maktubni yuborish tashabbusi kursdoshi Galinadan ekanligini biladi va hayratga tushadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay u Toshkentga qaytib o‘qishni tiklaydi. Tobora Nurmaxmatning o‘qishga qiziqishi ortadi va Galina bilan birgalikda konservatoriyaning opera studiyasiga, spektakl, kontsertlarga borishadi. Shuningdek, italyan tilini ham birga o‘rganishadi. Do‘stlik asta-sekin haqiqiy jiddiy tuyg‘uga aylanib, yoz davomida to‘plangan stipendiyalariga uchinchi kursdan so‘ng, 1980 yil 19 avgustida turmush qurishadi. O‘qish va oilaviy hayotni birga olib borish Galinadan katta kuch, iroda va matonat talab qiladi .

Talabalik yillarining so‘ngida, Rossiyalik olim Yuriy Aleksandrovich Barsov, G. Muxamedovaga Moskva konservatoriyasining aspiranturasiga yo‘llanma bergan. Shu bilan birga, unga va kursdoshlari— Kuvayev Shokir, Muxamedov Nurmaxmat, Bakayev Sirojlarga Samarqand davlat opera va balet teatrida ish boshlash tavsiya qilingan. San’atga bo‘lgan muhabbati G. Muxamedovani Samarqand davlat opera va balet teatri sahnasiga olib keladi. 1982-1991 yillar teatrda bir qator operalarning bosh rollarini ijro etadi. S. Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida – Oyxon, T. Jalilovning “Tohir va Zuxra” operasida Zuxra,- “Xamza” operasida – Sanobar, Sobir Boboyevning “Quvg‘inlar” operasida – Chevar, Rustam Abdullayevning “Sadoqat” operasida Zulfiya partiyalarni ijro etadi. Shuningdek, u rus va Yevropa operalarida ham ishtirok etgan, jumladan: P.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin”, “Iolanta”,

“Faust” – Margarita, “Masqarabozlar” da Nedda, “Karmen”- Mikaela kabi spektakllarda o‘zining kuchli vokal ijrosi bilan tomoshabinlar e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Biroq, yillar o‘tib Samarqanddagi teatr faoliyati to‘xtatilgani sababli G. Muxamedova oilasi bilan Toshkentga qaytadi. Farzandlarini oyoqqa qo‘ygach, G. Muxamedova pedagogik faoliyatni davom ettiradi.1991yildan Yunus Rajabiy nomidagi musiqa pedagogika kollejida, ikki yil davomida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. 36 yoshida esa, hozirgi “Xor dirijorligi” kafedrasi professori Jumayeva Lyubov Habibovna unga konservatoriyada o‘qishini davom ettirishni maslahat beradi. 1994-1996 yillarda O‘zbekiston xalq artisti Nasim Hoshimov sinfida «Akademik vokal ijrochiligi» yo‘nalishi bo‘yicha assisentura-stajirovka bosqichida tahsil oladi. Shu bilan birga, Hamza nomidagi musiqa kollejida asosiy shtatda o‘qituvchi lavozimida faoliyat olib boradi. G. Muxamedova M.Ashrafiy nomidagi “Akademik xonandalik” yo‘nalishida tahsil olib, keyinchalik ushbu dargohda pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

G. Muxammedova pedagog sifatida ilk marotaba 2002 yil 7 may kuni Toshkentdagi Sergey Yesenin muzeyi kontsert zalida o‘z o‘quvchilarining kontsertini tashkil qiladi. O‘sha paytda uning qo‘l ostida olti nafar talaba qiz tahsil olgan. Dastlab, konservatoriyada kontsert berish unga murakkab tuyuladi, chunki bu uning o‘quvchilari bilan birinchi sahnaga chiqishi edi. Xonandaning zimmasidagi mas’uliyat yuki ham uning ichki hayajonini oshirgan. O‘sha davrda G. Muxammedova sahnada faol ijod qilib yurgani bois muzey xodimlari bilan tanish bo‘lib qolgan va ulardan o‘quvchilari bilan konsert qo‘yish uchun ruxsat olgan. Konsert ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, dasturga o‘zbek va klassik asarlar kiritilgan. Bugungi kunda, o‘sha o‘quvchilari orasidan Malika Normatova katta yutuqlarga erishganligini e’tirof etish lozim. Jumladan, u “Shuhrat” medali sovrindori, yilning eng yaxshi opera ijrochisi e’tirofi sohibasi va A. Navoiy nomidagi DAKT teatr solistiga aylangan. Uning o‘quvchilaridan yana biri Mahfuza Islomova ham nufuzli tanlovlar laureatidir. Aynan shu 2002 yili G. Muxammedovaning huzuriga tabiatan boy ovoz sohibi bo‘lgan, fagot ijrochisi Maksim Jarikov kelib, uning sinfida tahsil olish istagini bildiradi. Bunday noodatiy taklifdan ustoz mamnun bo‘lsa-da, bir muddat ikkilanib, uni rad etishga majbur bo‘ladi. Biroq, oradan ko‘p o‘tmay, Vasiliy Nikolayenko ham undan dars olishni iltimos qiladi. Pedagogning ikkilanayotganini sezgan yigitlar unga murojaat qilib: *“Ustoz, baribir kun kelib o‘g‘il bolalarga ham dars berishni boshlashingiz kerak. Keling, bu ishni bizdan boshlang!”* deb, taklif qilishadi. G. Muxammedova bu jarayonni eslar ekan, shunday deydi: *“Dastlab juda qiyin bo‘ldi, chunki qizlar bilan ishlash bir xil, o‘g‘il bolalar bilan esa tamoman boshqa yondashuv talab etilar edi. Ovoz chiqarish texnikasi, rezonatorlarning ishlashi – hammasi farq qilardi. Ammo men ularni shogirdlikka qabul qildim va aynan shu ikki yigit menga erkak vokalchilarga dars berish yo‘limni ochib berdi”.* Bugungi kunga kelib esa, u o‘zbek opera sahnasiga yuzlab shogirdlar yetkazib bergan tajribali pedagogga aylandi. Agar ilgari uning darslarida qizlar ko‘pchilikni tashkil qilgan bo‘lsa, bugun erkak ovoz sohiblari ham ustozning shogirdlari

orasida ustunlik qilmoqda. Hozirda 2025 yil 1 fevralidan vokal kafedrasi mudiri bo‘lib faoliyat yuritayotgan Galina Muxamedova opera san’atidagi muammolar haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi. Uning ta’kidlashicha, hozirgi kunda talabalarga faqat spektaklning bitta ko‘rinishi ijro ettirilmoqda, bu esa ularning rivojlanishi uchun yetarli emas. *“Talaba o‘sishi, o‘z ustida ishlashi kerak. Operada 2-3 soat davomida sahnada bo‘lish oson emas. Aytishadiki, bosh rolni ijro qilgan xonanda spektakldan keyin 2-3 kilogramm vazn yo‘qotadi. Chunki, sahnadagi jismoniy harakat, ayniqsa, og‘ir kostyumlarda terlab rol ijro etish katta kuch talab qiladi”*, — deydi G.Muxammedova. U kafedra mudiri sifatida to‘liq opera ijro etishga tayyorgarlik ko‘rish taklifini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu, birinchidan, talabalarning mahoratini oshiradi, ikkinchidan esa, ularning san’atga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini kuchaytiradi. Bugungi kunda, G. Muxamedovaning shogirdlari O‘zbekiston opera san’atida qator yutuqlarga erishgan taniqli ijrochilar bo‘lib, ular orasida- Shuxrat medali sohiblari- Rustam Alimardanov, Malika Normatova: Nihol mukofoti sovrindorlari Xadicha Imomnazarova, Iqbol Raxmatov, Otabek Maxmudov, Farxod Qambarov, Mahfuza Islomova, Shiraz Tursunboyev: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar- Milena Matmusayeva, Hursandbek Atamurodov, Otabek Nazirov, Boshqirdistonda xizmat ko‘rsatgan artist Samandar Alimovlar shular jumlasidandir. Bir maqola doirasida G.Muxamedovaning har bir shogirdlari faoliyatini yoritish mushkul. Shu bois ustozning pedagogik faoliyati alohida tadqiqot sifatida o‘rganilishi mumkin.

Galina Muxamedova O‘zbekiston vokal san’atining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ijodkor bo‘lib, uning ijrochilik mahorati va pedagogik tajribasi bugungi kunda ham opera xonandalari uchun katta maktab bo‘lib xizmat qilmoqda. Qilgan mehnatlari munosib e’tiroflanib, u 2020 yil O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan “Madaniyat va San’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. G.Muxamedovaning ilmiy-uslubiy darslik va o‘quv qo‘llanmalari , maqolalari yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, G.Muxammedovaning ijodiy yo‘lini uning o‘nlab shogirdlari hamda farzanlari Aziza va Feruza Muxamedovalar davom etirayotganliklari, ustoz-shogird an’analarining barhayot ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muxamedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi – Toshkent, 2008. -B 50.
2. Мухамедова Г. Методика Актёрского мастерства певца – Ташкент, 2008. -Стр 172.
3. Muxamedova G. Xonandalikdan dars berish uslubiyoti – Toshkent, 2021. -B 188.
4. Мухамедова Г. Концертные вокальные жанры XVII-XX веков – Ташкент, 2014. -Стр 118.

5. Muhamedova G. Vokal ansambli – Toshkent, 2021. -B 244.
6. Rahimov E. Vokal – Toshkent, 2017. -B 186.
7. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. V harfi – Toshkent, 2001. -B 703.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025

QOBILOVA ZIYODAXON
MIRHAYOTDIN QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Maxsus fortepiano” kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi,
Mirzakamalova E.R.

MUSIQA SAN’ATIDA AYOL IJODKORLARNING O‘RNI

Annotasiya: Mazkur maqolada musiqa san’atida ayol ijodkorlarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Oldingi davr va hozirgi kun musiqa san’atidagi ayol musiqashunoslar, cholg‘u ijrochilari, xonandalarga bo‘lgan e’tibor va ularning ahamiyatlilik darajsi o‘rtasidagi tafovutlar bayon qilinadi. Ayol san’atkorlarning mashhurlik va olimalik darajasiga ko‘tarilishlaridagi yutuq va kamchiliklar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xonandalik ijodi, san’atshunos olimalar, cholg‘uchilikda ayollar vositasi, orkestr musiqasi, ovoz rejisyorligida ayollar.

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение женщин-художниц в музыкальном искусстве. Описаны различия между вниманием, уделяемым женщинам- музыковедам, инструменталисткам и певицам в музыкальном искусстве предыдущего периода, и уровнем их значимости. Рассказывается о достижениях и недостатках художниц на пути их восхождения к уровню популярности и учености.

Ключевые слова: творчество певицы, искусствоведы, женские инструменты в музыкальных инструментах, оркестровая музыка, женщины в звукорежиссуре.

Barchamizga ma’lumki, 11 fevral — Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni sifatida nishonlab kelinadi. Ushbu sana munosabati bilan ilm-fan sohasidagi ayol-qizlarni barcha sohalardagi ilmiy izlanishlarida, xususan, musiqa sohasidagi ilmiy ishlari yuqori baholana boshladi. O‘zbek musiqa san’ati bugungi kunda nafaqat an’anaviy ko‘rinishlari, balki zamonaviy xonan dalik

yo‘nalishlarida ham xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek musiqiy merosining murakkab va betakror qismi bo‘lmish maqom ijodiyot va sof cholg‘u musiqasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishlar o‘zbek xalqining boy va rang-barang musiqiy merosidan ilhom olgan holda, zamonaviy bastakorlik san’atining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqchil kuy va maqom an’analariga tayangan xonandalik ijodi o‘z milliy xususiyatini saqlagan holda, musiqiy barkamollikka erishmoqda.

Bugungi mustaqillik davrida ayol xonandalar milliy maqomlar, diniy-falsafiy ashulalar va zamonaviy bastakorlik yo‘nalishlarida katta ijodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishmoqda. Xususan, maqom ashulalari va tasavvufona kuylarning ijrosi milliy o‘zlikni saqlash va targ‘ib etishda muhim omil sifatida ko‘riladi. Ayollar tomonidan ijro etilayotgan bunday kuylar, ayniqsa, keksalar va milliy madaniyatga aloqador shinavandalar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Musiqiy ijodning ushbu sohalari orqali ayol xonandalar milliy merosning qadr-qimmatini o‘z tinglovchilariga yetkazib, xalqimizning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Xalq orasida qadrlangan hofiza va sozandalar bugungi kunda ham ma’naviy mulkimizning saqlovchilari va targ‘ibotchilari sifatida el-yurtimiz tomonidan hurmat bilan eslanadi. Ayol xonandalarning o‘ziga xos o‘rni nafaqat musiqiy ijodda, balki yosh avlodni tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Musiqiy madaniyat nafosat didini shakllantirishda muhim vositadir. Ayniqsa, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ayol xonandalar ishtirokida o‘tkazilgan musiqa to‘garaklari orqali yosh qizlarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Ayollar ijodiyoti nafaqat xalqimizning musiqa merosini saqlab qolish, balki uni yangi avlodga yetkazishda ham katta ma’noga ega. Ayol xonandalarning ijrosi O‘rta Osiyo musiqa madaniyatida chuqur ildizlarga ega bo‘lib, ular milliy qo‘shiqchilikda sezilarli iz qoldirgan. Ayol xonandalar ijrosidagi lirik va maishiy qo‘shiqlar, to‘y va marosim qo‘shiqlari, mehnat ashulalari o‘ziga xos nazokat, hissiylik va tuyg‘ularning ifodasi bilan ajralib turadi. Bu qo‘shiqlar milliy an’analarni saqlash va yangi avlodga yetkazishda muhim vositadir. Ular orqali xalqning nafosat dunyosi, estetik qarashlari va ichki kechinmalari kuylanadi. Ayol xonandalarning milliy qo‘shiqlardagi roli faqat ijrochilik bilan cheklanmaydi, balki ular qo‘shiqlar orqali milliy qadriyatlar va urf-odatlarni saqlashda ham faol ishtirok etadi. Shuningdek, ayol xonandalarning ijodi milliy musiqa merosining asosiy unsurlaridan biri sifatida ko‘riladi. Ular o‘z ijrolarida milliy she’riyat va musiqani uyg‘unlashtirib, qo‘shiq orqali xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari va hissiyotlarini aks ettiradilar. Shu bilan birga, ayol xonandalar ijrosida insoniy fazilatlar, sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik, mardlik va bag‘rikenglik mavzulari hamda ularning musiqaviy ifodasi alohida o‘rin tutadi. Ayol xonandalar, shuningdek, musiqa ilmida muhim iz qoldirgan.

Jahon musiqasida ayollar. Orkestrning asosiy cholg‘ularidan biri bo‘lgan arfa cholg‘usi «ayollar vositasi» deb ham atalgan, chunki bu asbobni ko‘proq ayollar chalgan. 1917-yilda Angliyada musiqiy gazeta tahririyati orkestrlarni

ayollarga «yengilroq asboblarda» ishtirok etish uchun imkon berishga undagan. 1980-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ayollar AQSh orkestrlarining 36 foizini tashkil qilgan, Buyuk Britaniyada 30%, Sharqiy va G‘arbiy Germaniyada esa 16% ayollar egallagan· Ayollar jahon musiqasida ham muhim rol o‘ynaydi. Bu musiqa toifasi butun dunyo bo‘ylab turli xil musiqa uslublarini, jumladan Afrika, Karib dengizi, Janubiy Amerika, Osiyo va boshqa mintaqalardagi etnik musiqa, an'anaviy musiqa, mahalliy musiqa, zamonaviy musiqa va bir nechta madaniy an'analar aralashib ketadigan musiqalarni birlashtiradi (masalan, G‘arb estradasi va etnik musiqasi aralashmasi). Bu atama 1980-yillarda g‘arbiy bo‘lmagan an’anaviy musiqalar uchun marketing kategoriyasi sifatida ommalashgan[1].

Musiqa olimlari va o‘qituvchilari. Yirik musiqashunoslar va musiqa tarixchilarining aksariyati erkaklar edi. Shunga qaramay, ba'zi musiqashunos ayollar kasbning yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan. Kerolin Abbat (1956-yilda tug‘ilgan) - amerikalik musiqashunos, Prinston universitetida musiqa yo‘nalishida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U *Garvard Gazette* tomonidan «dunyodagi eng ilg‘or musiqa tarixchilaridan biri» deb ta'riflangan[3]**.** 19-asrda musiqa ta'limida ayollarning roliga qo‘yilgan cheklovlarga qaramay, ayollar bog‘chalarda musiqa tarbiyachisi sifatida ishga qabul qilingan, chunki bu «xususiy soha» deb hisoblangan. Ayollar, shuningdek, qizlar maktablarida, yakshanba kunlari ishlaydigan maktablarida musiqadan dars berishgan va maktab musiqa dasturlarida musiqachilarni tayyorlashgan. 20-asrning oxiriga kelib, ayollar boshlang‘ich maktablarda musiqa nazoratchisi, oddiy maktablarda o‘qituvchi va universitetlarda musiqa professori sifatida ishlay boshladilar.

Musiqa ta’limi bo‘yicha kasbiy tashkilotlarda ayollar ham faollashdi, xotin-qizlar anjumanlarda ma’ruzalar bilan chiqishdi. 2013-yilda *chiqarilgan Sound on Sound* maqolasida aytilishicha, «ovoz yozish va ovoz muhandisligi sohasida ayollar kam. Ncube ta'kidlashicha, «musiqiy produserlarning to‘qson besh foizi erkaklardir». «Britaniyaliklar yoki Grammy mukofotlarida faqat uchta ayol eng yaxshi produser nominatsiyasiga nomzod bo‘lgan, lekin mukofotni ular qo‘lga kirita olmagan.[5]

Musiqada ayollar ko‘pincha qo‘shiq ijro etishda ko‘rinadi. Xip-xop musiqasi, xaus musiqasi, nu metal va boshqa janrlarda DJ va turntablist ayollar nisbatan kam. Darhaqiqat, bu janrlarning barchasida erkaklar ustunlik qiladi. Buning bir qismi audio muhandislik va ishlab chiqarish kabi audio texnologiyasi bilan bog‘liq ishlarda ayollarning umumiy past foizidan kelib chiqishi mumkin. Turntablizm va DJ amaliyotlarini aralashtirib yubormaslik kerak, bu sohalar texnika bilan bog‘liqligi sabab, unga erkaklar qiziqishi va erkaklar ishlashi kerakligi ta'kidlagan DJ Mark Katz [6].

Ayollar musiqasi (shuningdek, ayollar haqidagi musiqa yoki vimmin musiqasi) ayollar uchun va ayollar haqida yozilgan musiqalardir. Bu janr ikkinchi feministik harakat hamda mehnat, fuqarolik huquqlari va tinchlik harakatining

musiqiy ifodasi sifatida paydo bo‘lgan. Harakat (AQShda) Kris Uilyamson, Meg Kristian va Margi Adam, afro-amerikalik musiqachilar (jumladan, Linda Tilleri, Meri Uotkins, Gven Averi) kabi lezbiyanlar va Bernis Jonson Reagon va uning Sweet Honey guruhi Rok va tinchlik faoli Holly Near kabi faollar tomonidan boshlangan. Ayollar musiqasi ayollar musiqasining kengroq sohasiga tegishli bo‘lib, ular ijrochilardan tashqari, studiya musiqachilari, produserlar, ovoz muhandislari, texniklar, distribyutorlar, promouterlar va festival tashkilotchilari ham ayollar bo‘lgan jamoadan tashkil topadi. Musiqadagi ayollar uchun xalqaro alyans (IAWM) ayollar xalqaro tashkiloti bo‘lib, ayollarning musiqa sohasidagi faoliyatini, xususan, musiqiy faoliyat sohalarida, masalan, bastakorlik, ijrochilik va tadqiqot kabi sohalarda rag‘batlantirishga bag‘ishlangan. IAWM ayol bastakorlarning musiqa dasturlarini oshirish, ayol musiqachilarga, shu jumladan simfonik orkestr a'zolariga nisbatan kamsitishlarga qarshi kurashish va universitet musiqa o‘quv dasturlariga ayol musiqachilarning hissalarini kiritish bo‘yicha sa'y-harakatlar bilan shug‘ullanadi. Tashkilot tomonidan olib borilayotgan targ‘ibot ishlari kollej musiqa tarixi darsliklariga bastakor ayollarning kiritilishiga xizmat qilgan1970-yillardan boshlab (dastlab lesbianlik ayollar uchun) ayollar musiqa festivallari tashkil etiladi. Birinchi ayollar musiqa festivali rasman 1973-yilda Sakramento davlat universitetida o‘tkazilgan. 1974-yil may oyida Illinoys universiteti talabasi Kristin Lems tomonidan Champaign-Urbana shahrida birinchi Milliy ayollar musiqa festivali bo‘lib o‘tadi. U o‘zining san'atdagi 40 yilligini 2015-yilning 2–5-iyul kunlari Viskonsin shtatining Middlton shahrida nishonladi. Unda nogiron ayollardan tashkil topgan ayollarning ijodiy iste'dodlari va texnik ko‘nikmalarini targ‘ib qiluvchi va ko‘mak beruvchi kontsertlar, mahorat darslari, komediya, teatr, filmlar va yozma tadbirlarni o‘z ichiga olgan to‘rt kunlik tadbir bo‘lib o‘tdi. Aksariyat ishtirokchilar ayollar bo‘lsa-da, erkaklar ham tadbirda qatnashishi mumkin bo‘lgan. Ayollar uchun yana bir qator tadbirlar o‘tkazilgan. Michigan Women musiqa festivali 1976-yilda ayollar uchun tashkil etilgan bo‘lib, u Qo‘shma Shtatlardagi eng yirik festivalga aylangan.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, musiqa san’atida, umuman, san’atshunoslik yo‘nalishida ayollarning o‘rni beqiyos. Xususan, o‘zbek ayol xonandalari milliy musiqa san’atining yorqin yulduzlari sifatida nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda ham xalqning ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shishda davom etadi. Ularning ijodiy yutuqlari milliy madaniyatimizning uzviy qismiga aylanib, xalqimizning ruhiy ehtiyojlarini qondirishda bebaho manba bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2017-yil
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Toshkent: Fan nashriyoti, 1965.
3. Abu Nasr Forobiy. Katta musiqa. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Singer Asha Bhosle enters Guinness World Records for most single studio recordings“. *India Today* (21-oktabr 2011-yil). Qaraldi: 12-mart 2016-yil.

5. John Mullen. The Show Must Go On! Popular Song in Britain During the First World War. Ashgate Publishing, Ltd., 2015
6. „Gender Bias in International Orchestras“. Osborne-conant.org (2025-yil 27-fevral).

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



QOBULOVA NOZIMAXON
ELYOR QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqa tarixi kafedrasi”
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.n.f., professor v.b.,
Ayxodjayeva Sh.I.

BASTAKORLIK IJODIYOTI ASARLARI AYOL IJROCHILAR TALQINIDA

(O‘zbekiston xalq artisti
Maryam Sattorova misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq artisti, xonanda Maryam Sattorovaning ijodiy faoliyati, xonandalik san’atidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Uning mumtoz qo‘shiqlar va maqom janridagi asarlarni mohirlik bilan talqin etishi, ovoz tembri va ijro uslubining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Maryam Sattorovaning repertuari, ijro mahorati, o‘zbek milliy musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi va shogirdlar yetishtirishdagi o‘rni keng yoritiladi. Xususan, u ijro etgan “Qurbon o‘lam” asarining musiqa va she’riy matn nuqtayi nazaridan tahlili ham berilgan.

Kalit so‘zlar. Maryam Sattorova, maqom ijrochiligi, ijro talqini, xonandalik san’ati, ovoz tembri, an’anaviy qo‘shiqchilik, “Qurbon o‘lam”, ijrochilik an’analari.

Аннотация. В данной статье рассматривается творческая деятельность народной артистки Узбекистана, известной исполнительницы макома Марьям Сатторовой, ее вклад в вокальное искусство и композиторское творчество. Анализируется ее исполнение классических песен и макомов, особенности тембра голоса и уникальный стиль исполнения. Кроме того, уделяется внимание репертуару певицы, ее вокальному мастерству, вкладу в развитие узбекской национальной музыкальной культуры и воспитанию учеников. В частности, проводится музыкально-поэтический анализ произведения «Курбон олам»,

исполненного Марьям Сатторовой. Данная статья является ценным источником для исследователей, музыковедов и любителей традиционной узбекской музыки.

Ключевые слова. Марьям Сатторова, исполнение макома, узбекская национальная музыка, вокальное искусство, композиторское творчество, стиль исполнения, тембр голоса, традиционное пение, «Курбон олам», классические песни, музыкальная интерпретация, исполнительские традиции.

Bastakorlik san’ati uzun tarixiy jarayonda sayqal topgan ijodiy merosdir. Uning rivoji yetuk bastakorlardan tomonidan doim yuksalishda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, bastakorlik asarlari o‘zining murakkab ijro mahorati hamda keng ko‘lamliligiga qaramasdan, ayol ijrochilar tomonidan ham munosib darajada talqin qilib kelinmoqda. Ulardan el ardog‘idagi san’atkor, noyob ovoz sohibi, O‘zbekiston xalq artisti Maryam Sattorova maqom ijrochiligi hamda bastakorlik ijodiyotiga mansub boshqa janrdagi asarlarning mohir ijrochisi sifatida alohida zalvorli o‘ringa egadir. Shahrisabz farzandi Maryam Sattorovaning qo‘shiq aytishga bo‘lgan qiziqishi erta uyg‘ondi. Radio, televideniye orqali tinglagan ashulalarini xirgoyi qilib yurardi. Bu iste’dodini payqagan onasi uni shahar madaniyat uyi qoshidagi to‘garakka beradi. Maryam Sattoravaning mumtoz ashulalar hamda maqom ijrochiligiga moyilligi tobora ortib boraverdi. Natijada, Toshkent davlat konservatoriyasining An’anaviy xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston xalq hofizi Fattohxon Mamadaliyev qo‘lida ta’lim oladi. Keng diapazonli, kuchli va yorqin, jarangdor ovoz sohibasi Maryam Sattorova ko‘plab mumtoz ashula va maqomlarni maromiga yetkazib, nafaqat o‘z yurtimiz sahnalarida, balki jahon sahnalarida ham o‘zbekning milliy merosini uning ulug‘vor navosini kuylab tanitgan xonandalardan biridir. Xalqimiz ko‘nglidan mustahkam o‘rin olgan Maryam Sattorovaning ijro repertuari o‘rganilganda 2 ta plastinkaga yozib olingan asarlar hali hanuz tinglovchilar qalbiga chuqur o‘rnashgani kuzatiladi. 1- plastinkada xonandaning 8 ta asari “Chorgoh” (Dugoh), “Qurbon o‘lam”, “Husayniy Dugoh”, “Qashqarchayi Savti Chorgoh”, “Tong otguncha”, “Soqinomai Savti Chorgoh”, “Feruz”, “Chorgoh”, “Feruz”, “Samarqand ushshog‘i”, “Suvora”, “Saraxbori Dugoh” kabi kuylari o‘rin olgan. Bundan tashqari, xonanda XX asr bastakorlari tomonidan yaratilgan dilbar navolarni ham maromiga yetkazib ijro etgan. Jumladan, I.Ikromovning “Munojot”, “Sog‘inurmen”, “Termulaman”, F.Mamadaliyevning “Tengi yo‘q”, O.Xotamovning “Ayriliq” kabi o‘lmas navolari Maryam Sattorova repertuarining asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga xonandalik san’atida ijro talqini, ovoz, alohida ahamiyatlidir. “O‘zbek xonandalik san’ati amaliyotida azaldan o‘ziga xos milliy ashulachilik xususiyatlari avvalo ovoz talqini uslublari bilan bog'liq bo‘lib, keyinchalik vohaviy, mahalliy va shaxsiy darajada rivojlanib kelingan” [1.4-b]. Chunki, ashulachilik san’atida xonandaning ovozi asosiy omillardan biri bo‘lib,

uning sifat jihatlari ijroning mukammalligini belgilaydi. Xonandaning ovoz imkoniyatlari – uning diapazoni, tembri, intonatsion aniqligi kabi muhim omillar orqali baholanadi. Bundan tashqari, xonandaning ijrosidagi ta'sirchanlik, dard va jo'shqinlik asar mazmunini anglashdagi muhim unsurlardan biridir. Bu esa uning ijodiy mahorati va musiqiy bilimi, o'z ijro yo'li shuningdek, texnik mahorati va musiqiy-falsafiy qarashlarini ham aks ettiradi. Shuningdek, har bir asar o'z ijrochisini topsa, uning zamirida bitilgan his tuyg'ular jilosi xonanda tomonidan yuksak saviyada talqin etilsa, albatta, ijro o'z maromiga yetadi.

Xonanda Maryam Sattorova ijro etgan bebaho va takrorlanmas asarlarda, yuqoridagi ijrochilik tamoyillari to'laqonli shakllanadi. Buning natijasida o'z talqini, ijro uslubini yaratadi.

Ma'lumki, "O'zbek milliy musiqa ijrochiligi boy tarix va an'analarga ega bo'lib, xonandalik ovozining turlicha toifalarini hamda usluban rango-rang aytim xususiyatlarini o'z ichiga qamrab oladi",[2. 18-b] - deydi Fattohxon Mamadaliyev. Ushbu jumlalarning yorqin dalili sifatida ijrochilik tomonlama yetuklik namoyandasi bo'lmish Maryam Sattorovaning ijrochilik mahorati, uning ovoz imkoniyatlari va serjilo ohanglarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shu o'rinda Fattohxon Mamadaliyev an'anaviy ijrochilikdagi ovoz yo'llarini bir necha toifaga ajratib chiqadi. Ya'ni, "Nor ovoz", "Tik ovoz", "Jarangdor ovoz", "Pang ovoz", "Ishkami ovoz" va boshqalar. Ushbu ovoz toifalariga qisqa ta'rif keltirib o'tsak, "Nor ovoz" ma'nosi "tuya ovoz" bunda tovushlarning ko'lami keng, salobatli kuchga ega ekanligi bilan farqlanadi. Bunday ovoz sohibining tepa pardalari baland darajada bo'lmaydi. Lekin ovoz sifati yumshoq, mayin va egiluvchandir.[2.12-b] "Jarangdor kuvrak ovoz" esa past pardalarda ham, yuqori pardalarda ham, shuningdek, jo'rnavozlikda alohida jarangdorligi bilan ajralib turadi. Aniq va ravon eshitiladi, o'ynoqi, bezaklarga boy pardalar ko'pligi ham bunga ishora qiladi.

Aynan, Maryam Sattorovaning ovozini ham ushbu ovoz toifasiga kiritsak bo'ladi. Lekin, xonanda kuylagan navolarni eshitish va tahlil qilish jarayonida shu narsaga amin bo'linadiki, unda nafaqat "jarangdor kuvrak ovoz", balki Buxoro- Samarqand vohasiga mansub xonandalar ijrosiga xos xususiyatlarning ham mavjudligi e'tiborlidir. Bunga sabab forsiyzabon xalqlarga mansub bo'lgan ohang (nom berilmagan, Buxoroda yashagan yaxudiylardan qolib ketgan bo'lishi mumkin) aynan Maryam Sattorova ijrosida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning boisi shundaki, ovoz xususiyati bir tomondan "Jarangdor kuvrak ovoz" toifasiga taalluqli bo'lsa, ikkinchi tomondan viloyatlar kesimi bo'yicha o'ziga xos lokallik xususiyati ham mavjud ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak. Shuning uchun ham xonandaning ovoz xususiyatini ikki toifaga kiritishni ma'qul deb bildik.

Shu bilan birgalikda, xonandaning bastakorlik ijodiyotining yorqin vakillaridan biri Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodiga mansub, noyob "Qurbon o'lam" ashulasining maromiga yetkazib ijro etganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu asar haqida qisqa ma'lumot keltirib o'tsak, "Qurbon o'lam" buyuk Ozarbayjon

farzandi Sulaymon Fuzuliy qalamiga mansub. Fuzuliy she’riyati katta badiiy kuch va mahorat bilan yo‘g‘rilgan. Turkiy adabiyotning go‘zal sarchashmalariga qongan asarlar juda ko‘p san’at ahli tomonidan bir-birini takrorlamas go‘zal kuylarning, asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo‘lgan. Ul zot she’riyati o‘zining ma’no-mazmun doirasining mukammalligi, badiiy yuksakligi bilan inson qalb torlarini chertuvchi ohanglar ko‘lamini tashkil etadi desak, illo so‘zimiz mubolag‘a bo‘lmas. Xuddi shunday san’at osmonining porloq va so‘nmas yulduzi Hoji Abdulaziz Abdurasulov hamda betakror she’riyat sohibi Fuzuliy ijodi o‘zaro bog‘lanib, bir butun o‘lmas asar bo‘lmish “Qurbon o‘lam” dunyoga keldi. Bilamiz-ki, Hoji Abdulaziz Abdurasulov ko‘p mamlakatlarda bo‘lib shu barobarda, 3 marta Haj safariga borganlar. Boku, Ganja, Kunya, Ozarbayjon, Misr, Uganda, Nigeriya, Balx, Dehli kabi qator davlatlarga safar qilib, shuningdek, turli o‘lkalarning musiqalari ul zotga ta’sir etib borgan va buning natijasi o‘laroq shunday bama’ni asarlar yaratganlar. Benazir “Qurbon o‘lam” asariga aynan Ozarbayjon mumtoz musiqasi ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun ham asarda ozarbayjon xalq nolalari, qochirimlari, yorqin melizmi sezilib turadi. Ushbu asar bir qator el sevgan ijrochilar Orif Alimahsumov, Mashrab Ermatov, O‘lmas Olloberganovlar tomonidan ijro qilingan bo‘lsa, ayol xonandalardan Maryam Sattorova, Dilnura Qodirjonova, Yulduz Turdiyeva, Gulzoda Xudoynazarova va Xulkar Abdullayevalar uni o‘z mahoratlari ila xalqqa namoyish etganlar.

“Qurbon o‘lam” - bu bebaho, takrorlanmas navolardan biridir. Ushbu asarni ijro etgan xonandalarning har biri o‘z ijro uslublariga va talqinlariga tayangan holda san’at ahliga taqdim qilganlar. Xonanda Maryam Sattorova ham o‘zining takrorlanmas tembri, nola-qochirimlari bilan maromiga yetkazib ijro etgan. Asar si firigiy ladida yozilgan bo‘lib, dastlabki jumlalari kichik oktava “si” tovushidan boshlanadi. Xonanda uni hanglar orqali ildamlashtirib, shunday holat (hang) bilan dastlabki tayanch tovushga qaytadi. Avjida nolalarga alohida urg‘u beriladi. Asarning 2-kuy jumlasida yuqori registrga yo‘nalgan ijro avj qismiga tayyorlab boradi.

Maryam Sattorovaning talqini o‘laroq asarning daromad qismida she’riy matn o‘zgartirilgan holatda ijro etiladi:

Kelgin ey, mohiliqo, husningga qurbon o‘lam,
Xalqayi zulfi parishoningga qurbon o‘lam,
Ikki qoshing qalamu, ikki ko‘zing chashmai nur,
Barq urib oyinadek siynayi sofing ko‘rinur,
Bu sani dard-u firoqing mani jonimga huzur.
Yo‘q nazokat ichida sen kabi durdonayi dur,
Qaddi norastayi larzoninga qurbon o‘lmas,
Man sana qurbon o‘lam.

Shuningdek, asarda uzoq vaqt davomida cholg‘u yo‘lining ijro etilishi ijrochining mahoratini ko‘rsatib beradi. Xonandaning ovozini avjga qismiga tayyorlab boradi. Asarga qo‘shimcha bezak berish maqsadida hanglardan mohirlik bilan foydalanilgan.

Shu bilan birga ovozga parallel ravishda nay jo‘r bo‘ladi. Avjda xonanda 2-oktava “mi” tovushini zabt etadi. Maryam Sattorova asar sur’atini tortib, ovoz ko‘lamini yanada kuchli qiladi. Hanglar orqali ijroning murakkablik darajasini ko‘rsatadi. Avjida esa ohang “fa” tovushigacha yetadi. Xonanda ushbu asarning ijro jarayonida, nolalarning dardli ohanglari bilan yuraklarni sel etadi. Asarning kichik avji va katta avjida ham hanglardan foydalaniladi. Bir sur’atda takrorlanib turuvchi kuy oqimi asarni dastlabki ladga yo‘naltirib boradi. Tayanch tovushlarning mustahkamlanishi, kuy jumlalarini furovard yakunga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, asarni ijro tahlili bilan birgalikda g‘azalni ham tahlil qiladigan bo‘lsak, Fuzuliy ijodiyotining nozik va takrorlanmas dunyosiga bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir Ozarbayjon farzandi, ushbu “Qurbon o‘lam” asarining so‘z matni shoir yozganiday har bir bayti ijrochilar tomonidan to‘liq ijro etilmagan. Balki ohanglarga mos ravishda ma’lum bir baytlar tanlab olingan holda xonandalar tomonidan yangragan. Yana bir jihati, mazkur asarning bir qancha ijrochi tomonidan talqin etilgan bo‘lsa-da, so‘z matnlari o‘zgartirilmasdan yangraydi. Undagi farqli jihat shunda-ki, so‘zlarni ohangga mos holatda talaffuz etishdadir.

G‘azalda yor vasli, uning jamoli ta’riflanadi. Muxabbatning takrorlanmas izhori, ayol zotining har jihatini shoir so‘zlar bilan ta’riflab, ko‘klarga ko‘taradi. Ayol hamda uning fazilatlari oldida bosh egishini ta’kidlab o‘tadi. G‘azalning ma’no doirasi shunday tasavvur uyg‘otar ekan, uning ijrosida ham bunday jihatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, asarni his etgan holda, Maryam Sattorova o‘zining mayin va mungli ovozi bilan bir qator asarlarning mukammal ijrochisi sifatida tan olinadi. Doim ularning xonishidagi asarlar dillar va tillarning naqshidir. Har bir ko‘ngil torlarini chertib o‘tgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta’kidlash joizki, xonanda Maryam Sattorova hozirgi vaqtda san’at yo‘lida faoliyat olib bormayotgan bo‘lsa-da, ijodiy barkamollikka erishgan, umri maqom bilan bog‘langan chog‘lar xalq e’tiborini qozonib, mumtoz musiqa merosimizni o‘zining o‘lmas, umrboqiy ijrolari bilan boyitdi. Shuningdek, o‘zining ijro maktabini yaratib, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Hozirgi kunda ularning davrasida, nazm-navo kechalarida ustoz sifatida o‘gitlar, ijrochilik an’analari, talqin masalalari haqida o‘z tajribalari bilan shogirdlariga tavsiya berib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ermatov M. An’anaviy xonandalik. T., 2003. 71-b
2. Mamadaliyev F. “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari”. T., 2001. 31-b.
3. Uz.wikipedia.org.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



QOSIMOVA SABRINA
AZIZ QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi,
s.f.d.(PhD), Kutluchurina A.A.

MENING ILMIY RAHBARIM - SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) – KUTLUCHURINA ALINA ALFREDOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Musiqa nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) - Kutluchurina Alina Alfredovnaning hayoti va faoliyati turli jihatdan yoritiladi. Maqolada uning hayot yo‘li, ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyati ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan muhim hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: musiqashunos, pedagog, tadqiqotchi, olim, faktura, musiqiy, tafakkur, bastakor, ijod.

Аннотация: В данной статье с различных сторон раскрывается личность и деятельность старшего преподавателя кафедры теории музыки, доктора философии по искусствоведению PhD – Кутлучуриной Алины Альфредовны. В статье освещаются ее биографические данные, научно-исследовательская и педагогическая деятельности, являющиеся важным вкладом в развитии музыкального искусства Узбекистана.

Ключевые слова: музыковед, педагог, исследователь, ученый, фактура, музыкальное, мышление, композитор, творчество.

Ayollarning o‘zbek musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi milliy madaniyat tarixining muhim, biroq yetarlicha yoritilmagan jihatlaridan biridir. Turli tarixiy davrlarda ayol musiqachilar, bastakorlar va musiqashunoslar O‘zbekistonning musiqiy manzarasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Ular og‘zaki an’analarni asrab-avaylab, yangi bastakorlik uslublarini ilgari surib, musiqashunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar. Shunga

qaramay, ularning yutuqlari har doim ham yetarlicha e’tirof etilmagan. Tarixan, o‘zbek ayollari musiqiy faoliyat bilan asosan an’anaviy muhitda shug‘ullanganlar — ular mahalliy jamoalarda xonanda, cholg‘uchi va raqqosa sifatida ijod qilganlar.

XX asrda kasbiy musiqiy ta’lim rivojlanishi bilan ayollar kompozitsiya, ijrochilik va musiqashunoslik sohalarida faol ishtirok eta boshladilar. Bugungi kunda ayol ijodkorlar o‘zbek musiqasining uslubiy va kontseptual doiralarini kengaytirish bilan birga, uning boy merosi bilan bog‘liqligini ham saqlab qolmoqdalar. Shaxsiy qahramonlar faoliyatini o‘rganish o‘zbek musiqa madaniyatida ayollarning o‘rni va ta’sirini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shunday yetuk ijodkorlardan biri Kutluchurina Alina Alfredovna bo‘lib, u yosh ammo musiqashunos, pedagog va tadqiqotchidir. Uning ilmiy izlanishlari va o‘zbek musiqashunosligini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi musiqiy ilm-fan sohasida ayol olimlarning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Uning hayoti va ijodini tahlil qilish orqali biz mamlakatimiz musiqiy va ilmiy an’analarida ayollarning roli va ulkan salohiyatini chuqurroq anglashimiz mumkin.

A.A.Kutluchurina hayoti va ilmiy faoliyati O‘zbekistonda musiqashunoslik va ta’lim sohasiga bag‘ishlangan fidoyilikning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning o‘qish yillaridan boshlab ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatigacha bo‘lgan yo‘li o‘zbek musiqashunosligi taraqqiyotini aks ettiradi hamda ayollarning akademik, shuningdek badiiy sohalardagi o‘sib borayotgan rolini ko‘rsatadi.

A.A.Kutluchurina 1991-yil 11-oktabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U bolaligidan musiqaga bo‘lgan tabiiy iste’dodini namoyon qila boshladi, ohang va ritmga sezgirligi kuchli edi. U musiqiy yo‘nalishda ilk qadamlarini atrofdagilarining san’atga bo‘lgan rag‘bati ta’sirida tashladi. Bu jarayonda u nafaqat musiqaga, balki o‘zbek milliy raqsiga ham qiziqib, ijodiy faoliyat olib bordi.

1995—2005-yillar davomida u “Yulduz” ansambli ijrochisi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining O‘rta maxsus ta’lim muassasalari saroyi tarkibida O‘zbekiston xalq artisti Nasiba Madrahimova rahbarligida shug‘ullandi. Ushbu ansamblda ishtirok etish unga sahna madaniyati, musiqiy tafakkur va intizom asoslarini tushunish imkonini berdi. Bu tajriba keyinchalik uning musiqashunoslikka bo‘lgan qiziqishiga asos bo‘lib xizmat qildi. A.A.Kutluchurina o‘zining rasmiy musiqiy ta’limini Toshkentdagi 6-sonli Musiqa maktabida boshlagan. 2007-yilda musiqa hamda №163 umum ta’lim maktabni faxriy diplom bilan tamomlab, yuqori toifali pedagog Galina Anvarovna Liviyeva sinfida fortepiano yo‘nalishida tahsil oldi. Aynan shu davrda u nafaqat cholg‘u ijrochilik mahoratini rivojlantirdi, balki musiqa nazariyasiga ham qiziqib, tahlilga bo‘lgan ishtiyoqini orttirdi.

2007-yilda o‘qishni yakunlagach, u Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik kolleji (hozirgi V.A. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi) “Musiqa

nazariyasi va kompozitsiya” yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. U yerda musiqashunos Anna Petrovna Parsegova, kompozitor Jakhongir Shukur va umumiy fortepiano ijrochiligi bo‘ yicha Susanna Rubenovna Muxortova kabi taniqli pedagoglar qo‘lida tahsil oldi. Bu davrda u solfejio, garmoniya, polifoniya hamda musiqa tahlili bo‘yicha chuqur bilim oldi. Bundan tashqari, A.A.Kutluchurina nafaqat musiqiy nazariya, balki adabiyot va tilshunoslik sohasida ham o‘z iste’dodini namoyon etdi. 2010-yilda u Toshkent shahar Rus tili va adabiyoti fan olimpiadasida I-o‘rnini, Respublika bosqichida esa III-o‘rnini qo‘lga kiritdi. Bu esa uning intellektual qamrovining kengligini isbotladi.

2010-yilda u O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga grant asosida o‘qishga qabul qilindi va musiqashunoslik yo‘nalishida tahsil oldi. Uning ilmiy ustozlaridan biri taniqli o‘zbek musiqashunosi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Azimova Arzu Nishanovna bo‘lib, aynan uning rahbarligida A.A.Kutluchurina o‘zbek musiqa shakllari va kompozitsion tuzilishini chuqur o‘rgandi hamda ilmiy izlanishlar olib bordi.

2014-yilda u bakalavr darajasini muvaffaqiyatli tamomlab, “N.Giyasovning Variatsion shakldagi sonatasi: monodik va zamonaviy tafakkur kontekstida tahlil” mavzusida bitiruv ishini himoya qildi. Keyinchalik u 2016-yilda magistraturani ham tugatib, “O‘zbek kompozitorlari ijodida monodik tafakkur tamoillarining namoyon bo‘lishi” mavzusida dissertatsiya yoqladi. Unda N.Giyasov, M.Bafoyev va D.Yanov-Yanovskiy kabi taniqli kompozitorlarning asarlari chuqur tahlil qilinadi.

A.A.Kutluchurinaning ilmiy va ijodiy yutuqlari juda erta e’tirof etila boshlandi. U o‘zining o‘qish yillaridayoq musiqiy jurnalistika va tanqid sohasida faoliyat yurita boshladi. 2012-2013 yillarda u I.S.Gulzarova rahbarligida musiqiy tanqid va jurnalistika kursida tahsil olib, sharhlar, maqolalar (taqrizlar) va ijodiy portretlar yozish bo‘yicha tajriba orttirdi.Uning jurnalistik faoliyati keng ommaga tanildi — 20-dan ortiq maqolalari milliy matbuotda nashr etildi. Bundan tashqari, u 2012 va 2013-yillardagi Respublika Musiqiy Tanqid va Jurnalistika Tanlovi “Musiqiy Sandiqcha” musobaqalarida 2-o‘rin va 3-o‘rin sovrindori bo‘ldi. Ushbu yutuqlar uning ijodiy va tanqidiy tahlil qobiliyatini isbotladi.

2013-yildan boshlab Toshkentdagi №8 sonli Bolalar musiqa va san’at maktabida dars berishni boshladi. Uning pedagogik faoliyatining ilk tajribalari keyinchalik oliy o‘quv yurtlarida dars berishiga mustahkam poydevor vazifasini bajardi.

A.A.Kutluchurinaning hayoti va ilmiy shakllanish yo‘li intellektual rivojlanish, shuningdek ijodiy izlanishlarning yorqin namunasidir. Yoshligidanoq musiqa sohasiga qiziqishi, ilmiy tadqiqotga bo‘lgan ishtiyoqi hamda musiqiy tanqid va jurnalistikadagi muvaffaqiyatlari uni O‘zbekiston musiqashunosligi sohasidagi yetakchi shaxslardan biriga aylantirdi. Uning dastlabki yutuqlari, tanlovlardagi g‘alabalari va ilmiy faoliyati O‘zbekiston musiqashunoslik maktabining rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

A.A.Kutluchurinaning ilmiy va pedagogik faoliyati uning O‘zbek musiqa ilmi rivojiga va kelajak avlod musiqashunoslarini tarbiyalashga bo‘lgan sadoqatini aks ettiradi. U o‘qituvchi, tadqiqotchi va ilmiy rahbar sifatida nazariy musiqa tadqiqotlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Yosh pedagog o‘z faoliyatini 2013-yilda, hali O‘zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil olayotgan paytida boshlagan. U musiqiy nazariya va tahlil bo‘yicha maxsus musiqiy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi sifatida ishlay boshladi.

2016-yilda magistratura bosqichini tamomlagach, u ixtisoslashtirilgan musiqiy akademik litsey R.M.Glier nomidagi dars bera boshladi va quyidagi kurslarni olib borgan: garmoniya, polifoniya , musiqiy tahlil va h.k.

2017-yilda A.A.Kutluchurina pedagogik faoliyatini O‘zbekiston davlat konservatosiyasi “Musiqa nazariyasi” kafedrasida pedagog – stajyor sifatida davom ettirdi.

2018-yilda A.A.Kutluchurina PhD tayanch doktoranturaga o‘qishga kirdi va 2022-yilda “Mustaqillik yillarida O’zbekiston kompozitorlari ijodining an’anaviy va zamonaviy musiqiy tafakkuri faktura kesimida” mavzusi bilan muvaffaqiyatli himoya qildi.

2021-2023 yy. A.A.Kutluchurina “Musiqa nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchisi va 2024-yilda katta o‘qituvchisi sifatida davom ettirdi.

2024-yilda A.A.Kutluchurina ingliz tili bo‘yicha CEFR sertifikatini oldi.

2025-yilda u DSc tayanch doktoranturaga o‘qishga kirdi va “O‘zbekiston bastakorlarining ijodi misolida musiqa san’ati morfologiyasida faktura tizim elementi sifatida” mavzusida tadqiqot olib bormoqda.

Bugungi kunda A.A. Kutluchurina, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va O‘zbekiston davlat konservatoriyasining DSc doktoranti hisoblanadi.

Uning pedagogik yondashuvi o‘zbek tahliliy metodlarini zamonaviy G‘arb nazariyasi bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan. Shuningdek, u o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha faol ishladi, bunda o‘zbek musiqasini chuqur tahlil qilish va uni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etdi. Uning shogirdlari bugungi kunda O‘zbekiston musiqashunosligi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

A.A.Kutluchurinaning ilmiy va pedagogik faoliyati o‘zbek musiqa ilmi rivojiga katta hissa qo‘shib, nazariy muhokamalar va yosh tadqiqotchilarni tayyorlash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uning zamonaviy o‘zbek kompozitorlik ijodida monodik tafakkurning rivojlanishi haqidagi tadqiqotlari an’anaviy musiqa tamoyillarining zamonaviy akademik va badiiy kontekstda qanday tadrijiyotganini yangi nazariy nuqtai nazardan tushunishga yordam berdi. Shuningdek, uning pedagogik faoliyati yangi avlod musiqashunoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi, ularning ko‘pchiligi bugungi kunda o‘zbek musiqa ilmining chegaralarini kengaytirishda davom etmoqda.

A.A.Kutluchurinaning ilmiy faoliyati O‘zbekistonda ayollarning musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasining yorqin namunasidir. Tarixan o‘zbek

musiqasida ayollar ko‘pincha faqat an’anaviy ijrochilik bilan shug‘ullanishgan, ilmiy yoki kompozitorlik faoliyatida yetakchi bo‘lish imkoniyatlari cheklangan edi. Ammo Alina Alfredovna Kutluchurina kabi shaxslar ayollar ham chuqur nazariy tahlil bilan shug‘ullanishi va milliy hamda xalqaro musiqashunoslik muammolarini shakllantirishi mumkinligini isbotladi. Uning yutuqlari O‘zbekiston akademik va san’at muhitida ayollar rolining o‘zgarayotganini ko‘rsatib, ularning ovozi va ilmiy qarashlari ushbu soha taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega ekanini isbotlaydi.

Kelajakda o‘zbek musiqasida ijodkor ayollarning o‘rni yanada ortishi kutilmoqda. Ayol tadqiqotchilar, kompozitorlar va pedagoglarning soni ortib borayotgani musiqashunoslik sohasining turli ilmiy yondashuvlar va fanlararo metodlarni o‘z ichiga olgan holda rivojlanishini ta’minlaydi. Ammo bu jarayon barqaror bo‘lishi uchun institutsional qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tan olinish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir.

Shaxsiy nuqtai nazarimdan, Alina Alfredovnaning faoliyati musiqashunoslik faqat tarixiy an’analarni o‘rganish bilan cheklanmasligi, balki zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ham qamrab olishi lozimligini isbotlaydi. Uning murakkab musiqa fenomenlarini tahlil qilish va ularni o‘zbek musiqiy merosi bilan bog‘lash qobiliyati haqiqatan ham ilhomlantiruvchi omildir. Uning faoliyati kelajak musiqashunoslari uchun namuna bo‘lib, ilmiy qiziquvchanlik, akademik izlanishlarga sodiqlik va pedagogik mahoratning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, A.A. Kutluchurina nafaqat o‘zbek musiqa ilmining yetakchi olimi sifatida, balki mamlakatning ilmiy va badiiy kelajagini shakllantirishda ayollarning o‘rni nechog‘lik muhim ekanini namoyon etuvchi timsol sifatida ham tarixda qoladi. Uning ta’siri kelajak avlod tadqiqotchilari va musiqashunoslari faoliyatida davom etishi shubhasiz. Bu esa o‘zbek musiqasi doimo dinamik va rivojlanayotgan ilmiy soha bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. Кутлучурина А.А. Соната в форме вариаций Н.Гиясова (опыт анализа в контексте монодийного и современного музыкального мышления). Выпускная квалификационная работа. Ташкент,2014 г.
2. Кутлучурина А.А. Монодийные принципы мышления в творчестве композиторов Узбекистана (на примере сочинений М.Бафоева, Н.Гиясова, Д.Янов-Яновского). Магистерская диссертация. Ташкент, 2016 г.
3. Кутлучурина А.А. Фактура в творчестве композиторов Узбекистана в контексте традиционного и современного музыкального мышления в годы Независимости. Диссертация на соискание ученой степени доктора философии по искусствоведению PhD. -Ташкент, 2022 г. – 168 с.
4. Kutluchurina A.A. Mustaqillik yillarida O’zbekiston kompozitorlari ijodining an’anaviy va zamonaviy musiqiy tafakkuri faktura kesimida: San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2022. -52 b.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari: Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025

RAXIMBOYEVA GO‘ZAL KAMILJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.d. (DSc), professor (v.b.),
Tursunova G.A.

MUSIQA SAN’ATIDA QORAQALPOQ AYOL IJODKORLARI FAOLIYATI (ABDULLAYEVALAR SULOLASI MISOLIDA)

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston musiqa san’atida salmoqli mehnat qilib kelayotgan sulola vakilalari, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan xalq artisti, dirijor Aida Abdullayeva va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi kompozitor Ulbibi Abdullayevalarning musiqa sohasidagi faoliyatlari yoritilgan. Ayol ijodkorlarning otasi Kenesbay Abdullayevning kompozitorlik va dirijorlik faoliyatini munosib davom ettirib kelayotgan sulola ijodkorlarining ijodiy ishlariga baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Sulola, Kenesbay Abdullayev, Qoraqalpog‘iston madaniyati, dirijor, Aida, kompozitor, Ulbibi, vorislar.

Аннотация: В статье освещена творческая деятельность представителей династии, внесших значительный вклад в музыкальное искусство Каракалпакстана – народной артистки Каракалпакстана, дирижёра Айды Абдуллаевой и заслуженного деятеля искусств Каракалпакстана, композитора Ульбиби Абдуллаевой. Также рассматривается вклад их отца, известного композитора и дирижёра Кенесбая Абдуллаева, а также роль его потомков в достойном продолжении его творческого наследия. В статье даётся оценка творческим достижениям представителей этой династии.

Ключевые слова: династия, Кенесбай Абдуллаев, культура Каракалпакстана, дирижёр, Айда Абдуллаева, композитор, Ульбиби Абдуллаева, преемственность.

Qoraqalpog‘iston musiqa san’atida o‘zining iste’dodi ila san’atning turli xil yo‘nalishlarida ijod qilib kelayotgan madaniyat xodimlari talaygina bo‘lib ular ichida sulola vakillari ham mavjud. Xususan, Qoraqalpoq sozandalik, bastakorlik, kompozitorlik, dirijorlik va pedagogik sohalarini shakllanishi va rivojida katta hissa qo‘shgan sulola asoschisi - Kenesbay Abdullayev va uning istedodli farzand va nabiralari faoliyati bunga misol bo‘lishi mumkin.

Kompozitor va dirijyor Kenesbay Abdullayev hayotda ijodkor shaxs bo‘lishi bilan birga pedagoglik faoliyatida ham ayutuqlarga erishdi va bu ilmlarini eng avvalo o‘z farzandlari -Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan Xalq artisti dirijor Aida Abdullayeva va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi kompozitor Ulbibi Abdullayevalarga meros qilib qoldirdi. Bugungi kunda ikkala ayol ijodkor ham san’at yo‘lida faoliyat olib borib xalqning e’tibori va hurmatini qozongan. Ularning ijodi O‘zbek va Qoraqalpoq musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissalari bilan e’tiborga molik.

Aida Abdullayeva dirijorlik sohasida nom qozongan san’atkorlardan biri bo‘lib, Alisher Navoiy nomidagi Katta opera va balet teatrida ko‘p yillar davomida samarali faoliyat olib bormoqda. Mashhur simfonik orkestr dirijori Quvonch Usmonovning shogirdlaridan biri. Qolaversa dirijor Dilbar Abdurahmonavadan so‘ng teatrda dirijorlik pultiga ko‘tarilgan so‘nggi ijodkordir. O‘z mutaxasissligi borasida A. Abdullayeva nafaqat teatrda balki ta’lim maskanida ham shogirdlar tayyorladi.

San’akorlar olasida ko‘pincha farzandlar oilaviy muhit ta’sirida ilhomlanib, bilim va saboqlarni olib tarbiyalanadi. Sulolaning ikkinchi vakili sifatida ham Aida Abdullayeva shu muhitda o‘sib ulg‘aydi.

Aida Abdullayeva 1962-yili 8-mayda Nukus shahrida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari otasining bergan saboqlari va nasihatlari qurshovida o‘tdi. Otasini dirijorlik qilishi, qolaversa zangoriy ekranda dirijorlarni harakatini alohida diqqat bilan kuzatar edi. Bir kuni televizor qarshisiga turib olib dirijorlarning harakatlarini takrorlayotgan qizaloqni ko‘rgan ota-onasi qizchasidagi dirijorlik san’atiga bo‘lgan qiziqishini to‘g‘ri yo‘naltirishgan. Dastlabki musiqiy bilimlarni Aida otasi Kenesbay Abdullayevdan o‘rganadi, 1970-yilda musiqa maktabiga o‘qishga berildi va u yerda fortepiano mutaxassisligi bo‘yicha Larinova Kamila Ostapovnaning sinfida tahsil oldi. Musiqiy intilishlari kattaligi va qunt bilan asarlarni o‘rgshanishi uni maktabni muvaffaqiyatli tugatishigi va so‘ngra J.Shamuratov nomidagi musiqa texnikumiga fortepiano ijrochiligi bo‘yicha o‘qishga kirishiga sabab bo‘ldi. Ammo fortepiano chalib yurgan qizning qalbida dirijorlik qilish orzusi o‘chmagan edi. O‘z maqsadini amalga oshirish uchun A. Abdullayeva 1985-yilda Toshkent davlat konservatoriyasining xor-dirijorligi fakultetiga o‘qishga kiradi. Bu Oliy musiqa dargohda u Kaziyev Nugman Imanovich sinfida tahsil oladi.

Konservatoriyani tamomlab o‘z shahri Nukus qaytib keladi va J.Shamuratov nomidagi Texnikumda mehnat foliyatini pedagog sifatida olib

boradi, ammo xor dirijorligi kasbini egallashdan hali to‘liq qoniqmaydi, uni simfonik dirijor bo‘lish orzusi takroran Konservatoriyaga, bu gal simfonik dirijorlik mahorat va bilimlarini egallash uchun chorlaydi. 1995- yili u ikkinchi marotaba konservatoriyaga o‘qishga hujjatlarini topshiradi. Bu safar opera-simfonik orkestr dirijorligi bo‘yicha professor Usmanov Quvonch Mansurovichning sinfida ta’lim oladi. O‘qishini yakunlab esa Alisher Navoiy teatrida simfonik orkestrga dirijorlik qilib amaliyot va stajirovkasini ham oshirdi. Talabaning diplom ishi sifatida esa o‘zining eng sevimli operasi J.Verdi qalamiga mansub “Traviatta” operasiga dirijorlik qildi.

Ijodkor keyingi davrlari teatr bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa opera vokal ijorchisi Muyassar Razzoqova bilan birgalikda faoliyat olib borib musiqiy-sahnaviy asarlarni sahnalashtirilishi e’tiborga molik. Moskva shahrida Ermitaj kamer orkestri jo‘rligida solistlar Muyassar Razzoqova va Rossiya xalq artisti Yelena Obrazsova bilan konsert dasturida o‘z vaqtida Aleksey Utkin va Aida Abdullayevalar dirijorlik qilib orkestr jamoasini boshqarib keldilar.

Dirijor sifatida o‘z malakasini oshirish uchun Aida Abdullayeva Sank-Peterburgda joylashgan Mariin teatriga ikki oylik stajirovkaga boradi va keyingi ijodiy ishlari uchun bu tajriba katta qadam bo‘ladi. 2007-yilda dirijor Qozog‘istonning Almata shahriga borgan ijodiy safarida u Abay nomli opera teatrida Dj.Puchchinining “Bogema” operasiga dirjorlik qiladi. Keyingi yillarda ularning repertuar kengayib boradi, bularga shuningdek, ko‘plab konsert dasturlarini tashkil qilingani va aynan Aida Abdullayeva bu tadbirlarga dirijor sifatida qatnashib o‘z mahoratini ochib beradi.

A.Abdullayevaning dirijorlik qilgan operalari qatoriga Dj. Verdining “Traviatta”, “Rigoletta”, J.Bizening “Karmen”, Sh. Gunoning “Romeo va Julyetta”, S.Raxmaninov “Aleko”, Leonkavallo “Payasi” va Qoraqalpoq elining kompozitori Q.Zaretdinov qalamiga mansub “To‘maris” operasining sahnalashtirish jarayonlarida qatnashgan. 2017-yilda esa Dj. Verdining “Aida” nomli operasiga dirijorlik qiladi. Bu esa uning ota-onasi qizi tug‘ilgan paytda qilgan orzusining samarasi bo‘ldi, chunki aynan “Aida” operasi sababli ular o‘z farzandlariga shunday ism berishganliklari bejiz bo‘lmagan. 2017-yil 11-mart sanasida bu opera Alisher Navoiy teatrida Aida Abdulayeva dirijorligida tomoshabinlarga havola etildi.

So‘ngi yillarda dirijor sifatidagi faoliyati Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida davom etmoqda va shogirdlar tayyorlab otasining kasbini davom ettirgan holda otasi Kenesbay Abdullayevning nasihatlariga amal qilgan holda faoliyat olib bormoqda: “Agar kimga vada bergan bo‘lsang so‘zingning ustidan chiq, boshingga qilich kelsa ham yolg‘on gapirma, odamlarni kuttirib qo‘yma, boradigan joyingga, ish o‘rningga boshqalardan ertaroq borishga harakat qil” - kabi nasihatli gaplariga rioya qilgan holda umr kechirmoqda. [1. 31 b.]

Kenesbay Abdullayev xonadonining yana bitta ijodkor qizi, otasining kompozitorlik iste’dodini o‘ziga olgan va shu yo‘lda tinimsiz mehnat qilayotgan kompozitor Ulbibi Abdullayeva hisoblanadi.

Iste’dodli kompozitor va pedagog U.Abdullayeva 1964-yil 17 oktabrda Nukus shahrida dunyoga keldi. «Kunxo’ja» nomidagi o’rta ta’lim maktabdan tugatgach u R.Glier nomidagi bolalar musiqa maktabiga opasi izidan fortepiano bo‘yicha o‘qishga kirdi (pedagog Statova Lyudmila Timofeyevna sinfi). Yosh sozanda mazkur ilm dargohida jiddiy shug‘ullanishni boshlaydi va tez orada tanlovlarda qatnashib yutuqlarga erishadi. Shu jumladan, 1980-yilda Muhtor Ashrafiy nomidagi ko‘rik – tanalovida fortepiano cholg‘usi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi nomidan qatnashib 1-o‘rinni egallaydi. O‘sha yilning o‘zida o‘rta maktabni tugatib, Japaq Shomuratov nomidagi texnikumga fortepiano bo‘limiga o‘qishga kiradi. Bu ulug‘ dargohda ko‘plab ustozlardan ta’lim-tarbiya oladi, ulardan fortepiano bo‘yicha ustozi O.Spiridonova va T.Tamaryova, kompozitsiya bo‘yicha D.Janabayeva, polifoniyadan G.Demisinov va garmoniyadan K.O‘tegenovlar dars berishgan. Musiqa sohasini mukammal egallash va keyinchalik ham shu yo‘lni davom ettirish maqsadida U.Abdullayeva 1984-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik bo‘limiga professor B.Giyenko sinfiga qabul qilinadi. O‘quv jarayonida kompozitorlik sir-asrorlarini tajribali pedagoglardan o‘rganib boradi. Xususan, B.Gienkodan cholg‘ulashtirish, Y.Motsokinadan polifoniya, T.Qurbonov, Nechayevdan xor uchun aranjirovka, I.Malmbergdan garmoniya va S.Varelasdan partitura o‘qish bo‘yicha darslar olgan.

O‘qish yillarida U.Abdullayeva bir nechta janrlarda asarlar yaratadi. Jumladan, «Bolalar albomi», prelyudiya va variatsiya, «Dastan ushin» ballada va vokal asarlaridan bir nechta romanslar: «Kuttim kelmedin’», «Umitpa meni», «Tabarma edin’», bolalar xori uchun «Amudaryo», torli kvartet uchun uch bo‘limli syuita, soprano va kamer orkestriga «Vokaliz» kabi asarlarini yaratgan. Yosh kompozitor o‘qish yillarini yakunlash arafasida diplom ishi sifatida J.Turdimuratov librettosiga «O‘mirbek» nomli balet syuitasini yaratadi va 1989-yili konservatoriyani muvaffaqiyatli yakunlaydi. O‘z ona shahri Nukusga qaytib keladi va pedagogik faoliyatini boshlaydi. Ilk ish jarayonini J.Shamuratov nomidagi musiqa texnikumida boshlaydi. Ushbu yillarda texnikum bilan birgalikda «Berdaq» nomidagi teatrda ham konsertmeyster lavozimida ish faoliyatini olib boradi. Kompozitor va pedagog U.Abdullayeva 1996-2005-yillarda Nukus shahridagi 1-sonli Madaniyat uyida samarali ijodiy faoliyatini olib boradi va «Navshe» nomli bolalar ansamblida musiqiy rahbar bo‘lib ishlaydi.

Bolalar bilan birga ishlash jarayonida ulardagi beg‘uborlik, haqiqatgo‘ylik va sof mehr tuyg‘ulari kompozitorni ilhomlantirib, shu asnoda U.Abdullayevaning 40 dan ortiq bolalar qo‘shiqlari yaratiladi. Shu o‘rinda «Top-top», «Sport qanday paydali», «O‘zbekistan jannet makan», «O‘pepek», «Biz alpamis avladi», «No‘kis» bolalar qo‘shiqlarini atab o‘tishimiz joiz. «Navshe» nomli bolalar ansambli Respublikamizning yirik konsert tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Bulardan Navro‘z va Mustaqillik bayramlarini aytishimiz mumkin.

Ulbibi Abdullayeva bolalar musiqasini rivojlantirishga qo‘shgan salmoqli hissasi va bolalar bilan ishlashdagi katta mehnati uchun 2000-yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlanadi. Keyinchalik 2010-yilda esa «Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» unvoniga sazovor bo‘ladi.

Hozirgi kunda ham otasining davomchisi sifatida pedagoglik ishlari bilan shug‘ullanayotgan Ulbibi Abdullayeva otasining “O‘qing, o‘rganing, esingizda saqlang”-kabi ma’noli va nasihatli so‘zlarini hayotda qo‘llagan holda Qoraqalpog‘iston san’at va madaniyat institutida dars berib kelmoqda.[1. 34b.] Kenesbay Abdullayevning ikkita qizi ham musiqa san’atining murakkab sohalarida faoliyat olib borishmoqda va boshqa farzandalari ham hayotda o‘z o‘rinlariga erishgan holatda turmush kechirmoqdalar. Bu shajaraning uchinchi avlod vakillari ya’ni Ulbibi Abdullayevaning qizlari Awezova Shaxsanem va Awezova Aysanemlar ham san’atning fortepiano ijrochiligi va kompoztorlik yo‘nalishlarida ijod qilib kelishmoqdalar, shuningdek jiyani Shahzoda Abdullayeva esa musiqashunoslik yo‘nalishini egallab bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida talabalarga musiqiy-tarixiy fanlardan saboq bermoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, iste’dod bu insonga berilgan eng katta ne’mat bo‘lib uni vaqtida payqay olish va to‘g‘ri yo‘naltirish juda muhim hisoblanadi. Bu borada o‘sib kelayotgan yosh nihol o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘naltirilib tarbiya olsa Aida Abdullayeva va Ulbibi Abdullayeva kabi san’atimizda katta yutuqlarga erishi mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva U. “Bahasin jog‘altpag‘an namalar” monografiya – T.: “Fan ziyosi”, 2022. – 118b.
2. Abdullayeva U. “Baxitli balaliq”. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
3. Nadirova A. Qaraqalpaq muzika tarixi – T., 2018 – 384 bet.
4. Абдуллаева Ш. Музыкальная династия Абдуллаевых. БМИ. - Тошкент, 2016-2017.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025

RAXMATOVA MEHRIBON
BAXTIYOROVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish”
kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:professor,
Saydaminova D.

DILOROM SAYDAMINOVANING IJOD YO‘LI

(“By the of sound francesca” asari misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada intiluvchan, zamonaviy, go‘zal ayol timsolida gavdalangan kompozitor, Amerika bastakorlar, mualliflar va noshirlar jamiyati (ASCAP), O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi va Rossiya bastakorlar uyushmasi a’zosi Dilorom Saydaminovaning keng qamrovli ijodi, tasnifi va musiqa san’atiga qo‘shgan zamonaviy uslublari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: partitura, “Eski shahar”, kompozitorlik, mo‘jizali, ijodiy bisot, grif, estrada.

Аннотация: В статье рассматривается многогранное творчество композитора Дилором Саидаминовой, воплощающей образ целеустремлённой, современной и утончённой женщины. Будучи членом Американского общества композиторов, авторов и издателей (ASCAP), Союза композиторов Узбекистана и Союза композиторов России, она вносит значительный вклад в музыкальное искусство, привнося современные стилистические решения. В статье анализируется её композиторская деятельность, её классификация, а также влияние на развитие музыки.

Ключевые слова: партитура, «Старый город», композиция, волшебство, творческое наследие, гриф, эстрада.

Qadimdan xalqimizning tarixiy sahifalarida “Ayol” zotiga alohida e’tibor qaratib kelingan. Barcha davrlarda ayollarning o‘rni erkaklar bilan bir qatorda ahamiyat kasb etgan. Binobarin, ushbu fikrimizga To‘maris, Bibixonim kabi timsollar yorqin dalildir. Biroq ayrim davrlarda ayollar faqatgina uy bekasi sifatida ko‘rilib, jamiyatda yetarlicha e’tirof etilmagan holatlar ham kuzatilgan bo‘lishiga qaramasdan - o‘zbek ayollari o‘z sadoqati, matonati, bardoshi va aql-idroki bilan boshqa millatlar ayollari uchun ham ibrat namunasidir. Bugungi kunda ular nafaqat oilaviy, balki jamiyat hayotining turli jabhalarida yetakchi o‘rin egallab, davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Shu qatorda o‘zbegimning buyuk, zamonaviy ayol kompozitori Dilorom Saydaminova ham dunyo miqyosida tanilgan ijodkorlardan biridir. Ayol ijodkor uchun ijodiy faoliyat va oilaviy mas’uliyatni birdek olib borish oson emas, ammo Dilorom Saydaminova bu yo‘lda katta muvaffaqiyatga erishdi.

Ko‘plab mashhur shaxslar qahramonimizning ijodiga yuqori baho berganlar. Shu jumladan, kompozitor A. Shazbagyan “Dilorom Saydaminova zamonaviy, go‘zal ayol. Uning ilm-madaniyatidan ishonch va xalq madhini ko‘zlarida ko‘rish mumkin” deydi. O‘zbek musiqasining atoqli bastakori Sayfi Jalil esa uni “oliy tafakkur egasi” deb ataydi.

Dilorom Saydaminova 1943-yil 27-fevralda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Otasi Saydahmad Abdurazzoqovich «O‘zbekfilm» kinostudiyasida ishlagan bo‘lib, qo‘shiqlar kuylash va dutorda ijro etish mahoratiga ega edi. Onasi Hamida Zohidovna esa pediatr bo‘lishiga qaramay, san’atga muhabbat qo‘ygan va musiqa bilan shug‘ullangan. U o‘zbek ayollari orasida birinchilardan bo‘lib, hozirgi R. Glier nomini olgan musiqa maktabida musiqashunos, professor Ilyos Akbarov bilan bir sinfda professional ta’lim olgan. Shu sababli Dilorom Saydaminovaning musiqa san’atiga kirib kelishi bejiz emas..

Dilorom Saydaminova “Eski shahar” deb nomlangan tarixiy chang ko‘chalari-yu, mo‘minlarning azon aytiladigan minoralari ostidagi uylarning birida tug‘ilgan. Kompozitor milliy ohanglar ichida ulg‘aydi va tabiiyki, ushbu muhit D. Saydaminovaning ijodiy boyligiga aylangan. Bunga misol tariqasida AQShdagi “Bach Choir” xor jamoasi rahbarining buyurtmasi asosida “Azon” deb nomlangan mo‘jaz asar dunyoga keldi. Ushbu asar ilk bor 2001-yil 11-sentabrda Pittsburg shahrida sahnaga chiqarildi. Buyurtmachi Brady R. Alredning aytishicha, xor jamoasiga ushbu asar juda manzur kelganligi sababli ijrochilar uni shunchaki emas, balki qalbdan kuylaganlar.

Dilorom Saydaminova Toshkent konservatoriyasining kompozitorlik yo‘nalishini professor B. I. Zeytman sinfida tamomlagan (1967-yil). U turli xalqaro va milliy kompozitorlar uyushmalariga a’zo bo‘lgan va ijodi turli mamlakatlarda e’tirof etilgan.

Uning ijodiy bisoti boy bo‘lib, unda ikkita simfoniya, “Yonayotgan tosh” balet syuitasi, kamer ansambli uchun asarlar, fortepiano asarlari, qo‘shiqlar, shuningdek, dramatik spektakllarga yozilgan musiqalari bor.

Fortepiano uchun yozilgan eng mashhur asarlari qatoriga “Xayyom bilan suhbat”, “Afrosiyob freskalari” va Kornegi Xoll sahnasida ijro etilgan “Qadimiy Buxoro devorlari” kiradi. Shuningdek, “Amir Temur” (2011-yil, zarbli cholg‘ular va simfonik orkestr uchun) asari ham e’tiborga loyiq.

Ushbu ijodiy boyliklar orasidan ovoz va ansambl uchun yozilgan **“By the Sound of Francesca”** asari boshqa asarlardan o‘zining o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. 1998-yilda yozilgan ushbu asar Germaniyaning Mannheim shahrida o‘tkazilgan tanlovda faxrli 2-o‘rinni egallagan.

“By the Sound of Francesca” asarining dramatik mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda Francheskaning mo‘jizaviy ruhi izlanishi tasvirlangan.

Kompozitor bu asarga o‘ziga xos yondashgan va unda noodatiy uslublarni qo‘llagan. Masalan, asar boshida yomg‘irni tasvirlovchi tovushlarni eshitish mumkin. Ushbu effektni ifodalash uchun D. Saydaminova yangicha ovoz chiqarish usulini o‘ylab topgan. Yana tinglovchini o‘ziga jalb qiluvchi tovushlardan biri – shamol ovozi bo‘lib, u kontrabasning grifi ustida barmoqni bir maromda yurg‘izish orqali tasvirlangan.

Asarda inson ovozi alohida e’tiborga sazovordir. Bu partiya metso-soprano ovozi uchun yozilgan bo‘lib, kompozitor aynan inson ovozi orqali asar davomida taqib mavzularini tasvirlaydi. Vokal partiyasi ancha murakkab bo‘lishiga qaramasdan – partiturada aniq ovoz balandliklari va dinamikalar orqali belgilab berilgan.

Ushbu asar zamonaviy nota partiturasida yozilgan bo‘lib, har bir cholg‘uning ijro vaqti aniq soniyalar bilan belgilangan.

Asarda sehrli ohanglar shunday mohirona qo‘llanganki, tinglovchi beixtiyor hayolot dunyosiga sho‘ng‘ib, qahramonlar tasvirini his qiladi. Qo‘llanilgan zamonaviy effektlari esa – partituraning pastki qismida izohlanadi.

“By the Sound of Francesca” asari tabiat ohanglari ostida boshlangan bo‘lsa, aynan shu uslub yakun vazifasini bajaradi va ovozlar sekin astalikda kuchsiz eshitilib, yo‘qolib boradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, musiqa shedevrlari orasida ayol kompozitorlar tomonidan yozilgan asarlar alohida o‘rin tutadi. Binobarin, Dilorom Saydaminova ham san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkorlar tilsimining asosiy o‘zagidan biridir. Ustozning hozirgi kunda ham yozayotgan asarlari ushbu merosni boyitish bilan bir qatorda, shogirdlari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Ishonamizki, ushbu an’ana uzoq yillar davom etib, san’at ixlosmandlariga zavq bag‘ishlaydi va albatta xalqning ma’naviy va ruhiy dunyosini rivojlantirishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov A. H. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent.: – 2015.
2. Sposobin I. V. “Musiqa shakli”. -Toshkent.: - 1982.
3. Avagimova S. S.Zufarova “Dilorom Saydaminova”. -Toshkent.: -1997.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



SAYDULLAYEVA SHAHNOZA
FURQAT QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d.(PhD), professor,
Mamadjanova E.U.

ILM VA AYOL TAQDIR

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqashunos, olima va san’atshunoslik fanlari nomzodi Ganixanova Shoyistaning hayoti va ijodi, muallifligidagi ilmiy ishlari va yo‘nalishlari va pedagogik faoliyati haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: san’at, musiqashunoslik, konservatoriya, texnologiya, ta’lim, tarbiya, talabalar, maqola, dissertatsiya, festival, muharrir, jurnal, teatr.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и творчестве музыковеда, ученого, кандидата искусствоведения Ганихановой Шойисты, а также о ее научных трудах и направлениях авторской и педагогической деятельности.

Ключевые слова: искусство, музыковедение, консерватория, технология, образование, воспитание, студенты, статья, диссертация, фестиваль, редактор, журнал, театр.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatning ijtimoiy hayoti va davlat qurilishidagi ishtirokini yuksaltirish, liderlik, tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda.

Sharq qadriyatlarida ayol doimo erkak kishiga do‘st, yor, oqila, mehribon umr yo‘ldosh va oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug‘langan. Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi

ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e’tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o‘z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo‘lida ekanligiga alohida e’tibor qaratgan. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deya ta’kidlaganlar.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Qanday soha bo‘lishidan qat’iy nazar erkaklar bilan teng ravishda ayollar ham o‘z hissalarini astoydil qo‘shib kelmoqdalar. Aynan shunday sohalarning ahamiyatlisi bo‘lgan musiqa san’atida ham ayollar jamoasi adadi ancha yuqori.

Oliy o‘quv yurtimiz bo‘lmish O‘zbekiston davlat konservatoriyasida olimalar soni ko‘zlarni quvnatar darajada ko‘p. Aynan bir fakultet emas, balki har qanday fakultetda bunday olimalarni uchratishimiz mumkin.

Konservatoriyaning musiqa san’ati fakultetida jahon musiqa tarixi va tanqidi kafedrasida bu ko‘rsatkichlarning yuqori namunasini ko‘ra olamiz. Shunday olimalardan biri Shoyista Sharafutdinovna Ganixanovadir.

Ko‘zga ko‘ringan, g'ayratli va hurmatli olima, obro‘li o‘qituvchi, konservatoriyaning musiqiy va ijtimoiy hayotining faol ishtirokchisi, do‘stona, muloqotga doimo ochiq, o‘zining badiiy g'oyalari bilan ajablantirishdan va zavqlantirishdan to‘xtamaydigan musiqashunos deya ta’riflashimiz mumkin. Uning hayoti to‘xtovsiz motorga o‘xshashi bilan doim boshqalardan ajralib turadi. Uning yoshligidan butun ijodiy hayoti musiqa bilan bog'liq va unga bag'ishlangan. U bolaligidanoq o‘zini butun borlig'ini berib orzu qilgan kasbga yoshligidan yo‘naltirishgan. Ganixanova Shoyista bolaligini eslar ekan, yoshligidan ota-onasi tomonidan mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘rishiga tebranmas tirgak bo‘lib kelishganligini aytib o‘tdi.

Otasi Ganixanov Sharafutdin Fasxiddinovich aviatsiya injeneri va onasi Yusupova Dilbar Yunusovna fizika sohasi mutaxassisi bo‘lgan qahramonimiz yoshligidan olimlar suhbati ta’sirida katta bo‘lgan. Ana shunday tashriflardan birida bo‘lajak olima O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatga artist Ofeliya Yunusovna Yusupova bilan duch kelib qoladi.U qahramonimiz onasi bilan suhbat qilganida uning qizida musiqaga qobiliyat ko‘rganini va uni musiqa sohasidan yo‘naltirish kerakligi aytadi. Uning onasi ham buni tasdiqlab, uni V.A.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabiga o‘qishga yuboradi.

Musiqa maktabida to‘qqiz yil davomida fortepiano mutaxassisligida Gavrileva Lyudmila Nikolayevna va Reyder Tatyana Igorovna sinflarida tahsil olgan. Ko‘pchiligimizga ma’lumki, aynan bu mutaxassislikda ijrochidan juda ko‘p vaqt va resurs talab etiladi, lekin qahramonimiz bu tufayli emas, balki boshqa sababdan bu sohadan musiqa nazariyasi mutaxassisligiga o‘tgan.

Oilaviy olimlar sifatida uning onasi Shoyistani ham olima bo‘lishini istagan va musiqa sohasida ham olimalar yetishib chiqishini bilgan holda uni aynan musiqa nazariyasi sinfiga o‘tishini istagan. Yana bir sababi esa olimlarning

farzandi bo‘lgan Shoyistada ham aynan aniq fanlarga nisbatan qobiliyatli edi. Qahramonimiz avvalida bu qarordan bexabar bo‘lgan va eshitgan zahoti keskinlik bilan qabul qilmagan. Lekin keyinchalik musiqa adabiyoti fanidan dars bergan ustoz Chaxvadze Natella Vladimirovna va Dobrovetskaya Eda Volfovnalarning o‘z faniga qanchalik jonkuyarligi va musiqa qanchalik oshnoligi ko‘rgan Shoyistaning qalbida ham bu sohaga nisbatan iliq tuyg’ular paydo bo‘lgan.

Olimaning aytishicha, musiqachi avvalo musiqani tinglashni va uni tahlil qilishni bilishi kerak, musiqa tarixi va nazariyasi ham o‘z yo‘liga, lekin birinchi o‘rinda, albatta musiqa tinglashdir. Maktabda o‘qib yurgan yillarida hozirgidek texnologiya rivojlanmaganligi sababli hamma vaqt ham musiqa tinglash imkoni bo‘lmagan, asosan plastinkalar orqali musiqa tinglashgan. Shunchalik qiziqib ketganligigan yosh olima ba’zida simfoniya yoki opera tinglash uchun ustozining uyiga ham borib kelar edi. Musiqiy adabiyotlar bilan ishlash va musiqashunoslik asoslarini aynan Eda Volfovnadan o‘rgangan. Olima ta’kidlashicha, aynan shu ustozdan pedagogik jihatlarni ham o‘rgangan va shu usulda hali haligacha o‘z talabalariga dars berib keladi.

Oliy o‘quv yurti bo‘lmish konservatoriyaga kirish ham u uchun deyarli qiyinlik tug’dirmagan, sababi musiqa maktabida berilgan bilim hatto kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishga ham hojat qoldirmagan. Butun oilasi aynan shu payt Moskvada bo‘lib qolgan qahramonimiz hech qanday qo‘llab-quvvatlashsiz yuqori natijalar bilan konservatoriyaga qabul qilinadi.

Olimaning hayotidagi yorqin xotiralari deyarli faqat ustozlari bilan bog’liq. Ana shunday ustozlardan biri zamonaviy musiqadan dars bergan Golavyans Tamara Afanasyevnadir. Hatto birinchi darsda o‘tilgan Iogannes Brams mavzusini ham yodida saqlab qolgan qahramonimizning kelajakda aynan zamonaviy musiqa bo‘yicha ilmiy ishlar olib borishi sababi ham shudir ehtimol.

Konservatoriyada o‘qish yillari olima uchun eng qizg’in va shiddat bilan o‘tgan davr bo‘lgan. Mutaxassislikdan ilk saboqlarni, aniqroq qilsak, dastlabki bir yarim yilni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, konservatoriyaning jonkuyar professori bo‘lmish G’afurbekov To‘xtasin Botirovich bilan o‘tkazgan. Professor bilan ilm yo‘lini eslarkan, musiqashunos avvalo o‘zi barchasini izlab, o‘rganib, tahlil qilib erishishi kerakligini ta’kidlab o‘tdi. Ustoz boshchiligida qilingan eng ko‘zga ko‘rinarli ishlardan biri “Boburnoma miniaturalarida musiqa” nomi ostida qilingan izlanish bo‘lgan. Bakalavr bosqichining keyingi yillarini esa Nosirova Yulduz Mirxamidovnaning boschiligida tamomlaydi.

Talabalik yillarida, albatta, kursdoshlarni eslamaslikni imkoni yo‘q. Qahramonimiz ularni eslarkan, birga o‘tkazgan vaqtlarni faqat dars yoki biron ilmiy izlanish bilan bog’liq jarayonda xotirlaydi. Hatto dars soatlari o‘z yakuniga yetgan bo‘lsada, bir-birlarining ortlaridan yangi bilimlar o‘zlashtirishdan charchashmagan. Ana shunday ko‘nikmalardan biri dutor chalish bo‘lgan ekan. Bakalavr davridan to hozirga qadar aloqalari bor va olimalik darajasiga ham birga

chiqishgan kursdoshlari Nodira Amanova bo‘lgan. Hozirda u Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati institutida kompozitsiyadan dars berib keladi.

Musiqashunos mutaxassisligi uchun yetakchi o‘rinlarni egallaydigan fan - bu tanqid fani. Tanqidni qanchalik mukammal va puxta o‘rganish bu sohadagi mutaxassislarga faqatgina foyda olib keladi. Nafaqat musiqa sohasida, balki hayotning har bir jabhasida bo‘layotgan voqea va hodisalarga tanqid nazari ila holis qaray olish va baho berish yashash ko‘nikmalaridan biridir. Olima o‘qigan yillarda bu fanning yetkachi ustozlaridan biri Plungyan Vera Zinovyevna edi. Ilk tanqid fanining asoslarini o‘rgangan va qo‘l ostilarida bir qancha maqola va taqrizlar yozgan.

“Musiqashunoslar orasida maqola va taqrizlar yozish go‘yo musobaqa aylangan ediki, bu jarayonga har birimiz kirishib ketgandik. Faqatgina son jihatdan bellashish emas, balki yozgan ishlarimizning saviyasi va qanchalik dolzarbligi biz uchun birinchi o‘rinda edi. Haligacha yodimda, Rasulova Laylo ismli bir qiz 270 ga yaqin maqolalar yozib tugatgandi”, deya gapimi davom ettiradi.

Tanqid fanida o‘rgangan nazariy ilmlarni amaliyotda qo‘llashni esa Yanov-Yanovskaya Nataliya Solomonovnaning darslarida o‘zlashtirgan va keyinchalik yoqlagan doktorlik dissertatsiyasida ham rahbarlik qilgan.

Yosh bo‘lishiga qaramay konservatoriyada ustoz sifatida faoliyat olib borishni boshlagan olimaning darsga o‘ziga xos yondashuvga ega. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz olimlar oilasida tarbiya topgan Shoyista har bir bo‘ladigan leksiyaga alohida tayyorgarlik va puxta yondashuvni amaliy tarzda ko‘rib, o‘zlashtirib kelgan. Deyarli 30 yildan buyon talabalarga dars berib kelayotgan olima yana shuni maslahat berib o‘tadi: “Har yili deyarli bir xil mavzu o‘tilishiga qaramay, guruhlar, talabalar boshqa, ularning bilimi, dunyoqarashi va fanga yondashuvi mutlaqo bir-biridan farq qiluvchi o‘zga olamdir. Shuning uchun har qanday ustoz mavzu takror-takror o‘tayotgan bo‘lsa ham birinchi o‘rinda talabalarni o‘rganishi, ularning qanday qabul qilishlarida alohida e’tibor berishlari kerak. O‘tiladigan dastur bir xil bo‘lishi mumkin, lekin uni yetkazib berish har bir talaba uchun individualligi darsning mukammal tarzda o‘tishi va talabalarda fanga qiziqish uyg’otish ehtimolini yuqori darajaga ko‘tarishi aniq”.

Mutaxassislikdan birinchi talabasi Feruza Atamullayeva bo‘lgan. Hozirda bu o‘quvchilari “Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasining jonkuyar va yosh ustozlaridan biri hisoblanadi. Hozirgacha esa 17 ta musiqashunoslik mutaxassisligi va 31 ta ijrochilik mutaxassisliklari bo‘yicha bakalavriat, 6 musiqashunoslik va 16 ta ijrochilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrantlar yetishtirib chiqargan va 2 ta doktorlik (DSc) va 7 ta PhD dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilgan. Shu jumladan, uning talabalari Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi laureati (2020), O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining 2021 yil eng yaxshi talabasi, rektor stipendiyasi laureati, musiqa nazariy fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiadada Gran-pri sovrindori (Qozog‘iston 2023),»Yevrosiyo mamlakatlari musiqasi» ning xalqaro olimpiadasi laureati (2023) bo‘lishgan.

Hozirda Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati institutining rektori bo‘lgan Avaz Mansurov ijodini birinchilardan bo‘lib o‘z kitoblarida va izlanishlarida Ganixanova Shoyista yoritgan. Avaz Mansurov faoliyatining dastlabki yillaridan tortib ijodining eng cho‘qqiga chiqquncha bo‘lgan davrni deyarli birga bosib o‘tgan desak mubolag’a bo‘lmaydi. Bu borada dastlabki ishlarni farzandi bilan bolalar qo‘g’irchoq teatriga qatnab yurgan yillari boshlagan. Spektakllarga taqrizlar, maqolalar yozib, keyinchalik aynan nomzodlik dissertatsiya mavzusiga ilhomni ham undan olgan. Rahbari bo‘lgan Plungyan Vera Zinovyevna bu mavzu o‘rtaga tashlanganda ma’qullab: “От Аваза до Алмаза” degandi. Darhaqiqat hozirda Avaz Mansurov elga taniqli va hurmatli kompozitorlardan biridir.

Olimaning ilmiy izlanishlari ko‘rib chiqarkanman, asosiy yo‘nalishlari va tadqiqot yo‘nalishlari shulardan iborat ekaniga ishonch hosil qildim: amaliy janrlar tarixi va nazariyasi (kino musiqasi, teatrdagi musiqa, qo‘g‘irchoq teatridagi musiqa va animatsiya), o‘zbek musiqasi tarixi, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston bastakorlari ijodi, Sharq mamlakatlari, Buyuk ipak yo‘li xalqlarining musiqiy madaniyatlarining o‘zaro ta’siri, o‘zbek an’anaviy musiqasi va cholg‘ulari, modernizm musiqa san’ati. Hozirgacha yozgan ilmiy ishlariga “Zamonaviy musiqa” darsligi, “Yigirmanchi asr musiqasi tarixi” o‘quv qo‘llanmasi, ikkita monografiya “Avaz Mansurov” va , 52 ta O‘zbekiston musiqa madaniyati muammolari, O‘zbekiston kompozitorlari ijodi, musiqa-tarixiy fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy maqolalar va davriy matbuotda 30 dan ortiq maqolalar kiradi.

Qahramonimiz nafaqat respublikamiz miqyosida bo‘lib o‘tgan ilmiy suhbatlarda, balki 30 dan ortiq xalqaro ilmiy forum va konferensiyalarda ma’ruzachi sifatida ishtirok etgan, ulardan: “Sharq taronalari” (O‘zbekiston – 2013, 2015, 2017, 2019), Ispaniya (2018), Rossiya (2022, 2023, 2024), Ozarbayjon (2022, 2023, 2024).

Chet elda malaka oshirish va stajirovkaga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

• Musiqashunoslar, o‘qituvchilar, ijodiy kasblar vakillari uchun “Musiqiy Peterburg” o‘quv dasturida ishtirok etish (2016);

• Maksim Tank nomidagi Belorussiya davlat pedagogika universitetida malaka oshirish (2019-yil 18-iyul – 17-avgust);

• N. A. Rimskiy-Korsakov nomidagi davlat konservatoriyasida stajirovka o‘tash. (2019-yil 5-oktabr – 7-noyabr).

Yuqoridagilarda tashqari olima bir nechta professional va ijodiy uyushmalarga a’zolikka ega, ulardan:

• O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy kengashi a’zosi;

• O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi;

• doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish bo‘yicha ilmiy kengash a’zosi (DSc);

• ilmiy seminar a’zosi va kotibidir.

Rossiya (Saratov konservatoriyasi – 2023, Qozon konservatoriyasi – 2024), AQSh (Washington, Washington universiteti – 2021 – zoom); shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining turli shaharlarida bo‘lib o‘tgan ma’ruzalar va mahorat darslari faol ishtirok etgan.

Serqirra olima nafaqat konferensiyalarda ma’ruzachi sifatida ishtirok etgan, balki tashkil etish bo‘yicha ham jonbozliklar ko‘rsatgan. Bunga misol qilib OTMlararo yillik ilmiy-amaliy pedagogik va talabalar konferensiyalari (2004-yildan 2014-yilgacha); musiqiy festivallar va ilmiy konferensiyalar – 10 dan ortiq: “Oltin musiqiy LIST” (2011);“Raxmaninov bahori”, xalqaro konferensiya va yosh musiqa olimlari tanlovi “Yevroosiyo mamlakatlari musiqa madaniyati” (2024) aytishimiz mumkin.

Tanlovlarda hakamlar hay’ati tarkibida ishtirok etish bo‘yicha ham tajribaga ega. Bunga “Delfiya o‘yinlari – 2022” xalqaro tanlov-festivali;

“Iste’dodlar festivali – 2023” yettinchi xalqaro bolalar va yoshlar ijodiyoti tanlovi; “Qaldirg‘och” (2023) – yosh bastakorlar va musiqashunoslar tanlovlari tasdiq bo‘la oladi.

Olima 2018-yildan “Musiqa” jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, 2020-yildan esa “Eurasian music science” jurnali bosh muharriri” sifatida faoliyat olib bora boshlagan. Avvallari musiqashunoslar maqolalari, ilmiy ishlarini chop etish ancha mushkul bo‘lgan, musiqaga ajratilgan alohida nashriyot bo‘limlari bo‘lmagan. Har bir konferensiyalarda faol bo‘lgan qahramonimiz shu muammo ustida ham bosh qotirgan va har yili yilnoma sifatida maqolalar nashr ettirilardi va bu jarayon 2015-yilga qadar davom etgan. Maqola mualliflari o‘z tomonlaridan moddiy tomonlarini qoplashgan, lekin bu jarayon barchaga ham qulay bo‘lmagam. 2017-yilda esa Prezident qarori bilan “Musiqa” jurnali tashkil etilgan va hozirgacha faoloyati davom etib kelmoqda. Bu jurnalning har bir soni bir yilda 4 marotaba nashr etiladi, asosan professor, ustozlarning ilmiy maqolalari joy olgan.

Hozirgi zamonda ayollar jamoasi qaysi sohani egallamasin, ular erishayotgan muvaffaqiyat va yutuqlar ko‘zni qamashtirar darajada yuksakdir. Buning misolini nafaqat jahon miqyosida rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlarda, balki ona zaminimiz bo‘lgan O‘zbekistonda ham talaygina. Shunday olimalarning eng yorqinlaridan biri, albatta, Ganixanova Shoyistani ayta olamiz. Uning hayoti va hozirda to‘xtamay izchil davom etayotgan faoliyati har bir o‘sib-rivojlanib kelayotgan xotin-qizlarga namunalikni o‘tay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Головянц Т.А. Е.С.Мейке. Композиторы и музыковеды Узбекистана. -Ташкент.: 2018.
2. Ганиханова Ш. Маърузалар тўплами. -Ташкент.: 2008.
3. Ганиханова Ш. Проблемы развития прикладных жанров в Узбекистане. -Ташкент.: 2009.

4. Ганиханова Ш. Прикладные жанры в контексте формирования национального стиля в творчестве композиторов Узбекистана. -Ташкент.: 2021.
5. Ganixanova Sh. Avaz Mansurov. -Ташкент.: 2008.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025



SAYFIDDINOVA NIGINA
G‘OLIBJONOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.f.d. (PhD),
Mirtalipova I.M.

O‘ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATIDA GALINA MUXAMEDOVANING ROLI

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda akademik xonandaligi yo‘lishining yetakchi vakili, O‘zbekiston musiqa madaniyatida vokal musiqasining rivojlanishiga o‘zining kata hissasini qo‘shib kelayotgan shirali ovoz sohibi va mahoratli pedagog Galina Muxamedovaning ijodiy faoliyati to‘g‘rida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vokal, ijod, san’at, opera, ijodkor, qahramon, o‘qituvchi, musiqa, faoliyat.

Аннотация: В данной статье речь идет о творческой деятельности Галины Мухамедовой, ведущего представителя академического вокала, который в настоящее время вносит значительный вклад в развитие вокальной музыки в Узбекистане, обладая выразительным голосом и являясь опытным педагогом.

Ключевые слова: вокал, творчество, искусство, опера, творец, герой, преподаватель, музыка, деятельность.

Qahramonimiz Galina Muxamedovaning ijodiy faoliyati haqida gapirar ekanmiz avvalo “Vokal” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. “Vokal” so‘zining lug‘aviy ma’nosi bizda qadimdan mavjud bo‘lgan “qo‘shiq, ashula” degan musiqiy atamalarga to‘g‘ri keladi shunga ko‘ra, vokal istilohi tarixiy ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy jarayonlarning ajralmas bir bo‘lagi sifatida qadim

zamonlardan beri yashab kelmoqda. O‘zbek xalqi madaniy xayoti XIX-asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san’atning ijrochilik janrini ifodalay boshlagan bu tushuncha Yevropada uzoq tarixga ega bo‘lib, uning negizi antik davr diniy marosimlari, ijro jarayoniga borib taqaladi [6, 5].

Vokal musiqa – kuylash uchun mo‘ljallangan musiqadir. Vokal musiqaga yakka, ansambl hamda xor tarzida, shuningdek musiqa cholg‘ulari jo‘rligida yoki umuman jo‘rsiz (masalan, katta ashula, a’capella xorlari kabi) ijro etiladigan asarlar kiradi. Barcha turlarida xonanda ovozi yetakchi o‘rin tutadi. Vokal musiqa asosan, badiiy matn (she’riyat) bilan bog‘liq. Hozirgi kunda ayni shu sohaning yetakchi vakili, O‘zbekiston musiqa madaniyatida vokal musiqasining rivojlanishiga Galina Muxamedova o‘zining kata hissasini qo‘shib kelmoqda [7, 490].

Galina Muxamedovaning san’atga kirib kelishi bolalik davridan boshlanadi. Uning musiqa bilan tanishuvi yoshligidan boshlanib, kuylashga bo‘lgan qiziqishi unga o‘zining san’at yo‘lini topishda katta ta’sir ko‘rsatgan. Qahramonimizning Hasan va Husan akalari musiqa maktabining Bayan sinfiga qabul qilinishi bilan, ular sabab musiqa olamiga qiziqishni boshlagan. Biroq, u musiqiy ta’limni mustaqil ravishda o‘rganib, bayan chalishni o‘zlashtirgan.

Ijodkorimiz yoshligini xotirlagan holda shuni ta’kidladi: U bolalar Saroyiga kirib qoladi, bu yerda bir guruh bolalar ashula kuylab, spektakllar namoyish etib, ijodiy faoliyat ko‘rsatishayotgan edi. Ushbu ijodiy muhitni ko‘rgan Galina Muxamedova o‘zining san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirib, shu joyga qatnashish istagini bildirgan. Shunday qilib, u Bolalar saroyidagi “Zolushka” opera studiyasida o‘qishni boshlaydi.

Galina Muhamedova 7-sinfdan boshlab opera studiyasida dars olishni boshlaydi, biroq dastlab akademik xonandalik yo‘nalishi haqida o‘ylamagan, faqatgina san’atga bo‘lgan tabiiy qiziqish uni musiqaning turli yo‘nalishlariga jalb etgan. Uning ijodiy faoliyati asta-sekin kengayib, spektakllarda qatnasha boshlaydi va 10-sinfgacha turli spektakllarda ishtirok etadi. O‘sha paytda uning ustozlari tomonidan berilgan maslahatlar asosida, Galina Muxamedova konservatoriyaga tahsil olish istagida o‘qishga qaror qiladi va akademik xonandalik yo‘nalishidagi ijodiy faoliyati aynan shu paytdan boshlanadi.

Qahramonimiz Galina Muxamedovaning musiqa san’ati yo‘lidagi dastlabki qadamlarini qo‘ygan birinchi ustozlari, to‘garakdagi a’cappella xor rahbari Igunov Geniz Ivanovich va “Zolushka” opera studiyasining rahbari Igunova Tamara Matvyeevna bo‘lgan. Ushbu tajribali pedagoglarning rahnamoligida, qahramonimiz Galina Muxamedova san’atga bo‘lgan muhabbati va qiziqishi yanada ortgan. Aynan shu ustozlarning maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlari bilan Galina Muxamedova konservatoriyaga tayyorlov kursiga o‘qishga kirishga qaror qilgan.

Konservatoriyada o‘qish jarayonida, u o‘zining akademik xonandalik faoliyatini rivojlantirishda, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Arzumanova Raisa Konstantinovna sinfida tahsil olgan. 7 yil davomida akademik

xonandalik yo‘nalishida o‘qigan ijodkorimiz, o‘zining professional vokal mahoratini chuqur o‘rgangan.

Ijodkorimiz Galina Muxamedovaning ijodiy faoliyatidagi yutuqlari va muvaffaqiyatlarining asosiy jihatlaridan biri uning konservatoriya yillarida erishgan natijalari hisoblanadi. 1981 yilda, bakalavriatning 4-kursida u Respublika ko‘rik tanlovida qatnashib, 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan. U konservatoriyani bitirgach, 8 ta opera asarini to‘liq ijro etganini ta’kidlaydi. Bu yutuq, uning nafaqat vokal mahoratini ko‘rsata olgan, shu bilan birga eng katta yutuqlaridan biri deb e’tirof etish o‘rinlidir. Galina Muxamedova bir vaqtning o‘zida Moskva konservatoriyasining aspiranturasi va Samarqand opera va balet teatriga ishga yo‘llanma olgan. Biroq, ijodkorimizning sahnaga bo‘lgan cheksiz muhabbati uni opera teatrida faoliyat yuritishga undagan. Teatrda ko‘plab yirik rollarda ishtirok etgan, jumladan, J.Bizening “Karmen” operasida Mikaela, Sh.Gunoning “Faust” operasida Margarita, P.E.Chaykovskiyning “Evgeniy Onegin” operasida Tatyana, “Iolanta” operasida Iolanta kabi bosh rollarni ijro etgan. Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi katta akademik teatrida ham muvaffaqiyatli chiqishlar qilgan, jumladan, Rustam Abdullayevning “Sadoqat” operasining 1-tahririda Zulfiya, T.Jalilov va B.Brovsinning “Tohir-Zuhra” operasida Zuhra, S.Boboyevning “Hamza” operasida Sanobar, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida Oyxon, “Quvg‘inlar” operasida Chevar va S.Boboyevning “Uyg‘onish” operasida Jamila kabi obrazlar qiyofasini gavdalantirgan.

Galina Muxamedovaning ijodi, shuningdek, bolalar spektakllaridagi ishtiroki bilan ham boyitilgan. Bu muvaffaqiyatlar uning san’ati va sahnadagi muvaffaqiyatlarining eng yuqori cho‘qqilaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Qahramonimiz bunday natijalarga erishishida tur xil qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Ikki farzandni dunyoga keltirganidan so‘ng, qahramonimiz ovozining yo‘qolishi bilan yuzlashdi. Ushbu muammoni hal qilish uchun u qattiq mehnat qilishga majbur bo‘ldi. Konservatoriyaning aspirantura bosqichiga o‘qishga kirganidan so‘ng, ovozini tiklash maqsadida metodik kitoblarni o‘qib, ovozini tiklash uchun turli xil yondashuvlarni qo‘lladi. O‘qituvchilardan yordam olishga harakat qilgan bo‘lsa-da, o‘zining mehnati va bilimga bo‘lgan intilishi orqali ovozini tiklay oldi.

Galina Muxamedovaning ijodiy faoliyati nafaqat sahnadagi muvaffaqiyatlar, shon-sharafli hisoblanmish o‘qituvchilik faoliyatida ham ko‘rish mumkin. U 10 yil davomida “Ijrochilik san’ati tarixi” va “Xonandalik uslubiyati asoslari” fanlaridan dars bergan va bu jarayonda juda ko‘p ilmiy adabiyotlarni o‘rganib, o‘zining pedagogik metodologiyasini ishlab chiqqan. Bu jarayon uning nafaqat ijodini, balki o‘qituvchilik mahoratini ham yuqori darajaga ko‘tarishga yordam berdi.

Talabalarni tarbiyalashda, ovozga asos solish va operada ovoz manerasini chiqarish uchun Yevropa kompozitorlari asarlari muhim o‘rin tutadi. Aynan, I.S.Bax, G.F.Gendel, Dj.Kachchini va V.A.Mozart kabi mashhur

kompozitorlarning asarlari ovoz chiqarish texnikasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu asarlar nafas olish texnikasini mustahkamlash, ovozning kuchini va to‘g‘riligini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Opera ijrochiligi uchun ovozning kuchli va to‘g‘ri chiqishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda nafas yo‘li bilan ishlash, ayniqsa, nafasni boshqarish va rezonatorlarni to‘liq ishga solish talab qilinadi. Yevropa kompozitorlari asarlari, ayniqsa, ularda ishlatilgan murakkab vokal texnikalar va kuylar, ovozning dinamikasi, ohangdorligi va ekspressivligini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu asarlar, shuningdek, vokal resurslarni to‘liq ishga solishga va rezonatorlarni faol holatga keltirishga imkon beradi, bu esa ijrochi ovozining boyligi hamda ta’sirchanligini ta’minlaydi. Shuning uchun Yevropa kompozitorlari asarlari opera repertuarining asosiy qismiga aylangan.

Hozirgi kunda Galina Muxamedovaning tarbiyalagan shogirdlari 100 dan ortiq bo‘lib, ular orasida xizmat ko‘rsatgan artistlar, tanlov g‘oliblari va akademik teatrlarning yakkaxonlari kabi professional shaxslarni alohida ta’kidlash lozim. Shogirdlarining muvaffaqiyati, ularning san’atga qo‘shgan hissasi va ijodiy rivojlanishidagi yuksak natijalar Galina Muxamedovaning pedagogik faoliyatining samarasidir. Bu shogirdlar orasida Rustam Alimardonov, Malika Normatova, Damir Rahmonov, Nosir Yusupov, Melena Madmusayeva, Xursandbek Otamurodov, Xadicha Imomnazarova, Sarvinoz Karimboyeva, Nigina Rahimova, Otabek Mahmudov, Otabek Nazirov, Rossiya davlatida faoliyat yuritayotgan Abbos Rahmatullayev, Boshqirdistonda xizmat ko‘rsatgan artist Husanbek Otamurodov va boshqa ko‘plab shogirdlarni yetishtirgan.

Galina Muxamedova, o‘zining pedagogik faoliyatida, shogirdlarini tarbiyalashda katta mehnat sarflaganini va bu muvaffaqiyatlar uchun albatta mehnat, qobiliyat, sahna ko‘rinishi, aktyorlik va vokal mahorati zarur ekanligini ta’kidlaydi. U o‘zining shogirdlariga “Sahnada nima talab qilinadi?” degan savolga javob berar ekan, “Faqat asarni yodlashning yetarli emasligini, ijrochining asarni tomoshabinning yuragiga yetkazish maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak” - deya ta’kidladi. Dars jarayonida Galina Muxamedova o‘quvchilariga asarni yuragiga yetkazish uchun avval o‘z yuragiga yetib borish zarurligini, faqat shundagina tomoshabin uning ijrosini to‘g‘ri qabul qilishini va e’tiborga loyiq ko‘rishini aytgan. Bunda vokal texnikasi masalalari ham muhim o‘rin tutadi. Galina Muxamedova ijrochi uchun aktyorlik va vokal mahorati, sahna madaniyati bir butun bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirishini ta’kidlaydi. Agar ijrochida ovoz bo‘lmasa, uning sahnadagi aktyorlik va vokal mahorati samarasiz deya izohladi. Shu sababli, san’atning yuqori darajasiga erishish uchun vokal, sahna madaniyati va aktyorlik mahorati birgalikda rivojlanishi zarur.

Galina Iminovna “Akademik xonandalik maktablari haqida” bergan savolimizga javoban shunday dedi: *“Asosiy vokal maktablarining tarixi va rivojlanishi italyan, nemis, fransuz va rus vokal maktablari kabi ko‘p yirik musiqiy maktablarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida italyan vokal maktabi eng*

ko‘p mashhurlikka ega va uning an’analari bugungi kunda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, hozirgi kunda italyan va rus vokal maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari asosida o‘zbek vokal maktabi shakllanib, rivojlanmoqda.

O‘zbek vokal maktabining asosiy xususiyati, akademik xonandalik texnikasini saqlagan holda, o‘zbek kompozitorlari tomonidan yozilgan asarlar va o‘zbek xalq musiqasi ijro etilayotganda milliylikni to‘liq saqlanishi zarurdir. Bu, avvalo, musiqaning estetik va ruhiy talablari bilan bog‘liq. O‘zbek asarlari, ayniqsa, milliy vokal texnikalarini o‘zida mujassamlashtirgan nola-qochirimlarga boy bo‘lishi lozim. Ushbu ifodaviy vositalarsiz, asarlar o‘zbekona bo‘lishi mumkin emas, shuningdek, ular musiqiy shakl va uslub jihatidan Yevropa an’analari bilan uyg‘unlanmasligi kerak.

Shu bilan birga, o‘zbek vokal maktabining rivojlanishi o‘ziga xos qiyinchiliklarga olib keladi. O‘zbek ijrochiligida milliy ruhiyatni saqlash zarurati bilan birga, musiqiy ijroda me’yorni saqlash, ayniqsa, xalq an’anaları va akademik vokal uslublarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Yevropa an’anasiga asoslangan operalarni ijro etishda, o‘sha an’anaga xos uslubni saqlash zarur bo‘lsa, o‘zbek operalarini ijro etishda esa o‘zbek musiqiy madaniyatining xususiyatlarini aks ettirish va uni saqlab qolish eng asosiy vazifadir”.

Qahramonimiz bilan suhbatimiz davomida har bir davrning o‘ziga xos ijro uslublari bordek. Ijodkorimiz Galina Muxamedova ham hozirgi davr ijro uslubi bilan o‘zi tahsil olgan davr ijro uslubi farq qilishini aytib o‘tdi. *“Hozirgi kunda ijrochilikda yangi bir yo‘nalish, ya’ni akademik xonandalikka asoslangan holda estrada asarlarini ijro etish tendensiyasi paydo bo‘lib, Andrea Bachchelli tomonidan “Krasovela” nomi ostida shakllangan. Bu yo‘nalishning asosiy g‘oyasi akademik vokal asarlarini Estrada yo‘nalishi bilan uyg‘unlashtirgan holda ijro etishdadir. Hozirgi kunda bu uslub keng tarqalishi, avvalo, ommaning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va uning targ‘ibotini kuchaytirishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari 3 tenor – Plasido Domingo, Xose Karreras va Lukiano Pavarotti kabi mashhur vokal ijrochilarining ijro uslubi alohida ahamiyatga ega. Ularning konsertlari nafaqat opera, balki estrada musiqasini ham yuqori darajada ijro etish orqali keng auditoriyani o‘ziga jalb etdi. Hozirgi kunda esa, 3 va 4 tenorlar kabi ko‘p vokal xonandalari katta konsert sahnalarida birgalikda chiqishmoqda.*

Ijobiy tomoni shuki, bu yo‘nalish musiqaning kengroq auditoriyaga yetib borishini ta’minlaydi, yoshlarni akademik xonandalikka qiziqtiradi va ijro uslubini ommalashtiradi. Biroq, bu yo‘nalishning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Masalan, ijroda ortiqcha erkinlikning berilishi, asarlarning original shaklida o‘zgartirilishi va klassik vokal an’analarning buzilishi mumkin. Shunga qaramay, hozirgi kunda akademik xonandalikka bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, ayniqsa yosh ijrochilar orasida bu yo‘nalishga bo‘lgan qiziqish kuchaymoqda”- deya ta’kidladi.

Galina Muxamedova san’atga shunday ta’rif beradi. *“San’at inson hayotining ajralmas bir qismidir, chunki u insonning ma’naviy va estetik rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. San’atning asosiy tarmog‘i bo‘lgan musiqa, insonning tug‘ilishidan boshlab uning ichki dunyosiga kirib, har bir davrda va turli jamiyatlarda muhim o‘rin tutib kelgan. Musiqa, ayniqsa vokal san’ati, insonlarning his-tuyg‘ularini, fikrlarini hamda ruhiy holatini ifodalashda eng samarali vositalardan biridir”*.

O‘zbek xalqida vokal san’ati keng tarqalgan bo‘lib, u nafaqat akademik xonandalikda, balki estrada xonandaligida ham ajralib turadi. Xususan, estrada xonandaligi xalqimiz orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu janrda ijro etilayotgan asarlar omma tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Shu bilan birga, xalq san’atida, ayniqsa jamoat joylarida yoki davralarda mikrofonsiz ijro etiladigan vokal asarlar ham katta e’tibor qozonadi.

Qahramonimiz bilan bo‘lgan suhbatda *“U san’at insoniyatning eng muhim ma’naviy va madaniy meroslaridan biri bo‘lib, uni ayollarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Tarixda ayollarga san’at sohasida ko‘plab cheklovlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda bu holat sezilarli darajada o‘zgargan. Ayollar san’at yo‘lida o‘z ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, ularning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Bu, avvalo, ayollarning ijodkorlik va oilaviy mas’uliyatni bir vaqtda olib borish zarurati bilan bog‘liq. Ayol ijodiy faoliyatini amalga oshirish bilan birga, oilaviy vazifalarni ham bajara olishi lozim, bu esa uning san’atga bo‘lgan e’tiborini va vaqtini taqsimlashda qiyinchiliklar keltirishi mumkin.*

Hozirgi kunda san’at sohasida ayol ijrochilari, rassomlari, yozuvchilari va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi ko‘plab namoyondalar mavjud. Ularning ijodi san’atning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va ularning ishtirokisiz san’atni to‘liq tasavvur qilish mumkin emas. Ayollar san’at sohasida o‘z o‘rnini mustahkamlashda nafaqat ijodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lishmoqda” – deya ta’kidladilar Galina Iminovna.

Qahramonimiz Galina Muxamedova hozirgi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Akademik xonandaligi” kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat yuritmoqda. U o‘zining san’atdagi yuksak malakasi va o‘ziga xos ijodiy yondoshuvi bilan nafaqat talabalar, balki butun san’at olamida yuqori baholangan mohir pedagog va ijrochidir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularga samarali bilim berishdan hech to‘xtagan emas. U nafaqat musiqa va vokal san’ati sohasida keng bilimga ega, balki san’atning mazmunini chuqur anglab, uni o‘z ishida amaliyotga joriy etishni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi. Uning darslari nafaqat ijro san’ati, balki musiqa pedagogikasi yo‘nalishida ham muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, Galina Muxamedova o‘zining ijodiy faoliyatida ko‘plab konsertlar, chiqishlar va musiqiy tadbirlarda ishtirok etgan bo‘lib, uning ovozining kuchi va ifodaviy imkonyatlari nafaqat auditoriya, balki tanqidchilar tomonidan ham ijobiy baholanadi. Fikr-mulohazalarimiz in’ikosi sifatida, qahramonimizning o‘ziga xos metodikasi va pedagogikasi yosh avlodga yuqori malakali, qolaversa san’atning

mohiyatini chuqur anglagan ijrochilarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiy faoliyatiga omad va zafarlar tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muxamedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi – Toshkent, 2008. -B 50.
2. Мухамедова Г. Методика Актёрского мастерства певца – Ташкент, 2008. -Стр 172.
3. Muxamedova G. Xonandalikdan dars berish uslubiyoti – Toshkent, 2021. -B 188.
4. Мухамедова Г. Концертные вокальные жанры XVII-XX веков – Ташкент, 2014. -Стр 118.
5. Muhamedova G. Vokal ansambli – Toshkent, 2021. -B 244.
6. Rahimov E. Vokal – Toshkent, 2017. -B 186.
7. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. V harfi – Toshkent, 2001. -B 703.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025

SOBIROVA NOZIMA
MIRZOHID QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d, professor,
Abdullayev R.S.

YELENA YEVGENYEVNA ROMANOVSKAYA

Annotatsiya: Maqolada Yelena Yevgenyevna Romanovskayaning O‘zbekiston musiqa san’ati, ayniqsa, xalq musiqasini o‘rganish va saqlash yo‘lidagi xizmatlari yoritiladi. U O‘zbekistonda folklorshunoslik asoschilaridan biri bo‘lib, 17 yil davom etgan ekspeditsiyalar orqali xalq qo‘shiqlarini yig‘ib, ularni nashrga tayyorlagan. Romanovskaya o‘zbek musiqasi tarixini o‘rganish, musiqiy ta’limni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. Uning ilmiy ishlari va to‘plamlari bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Yelena Yevgenyevna Romanovskaya, o‘zbek xalq musiqasi, folklorshunoslik, ekspeditsiya, xalq qo‘shiqlari, musiqiy meros, musiqa ta’limi.

Аннотация: В статье освещается вклад Елены Евгеньевны Романовской в развитие музыкального искусства Узбекистана, особенно в изучение и сохранение народной музыки. Она была одной из основательниц узбекской фольклористики, на протяжении 17 лет собирала народные песни в экспедициях и готовила их к публикации. Романовская внесла значительный вклад в изучение истории узбекской музыки, развитие музыкального образования и подготовку квалифицированных кадров. Её научные труды и сборники остаются актуальными и в наше время.

Ключевые слова: Елена Евгеньевна Романовская, узбекская народная музыка, фольклористика, экспедиция, народные песни, музыкальное наследие, музыкальное образование.

Ayol- borki olam munavvar, ayol borki jamiyat, millat, oila gullab yashnaydi. Ayollar jamiyat tayanchi, millat umidi, tarbiyachisidir. Agar o‘g‘ligni o‘qitsang bir avlodingni o‘qitasan, agar qizingni o‘qitsan butun avlodingni o‘qitasan degan edi mashoyiqlardan biri. Ayolini e’zozlagan oila qadr topadi. Xotin qizlarini e’zozlagan jamiyat millat, ularning bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan davlatning esa xamisha buguni va ertasi gullab yashnaydi.

Musiqa – insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng muhim madaniy meroslardan biridir. Uning rivojlanishida erkak san’atkorlar bilan bir qatorda ayollarning ham ulkan hissasi bor. Biroq, ko‘p asrlar davomida ayollar san’atshunoslik, arxeologiya, estetika va texnologiyalar bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarda kamroq tilga olingan. Shu sababli, so‘nggi o‘n yilliklarda san’at ilmida faoliyat yuritgan ayol olimalarning ishlarini o‘rganish va ularning hissasini tan olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.San’atshunoslik, estetika, arxeologiya va madaniyatshunoslik sohalarida ayol olimlar ham yetuk tadqiqotlar olib borgan. Ular milliy amaliy san’at, me’moriy yodgorliklar, tasviriy san’at va zamonaviy dizayn yo‘nalishlarida muhim ilmiy ishlarni yaratgan.

San’atshunoslik, estetika, arxeologiya va madaniyatshunoslik sohalarida ayol olimlar ham yetuk tadqiqotlar olib borgan. Ular milliy amaliy san’at, me’moriy yodgorliklar, tasviriy san’at va zamonaviy dizayn yo‘nalishlarida muhim ilmiy ishlarni yaratgan.

Xar bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, asrlar davomida shakllangan qadriyatlari, an’analari, udum va marosimlari mavjuddir, va xar bir xalqning millliy musiqa merosi bo‘ladi, bular ichida esa eng axamiyatlilaridan biri folklor janri xisoblanadi, chunki folklor janri yuqorida sanab o‘tilgan qadriyat va an’analarning jamlanmasidir. Folklor qo‘shiqlari xar qanday kasb yoki xunarning o‘ziga faoliyati natijasida kelib chiqadi, malum bir xaqlning o‘tmishdagi xayoti turmush tarzi xaqida xikoya qiladi. Folklorniing muhim jihatlaridan biri bu uning xaqchilligidadir, ya’ni bu janrda ijro etilayotga asarlar, qo‘shiqlar tinglovchiga va ijrochiga tez yetib boradigan mavzular xamda motivlarning yengil ijro etilishidadir.

O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti turli yo‘nalishlar va janrlarga boydir. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti xaqida so‘z borar ekan albatta folklor janriga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q albatta. O‘zbek folklor san’ati o‘zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, asrlar davomida shakllangan qadriyatlari, an’analari, udum va marosimlarini va bu an’ana va qadriyatlarni saqlab qolishda va uni kelajak avlodga to‘laligicha yetkazishda muhim hisoblanadi. Folklor san’atimiz uzoq yilik o‘tmishga ega va bugungi kunga yetib kelguniga qadar anchagina murakkab yo‘llarni bosib o‘tdi. [21] Milliy qadriyatimiz bo‘lmish folkor san’ati xilma-janrlardan tashkil topgan og‘zaki so‘z san’atturi bo‘lib xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy saloxiyati, ijodiy saloxiyat, simpatiya va antipatiyasini, orzu istakalrini o‘zida jamlaydi.O‘zbek folklor san’atini o‘rganar

[21]O‘zbekxalqog‘zakiijodi.

ekanmiz bevosita uning naqadar qadimiy, tarixiy xujjat ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbekiston san’ati qadimiy va boy merosga ega bo‘lib, uning rivojlanishida san’atshunos olimalarning hissasi beqiyos,ular o‘z ilmiy faoliyati orqali , milliy va jahon san’atini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Ularning ishlari o‘zbek madaniy merosini asrab-avaylash, milliy san’atimizni dunyoga tanitish va san’at nazariyasini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

O‘zbek musiqa madaniyati, o‘zbek musiqa adabiyoti tarixining shakllanishi va rivojlanishida,bir necha ayol olimalar shu jumladan;Karomat Olimboyeva, Berta Dovidova, Mukarrama Azizova, Komunna Ismoilova, Zaynab Polvonova, va bular oraida Yelena Yevgenevna Romanovskaya faoliati va o‘rni beqiyosdir.

Yelena Yevgenevna Romanovskaya 1890-yili 25-mayda saroy qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi 30-yildan ko‘proqvaqt mobaynida Kirasipolkida xizmat qilgan. Yelena Yevgenevna Romanovskaya ilk taxsilini qishloq cherkovida oladi, so‘ngra.Vladimir o‘qituvchilar tayyorlov maktabida taxsil oladi bu yerda ijtimoiy fanlar bilan birga musiqiy bilimlarxam berib borilar edi. Aynan shuyerda Yelena Yevgenevna Romanovskaya ilk musiqiy bilimlarini egallaydi. Keyinchalik Sank-Peterburg konservatoriyasiga kirish uchun tayyorgarlik ko‘ra boshlagan yosh Romanovskaya oilaviy sharoitning yomonligi tufayli o‘qishga borish fikridan qaytadi va o‘zi yashaydigan qishloqda bolalarga musiqiy fanlar bo‘yicha dars beraboshlaydi. 1908- Yelena Yevgenevna Romanovskayaga “Yil o‘qituvchisi” unvoni beriladi.

Sobiq ittifoqning dastlabki madaniy qurilishlaridan biri bu bevosita o‘rta osiyoda birinchi konservatoriya qurilishidir, va bunda barcha uchun eshiklarini keng ochilishi edi.

Jadallik bilan faoliyat yuritayotgan xalq konservatoriyasi mintaqadagi barchamusiqiy pedagoglarni jalb qildi. Bu o‘qituvchilar orasida Yelena Yevgenevna Romanovskaya ham bor edi. Ye. Romanovskaya V.A.Uspenskiy, N.Mironovlar bilan birgalikda O‘zbek folklorshunosligi asoslarini yaratdilar. 1929-yildan boshlangan ekspedidsiylar 17-yil mobaynida davom etadi.Ye. Romanovskaya O‘zbekiston folklorshunoslari orasida birinchilardan bo‘lib, xalqimizning zamonaviy ijodini o‘rganish, muntazam ravishda xalq qo‘shiqlarini yozib borish, o‘zbek musiqa merosining eng mashxur janrlarini yoritishga katta xissa qo‘shadi. U tomonidan nashr etilgan musiqiy folklor yozuvlari toplamlari katta-badiiy va tarixiy- ma’rifiy axamiyatga ega.

Ye. Romanovskayaning o‘zbek xalq musiqasi haqidagi maqolalari va tadqiqotlarida o‘zbek xalqining musiqiy hayotiga oid ko‘plab qimmatli kuzatuvlar, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tabiati , uning intonatsion va ritmik tasviri haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar mavjud.

Yelena Yevgenyevna Romanovskaya xalq musiqa namunalarini yig‘ish va o‘rganishda katta jasorat ko‘rsatgan insondir. O‘zbek musiqasi va o‘zbekmusiqa adabiyoti tarixida Yelena Yevgenyevna Romanovskayaning o‘rni bebaxo va abadiydir. Yelena Yevgenyevna Romanovskaya faqatgina xalq qo‘shiqlarini

o‘rganish va notaga olish bilangina chegaralanib qolmagan u o‘zbek musiqasi madaniyati rivojiga o‘z xissasini qo‘shadigan, yetuk, malakali kadrlarni tayyorlash, musiqa bilim yutlari uchun o‘quvqo‘llanmalarini va dasturlarni ishlab chiqish bilan xam shug‘ullangan, Romanovskaya yig‘ib birto‘plam xoliga keltirgan va ishlab chiqgan xuddi shunday namunalar: Ye. Romanovskayava I.Akbarov xamkoligida yaratilgan ikki jildda yozilgan O‘zbek xalq qo‘shiqlari I-II-jildli kitobi 17 yil davom etgan ekspedidsiyalar jarayonida yozib olingan xalq qo‘shiqlari yallallar, lapar, o‘lanlar shu ikkita to‘plamdan joy olgan. Ekspedidtsiyalar jarayonida qo‘shiqlarni bari magnit tasmalargaxam yozib olingan

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki O‘zbek musiqa san’atimizning rivojlanib shakllanishida nafaqat erkaklar balki ayollar xam jon berib xizmat qilgan. Musiqiy an’analarini asrab avaylash, ularni kelajag avlodga yetkazish va zamonaviy san’at bilan uyg’unlashtirish borasida xam ayollar o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda ham o‘zbek musiqasi va folklorini rivojlantirish, xalq ijodini saqlash va tadqiq qilish yo‘lida ayol san’atkorlar va olimlarning hissasi katta. Ularning ijodi milliy madaniyatimizning boyligini dunyoga tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda ayollar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy hamda ijodiy izlanishlariga keng imkoniyat yaratish milliy san’atimiz rivojiga yanada katta hissa qo‘shishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kovbas.M.E Romanovskaya-T.:1982.
2. Safarov Oxunjon. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -T.: “Musiqa”. 2010.
3. Nurmatov H. N.Yo‘ldosheva. O‘zbek xalq musiqa ijodi.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.
4. Yuldasheva N., Raxmatova N. O‘zbek musiqa adabiyoti.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



SULTONOVA MARJONA
IXTIYOR QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.d. (PhD),
dotsent, Ergasheva Ch.E.

MUSIQA ILMINING FIDOIYSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, musiqashunos olima Chinora Ergashevaning ilmiy va pedagogik faoliyati yoritilgan. U o‘zbek musiqasi tarixi va nazariyasi, maqom san’ati hamda nazira an’analari bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, milliy musiqa merosini o‘rganish va targ‘ib etishga katta hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, u ustoz-shogird an’anasiga asoslangan holda, yosh musiqashunoslarni yetishtirishga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: Chinora Ergasheva, musiqashunos, o‘zbek musiqasi tarixi, maqom, nazira, pedagogika, ilm, metod, ustoz-shogird, ilmiy tadqiqot.

Аннотация: В данной статье рассматривается научная и педагогическая деятельность доцента Узбекской государственной консерватории, музыковеда Чиноры Эргашевой. Она занимается исследованиями в области истории и теории узбекской музыки, макомного искусства и традиций назиры, внося значительный вклад в изучение и популяризацию национального музыкального наследия. Кроме того, уделяет особое внимание подготовке молодых музыковедов, основываясь на традициях системы “учитель-ученик”.

Ключевые слова: Чинора Эргашева, музыковедение, история узбекской музыки, маком, назира, педагогика, наука, метод, учитель-ученик, научное исследование.

O‘zbekiston madaniyati va san’ati rivojida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib kelayotgan ayol ijodkorlarning, ayniqsa, musiqashunos olimalarning

o‘rni beqiyosdir. O‘zbek va sharq mamlakatlari xalq musiqa san’atini tarixi va nazariyasi bilan bog‘liq ma’lumotlarni hamda xalq va mumtoz musiqa ijodiyotini janr va ijrochilik bilan bog‘liq barcha xarakterli xususiyatlarini o‘rganish, bilish, izlanish bilan bog‘liq bilimlar shakli sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Bir qator musiqashunos olimalarimiz, jumladan, S.Galitskaya, N.Kokulyanskaya, S.Xisamova, S.Matyakubova, O.Azimova, N.Xoshimova, S.Zakrjevskaya, V.Shapkunova, F.Muxtarova, Sh.Ibragimova, I.Mirtalipovalarning tadqiqotlari va maqolalarida O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida va musiqashunoslikda muhim deb sanalgan muammolar va ularga yechimlar o‘z aksini topgan.

O‘zbek va sharq xalqlari musiqa madaniyatiga bog‘liq bo‘lgan barcha musiqashunoslik muammolari “O‘zbek musiqa tarixi” kafedrasining ahamiyatga molik bo‘lgan asosiy faoliyat vazifasi hisoblanib, ko‘p yillar davomida kafedraning ijodiy jamoasi musiqiy merosni tadqiq etish, ilmiy salohiyatni o‘stirish, sharq musiqa madaniyatini, ilmiy manbalarni o‘rganish, o‘zbek mumtoz va xalq musiqasi yutuqlarini munosib targ‘ib etish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqdalar.

Kafedrada faoliyat olib borgan har bir o‘qituvchi o‘zining ilmiy tadqiqotlaridagi yo‘nalishi bilan bir qatorda, o‘zbek musiqa merosi bilan bog‘liq bir qator musiqiy-nazariy yo‘nalishlarda izlanishlar olib bormoqdalar. Ayni paytda, Ch.Ergasheva, Sh.Ayxadjayeva, M.A’zamova, L.Jo‘rayeva, N.Karimova va boshqalar musiqa ijodiyoti masalalarini hal etishda samarali faoliyat yuritishmoqda.

Shunday iste’dodli va izlanuvchan musiqashunos olima, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ergasheva Chinora Ergash qizi ilk musiqiy sabog‘ini R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida oladi.

Musiqiy-nazariy fanlar tarixi, tahlili, ijrochilik va bastakorlikka bo‘lgan ilmiy qiziqishi uni musiqashunoslik yo‘nalishiga kirib kelishiga turtki bo‘ladi. Shuningdek, tajriba va chuqur tushuncha, tadqiqot va yozish qobiliyati, madaniy va tarixiy qiziqish, amaliy tajribani ilm bilan bog‘lash istagi, musiqani chuqur tahlil qilish, turli janrlarni, uslublarni va kompozitorlik texnikalarini o‘rganish istagi kabi omillarni har biri yoki bir nechtasi birgalikda jamlanib, olimamizni musiqashunoslikka bo‘lgan qiziqishini oshirib, ushbu sohaga yetakladi.

1998-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasini “Musiqashunoslik mutaxassisligi” bo‘yicha professor To‘xtasin G‘ofurbekov sinfida imtiyozli diplom bilan tamomlaydi. Doktorantura bosqichida esa san’atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimovdan tahsil oladi. Ana shunday yetuk va tajribali ustozlardan olgan bilimi unga musiqashunoslikdagi asosiy yo‘nalishi, ya’ni o‘zbek musiqasi tarixi va nazariyasi bo‘yicha bir qancha ilmiy ish va tadqiqotlarning muallifligiga sazovor etdi.

Ch.Ergasheva o‘zining professional mehnat faoliyatini 1998-yilda o‘zi tahsil olgan maktab ya’ni Toshkent shahridagi R.Glier nomidagi Respublika

ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida musiqiy-nazariy fanlar o‘qituvchisi sifatida boshlaydi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston davlat konservatoriyasidagi samarali faoliyatini 2005-yildan konservatoriyaning “Musiqiy sharqshunoslik” kafedrasida avvaliga o‘rindosh, keyinchalik katta o‘qituvchi lavozimida ishlashdan boshlaydi.

Ch.Ergasheva ish faoliyati davomida “O‘zbek musiqa tarixi”, “Notalashtirish”, “Xalq musiqa ijodi”, “An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari”, “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi”, “Musiqashunoslik asoslari” kabi fanlardan saboq berib kelmoqda. U asosan o‘zbek musiqasi tarixi va nazariyasi bo‘yicha tadqiqot olib borib, o‘zbek an’anaviy musiqasi va bastakorlik ijodiyotida nazira estetikasining ahamiyati va muhim o‘rni haqida o‘zining bir nechta maqolalari va ilmiy ishlarida aks ettirdi. 2022-yilda yozilgan “O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an’analari” nomli monografiyasida o‘zbek an’anaviy mumtoz musiqasida asriy an’anaga ega bo‘lgan nazira estetikasining bastakorlik ijodiyoti, musiqa ilmi va ijrochilik san’atida namoyon bo‘lish shakllari tadqiq qilinadi. [1.]Shu qatorda 2024-yilda yozilgan “История и теория узбекского макома” nomli o‘quv qo‘llanmasi, “Toshkent Ushshog‘i”, “Shashmaqomda Ushshoq naziralar”, “Ustoz-shogird tizimida nazirachilik an’anasining o‘rni”, “Ijrochilik payrovlari”, “О традиции назира в музыке”, “The Concept of Variant-Invariant Match in Uzbek Folk Music”, “Maqom uslubidagi Ushshoq tavrlari”, “Sharq allomalarining risolalarida musiqa tarixi va nazariyasiga doir masalalar” nomli ilmiy-uslubiy maqolalari ham shular jumlasidandir. Ch.Ergasheva ilmiy-ijodiy, pedagogik faoliyati davomida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) yoqlab, “Musiqa”, “Проблемы современной науки и образования” jurnallari va ilmiy to‘plamlarda maqolalari chop etilgan.

Musiqashunos Ch.Ergasheva o‘z pedagogik faoliyati davomida bir qancha shogirdlarni yetishib chiqarmoqda. U o‘zining ta’lim uslubi, professionallik darajasi, ijodiy izlanuvchanligi, adolatparvarligi bilan hamkasblari va talabalar orasida yuksak hurmatga ega. Hozirgi kunda Ch.Ergashevaning sinfida 15 ta bakalavriat talabasi, 11 ta magistrant va 3 ta doktorant mutaxassislikdan tahsil olmoqda.

O‘z shogirdlari bilan ishlashda Chinora Ergasheva bir qancha metodlardan foydalanadi. Avvalo talabalarning qiziqishidan kelib chiqqan holda ma’lum bir yo‘nalish tanlanib, shu bo‘yicha izlanishlar olib boriladi. Jumladan, ma’lum bir davr musiqasini tadqiq qilish, musiqiy manbalar, qo‘lyozmalar, yozma va og‘zaki meros, maqom, xalq qo‘shiqlari yoki bastakorlik an’analarining kelib chiqish tarixini tahlil qilishda tarixiy-metodik yondashuvni, asarlarning tuzilishi, ohanglari, ritmik xususiyatlari, musiqiy shakl va uslublarni tahlil qilish uchun nota yozuvlari va audio yozuvlarni tekshirib, kompozitorlik texnikasi va ijrochilik uslublarini tadqiq qilishda tahliliy-metodik yondashuvni, turli hududlarga mansub musiqa yo‘nalishlarini bir-biri bilan solishtirish, milliy va jahon musiqasidagi o‘xshashlik va farqlarni tahlil qilish, o‘zbek mumtoz musiqasi va boshqa xalqlarning musiqiy janrlarini taqqoslashda komparativ (taqqoslash) metodini,

musiqa bilan bog‘liq hujjatlar, san’atshunoslik asarlari, arxiv manbalarni tahlil qilish, ilmiy ishni asoslash uchun tarixiy yozuvlar, maqolalar va tadqiqot ishlarini o‘rganishda statistik va arxiv ma’lumotlar bilan ishlash metodini, o‘z davrining mashhur bastakorlari, ijrochilar va ustoz musiqashunoslar bilan suhbat o‘tkazib, ilmiy ma’lumot yig‘ishda intervyu va so‘rov kabi metodlarni birgalikda yoki alohida holda qo‘llaydi. “Men o‘z talabalarim bilan ishlashda o‘z ustozlarimning ham bir qancha metodlaridan foydalanaman va bular ancha samarali ta’sirini ko‘rsatadi”, – deydi Ch. Ergasheva.[2. suhbat]

Hozirgi kunda Chinora Ergasheva qo‘lida Yulduz Xusnitdinova, Farrux Akramov, Alibek Malikov, Zavqiddin Shukurov, Marjona Sultonova va Muslima Baxtiyorovalardek bir nechta iste’dodli talabalar tahsil olishmoqda. Ularning har biri turli mavzu va yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borib, Yulduz Xusnitdinova – “Xor san’ati: ijod va ijro” nomli doktorlik dessertatsiyasi, Zavqiddin Shukurov – “Mustafo Bafoyev ijodida maqom an’analari” nomli magistr darajasini olish uchun ilmiy ishi, Marjona Sultonova - “XXI asr kompozitorlik ijodiyoti yosh kompozitor Sherzod Sobirov ijodiy faoliyati misolida” nomli bitiruv malakaviy ishining mavzulari bo‘yicha ilmiy rahbarining ko‘rsatmalari asosida ish olib bormoqdalar.

O‘zbekiston musiqashunosligida ayol olimalar milliy musiqamizni o‘rganish va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynab kelmoqdalar. Ular orasida nazira an’analari, maqom san’ati va xalq musiqasi kabi sohalarda tadqiqotlar olib borib, o‘zbek musiqasining boy merosini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar ham mavjud. Afsuski, mavjud manbalardan O‘zbekiston ayol musiqashunoslari haqida batafsil ma‘lumotlar kam va shu sababli ushbu sohada faoliyat yuritgan ayol olimalarning ishlarini yoritish va ularning hissasini kengroq o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda o‘zbek milliy musiqasini o‘rganish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, musiqashunoslik va madaniy tadqiqotlar borasida ustozim Ch.Ergasheva ilmiy merosining ahamiyati katta.

Chinora Ergasheva o‘zbek musiqashunosligi rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan olimalardan biridir. Uning tadqiqotlari milliy musiqa tarixi va nazariyasini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, maqom san’ati va nazira an’analari bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar beradi. Pedagog sifatida u yosh musiqashunoslarni tarbiyalashda, ilmiy izlanishlar olib borishda va an’anaviy musiqani targ‘ib qilishda katta rol o‘ynamoqda. Ergashevaning ilmiy-ijodiy faoliyati o‘zbek musiqa ilmining kelajak avlod uchun ham muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergasheva Ch. O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an’analar. – Toshkent: “Musiqa”, 2022.
2. Ergasheva Ch. 27.02.2025. Musiqashunos bilan suhbatdan.
3. Ibrohimov O. Maqom asoslari. – Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2018.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



SURABOV YODGORBEK
FAYZULLA O‘G‘LI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg’ulashtirish”
kafedrasi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi,
Sobirov Sh.S.
Ilmiy maslahatchi: professor, s.f.n.,
Matyakubova S.K.

HALIMA NOSIROVA IJROSIDA TANOVAR TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq artisti Halima Nosirovaning tanavor kuyini ijro etish mahorati tahlil qilinadi. Xonandaning ovoz diapazoni, ifodaviy uslubi va tanavor janriga bo‘lgan yondashuvi uning san’atimizdagi alohida o‘rnini belgilaydi. Shu bilan birgalikda Nosirovaning ijro uslubi, uning ovoz boshqarish mahorati, ritmik o‘zgarishlarga bo‘lgan e’tibori va qo‘shiq matniga bergan hissiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, uning tanavor janridagi ijrosi milliy musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi nuqtai nazaridan baholanadi. Ushbu tadqiqot Halima Nosirovaning ijodiy merosini o‘rganish va o‘zbek musiqasining ifodaviy imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Halima Nosirova, Tanavor, “Qora sochim”, xalq qo‘shiqlari, ijrochilik uslubi, ovoz diapazoni, ifodaviylik, ritmik o‘zgarishlar, musiqiy meros.

Аннотация: В данной статье анализируется мастерство исполнения танавора народной артисткой Узбекистана Халимой Носировой. Её вокальный диапазон, выразительный стиль и подход к жанру танавор определяют её особое место в узбекском музыкальном искусстве. Кроме того, рассматриваются исполнительские особенности Носировой, её техника владения голосом, внимание к ритмическим изменениям и эмоциональная интерпретация текстов песен. Также оценивается её вклад в развитие жанра танавор с точки зрения его значения для национального музыкального искусства. Данное исследование способствует изучению

творческого наследия Халимы Носировой и осмыслению выразительных возможностей узбекской музыки.

Ключевые слова: Халима Носирова, танавор, “Кора сочим”, народные песни, исполнительский стиль, вокальный диапазон, выразительность, ритмические изменения, музыкальное наследие.

O‘zbek musiqa madaniyatida o‘ziga xos ovozi va ijrochilik mahorati bilan ajralib turgan Halima Nosirova san’atimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning ijodida akademik va shu bilan bir qatorda an’anaviy qo‘shiqchlik janrlari ham uyg’ulashib muhim o‘rin egallagan.

Halima Nosirova XX asrning eng mashhur o‘zbek opera xonandalaridan biri bo‘lib, u O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. Uning ovozi lirik-dramatik soprano bo‘lib, kuchli, hissiyotga boy va ifoda imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turgan. H. Nosirovaning ijodi O‘zbekiston opera san’atining shakllanishida muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, u xalq qo‘shiqlari va an’anaviy kuylarni ham maromiga yetkazib ijro etgan. Shu qatorda, musiqa san’atida akademik va an’anaviy uslubning mohir ijrochisi Halima Nosirova “Qora sochim”ning betakror ijro namunasini yaratdi.

O‘tmishda xalq orasida keng ommalashib, eng nufuzli san’at namunalari qatoridan joy olib kelgan asarlarning ijrochilari ham taniqli san’atkorlardir. “Tanavor”larni me’yoriga yetkazib ijro etgan san’atkorlar xalq orasida tez tanilganlar, ularni hattoki, “Tanavor”lar nomi bilan atash ham urfga kirgan yoki ismlariga “Tanavor” qo‘shimcha qilib aytilgan.

Tanavor janri esa xalq orasida keng tarqalgan, asosan jo‘shqin kayfiyatda ijro etiladigan raqs qo‘shiq janridir. U ritmik jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, raqs harakatlariga mos keluvchi tezkor va jo‘shqin uslubga ega. Halima Nosirova o‘zining kuchli ovozi va dramatik talqini bilan tanavor ijrochiligida ham yuksak mahorat namoyon qilgan.

Tanavor kuylarida kuy va she’r uyg‘unligi, jo‘shqin ritm va ifodaviy ijro asosiy o‘rin tutadi. Ushbu janrni ijro etishda xonandaning ovoz diapazoni, nafas nazorati va so‘zlarga beriladigan urg‘u katta ahamiyatga ega.

Halima Nosirovaning tanavor kuylarini ijro etishidagi o‘ziga xoslik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ovozni chuqur his bilan boshqarish

• Nosirova tanavor kuyini ijro etishda ovoz diapazonidan maksimal darajada foydalangan. U past notalarda mayin va jozibali ohang yaratgan bo‘lsa, baland notalarda kuchli va jo‘shqin ifoda usulini qo‘llagan.

• Ovozni tabiiy va erkin harakatlantirib, tanavorning ritmik tuzilishiga mos ravishda to‘g‘ri pauza va urg‘ular bergan.

2. Matn va kuy uyg‘unligini ta’minlash

• Tanavor kuyida so‘zning hissiy ifodasi va uning musiqiy oqimi juda muhim hisoblanadi. Nosirova har bir satrning mazmuniga mos ohang tanlab, so‘zlarni dramatik yoki lirik ruhda yetkazgan.

• Uning ijrosida she’riy matn nafaqat kuyni bezatuvchi omil, balki musiqiy hissiyotning ajralmas qismi sifatida gavdalanadi.

3. Ritmik erkinlik va jo‘shqinlik

• Tanavorning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – ritmik murakkablik bo‘lib, u raqs harakatlariga mos keluvchi jo‘shqin tuzilishga ega. Halima Nosirova ushbu ritmik murakkablikni o‘z ovozi bilan ustalik bilan boshqargan.

• Ba’zan u tempni o‘zgartirib, tezlashish yoki sekinlashish orqali ifodaviylikni kuchaytirgan. Bu esa uning ijrosiga jonlilik va tabiiylik baxsh etgan.

4. Ijroning ifodaviyligi va ta’sirchanligi

• Halima Nosirova opera sahnasida o‘sgan san’atkor sifatida ijrosiga dramatik unsurlarni kiritishni yaxshi bilgan. Uning tanavor ijrosida ham shunga o‘xshash yondashuv kuzatilgan – u nafaqat kuyni, balki undagi har bir satrni jonlantirib, tomoshabinga his qilish imkonini bergan.

Halima Nosirova ijrochiligi o‘zbek milliy san’atining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat opera sahnalarida, balki xalq musiqasini targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynagan. Uning ijrosi orqali tanavor janri sahna san’atida yanada ommalashgan va jozibador tus olgan. Bugungi kunda ham uning yozib olingan ijrolari yosh san’atkorlar uchun o‘rganish manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalq orasida mashhur bo‘lgan “Qora sochim” namunasi ilk bor mashhur kompozitor A. Kozlovskiy tomonidan Halima Nosirova ijrosida yozib olinib, uni notaga tushiradi. Va aynan shu namuna O‘zbekistonda faoliyat olib borgan, o‘zbek xalq musiqasini o‘rganish, yozib olish, notalashtirish va tadqiq etishga munosib hissa qo‘shgan Ye. Romanovskayaning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. “Qora sochim”ning Halima Nosirova ijrosidagi nota namunasi asosiy manba sifatida olinadi. Aynan shu ijroning tahlili quyidagichadir:

“Qora sochim” asari “Tanavor” nomi bilan yuritilayotgan asarlarning ilk namunasidir. U frigiy tabiiy ladiga asoslangan, metro-ritmik asosi “zarbul qadim” usulida:



Asarning tarkibiy jihatdan shakli quyidagi jadvalga[22] kiritildi:

Bo‘limlarning kompozitsion funktsiyasi	**Ekspozitsion**	**O‘rta**	**Yakunlov-chi**

[22] Ushbu jadval O‘zDK professori S. K. Matyakubovaning “Maqom solfedjiosi” (II-qism) kitobida keltirilgan jadvalga asoslanib tayyorlandi.

Bo‘liml arning sonlar bilan ko‘rsatilishi	1		2		3		4		5		6		7
Musiqiy tuzilmalar(ich ki tartibni harf bilan belgilab			+e		+e	1	+e			+e	+e	1	Furovard (g+e+b^1)
Tuzilma larning boshlanish pardasi	1	s^1	1	s^1	2	s^1	2	s^1	1	1	1	s^1	d^2
O‘zgaru vchan tayanch tovushlar	f^1		1 1	1		1		1		2- c 2	1- f^1	1	f^1
Yakunl ovchi tayanch	d 1		d 1		d^1		d 1		a 1		d 1		d^1
Tovush ko‘lami	d ^{1}-f^1		^{1}-h^1	^{1}-f^1	^{1}-d^2	^{1}-f^1	^{1}-d^2	^{1}-f^1	1- c^2	^{1}-f^2	^{1}-h^1	^{1}-f^1	d^1-f^2
Taktlar miqdori			+2		+2		+2			+4	+1		4+5
O‘lchov	4/8												
Sur’at	Andantino con moto / ♩ = 80												

Oddiy ashula desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Diapazon jihatidan detsima intervalini o‘z ichiga oladi.

Asarning ohang o‘zagi birinchi to‘rt taktda ifodasini topgan bo‘lib, nafaqat ushbu namuna, balki “Tanavor”larning barchasiga mavzu manbai sifatida xizmat qilgan.

Asarning asosiy tarkibiy unsurlari:

1. d-frigiy ladi.
2. ♩ = 80 sur’atda.
3. Davomiyligi 52 takt.
4. So‘z matni ikki misradan iborat (№1 Tanavor kabi so‘z matni o‘zgarmaydi) – “Qora sochim”. “Tanavor”ni asl namunasi nisbatan maqsadli. Bunda qaytariladigan kuy bo‘laklari nisbatan kam. Ammo frigiy mezoni ko‘proq musiqiy ehtirosni (hayajon)ni ifodalashga harakat qilgandek. Aslida esa bu omil

II pasaytirilgan bosqichni qayd etish uchun emas, balki barcha kuy bo‘laklarida ladning turg‘un bosqichini boshqalariga nisbatan yuqori qo‘yishdir. Shunday bo‘lsa-da, pastga harakatlanadigan frigiy sekundlari vaqtga nisbatan, ularni qaytarilib turishlari va to‘xtashlari, qisqa kuychalari ham cho‘ziqroq tuyuladi. Qoida bo‘yicha ikkinchi melodik ohanglar badihago‘ylik (improvizatsiya) qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar beradi.

Halima Nosirova talqinidagi “Qora sochim” xalq qo‘shig‘i asosida kompozitor A. Kozlovskiy 1937 yili “Tanavor” simfonik poemasini yaratdi. A. Kozlovskiy “Qora sochim” xalq qo‘shig‘ini yozib olib, qo‘shiqning kuy yo‘lini aynan Halima Nosirova ijro etgan talqinida saqlab qolgan. Kompozitorning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan murojaati muvaffaqiyali bo‘lib, keyinchalik Halima Nosirova uchun poemaga ovoz yo‘lini yozib beradi. Asar dasturli bo‘lib, unda ayol qalbining fig‘oni, ayriliq, mehr-muhabbati va sadoqati aks etgan.

Halima Nosirovaning tanavor kuylarini ijro etish uslubi uning yuksak mahorati va musiqiy didining yorqin ifodasi bo‘lib, bu janrga o‘ziga xos talqin kiritdi. Uning ovozi, dramatik ifoda uslubi va kuyga berilgan joziba tanavor janrini nafaqat an’anaviy, balki professional sahna san’ati darajasida ham yuksak pog‘onaga olib chiqdi. Bugungi kunda ham uning ijrosi milliy san’atimizning bebaho merosi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимова А.Н. Музыкальная форма ашула (системно-типологический анализ). -Т.: “Фан”, 1979.
2. Вызго Т. С. Алексей Козловский. -М.: “Музыка” 1966.
3. Гафурбеков Т.Б. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. Т., 1984.
4. Кароматов Ф.М. О локальных стилях узбекской народной музыки // Музыка народов Азии и Африки. Вып.1. -М.: 1959.
5. Romanovskaya Ye.Ye. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. I t. –T.: “Uzmuzgiz”, 1939.
6. Романовская Е.Е. Статьи и доклады записи музыкального фольклора. -Т.: 1957.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



TURSUNALIYEVA NAVRO‘ZA
KARIMJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqa tarixi” kafedrasi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: v.b. professori, s.f.n.
Ayxodjayeva Sh.I.

MUSIQASHUNOS-OLIMA FLORA MUXTAROVANING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqashunos olima, san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Flora Shoahmedovna Muxtarovaning ilmiy-pedagogik faoliyati, musiqashunoslik, xususan polifoniya sohasidagi tadqiqotlari, yetuk ustozlar qo‘lida shakllangan bilim va ko‘nikmalari, shuningdek, ilmiy izlanishlari va dissertatsiya himoyasi jarayonlari imkonqadar atroflicha yoritiladi. Shuningdek, “Polifoniya” fanlarini o‘qitish uslublari, talabalarga ilmiy rahbarlik qilish tajribasi hamda yaratgan o‘quv qo‘llanma va darsliklari, ilmiy tadqiqotlari va ularning musiqa ta’limidagi o‘rni ahamiyati haqida ham so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqashunoslik, ilmiy faoliyat, pedagogika, Flora Shoahmedovna Muxtarova, yondashuv, metodika, ta’lim.

Аннотация: В данной статье подробно освещается научно-педагогическая деятельность музыковеда, кандидата искусствоведения, профессора Флоры Шоахмедовны Мухтаровой, ее знания и навыки, сформированные у опытных преподавателей, исследования в области музыковедения, а также некоторые вопросы, связанные с зашитой диссертации. Обсуждаются также методы преподавания предметов “Полифония”, опыт научного руководства студентами, а также созданные ею учебники, учебные пособия, а также научные труды и их роль и значение в музыкальном образовании.

Ключевые слова: музыковедение, научная деятельность, педагогика, Флора Шоахмедовна Мухтарова, подход, методика, образование.

Jamiyat taraqqiyoti yosh avlodning bilim saviyasi va ma’naviy kamolotiga bog‘liq. Insonda ahloqiy va ma’naviy qadriyatlar bolalikdan shakllansa-da, shaxs va mutaxassis sifatida yetuklikka erishishda ta’lim muassasalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, musiqiy ijodkorlik yo‘nalishida kasbiy kamolotga erishish jarayoni ko‘p bosqichli bo‘lib, unda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muhim ahamiyat kasb etgani holda, konservatoriya bosqichi yetuk mutaxassisni tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi. Musiqachi nafaqat ijrochi, balki tadqiqotchi va pedagog sifatida ham rivojlanishi zarur. Uning kasbiy tayyorgarligi nafaqat texnik mahorat, balki musiqiy tafakkur, san’atni tahlil qilish va talqin etish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Pedagog esa shogirdlariga nafaqat bilim, balki ma’naviy ko‘mak ham bera olishi, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yo‘l ko‘rsatishi kerak.

Musiqashunoslik sohasida mutaxassislar turli yo‘nalishlarga moyillik bildiradi: ayrimlari ilmiy izlanishlarga, boshqalari pedagogik faoliyatga e’tibor qaratadi, ba’zilari esa har ikkisini uyg‘un olib boradi. Yetuk darajadagi pedagog esa musiqachi, olim va murabbiy fazilatlarini birlashtirib, nafaqat kasbiy bilimlarni yetkazishi, balki o‘z shogirdlarining ma’naviy shakllanishiga ham hissa qo‘shishi lozim. San’atshunoslik fanlar nomzodi, professor Flora Shoaxmedovna Muxtarova aynan shunday pedagoglardan biri bo‘lib, u chuqur tahliliy tafakkuri, ilmiy izlanishlari, pedagogik mahorati va insoniy fazilatlari bilan shogirdlariga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan. Uning pedagogik yondashuvi nafaqat kasbiy mahorat, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantirishga xizmat qilgan bo‘lib, musiqiy ta’lim jarayonida o‘rnak sifatida ko‘zga tashlanadi.

F.Muxtarovaning musiqaga qiziqishi bolaligidan namoyon bo‘lib, u ilk ta’limni fortepiano mutaxassisligi bo‘yicha V.Uspenskiy nomidagi Respublika musiqa maktabida olgan. 9-sinfdan boshlab garmoniya, musiqa asarlari tahlili, solfedjio fanlariga katta qiziqish ko‘rsatdi. V.Uspenskiy nomidagi Respublika musiqa maktabidagi musiqiy-nazariy fanlar o‘qituvchilari unga nisbatan shunday fikrlarni bildirganlar: “U doimo garmoniya darslarida masalalarni bajarganda nafaqat qat’iy qoidaga asoslangan, balki o‘zining ijodiy yondashuvini namoyon etib, noodatiy va qiziqarli namunalarni bastalar edi. Asarlarni garmonik va shakl jihatdan tahlil qilish jarayonida u fikrining kengligi va chuqurligi bilan ajralib turar, kichik va nozik detallariga e’tibor qaratib, o‘zining individual, orginal xulosalarini izohlab, asoslab berardi”. Shu sababli, barcha o‘qituvchilar uning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyati alohida ta’kidlab unga “Musiqashunoslik” yo‘nalishini davom ettirishni tavsiya etishgan. Natijada, u 1964-yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga o‘qishga qabul qilindi. O‘qish davomida esa juda kuchli ustozlardan saboq oldi. Ular orasida Sabina Arturovna Zakrjevskaya, Yuliya Vol’fovna Kats, Savolina Paisyevna Galitskaya, Irina Nikolaevna Karelova, Arkadiy Yakovlevich Koral’skiy, Ol’ga Sergeevna Polikarpova, Feliks Markovich Yanov-Yanovskiy kabi professor mutaxassislar ishlar edi. Mutaxassislik bo‘yicha professor Zakrjevskaya Sabina Arturovna rahbarligi ostidagi sinfda tahsil olgan. F.Muxtarova o‘zining ustozlari orasida Sabina Arturovnani alohida hurmat bilan tilga oladi. Unga ko‘ra, bu ustoz ayniqsa, mantiqiy tafakkurni shakllantirish, ketma-ketlik, izchilik materialni bayon etish

va tizimli yondashuvni o‘rgatishda muhim rol o‘ynagan. Sabina Arturovna nafaqat musiqiy-nazariy fanlardan, balki boshqa, turli xildagi yo‘nalishlar bo‘yicha ham chuqur bilim bergan. Flora Shoahmedovna har doim ustozining bilimlarini yuksak qadrlagan va unga o‘xshashga intilgan.

U o‘qigan “Musiqa nazariyasi” kafedrasi nihoyatda qat’iy, jiddiy va ijodiy muhit bilan ajralib turar edi. Ushbu kafedraning akademik, ilmiy muhiti va an’analarini o‘ziga singdirdi va o‘zining shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

Konservatoriyada tahsil olgan vaqtda har yili yoz faslida 5-bosqichning a’lochi talabalari amaliyotga yuborish an’anasi mavjud edi. Ular orasida 5-bosqichda tahsil olgan musiqashunos talabalar F.Muxtarova va N.Axmedxo‘jayeva Moskva atrofidagi Klin shahrida joylashgan P.Chaykovskiy nomidagi uy-muzeyga amaliyotga jo‘natildi. Mazkur amaliyot ikki yo‘nalishda olib borildi: 1) Ekskursiyalarni o‘tkazish. 2) P.Chaykovskiyning qo‘lyozma arxiv materiallari bilan ishlash va uning natijasida ilmiy ish yozish.

Shunga ko‘ra, ilmiy ish sifatida uy-muzey arxivida saqlanayotgan P.I.Chaykovskiyning qo‘lyozmalarini o‘rganish vazifasi topshirilgan. F.Muxtarovaga kompozitorning bir nechta romanslarini tahlil qilish vazifasi yuklatildi. Ushbu asarni chuqur o‘rganish jarayonida uning yaratilish sabablari, muallif tomonidan muayyan belgilangan joylarining o‘chirilishi, o‘zgartirilishi yoki yangi variantlarni kiritilishi ortida kompozitorning qanday maqsadi, xohishi aniq narsaga erishilishi kabi masalalarni tahlil qilish hamda ularni asoslab berishdan iborat edi. Olima buni yorqin taassurotlar bilan shunday eslaydi: “Bu ilmiy izlanish men uchun nihoyatda qiziqarli bo‘ldi va P.Chaykovskiyning ijodiy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini berdi” [23]

1969-yilda O‘zbekiston davlat konservatoriyasini muvaffaqiyatli tamomlagach, shu yildan boshlab “Musiqa nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchi sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Ushbu kafedrada uzoq yillar samarali faoliyat yuritib, ilmiy va pedagogik sohalarda yuksak natijalarga erishdi. Ilmiy va pedagogik faoliyatini davom ettirish bilan birga, aspiranturada tahsil oldi. Olima aspirantura bosqichini “Фуга в творчестве композиторов Узбекистана” mavzusidagi dissertatsiyani bilan muvaffaqiyatli yakunlaydi. So‘ngra u 1969-1977 yillar davomida “Musiqa nazariyasi” kafedrasida o‘qituvchi lavozimida ishlagan bo‘lsa, 1977-yildan boshlab katta o‘qituvchi sifatida faoliyatini davom ettirdi. 1982-yilda Leniningrad konservatoriyasida “Фуга в творчестве композиторов Узбекистана” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Dissertatsiya himoyasida taniqli musiqashunos Yu. Kon opponent sifatida ishtirok etib, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va polifoniya shakllarining tahlilini yuqori baholaydi. U o‘z fikrida: “Siz faktura bilan bog‘liq bo‘lgan nafaqat barcha tomonlarni mukammal ochib berdingiz, balki ko‘plab qiziqarli va yangi tamoyillarni topgansiz. Eng asosiysi - o‘zingizning yangi yondashuvingizni ochib, asoslab berdingiz. Shu bois, men doktorlik dissertatsiyangizni aynan faktura mavzusiga bag‘ishlab yozishingizni tavsiya etar edim ”, - deya ta’kidlaydi.

[23] F.Muxtarova bilan bevosita suhbatdan, 11.03.2025.

1988-yilda tajribali pedagog F.Muxtarova dotsent unvoniga ega bo‘ladi. 1996-yildan 2014-yilgacha esa “Musiqa nazariyasi” kafedrasiga mudirlik qilib, mazkur davrda yuqori malakali mutaxassis sifatida o‘zini namoyon etdi. Bu jarayonda u nafaqat ilmiy va pedagogik faoliyatni rivojlantirishga, balki kafedraning umumiy tashkiliy hamda metodik ishlarini takomillashtirishga ham katta e’tibor qaratdi. Mudir sifatida qat’iyatli, mas’uliyatli va adolatli bo‘lish bilan birga, o‘z ishiga fidoyi va jonkuyar rahbar sifatida faoliyat olib bordi. Kafedra rahbari sifatida, F.Muxtarovaning birgina asosiy va muhim maqsadlari haqida shunday deydi: “Kafedrani yosh kadrlar bilan to‘ldirish edi. Yosh, iste’dodli, mehnatkash va salohiyatli mutaxassislarni jalb etishni xohlar edim. Shu maqsadda ularning ko‘pchiligini ta’lim jarayonida kuzatdim. Shuningdek, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, xususan konservatoriya huzuridagi litseyiga professional, iqtidorli, istiqbolli pedagoglarni ishlashga jalb qilib, ularning faoliyatini kuzatdim hamda nazorat qildim. Natijada, ularning orasidan eng munosiblarini tanlab, “Musiqa nazariyasi” kafedrasida ishlashini tavsiya etdim”.[24]

Keyinchalik, 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan professor unvoni tasdiqlandi va hozirgi kungacha O‘zbekiston davlat konservatoriyasida professor lavozimida faoliyat olib bormoqda. Ushbu davr mobaynida u nafaqat yosh musiqashunos va kompozitorlarni tayyorlashga katta hissa qo‘shdi, balki ilmiy izlanishlari orqali musiqa nazariyasi sohasida muhim tadqiqotlarni amalga oshirdi.

F.Sh.Muxtarova musiqa nazariyasi sohasida yuqori malakali mutaxassis sifatida bakalavriat va magistratura bosqichida musiqashunoslik yo‘nalishi bo‘yicha “Polifoniya” kursini o‘zbek va rus tillarida o‘qitib kelmoqda. Shuningdek, magistratura bosqichida tahsil olayotgan kompozitorlar, musiqashunoslar va ijrochilar uchun “Zamonaviy polifoniya” kursini olib borib, ularning ilmiy-nazariy tayyorgarligini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, BMI, magistrlik dissertatsiyalari va doktorantura (PhD) tadqiqotlarida ilmiy rahbarlik qilib, ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonida faol ishtirok etib kelmoqda. Olima o‘zining samarali pedagogik faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar yetishtirib, ularning ilmiy va ijodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning shogirdlari orasidan Mushtariy Boysunova, Nargiza Tursunova, Xilola Xamidullaeva, Madina Yusupova, Nazira Abdullayeva, Natal’ya Nikolayevna va ko‘plab iste’dodli mutaxassislar yetishib chiqqan. “Siz tarbiyalagan shogirdlarning qaysi jihatlari sizni eng ko‘p quvontiradi?”, - degan savolga ustoz: “Ularning chuqur bilimga ega ekanligi, ilmiy izlanishlarga bo‘lgan yuksak qiziqishi va ijodiy izlanishlar bilan muntazam shug‘ullanishi hamda yuksak insoniy fazilatlari”[25], - deya javob berdi.

Professor F.Sh.Muxtarova polifoniya fanini o‘qitishda chuqur nazariy bilimlar bilan amaliy tajribani uyg‘unlashtirgan holda o‘ziga xos metodik yondashuvni shakllantirgan. Uning pedagogik faoliyati nazariy asoslar, tarixiy

[24] F.Muxtarova bilan bevosita suhbatdan. 11.03.2025.

[25] Muxtarova F. bilan bevosita suhbatdan, 11.03.2025.

jarayonlar va musiqiy amaliyotni o‘z ichiga olgan holda, talabalar uchun o‘quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Polifoniya ta’limida uslubiga ko‘ra turli xil metodlarini qo‘llaydi: 1). qat’iy yozuv asosida mantiqiy-tahliliy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda yozma mashqlar orqali polifoniya qoidalarini o‘zlashtirish, ovozlar harakatining mustahkam intonatsion asosga qurilganligini anglash hamda musiqiy shakllarning rivojlanish bosqichlarini - ekspozitsiya, rivojlanish, kulminatsiya va yakun jarayonlarini tahlil qilish ilmiy-nazariy tayyorgarlikni chuqurlashtirishga zamin yaratadi. Bu esa nafaqat musiqiy tafakkurning rivojlanishiga, balki kompozitsion tafakkurning shakllanishiga ham asos bo‘ladi. 2) Erkin yozuv orqali ijodiy yondashuvni rivojlantirish XVII–XX asrlardagi polifonik uslublarni o‘rganish. Ushbu kursning asosiy maqsadi turli davrdagi polifonik janrlani solishtirgan holda uning umumiy va o‘ziga xosligi xususiyatlarini aniqlab va asoslab berish. Alohida ta’kidlash joizki, professor F.Muxtarova zamonaviy xususan, O‘zbekiston kompozitorlarining asarlariga katta e’tibor qaratadi. Zamonaviy polifonik kompozitsiyalari xususiyatlarini o‘rganish talabalarga o‘z ijodiy ishlarida uslubiy tajribalar o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga, polifoniya qonuniyatlarini ijodiy yo‘nalishda tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ustoz o‘zining dars jarayonlarida tahliliy va amaliy kompozitsiya usullarini uyg‘un holda olib borish orqali har bir talabani mustaqil ijod qilishga undaydi. U ayniqsa, zamonaviy musiqadagi polifonik tendensiyalarni tushunish va ularga tahliliy yondashish muhimligini ta’kidlab, XX–XXI asr musiqasidagi yangi texnikalar-seriyali, sonorli, puantilistik, aleatorika va boshqa innovatsion kompozitsion usullarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratadi. Professor F.Muxtarovaning ilmiy-uslubiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nazariyani chuqur anglamasdan amaliy ijodga to‘g‘ri yondashib bo‘lmaydi. Shuning uchun u talabalarga musiqiy shakllarni nafaqat yozma tarzda yaratish, balki ularni tahliliy jihatdan asoslab bera olish qobiliyatini shakllantirishga katta ahamiyat qaratadi.

Professor F.Sh.Muxtarova musiqiy ta’lim jarayonida talabalar uchun ilmiy-metodik asoslangan bir qator o‘quv qo‘llanmalarini nashrga tayyorlagan. U tomonidan yozilgan “Polifoniya” o‘quv qo‘llanmasi (2009) va “Polifoniya” darsligi (2017). Mazkur darslik va o‘quv qo‘llanma musiqiy oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Aytish lozimki, ushbu polifoniya faniga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar o‘zbek tilida lotin grafikasi asosida yozilgan birinchi qo‘llanmalardir. Dasturga muvofiq, ushbu qo‘llanmalar polifoniyaning to‘liq kursini o‘z ichiga oladi. Unda nafaqat nazariy materiallarni, balki tahliliy metodlarni ochib beruvchi tahliliy ocherklarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Undan tashqari, darslikda prinsipial yangi muallifning shaxsiy amaliy tajribasidan kelib chiqqan hamda ilgari musiqashunoslik adabiyotlarida umuman yoritilmagan materiallar kiritilgan.

Shuningdek, N.Sultonboyeva hammuallifligida “Solfedjio” (2016) 3-sinf bolalar musiqa va san’at maktablari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanmasi yozilgan. “Musiqashunoslik asoslari” (2018) qo‘llanmasi orqali S. Begmatov va

N. Xashimova bilan hamkorlikda musiqiy tahlil va tadqiqotga oid nazariy bilimlarni tizimli yondashuv asosida taqdim etilgan.

Professor Flora Shoaxmedovna Muxtarova “Polifoniya” sinfida ta’lim oladigan talaba sifatida shuni aytmoqchimanki: Flora Shoahmedovna pedagogik faoliyati davomida o‘z mavqeini hech qachon talabalardan ustun qo‘ymagan va ularni kamsitmagan. U bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va bilimga bo‘lgan qiziqishini susaytirishi mumkinligini bilar edi. Ustoz o‘zining adolatliligi bilan ajralib turar, hatto past baho qo‘ygan taqdirda ham, buning sababini shunday tushuntirardiki, talaba berilgan bahoning haqqoniyligini anglab, o‘z ustida ishlash zaruriyatini his qilardi. Ustoz har bir talaba bilan nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari ham muntazam ravishda individual ishlashga e’tibor qaratadi. U har doim talabalarni o‘zlariga tushunarsiz bo‘lgan masalalar bo‘yicha bemalol murojaat qilishga undaydi, ilmiy izlanish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida urg‘u beradi. Xususan, ustozning eng e’tiborga molik jihatlaridan biri - har bir talabani o‘z fikrini erkin ifoda etishga va uni asoslab berishga rag‘batlantirishidir. Unga ko‘ra, talabaning shaxsiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi va uni ilmiy asosda himoya qila olishi mamnun etardi.

Ustoz Flora Shoahmedovna Muxtarovaning muloyim, ammo qat’iyatli nigohi, sokin va teran qarashlari uning chuqur mushohada yuritish qobiliyati, sinchkov tafakkuri, samimiyligi va talabchanligini o‘zida mujassam etadi. Bu nigohlar nafaqat bilimga, balki o‘z shogirdlariga bo‘lgan mehri va fidoyiligini ham yaqqol ifodalaydi. Uning zehni, ijodiy izlanishlarga bo‘lgan cheksiz qiziqishi, ulkan ish qobiliyati va talabalariga ko‘rsatgan cheksiz g‘amxo‘rligi ko‘plab shogirdlari va hamkasblari uchun ruhiy dalda bo‘lib kelgan. Ustoz sifatida u nafaqat ilmiy bilimlarni yetkazish, balki musiqashunoslik sohasida yangi avlodni tarbiyalash yo‘lida ham sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. Ustoz shaxsining shogirdlariga ko‘rsatgan ta’siri, ularga bergan ilhomi, bilimga bo‘lgan muhabbatni uyg‘ota olishi - eng ulug‘ yutug‘idir.

Jiddiy olima sifatida u XX-XXI asrning boshlaridagi yetuk musiqashunoslar L.Mazel, V.Sukkerman, Yu.Xolopov, V.Xolopova, Yu.Kon, S.Zakrejevskaya, S.Galitskaya, Yu.Kats, N.Yanov-Yanovskaya, I.Rajabov, R.Yunusov, O.Matyoqubov, S.Matyoqubova, R.Abdullayev va boshqalarning ilmiy ishlarini o‘rganib, ularning tadqiqotlariga tayangan musiqashunoslik sohasiga, xususan, polifoniya muammolariga yangicha yondashuvni namoyon etadi. Alohida ta’kidlash joizki, u hozirgi kunda O‘zbekistonda polifoniya sohasida tadqiqot olib borayotgan yagona olimadir. Polifoniya muammolari bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy ishlar -monografiya, ilmiy maqolalar yozilgan. Uning ilmiy faoliyati nafaqat shaxsiy izlanishlarida, balki talabalar bilan ishlash jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘z tadqiqotlarida u O‘zbekistonning yetuk kompozitorlari - T.Qurbonov, R.Abdullayev, M.Tojiyev, F.Yanov-Yanovskiy hamda yosh kompozitorlarning ijodiga alohida e’tibor qaratgan.

Uning ilmiy ishlari orasida “Полифония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркменистана” ilmiy- monografiyasi alohida o‘rin tutadi. Mazkur monografiya fundamental - juda katta mehnat mahsuli

tadqiqoti bo‘lib, u polifonik shakllar va uslublarni O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kompozitorlari asarlari misolida chuqur tahlil qilinadi. Monografiyaning asosiy muammosi, yuqorida sanab o‘tilgan respublika kompozitorlik ijodida xalq va mumtoz musiqasining an’analarini aks ettirilishi bilan bog‘liq. Tadqiqot bir nechta boblardan iborat bo‘lib, quyidagi bo‘limlarni: “An’anaviy musiqadagi polifoniyaga zaminlar”, “Mavzuiylik”, “Faktura”, “Fuga”, “Polifoniyalashgan shakllar”, “Prelyudiya va fuga turkumlari” o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu ilmiy ish “Полифония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркменистана” deb nomlansa-da, uning mazmuni bundan ancha keng qamrovli ya’ni unda nafaqat polifoniya masalalari balki mavzuiylik, faktura, shakllanish jarayonlari, yangi, individual, shakllarning yuzaga kelishi ham ochib berilgan. Muhim jihatlardan biri shundaki, F.Muxtarova kompozitorlarning musiqiy asarlarni chuqur tahlil qilib, yangi va o‘ziga xos rivojlanish tamoyillarini aniqlagan. Ushbu tamoyillar Yevropa musiqasiga xos bo‘lmagan yangi shakllarni yuzaga keltirgan. Tadqiqotda, shuningdek, ushbu yangi shakllarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq maxsus atamalar va tushunchalar ham kiritilgan. Ushbu tadqiqot juda yuqori bahoga loyiq bo‘lib, nafaqat musiqashunoslar, balki ijrochilar uchun ham muhim ko‘mak sifatida xizmat qiladi. F.Muxtarovaning ilmiy-pedagogik faoliyati bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Bir tomondan ilmiy natijalari o‘quv jarayonlarida o‘z aksini topsa, ikkinchi tomondan pedagog faoliyati davomida talabalar bilan ishlash jarayonida ba’zan yangi g‘oyalari, fikrlari tug‘ilishiga turtki bo‘ladi. Professor Flora Shoahmedovna Muxtarova ana shunday buyuk shaxs bo‘lib, uning ilmiy, pedagogik ishlari va insoniy fazilatlari musiqashunoslik ilmida muhim ahamyatga ega. Uning sermazmun ijodiy faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlariga qo‘shgan hissasi va pedagog sifatidagi fidoyiligi nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar uchun ham beqiyos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. U doimo talabalariga chuqur bilim berishga intilib, ularning ijodiy va nazariy tafakkurini rivojlantirish yo‘lida tinimsiz mehnat qiladi. Ustoz sifatida o‘z bilim va tajribasini ayamasdan, har bir shogirdining kamol topishi uchun bor kuch-g‘ayratini sarflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muxtorova F. “Polifoniya”. O‘quv qo‘llanma Toshkent, 2009.
2. Muxtarova F.Polifoniya.Darslik. Toshkent, 2017.
3. Мухтарова Ф.Полифония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркменистана. Научная монография. Ташкент, 1993.
4. Мухтарова Ф.Ш. Некоторые методические аспекты в преподавании курса “Полифония” в государственной консерватории Узбекистана. “Мусика” ilmiy-uslubiy jurnali. 2023, № 2.
5. To‘plam. Ilyos Akbarovich Akbarov tavalludining 100 yilligiga. T., 2009.
6. To‘plam. Yilnoma. Zamonaviy yoshlarning musiqiy va ma’naviy dunyosi, T., 2008.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025

TURSUNBOYEV BEHZODBEK
ASQARALI O‘G‘LI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va kompozitorlik” kafedrasi
2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: professor, Abdullayeva O.U.

XXI ASR FAOL AYOL KOMPOZITORLAR FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida faol ijod etib kelayotgan ayol ijodkorlar xususida yoritiladi. Shuningdek, ularning ijodiy, ilmiy, pedagogik faoliyati borasida fikr-mulohazalar aks etadi.

Kalit so‘zlar: kompozitor, kompozitorlik mahorati, pedagog, musiqa pedagogikasi, ijod.

Аннотация: В статье рассматриваются женщины-композиторы, активно участвующие в композиторском творчестве Узбекистана XXI века. Здесь также отражены мнения об их творческой, научной и педагогической деятельности.

Ключевые слова: композитор, композиторское мастерство, учитель, музыкальная педагогика, творчество.

XXI-asr O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyoti ma’lum ijodiy yutuqlarga qo‘lga kiritib kelmoqda. Zamonamizning taraqqiyot yo‘lida barcha sohalarda ayollarning munosib o‘rni bor albatta. Shuningdek, musiqa san’ati ilmi va ijodi yo‘lida bir qator vakillarni o‘rnak sifatida aytsak arziydi. Murakkab musiqiy kasblar orasida kompozitorlik san’ati alohida o‘rin va mavqega ega. Tarixdan ma’lumki, avvaliga asosan erkak ijodkorlar musiqiy asarlar yaratishgan bo‘lsa, ma’lum muddatdan so‘ng ayollar ham bu kasbda o‘zlarining o‘rniga ega bo‘ldilar.

Kompozitorlik ijodiyotida Xildegard Bingenskaya (1098-1179), venetsiyalik kompozitor Barbara Strosti (1619-1677), Marianna Martines (1744-1812), Fanni Mendelson (1805-1847), Klara Vik Shuman (1819-1896), Dora Peyachevich (1885-1923), Sofiya Gubaydulina (1931-2025), Abe Keyko (1937), Farangiz Alizade (1947), Kayya Saariaxo (1952), Aziza Mustafazade (1969), Anna Torvaldsdottir (1977), Alma Doycher (2005) va bu nomlar yana keltirish mumkin. Ayol kompozitorlar musiqa san’atining turli janrlarida barakali ijod etib, yuksak e’tirofga sazovor bo‘lishgan.

XORIJIY AYOL KOMPOZITORLAR

			
Barbara Strosti (1619-1677)	**Marianna Martines (1744-1812)**	**Fanni Mendelson (1805-1847)**	**Klara Vik Shuman (1819-1896)**
			
Dora Peyachevich (1885-1923)	**Sofiya Gubaydulina (1931-2025)**	**Farangiz Alizade (1947)**	**Aziza Mustafazade (1969)**

O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida uyg’ur ayollaridan yetishib chiqqan ilk ayol kompozitor (marhum) Shohida Shoymardonova (1938-2020), Dilorom Saydaminova (1943), Dilorom Amanullayeva (1959), Xurshida Tursunova (Hasanova) (1967), Oydin Abdullayeva (1976), Dilnoz Kamilova (1976)larni aytib o‘tish joiz.

O‘ZBEKISTON AYOL KOMPOZITORLARI

			
Shohida Shoymardonova (1938-2020)	**Dilorom Saydaminova (1943)**	**Dilorom Amanullayeva (1959)**	**Xurshida Tursunova (Hasanova) (1967)**
			
	Oydin Abdullayeva (1976)	**Dilnoz Kamilova (1976)**	

Shohida SHOYMARDONOVA (1938-2020) – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent, kompozitor. U uyg‘ur va o‘zbek xalqlarining musiqiy merosiga tayanib, Yevropa var us klassik musiqa san’atining janr va shakl qonun-qoidalarini o‘zlashtirish orqali kompozitor sifatida shakllandi. Sh.Shormardonova uyg‘ur xalqining kasbiy musiqiy merosi 12 uyg’ur muqomlari va mahalliy kuy-qo‘shiqlar puxta bilgan muqom bilimdonlaridan edi. Umri davomida ijodkor kompozitorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan birga, uyg‘ur muqomlarini saqlash, (! “Ili muqom yozuvlari”)ni nota varoqlariga muhrlash hamda gramlappaklarga yozib olishda jonbozlik ko‘rsatgan fidoiy inson edi. Kompozitorning ijodiy bisotiga nazar tashlar ekanmiz, simfonik orkestr uchun “Simfoniyetta”[26] (aslida

[26] Kompozitor Sh.Shoymardonovaning shaxsiy arxiv hujjatlari va qo‘lyozmalarini o‘rganish asnosida ustoz ijodkor “Simfoniyetta” asari shaklan simfoniya ekanligi, buni ijodkor kamtarlik qilgan holda shunday nomda nomlagani aniqlandi. Kompozitorning qizi Dildar Islamova bilan suhbatdan. Toshkent:.2-fevral, 2025-yil.

shaklan “Simfoniya”ni eslatadi!), simfonik poema, “Tut soyasi” nomli musiqali radio spektakl va ayniqsa, 1978-yili Zulfiya so’ziga yozgan “Ozod Sharq ayoli” nomli kantata, 1986-yilda Olmaota Uyg’ur musiqali teatri buyurtmasi asosida yozilgan “Salay chaqqon” musiqali komediyasi tinglovchilarga manzur bo’ldi. So’nggi asar teatrning gastroli tufayli Muqimiy nomidagi musiqali teatrda ham o’sha yili sahna yuzini ko’rdi. Bundan ilhomlangan kompozitor H.G’ulom bilan hamkorlikda “Muhabbat navosi” musiqali dramasini yaratdi. 1989-yili Muqimiy nomidagi musiqa teatrida sahnalashtirildi. Mazkur asarlar Sh.Shoymardonovaga shuhrat keltirdi.

Sh.Shoymardonova uyg’ur va o’zbek qo’shiqchiligi ravnaqiga ham barakali hissa qo’shdi. O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi estrada-simfonik orkestri, dutorchi qizlar ansambli, o’zbek xalq cholg’ulari orkestri xonandalari uchun 100 dan ortiq qo’shiqlar yaratdi. Jumladan: “Kelsam” va “Kelgin do’stim o’sakda” (X.Hamroyeva so’zlari), “Ko’klam ishqi” va “Faryod” (L.Mutalliba so’zlari), “Nigorimga” va “Dehqon qizi” (T.Sodiqova so’zlari), “Ko’rdim yuzingni” (Mashrab so’zi), “Uyg’ur qizi” (X.Islomov so’zi), “Farzandim” (I.Baragov so’zi), “Tarim qiziga” (X.Ilaxunova so’zi), “Vatanim” (Abdurahmonov so’zi), “Senga” (P.Sobitova so’zi), “Yulduzlar” va “Oltin baldoq” (T.To’la so’zlari), “Gul qishlog’im” (A.Isroilov so’zi), “Muhabbat valsi”, “Royalda qiz bola” (M.Qoriyev so’zi), “Navbahor chorlaydi» (Z.Obidov so’zi), “Dutoringni qo’lga ol” (Zulfiya so’zi), “Tinchlik boladek aziz” va “Tole yor bo’lsin” (G.Jo’raeva so’zlari), “Vatanning erka qizi” va “Shodlik qo’shig’i” (Usmon Nosir so’zlari) kabi qo’shiqlari ijrochilar repertuaridan mustahkam joy oldi. 1972-1980 yillarda konservatoriyaning Sharq musiqasi kafedrasida o’qituvchi bo’lib ishladi. Uyg’ur muqomini nazariy va amaliy bilimdoni Sh.Shoymardonova 1981-1985 yillarda O’zbekiston teleradiosi tarkibidagi “Uyg’ur xalq musiqasi ansambli” badiiy rahbari lavozimida ishlagan davrida uyg’ur muqomlarining oltitasini magnit tasmaga va gramplastinkalarga yozdirishga erishdi. 1987-1996 yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining “Xalq musiqasi” kafedrasida katta o’qituvchi va dotsent lavozimlarida ishladi. Shoymardonova Shohida Alievna 1993-yili “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni, 2000-yilda “Shuhrat” medali va bir necha faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan. Musiqashunos olim Ahmadjon Jabborov 2008-yilda ijodkorga bag’ishlab “Композитор Шахида Шаймардонова” nomli monografiyani nashr ettirdi.

Dilorom SAYDAMINOVA (1943) – asrimizning ilg‘or ayol ijodkorlardan biridir. U “Mustaqillik” medali (1992), “Do‘stlik” ordeni va Xalqaro tanlovlar sohibasidir. Uning ijodiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, musiqa san’atining turli janrlarini kuzatishimiz mumkin. Faoliyati davomida o‘qituvchi, O‘zbekiston teleradiokompaniyasida musiqa tahriyati bosh muharriri, “Московское время” ro‘znomasi shtatsiz muharriri bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi professori v.b lavozimida ishlab kelmoqda. Ijodiy bisotida turli cholg‘u va ansambllar uchun musiqiy asarlar, “Горючий камень”, “Жасорат” baletlari, 2 ta simfoniya (1967, 1988), 4 ta konsert, simfonik poema, “Bayram uvertyurasi”, Sug‘diyona o‘zbek xalq

cholg'ulari orkestri uchun "Miraj", saksofon va simfonik orkestr uchun Konsert, "Братской дружбой сильнў" qasidasi, "Senga", "Vatan" rok-oratoriyasi, kamer cholg'u asarlari, torli kvartet, "Navro'z", "Brass kvintet", "Franchesko izidan" seksteti, fortepiano uchun "Qadimiy Buxoro devorlari", "Afrosiyob lavhalari" turkumlari, bolalar uchun fortepiano pyesalari, organ uchun 3 ta pyesa, "O'zbekiston keng jahonim", "Oydin yo'l", "Zakot", "Oqar daryo", "Quyoshli O'zbekiston" kabi 100 dan ortiq qo'shiqlar, "Afsona yaratgan qiz", "Yor qayrilib boqmaydi", "Волшебная клетка" spektakllariga, "Sehrli gilam" multfilmiga, bir qator hujjatli va badiiy filmlarga musiqa, 50 dan ortiq qo'shiq va romanslar yaratgan. Ayniqsa, kompozitorning "Qadimiy Buxoro devorlari", "Afrosiyob lavhalari" fortepiano uchun turkumlari kabi "Umar Hayyom bilan dialog" nomli cholg'u asarlari Respublika va Xalqaro miqyosda sevib ijro etib kelinmoqda. Mohir o'zbek fortepiano ijrochisi Behzod Abduraimov kompozitorning "Qadimiy Buxoro devorlari" fortepiano turkumini KORNIGEY HOLLda ijro etib muvaffaqiyat qozondi.

D.Saydaminovaning musiqiy asarlari zamonaviy ruhi, professional darajada bayon etilishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari AQSH, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Vengriya, Lyuksemburg va MDH davlatlarida ham ijro etilib, keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etib kelinmoqda.

Dilorom AMANULLAYEVA (1959) - O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotining uchinchi avlodiga mansub kompozitor, pedagog-xonanda, o'zbek estrada san'atining bugungi kundagi jonkuyar vakilidir. U 1996- yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", 2006 -yilda "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" faxriy unvonlari, 1998 -yili "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan. U "Ofarin" mukofoti sohibi, "O'zbekiston — Vatanim manim" va boshqa tanlovlar sovrindoridir.

2023-yildan D.Amanullayeva Botir nomidagi milliy estrada san'ati institutida "Estrada xonandaligi" kafedrasi Zokirov mudiri, professor lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning ijodiy bisotida ikkita balet "Amir Temur" (2022), "Ipak yo'li" (2023), 3 ta simfoniya (1984, 1987) S.Sayyid she'rlariga a kapella xori, solistlar, fleyta va doyra uchun 5 qismli "Ko'ngil sohili" – Uchinchi Simfoniyasi (2002), 2 ta fortepiano va orkestr uchun Konsert (1987, 2024), Alt va simfonik orkestri uchun Konsert (2023), 3 qismli torli kvartet (1982y), fortepiano uchun: "Sonata №1" (1978 y.), "Bolalar albomi (1989 y.), "Samarqand manzaralari" - 5 qismli syuita (1980y.), Sonata № 2 (1983y.); B.Boyqobulovning she'rlariga 1981- yili bir necha romanslar, 1986-yili U.Xayyom she'rlariga "Xayyom ruboiylari" – a capella xori, yakkaxon, nay va doira uchun 5 qismli turkum; 1987-yili simfonik orkestr uchun Simfoniya № 2; 1989- yili fortepiano va simfonik orkestr uchun Konsert; 1993-yil "Baxtnomamiz taronasi" va 1994-yil "Istiqlol madhiyasi" yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun Qasidalari, Sug'diyona xalq cholg'ulari kamer orkestri uchun turk xalq qo'shiqlari asosida 5 qismli "Syuita" (1995-y), bolalar uchun P.Mo'min she'rlariga "Topishmoq qo'shiqlar" – 16ta qo'shiqlar turkumi (1991 y), "Alifbo qo'shiqlari" – 29 ta qo'shiqlar turkumi, "Xumo qushim", "Etikcham" (Q.O'tayev she'ri), "Diloromning qo'shig'i" (I.Donish she'ri) - teleradio to'lqinlarida doimo yangrab

kelmoqda: 1994-yili shoira Nodira g‘azallariga fortepiano va ovoz uchun 2ta romans: “Yor kerak oshiqqa”, “Jahondin kech” yaratdi.

D.Amanullayeva quyidagi kamer-cholg‘u musiqa asarlari muallifidir: 1982- yili B.I.Zeydman xotirasiga bag‘ishlab torli kvartet yaratdi. 1983- yili torli kvartet № 2; 1992- yili fortepiano uchun sonata №3, 1990-1995 yillari fortepiano uchun “Bolalar albomi”, beshta kichik pyesa; “Rechitativ va tokkata”; Tokkata №2; “Yomg‘ir”, “Bekinmachoq o‘yin”; “Karvon” - yosh pianinochilar ikkinchi to‘plamiga kiritilgan. 1985-1993 yillarda “Kichkintoylar uchun musiqa” bolalar bog‘chalari uchun 20 ta qo‘shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan to‘plam; 1992- yili “Topishmoq aytishuv” 6 ta qo‘shiqdan iborat turkum, shoir P.Mo‘min she’rlariga bog‘cha bolalari uchun va xuddi shunday “Topishmoq qo‘shiqlar” 10 ta qo‘shiqdan iborat turkum; 1994- yili “Alifbo qo‘shiqlari” birinchi sinf uchun lotin alifbosining har bir harfiga 30 ta qo‘shiq to‘plami P.Mo‘min she’rlariga yozilgan. Zikr qilingan asarlarni O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “Bulbulcha” xor jamoasi estrada simfonik orkestri jo‘rligida ijro etib keladi. Shu bilan birga ularning klavirlari nashr etilgan.

Musiqa san’atida murakkab janrlardan hisoblangan Madhiya janri D.Amanullayeva ijodida muhim o‘rin egallaydi. Milliy va zamonaviy ruhda yaratilgan Milliy “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining Madhiyasi (U.Azim she’ri, 1997-y.), Prezident huzuridagi Davlat va Qurilish Akademiyasi Madhiyasi (N.Komilov she’ri, 1998y.) Milliy teatr Madhiyasi (U.Azimov she’rlari, 2001-y.), “Toshkent Madhiyasi” (I.Jiyanov she’ri, 2002), Baynalminal madaniyat markazi Madhiyasi (N.Narzullaev she’ri, 2004- y.), Kurash assotsiatsiyasi Madhiyasi (I.Jiyanov she’ri, 2003), Yosh laureatlarning “Tasanno” Madhiyasi (N.Narzullaev she’ri, 2006- y.) kompozitorning bu sohada yetuk va professional ijodkor sifatida gavdalanganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, “Sharq taronalari”, “Toshkent Madhiyasi” va “Baynalminal madaniyat markazi Madhiyasi” o‘zining yorqin milliyligi, originalligi, zamonaviyligi va ko‘tarinki ruhda yozilganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Estrada xonandaligi” kafedrasidagi ishlash jarayonida kompozitor talabalarning mutaxassislik fanidan o‘qish jarayonida muhim bo‘lgan ijro dasturlarini yaratdi: ovoz va fortepiano uchun “25ta jaz va estrada vokalizlari” (2002-2013), Jaz-rok, soul, Bossa-nova, Ballada, jaz yo‘nalishlarida yangi vokal asarlari, jumladan “O‘zgacha” (A.Navoiy she’ri), “Elegiya” (G.Murodalieva she’ri), “Boshim egib qo‘yma, dunyo”, “Bir kam dunyo” (Z.Rajabova she’rlari), “Dunyolarga alishmasman, “Bu dunyo sendan ham, mendan ham qolar” (Z.Mo‘minova she’ri), ”Seni tashlab ketolmayman” (R.Yarasheva she’ri), “Sen eding”, “Sen ketarsan” (Sh.Turob she’rlari). Ushbu 100 ga yaqin asarlar D.Amanullayeva muallifligida yaratilgan “Estrada xonandaligi” ta’lim yo‘nalishining 8 ta o‘quv adabiyotlariga kiritilgan.

Dilorom Amanullayevaning so‘nggi yillarda yaratgan musiqiy asarlariga yuzlanadigan bo‘lsak, “Amir Temur” tarixiy baleti (2022), “Ipak yo‘li” (2023) hamda alt va simfonik orkestr uchun Konsert (2024) va fortepiano va orkestr uchun Konsert (2024) shular jumlasidandir. Kompozitorning musiqiy sahnaviy janrda yaratgan ikki baleti bugungi kunda o‘zbek balet san’atini yuqori

darajada ko‘tarishga xizmat qiladigan sahna asarlaridan biridir. Negadir ushbu asarlarga Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri rahbariyati va mutasaddi tashkilotlar qiziqish bildirishmayotgan taajjubli holatdir. Markazlashgan davlat asoschisi sanalgan, buyuk imperiya yaratgan, xalqimizning dovyurak milliy qahramoni Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga bag’ishlangan ikki pardali to‘rt ko‘rinishli balet kaminaning qiziqishiga sabab bo‘ldi. Balet ijodkorning musiqiy tafakkuri ila yillar davomida to‘plangan ijodiy tajribalari evaziga mashaqqatli mehnatlarining samarasidir. Ustoz kompozitor bilan suhbatlarimizda shuni aniqladikki, balet o‘tgan asrning 80-yillarida yaratilgan muallifning fortepiano uchun 5 qismli “Samarqand manzaralari” turkumidagi “Bibixonim xarobalari oldida” va turkum tarkibidagi pyesalar balet yozish uchun dastlabki material sifatida xizmat qila boshlagan. Shundan so‘ng, 29 nomerdan iborat mahobatli balet mashaqqatli mehnatlari evaziga yaratildi.

Kompozitor D.Amanullayeva tavalludining 65 yilligi munosabati bilan xalqimiz va musiqiy jamoatchilik hukmiga havola etilishi rejalashtirilgan “Amir Temur” va “Ipak yo‘li” baletlaridan musiqiy nomerlar ikkita konsert ijrosi hamon so‘roq ostida qolmoqda. Bu ikki balet bugungi kunning talabi va ehtiyoji uchun juda muhimdir. “Amir Temur” baletining musiqasi umumsharqona uslubda, mualliflik tafakkuri ila yaratilgan bo‘lib, partitura esa jahon musiqa madaniyati standartlarida to‘la-to‘kis javob beradi. Balet dramaturgiyasi talablariga mos kelgan holda, musiqiy leytmotiv mavzular qahramonning obrazli dunyosini ifodali tarzda namoyon etadi. Misol uchun, baletning birinchi parda ikkinchi ko‘rinishidagi “Amir Temurning g’alabali marshi” askarlarning marshsimon harakati, g’alaba xarakterini ifodalasa, “Amir Temur va Bibixonim” adajiosida esa ikki buyuk shaxsning ichki ruhiyati olami, ijodiy portreti, suhbati aks etadi. Shuningdek, baletda “Buxorocha raqs”, “Qoraqalpoqcha jangchilar raqsi” xalq musiqasining mualliflik talqinida aks etsa, “So‘fiylar raqsi va ibodati” ma’lum marosim va zamon va makon holatini tasvirlaydi. Musiqiy-sahnaviy asarda “Jang sahnasi” sahna asarining cho‘qqisi bo‘lib, yuksak darajada musiqiy matoda “Amir Temur va Sulton Boyazid” o‘rtasidagi jang sahnasini ifodalaydi. Baletda sahna talablariga mos keladi. Kontrast sahnalar va balet dramaturgiyasi, kompozitsiyasi qoidalariga muvofiq tarzda yozilgan. Bugungi kunda o‘zbek balet san’atini jahon sahnalariga olib chiqish va tarannum etishda mavjud **repertuar** muammosiga ushbu ikki asar to‘la qonli javob beradi. Sahna asarlari teatr sahnasida namoyish etilsa, balet san’atida katta ijodiy sahifa ochilgan bo‘lar edi.

Xurshida TURSUNOVA (HASANOVA) (1967) – o‘zbek musiqa san’ati rivoji yo‘lida tinmay ijod qilib kelayotgan kompozitorlardan biridir. Uning ijodiy bisotida simfoniya, simfonik poema, cholg‘u konsertlari, torli kvartet, kamer-cholg‘u asarlari, vokal va xor uchun asarlar, kinofilm va teledasturlar uchun musiqa shu bilan birgalikda bolalar uchun estrada qo‘shiqlari alohida o‘rinni egallaydi. Kompozitor bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi mudiri v.b, professor lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Uning musiqiy asarlari Omnibus ansambli, “Sug‘diyona” kamer orkestri, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, O‘zbekiston davlat simfonik orkestri shu bilan birga bir qator xorijiy davlatlar MDH, AQSH,

Qozog‘iston, Turkiya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli ijro etilib kelinmoqda.

U 1967-yilda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan. 1982-86 yillar Hamza nomidagi musiqa bilim yurti. 1986-91 yillar O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘qigan. Ustozi - taniqli kompozitor Mirhalil Mahmudov. 1991-99 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti(universiteti)da ishlagan. 1998-yildan shahar O‘quvchiiar ijodiyoti markazida “Sevinch” vokal ansamblining musiqa rahbari bo'iib ishlagan. 2000-yildan O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi a’zosi va shu yildan O‘zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat olib boradi. Musiqa ijodiyotining turli janrlarida ijod qilgan. Simfonik va kamer orkestri uchun ikki qismli “Simfoniya”, “Simfonik poema”, fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, fortepiano uchun “Sonata”, E. Vohidov so‘ziga xor uchun a capella – “Iltijo” asarlarini yaratgan. 70 dan ortiq bolalar qo‘shiqlari, “Zumrasha” bolalar hajviy kinosiga musiqalar yozgan, “Tog’da o‘tgan quvnoq yoz” bolalar badiiy filmi, “Archa, archa, archajon” bolalar ertak videofilmining ijodkori. Navro‘z, Mustaqillik umumxalq bayrami tantanalarida (2000-2001 yy.) o‘z qo‘shiqlari bilan qatnashgan.

Oydin ABDULLAYEVA (1976) – bugungi kun o‘zbek musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biridir. Iqtidorli kompozitor o‘zining sermahsul faoliyati barobarida uzoq yillardan buyon O‘zDK “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasida talabchan ustoz pedagog va faol jamoat arbobi sifatida nafaqat O‘zbekiston jamoatchiligi balki chet el musiqa ixlosmandlari doirasida ham keng tanildi. Oydin Utamurodovna Abdullayeva 1976-yilning 6-martida Toshkentda tug’ilgan. Oydin bolaligidan musiqaga qiziqadi. 1983-1994 yillarda R.Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa maktab-internatida violonchel sinfida va bastakorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1994-1999 yillarda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida, 1999-2001 yillarda assistentura-stajirovkada A.Mansurov sinfida tahsil oldi. 2001-yilda Navoiy, Zulfiya va Erkin Vohidov she’rlari asosida rejissyor Ferudin Safarov librettosiga “Vafo” opera-oratoriyasini konservatoriyaning opera studiya jamoasi ijrosida (dirijyor G’ani To‘laganov) komissiyaga havola etib, konservatoriyaning assistentura-stajirovkasini muvaffaqiyatli bitirdi.

O.Abdullayeva o‘qish jarayonidayoq eng yaxshi asarlar uchun talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan bir necha tanlovlarda mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Musiqiy tanqid va jurnalistika bilan ham shug’ullanib, ilmiy anjumanlarda qatnashib turadi, maqolalari gazeta va to‘plamlarda e’lon qilingan.

O.Abdullayeva 1999-yildan buyon konservatoriyada yosh avlodga musiqa sirlaridan saboq berib kelmoqda. Bugungi kunda konservatoriyaning “Kompozitorlik va cholg’ulashtirish” kafedrasi mudiri, professor lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

Kompozitorning fortepiano uchun uch qismli Sonatinasi, Prelyudiya va Tokkatasi, chang va fortepiano uchun “Kontsert kuyi”, violonchel uchun Fantaziyasi, torli trio uchun Syuitasi, truba va fortepiano uchun Fantaziyasi, damli cholg’ular kvarteti uchun Variatsiyalari, torli orkestr uchun Poemasi, bariton va

fortepiano uchun Umar Xayyom ruboiylariga besh qismli turkumi, rubob-prima va fortepiano uchun “Kontsert kuyi”, simfonik orkestr uchun “Poema-fantaziya”, saksofonlar kvarteti uchun jaz uslubidagi miniatyuralari, 4 qismli torli kvarteti, simfonik orkestr uchun A.Bedilning “Komde va Modan”asari asosida “Sevgi haqida doston” simfoniyasi, qashqar rubobi va xalq cholg’ulari orkestri uchun Kontserti, soprano va fortepiano uchun Zulfiya she’riga “Hijron kunlarida” va ayollar xori uchun romanslari, Hamroqul Rizo she’riga “Yor-yor” va U.Xayyom ruboiylariga “Kelib ketmoqdamiz...”, “Jadidlar xotirasi”ga bag’ishlangan simfonik poema, 50 dan ortiq estrada qo‘shiqlari tinglovchilarga yaxshi tanish.

O.Abdullayeva teatr va kino musiqasi janrlarida ham faol ijod qilib kelmoqda. Uning “Osmonning bag’ri keng”, “Farishtali ayol” (S.Sirojiddinov asarlari), “Ko‘nglimning ko‘chasi” (N.Abbosxon asari), “Tobutdan tovush” (A.Qahhor asari), “Qizi borning nozi bor” (H.Rasul asari), “Parivashga parvonaman” (N.Abbosxon asari), “Soxta nogiron” (Qing’ir ishning qiyig’i) singari musiqali drama va komediyalari Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan. 2004 yil “O‘zbekteatr” ijodiy birlashmasi tomonidan o‘tkazilgan “30+1” zamonaviy teatr spektakllarining Respublika tanlovida «Eng yaxshi musiqali drama uchun» nominatsiyasida “Osmonning bag’ri keng” (S.Sirojiddinov asari) spektakliga yozgan musiqasi uchun g’olib deb topilgan. O‘zbekiston Davlat Milliy akademik teatrida ispan dramaturgi A.Kassone asari asosida sahnalashtirilgan “Daraxtlar tik turib jon beradi” spektakliga musiqa bastalagan. “Sevgi farishtasi”, “Yodgor” “Shohsupa”, “Dugonajonlar” teleseriallarining, “Hikmat chirog’i” nomli bolalar filmining musiqa muallifi.

Bugungi kunda mazkur kafedrada professor lavozimida “Kompozitorlik san’ati”, “Cholg‘ushunoslik”, “Cholg‘ulashtirish”, “Partitura o‘qish” hamda “Kompozitorlik mahorati” kabi mutaxassislik fanlaridan dars berib kelmoqda. Uning “Bastakorlik san’ati”, “Cholg‘ushunoslik (simfonik orkestr)” fanlaridan darsliklar, “Ansambl cholg‘ularini o‘rganish” fanlaridan qo‘llanmalar yaratgan. Ijodkorning asarlari Omnibus ansambli, “Sug‘diyona” kamer orkestri, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, O‘zbekiston davlat simfonik orkestri, MDH davlatlari, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Malayziya va AQSH mamlakatlarining nufuzli sahnalaridan turib yangragan. O.Abdullayevaning musiqiy asarlari Respublikamizdagi mavjud ta’lim muassasalarining o‘quv-konsert repertuaridan, Xalqaro va Respublika tanlovlari dasturidan o‘rin egallagan.

Dilnoz ZOKIROVA (KAMILOVA) 1976-yilning 9-yanvarida Toshkent shahrida, musiqachilar oilasida tug’ildi. 1991-1995 yillarda Yu.Rajabiy nomidagi pedagogika bilim yurtida tahsil oldi, 1995-1999 yillarda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasini bakalavr bosqichini, 1999-2001 yillarda magistraturani kompozitsiya bo’yicha professor A.Mansurov sinfida tugatdi. 2002 yildan boshlab O’zbekiston davlat konservatoriyasining “Bastakorlik va cholg’ulashtirish” kafedrasida pedagogik faoliyatini olib bormoqda. 2002-2005 yillarda ilmiy kotib, 2009-2011 yillarda kafedra kotibi lavozimlarida ishladi. Kompozitor turli janrlarda samarali ijod qilib kelmoqda. Fortepiano va orkestr

uchun Kontsert (1995), “O’tmish va zamon” simfoniyasi (2001) asarlari muallifi. Fortepiano uchun yozgan “Tokkata”, “Adajio”, “Sharqona kuy”, “Prelyudiyalar”, “Sonatina”, “Izhor”, “O, yalli-yallo”, “Variatsiyalar”, “Izhor” pyesalari, “Soat”, “Sayr” va “So’zsiz qo’shiq” kabi fortepiano duetlari pianinochilarning ijro repertuarlaridan keng o’rin olgan. Mazkur asarlar asosida 2007-yilda “O, yalli-yallo” o’quv qo’llanmasi nashr etilgan. Kompozitorning vokal asarlari ham diqqatga sazovor. Xor va fortepiano uchun “Tomchilar”, “Alla” (M.Tillaboeva she’ri), “O’zbekiston qizlari” (Saodat she’ri), “Go’zalim, Toshkentim” (N.Egamnazarov she’ri), “Dunyoni saqlar bolalar” (K.Turdiyeva she’ri) qo’shiqlari talabalar tomonidan maroq bilan ijro etib kelinmoqda. D.Zokirova (Kamilova)ning qashqar rubob va fortepiano uchun 2 ta etyud, Qashqar rubob va xalq cholg’ulari orkestri uchun “Quvonch”, nay va fortepiano uchun “Alla”, “Ariya”, “Etyud-pyesa” asarlari o’quv repertuarlariga kiritilgan, Xalqaro va Respublika tanlovlarida ijro etib kelinmoqda. Kompozitor musiqali teatr janrlariga murojaat etib “Tuzoq” musiqali dramasini (2008), “Bu chollar-yomon chollar” musiqali komediyasini (2009), “Prostite, dorogoy” musiqali vodevilini (komediya) (2013) yaratdi. Mazkur asarlar respublika teatrlari repertuarlaridan munosib o’rin olgan.

XXI-asrda ayol kompozitorlar ilmiy, ijodiy, pedagogik jabhalarida faollik ko‘rsatib, muvaffaqiyat qozonib kelmoqdalar. Yuqorida nomlari zikr etilgan Sh.Shoymardonova, D.Saydaminova, D.Amanullayeva, X.Tursunova (Hasanova), O.Abdullayeva, D.Zokirovalar o‘zbek musiqa san’ati rivojida barakali faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Ular bugungi “zamonamizning qahramonlari” – desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. Tuzuvchi va ilmiy muharrir: A.Umarov, M.Bekmuradov, B.Sayfullaev. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2015.
2. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. (Qisqacha kurs). Toshkent, 2016.
3. Yanov-Yanovskaya N.S. B.B.Nadejdin. // Musiqa madaniyati masalalari / Tuzuvchi va ilmiy muharrir I.N.Karelova. T., 1969, 149-b. (rus tilida).
4. T.S.Vizgo. 1959-yilda yozib olingan B.B.Nadejdin bilan suhbatdan // O‘zbek musiqasi tarixi bo‘yicha materiallar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qo‘lyozmalar fondi. N.S.Yanov-Yanovskayaning “B.B.Nadejdin” maqolasidan keltirildi // O‘zbekiston musiqa madaniyati masalalari. T., 1969, 151-b. (rus tilida).
5. Solomonova T.Y. O‘zbek musiqasi tarixi. (o‘quv qo‘llanma). Toshkent: “O‘qituvchi”, 1981.
6. Abdullaeva O. Bastakorlik san’ati. (darslik). Toshkent: “Musiqa nashriyoti”, 2018-yil.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025



TURSUNOVA (HASANOVA)
XURSHIDAXON ATABAYEVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Kompozitorlik va cholg’ulashtirish”
kafedrasi mudiri v.v.b., professsor

O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI

(kompozitor Oydin Abdullayevaning
“Ustoz-shogird” an’anasi misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston kompozitorlik ijodiyotida “Ustoz-shogird” an’anasi xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, bugungi davrimizning mahoratli kompozitori, professor Oydin Abdullayevaning “ustoz-shogird” an’anasi borasida pedagogik faoliyati yoritiladi.

Kalit so’zlar: kompozitor, pedagog-kompozitor, opera, balet, simfoniya, musiqali drama va komediya, cholg’u musiqa, milliy ruh.

Аннотация: В статье рассматривается традиция «Мастер-Ученик» у узбекских композиторов. В контексте традиции «учитель-ученик» будет освещена и педагогическая деятельность талантливого композитора современности, профессора Ойдына Абдуллаева.

Ключевые слова: композитор, педагог-композитор, опера, балет, симфония, музыкальная драма и комедия, инструментальная музыка, национальный дух.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o‘qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an’analarni singdirish, ularni ilg‘or g‘oyalar bilan boyitishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamdagi sa’y-xarakatlar amalga oshirilmoqda. Istiqlol sharofati bilan ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma’naviy meros, unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash,

milliy o‘zlikni anglash masalasi davlat dasturi darajasida amalga tatbiq etilmoqda[27].

Qadimdan ustoz-shogirdlik an’analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratni avloddan-avlodga o‘tishiga imkoniyat yaratgan.

Ustoz-shogird an’analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o‘rin tutadi:

- onglilik va faollik, ya’ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to‘liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqi yo‘lida faollik bilan harakat qilish;

- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;

-ta’lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog‘liqligini inobatga olish;

-mutaqillikka, ijodiy izlanishga yo‘naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligini hisobga olish;

-o‘qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab qo‘yilgan anik mantiqiy tartibga ega bo‘lishi;

- shogirdning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

“Ustoz-shogird” an’anasi san’at turlarining barchasida xususan, musiqa san’atida ham o‘z aksini topgan. Ko‘plab ulug‘ musiqa vakillarini kashf etilishida birinchi navbatda ularga ta’lim-tarbiya bergan ustozlari turadi. Chunki, ustoz – ilm ulashuvchi, barcha ezgulik va yaxshilkni tortiq qiluvchi misoli bilim mayog‘idir desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Musiqa san’atida kasb vakillarini yetuk mutaxassis etib tarbiyalashda pedagoglarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kompozitorlik san’atida ham “ustoz-shogird” an’anasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida “ustoz-shogird” an’anasi XX-asrga borib taqaladi.

XX-asr O’zbekiston musiqa madaniyatiga G’arbiy Yevropa san’at turlari (kompozitorlik san’ati), musiqiy janrlar (opera, balet, simfoniya, musiqali drama va komediya, cholg’u musiqasining kirib kelishi va o’z navbatida ilk mahalliy kompozitorlar M.Ashrafiy, Sh.Ramazonov, T.Sodiqov, M.Burhonov, M.Leviyev, S.Yudakov kabilar tomonidan o’zlashtirilishi natijasida milliy ruhdagi musiqiy asarlar yaratila boshlandi. Dastlabki mahalliy ijodkorlar kompozitor sifatida yetishib chiqishida rus millatiga mansub pedagog-kompozitorlar B.Zeydman, B. Nadejdin, B. Brovsin, A.Kozlovskiy, B.Giyenko, G.Mushel, R. Vildanovlarning samarali faoliyati taqsinga loyiq. O’zbekiston kompozitorlarining to‘ng’ich avlodini tarbiyalashda pedagog kompozitorlar o’zlarining ko’p yillik ijodiy-pedagogik tajribasiga tayangan. Shu asnoda birinchi avlod ijodkorlari yetishib

[27] Sobirov N. “Ustoz-shogird an’analarida pedogogikaning o‘rni”. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / http://oac.dsmi-qf.uz Volume 4 Issue 3 / June 2023,1-2 b

chiqib, musiqa san’atining turli janrlarida sermahsul ijodiy namunalarni havola etdilar.

XXI-asrga kelib, O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyoti ko’p yillik ijodiy tajribaga ega bo’ldi. Turli janrlarda badiiy mukammal, milliy va zamonaviylikni aks ettirgan sahna asarlari, musiqiy asarlar yaratilib kelinmoqda. XXI-asrda kompozitorlik san’atida “ustoz-shogird” an’analari alohida o‘rniga ega bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida ta’lim sohalarining barchasida “ustoz-shogird” an’anasiga muvofiq tarzda ta’lim berib kelinmoqda. Asrimizning ilg‘or va talabchan ustozlaridan, mahoratli kompozitor, “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi professori Oydin Utamurodovna Abdullayeva sinfidagi “ustoz-shogird” ijodiy maktab an’analarini ta’kidlash joiz. Kompozitor Oydin Abdullayeva bugungi kun o‘zbek musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biridir. Iqtidorli kompozitor o‘zining sermahsul faoliyati barobarida uzoq yillardan buyon O‘zDK “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasida talabchan ustoz pedagog va faol jamoat arbobi sifatida nafaqat O‘zbekiston jamoatchiligi balki chet el musiqa ixlosmandlari doirasida ham keng tanildi.

Bugungi kunda mazkur kafedrada professor lavozimida “Kompozitorlik san’ati”, “Cholg‘ushunoslik”, “Cholg‘ulashtirish”, “Partitura o‘qish” hamda “Kompozitorlik mahorati” kabi mutaxassislik fanlaridan dars berib kelmoqda. Uning “Bastakorlik san’ati”, “Cholg‘ushunoslik (simfonik orkestr)” fanlaridan darsliklar, “Ansambl cholg‘ularini o‘rganish” fanlaridan qo‘llanmalar yaratgan. Ijodkorning asarlari Omnibus ansambli, “Sug‘diyona” kamer orkestri, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, O‘zbekiston davlat simfonik orkestri, MDH davlatlari, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Malayziya va AQSH mamlakatlarining nufuzli sahnalaridan turib yangragan. O.Abdullayevaning musiqiy asarlari Respublikamizdagi mavjud ta’lim muassasalarining o‘quv-konsert repertuaridan, Xalqaro va Respublika tanlovlari dasturidan o‘rin egallagan.

O.Abdullayeva Respublikamizda birinchi “Kompozitorlik san’ati”ga oid darslik muallifi hamdir. Pedagog o‘zining ko‘p yillik ijodiy-ilmiy, pedagogic tajribasiga tayanib, 2018-yilda “Bastakorlik san’ati” nomli darslikni nashr ettirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Bastakorlik san’ati” ta’lim yo‘nalishining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur darslik orqali ijodiy dars mashg’ulotlarini olib borishadi.

Oydin Abdullayeva pedagogik jarayon tashkil etishda har bir talabning individual kasbiy layoqati, insoniy fazilatlari, bilim va salohiyatini alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, har bir talabaning musiqiy tafakkurini badiiy-estetik rivojlanishi, musiqiy asarning badiiylik darajasiga chiqishi borasida birgalikda bosh qotirib, ijodiy jarayonda yuzaga keladigan to‘siqlarni yengib o‘tadi. Kompozitor tarbiyasi juda ham ma’suliyatli jarayon. Oydin Abdullayeva o‘zining kompozitorlik pedagogikasi oid maqolalarida kompozitor tarbiyasida musiqiy-nazariy, musiqiy-tarixiy fanlarning ahamiyati xususida ilmiy maqolalar yozgan. U ijodkor tarbiyasi xususida quyidagicha fikr yuritadi: “Ijodkorni tarbiyalash masalasi barcha davrlarda jiddiy va muhim masala bo‘lib kelgan. Ijodkorga

alohida shaxs sifatida yondoshish, uning layoqatiga qarab ish tutish, xarakteriga xos xususiyatlarni inobatga olish va ta'limning uzoq jarayonida muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazish masalasi hali ham oxirigacha o'rganilmagan sohalardan biridir. Bastakorning ijodiy shaxsini tashkil etadigan unsurlar uchta tarkibiy qismdan iborat: **iqtidor, mahorat** va **dunyoqarash.** Oxirida nomi zikr etilgan tarkibiy qism, musiqiy qobiliyat bilan bir qatorda, ichki tinglash va tasavvur etish qobiliyatining yuksak darajasi, musiqiy shakl va dramaturgiyani his etish, boy tasavvur, o'xshatma tafakkur, kuchli aqliy tafakkur, va ayniqsa, unga xos tuzilmaviy xususiyatlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Ruhiy xususiyatlar bilan bir qatorda, ijodkor shaxsiga iroda, ijodga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni yashirin fiziologik ustunlik zarurdir. Ijodiy layoqatning paydo bo'lishi, rivojlanishiga ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jabhalari ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy rivojlanish kompozitor faoliyatining xarakteri va tuzilishiga ham bog'liqdir. Biologik irsiyat ham bunda katta o'rin tutadi (I.S.Bax, V.A.Motsart, F.Listga xos ijodiy qirralar ushbu masala bilan bog'liq). Bu fikrni butkul rad etuvchi misollar ham talaygina (P.I.Chaykovskiy, M.I.Glinka, S.V.Raxmaninov, A.N.Skryabin)"[28].

Oydin Abdullayeva mutaxassislik sinfida 20 ga yaqin kompozitorlarni tarbiyalagan. Jumladan, kompozitorning to'ng'ich shogirdi Sherzod Sobirov-(Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori, O'zDK "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasi katta o'qituvchisi), Nodirbek Maxarov –O'zMMSI "Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano" kafedrasi mudiri, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi, Nurali Erkayev – Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori, O'zDK "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD, Qahramon G'ulomjonov – "Nihol" Davlat mukofoti sohibi, kompozitor, Adham Abduraimov, K.Axmedova, S.Narturayeva, M.Omonjonova, M.Mansurov, J.Jo'rayev, F.Raximov, J.Axrorov, B.Tursunboyevlar shular jumlasidandir.

Ustoz bugungi kunda O'zDK "Kompozitorlik san'ati" mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori, iqtidorli kompozitor Behzodbek Tursunboyevga "Kompozitorlik mahorati" mutaxassislik fanidan saboq berib kelmoqda. Behzodbek Tursunboyev O'zbekiston davlat konservatoriyasini 2018-2022 yillar mobaynida bakalariat bosqichida "Bastakorlik san'ati" yo'nalishida professor Oydin Abdullayeva sinfida muvaffaqiyatli tamomlagan. 2023- yildan "Kompozitorlik san'ati" mutaxassisligini mahoratli ustoz kompozitor, professor O.Abdullayevadan tahsil olib kelmoqda. Ustozi rahbarligida musiqa san'atining turli janrlarida asarlar bastalab, tinglovchilarga havola etmoqda. Uning so'nggi yillarda ustozi rahbarligida yaratgan bir pardali, to'rt ko'rinishli "Jaloliddin" baleti (Durdona Abduhakimova librettosi, 2022y) hamda ikki pardali sakkiz ko'rinishli "Usmon Nosir" opera-oratoriyasi (O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning shu nomli dramasi asosida, 2024 yil) musiqiy jamoatchilik vakillari hamda tinglovchilarning alohida e'tirofiga sazovor bo'ldi. Albatta har bir musiqiy asarning yaratilish jarayoni o'z-o'zidan yaratilgan emas. Ma'lum muddat mashaqqatli mehnat va

[28] Abdullayeva O. Bastakorlik san'ati. Darslik. -Toshkent.: 2018-y.

tinimsiz izlanishlar evaziga badiiy barkamol, yetuk asarlar dunyoga keladi. Professor Oydin Abdullayeva o'z shogirdlari bilan ishlash jarayonida bor ilmiy-ijodiy bilim, tajribalarini ayamaydigan ustozlardan biridir. Kompozitor Behzodbek Tursunboyev ustozi xususida quyida fikrlarni keltiradi: *"Meni kompozitorlik ijodiyotiga qadam qo'yishimga sababchi inson, mening ustozim, professor Oydin Abdullayevadir. Men ustozim rahbarligida musiqa san'atining turli janrlarida musiqa bastalash sirlarini o'rgandim. Dars mashg'ulotlarida birinchi navbatda talabchan, tinmay o'z ustida ishlaydigan, mehnatkash va mehribon ustoz sifatida kashf etdim. O'z shogirdi uchun bor bilimini, kuchi va ilmini ayamay o'rgatadigan pedagog-kompozitorlar afsuski ozchilikni tashkil etadi. Ustozim ijodiy jarayonda yuzaga keladigan turli to'siqlarda men bilan yelkama-yelka turib shu qiyinchiliklarni bartaraf etgan shaxs sifatida gavdalanadi. Bakalavriat bosqichini tamomlash uchun yakuniy davlat attestatsiya komissisyasiga bir pardali to'rt ko'rinishli "Jaloliddin" baleti (D.Abduhakimova librettosi)ni taqdim etdim. Men talabalik davrimdan qilgan orzuyimga ustozim sababli erishdim. G'oyat murakkab musiqiy-sahnaviy janrida ijod etish ma'lum qiyinchilik va ijodiy tajribani talab etadi. Ustozim rahbarligida qisqa muddatda balet musiqasini yozib tugatdim. Davlat imtixoniga "Jaloliddin" baletimning 3-ko'rinishi "Mo'g'ullar qarorgohi" sahnasi O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida O'zbekiston davlat filarmoniyasining simfonik orkestri ijrosida Xalqaro va Respublika tanlovlar sovrindori Alibek Kabdurahmanov dirijyorligida muvaffaqiyatli yangradi. O'sha paytdagi qalbimdagi hayojonni tassavvur etish juda qiyin. Balet premyerasi esa 2023-yilning 12-dekabr sanasida Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrida bo'lib o'tdi. Bu kun o'zbek balet san'atining tom ma'nodagi bayramiga aylandi desam yanglishmagan bo'laman. Mutaxassislar tomonidan "Jaloliddin" baleti yuksak e'tirof etildi. Mening fikrimcha ijodkorning eng baxtli kuni uning asari ijro etilgan kun bo'lsa kerak. Men shu o'rinda ijodiy rahbarim, ustozim Oydin Abdullaevaga va batemeyster Durdona Abduhakimovaga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman".*

Professor Oydin Abdullayeva mutaxassislik sinfi dars mashg'ulotlarini namunali tarzda olib boradi. Har bir talabaning tafakkur darajasi, bilim va malakalarini chuqur bilgan holda ijodiy yondoshadi. Shuni e'tirof etish lozimki, mahoratli ustoz o'z asarlariga qanchalik darajada ma'suliyat bilan yondoshsa, talabalarining musiqiy asarlariga ham huddi shunday yondashadi. Talaba kompozitor bilan musiqiy asar yozish kompozitordan pedagogik hamda kasbiy salohiyatni, mahoratni talab etadi.

Musiqiy asar yozishdan avval, asarning g'oyasi, maqsadi aniq qilinib, oldinda turgan vazifalar aniqlanadi. Shu yo'sinda talaba kompozitor tomonidan musiqiy asar yozish jarayoni boshlanadi. Ustoz talaba kompozitor musiqa yozishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Ijodiy jarayonda yuzaga keladigan savollarga kerakli maslahatlarni also ayamaydi. Professor O.Abdullayeva o'z sinfida yurtimiz musiqa san'ati rivojida ulkan hissa qo'shadigan, yetuk, barkamol, vatanparvar, salohiyatli, izlanuvchan va kasbiga fidoyi ijodkorni tarbiyalash maqsadi yo'lida yosh kompozitorlarga saboq berib kelmoqda.

Mahoratli kompozitor O.Abdullayevaning iste'dodli shogirdi Behzodbek Tursunboyev ustoz maktabining davomchisi hamdir. Ustoz rahbarligida yaratgan O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir" dramasi asosida ikki pardali, sakkiz ko‘rinishli "Usmon Nosir" opera-oratoriyasi fikrimizning yorqin dalilidir. Uning shogirdi ushbu asar yaratilish jarayoni xususida quyidagi xotirlaydi: *"Magistratura bosqichiga kirganimdan so‘ng, menda opera yozishga bo‘lgan istagim tobora kuchaydi. Ustozim rahbarligida opera-oratoriyani yozish sentabr oyidan boshlandi. Mening oldimda Usmon Nosir shaxsiyatini aks ettirish, "Qatog'on davri"dagi fojiaviylikni musiqiy-ifodaviy vositalar orqali haqqoniy tasvirlash, obrazlarni musiqiy leytmotivlarini izlash borasida qiyin vazifalar turgan edi. Ustozim menga hamisha maslahatini darig' tutmadi. Har bir ijodiy jarayonda yuzaga keladigan to‘siqlarda beminnat maslahatini ayamadi. Shu sababdan asar 4 oy mobaynida yozib tugatdi. Yanvar oyidan 15-may sanasigacha cholg'ulashtirish ishlarini oxiriga yetkazdim. Men baxtli kompozitorman. Asarning taqdimoti 2024-yilning 16-noyabrida O‘zDK katta sahnasida O‘zbekiston xalq artisti, O‘zDK rektori Kamoliddin Urinbayev rahbarligidagi O‘zbekiston davlat simfonik orkestri va xori hamda talabalar, artistlar tomonidan muvaffaqiyatli ijro etildi. Musiqiy jamoatchilik "Usmon Nosir" opera-oratoriyasi – asrimizning milliy va zamonaviy operasi"-deya e'tirof etildi. Bu yutuqlarimning barchasi ustozim Oydin Abdullayevaning menga bildirgan ishonchi, mehnatining mevasidir. Men ustozimga boshim yerga tekkuniga qadar ta'zim etaman". Shuni ta'kidlash kerakki, Oydin Abdullayeva-asrimizning o'ziga xos ijodiy uslubiga ega, shu bilan birga o'zining "Kompozitorlik maktabi" ni yaratgan kompozitordir"*[29].

Kompozitorlik ijodiyotiga xos "Ustoz-shogird" an'anasi nafaqat ta'lim olish davrida balki, ta'lim jarayoni yakunidan so‘ng ham davom etadi. Bu sharq madaniyatiga xos xususiyatlardan biri. Xorijiy davlatlardan ta'lim sohasida "Ustoz-shogird" an'anasi mavjud albatta. Lekin, yurtimizda azalgan qaror topgan ushbu an'ana asrlar osha davom etadi. Oydin Abdullayevaning "Ustoz-shogird" an'anasi orqali kompozitorlik ijodiyotining bugungi kundagi o‘rni va ahamiyatini, ta'lim tizimidagi mavqeyini balki, mamlakatimizda kompozitorlik pedagogikasini naqadar rivoj topganini belgilaydi. O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida "Ustoz-shogird" ijodiy an'anasi o‘zbek musiqa san'atining kelajagi, balki ijodiy merosning davomiyligini ta'minlashda ham juda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sobirov N. "Ustoz-shogird an'analarida pedogogikaning o‘rni". «Oriental Art and Culture» Scientific Methodical Journal / http://oac.dsmi-qf.uz Volume 4 Issue 3 / June 2023,1-2 b.
2. Abdullayeva O. Bastakorlik san'ati. Darslik. Toshkent:.2018-y.

[29] Kompozitor Oydin Abdullayevaning shogirdi Behzodbek Tursunboyev bilan suhbatdan. Toshkent:. 01.02.2024-y.

3. Kompozitor Oydin Abdullayevaning shogirdi Behzodbek Tursunboyev bilan suhbatdan. Toshkent:. 01.02.2024-y.
4. Евлахов О. Проблемы воспитания композитора. Л., 1984
5. Римский-Корсаков Н. Общий курс инструментовки. I, IIч.
6. Месснер Е. Основы композиции. М., 1981.
7. Когоутек Ц. Техника композиции в музыке XX века. М., 1978

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



UMIRBOYEVA IRODA
SHUXRATJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Imiy rahbar: katta o‘qtuvchi,
Ibragimova Sh.E.

MUSIQA SAN’ATIDA FIRUZA ABDURAHIMOVANING O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda ayollarning muhim o‘rni, ya’ni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, «So‘g‘diyona» davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri, badiiy rahbari va bosh dirijyori, professor Firuza Ravshanovna Abdurahimovaga bag‘ishlangan. Maqolada uning tinimsiz mehnati, sabot-matonati, fidokorona mehnati, musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ayollarning o‘rni, xalq cholg‘ulari kamer orkestri, ma’daniyat, san’at, dirijor, festival.

Аннотация: Данная статья посвящена значимой роли женщин в Узбекистане, а именно заслуженному деятелю искусств Узбекистана, профессору, художественному руководителю и главному дирижёру Государственного камерного оркестра народных инструментов «Согдиана» Фирузе Равшановне Абдурахимовой. В статье акцентируется внимание на её неустанном труде, упорности, самоотверженной преданности и значительном вкладе в развитие музыкального искусства.

Ключевые слова: Узбекистан, роль женщин, камерный оркестр народных инструментов, культура, искусство, дирижер, фестиваль.

O‘zbekiston taraqqiyotida ayollarning o‘rni muhim va serqirra mavzu bo‘lib, mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining turli jabhalarini qamrab oladi. So‘ngi yillarda ularning mamlakat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ta’lim va jamiyat hayotida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayollarning O‘zbekiston jamiyatidagi o‘rni tarixiy va zamonaviy davrda katta ahamiyatga ega bo‘lib, hayotning turli sohalarini qamrab oladi:

-Ta’lim va fan: Bugungi kunda xotin-qizlar o‘quv jarayonida talaba va o‘quvchi sifatida faol ishtirok etmoqda. Ularning ko‘pchiligi turli tadqiqot

yo‘nalishlarida yetakchi o‘rinlarni egallab, ilm-fanda muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

-Madaniyat va san’at: Mamlakat madaniy me’rosini asrab-avaylash va rivojlanishda ayollar yetakchi rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda musiqa san’atni dunyo miqqiyosiga olib chiqishga hissa qo‘shayotgan ayollardan biri Firuza Ravshanovna Abdurahimovani misol qilishimiz mumkin. Firuza Ravshanovna serqirra ijodkor, ajoyib dirijor, tashkilotchi, maqsadli va tinimsiz mehnatkash, doimiy izlanishda, u o‘zi yaratgan xalq cholg‘ulari kamer orkestri yordamida O‘zbekiston musiqa san’atini dunyoga tanitmoqda.

Milliy cholg’ulardan tashkil topgan “Sug‘diyona” kamer orkestrining asoschisi Firuza Ravshanovna Abdurahimova 1950-yilning 21-avgustida O‘zbekistonning Buxoroning Karmana (hozirgi Navoiy) shahrida xizmatchi oilasida tavallud topgan. 1953-yilda oilasi bilan Samarqandga ko‘chib o‘tadi, bolaligi va yoshligi shu yerda o‘tadi. 1957-1965-yillarda maktabda va shu bilan birga musiqa maktabiga, rubob prima sinfida tahsil olgan. Maktabni tamomlagach Samarqand X. A. Abdurasulova nomidagi musiqa kolejiga, rubob prima va xalq cholg’ulari orkestr dirijorligi yonalishiga o‘qishga qabul qilinadi. Kollejni a’lo baholar bilan bitirib, o‘qishni M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat Konservatoriyasida davom ettiradi. Konservatoriyani tamomlab, shu oliygoxni o‘zida “Xalq cholg‘ular orkestri dirijorligi kafedrasida” pedagog lavozimida qoladi. O‘qituvchilik faoliyati bilan birga T. Jalilov nomidagi filarmoniyada xalq cholg‘ulari orkestri dirijori (1976-1986), xalq cholg‘ulari fakultetining dekani (1985-1988), orkestr dirijorligi kafedrasi mudiri (1992-2010) lavozimida ishlagan.

Shu bilan birga, Firuza Abdurahimova iste’dodli musiqachilar, jumladan, dirijyor va ijrochilarning bir necha avlodini tarbiyalagan tajribali pedagogdir. Uning o‘z dirijyorlik maktabi, o‘z o‘qitish metodikasi bor, ko‘plab yosh dirijyorlar unga amal qiladi. Firuza Ravshanovna talabaga bo‘lajak kasbining butun ahamiyati va go‘zalligini yetkazib berishga harakat qiladigan ustozlardan biri bo‘lib, bunda o‘qitish jarayoni unga og’ir bo‘lmasligiga, olingan bilimlar mustahkam bo‘lishiga harakat qiladi. Ta’kidlash joizki, uning ko‘plab bitiruvchilari katta jamoalarda kasbiy faoliyat boshlagan, keyinchalik o‘z jamoalarini tashkil etgan, ayrimlari ommaviy madaniy va ta’lim muassasalari rahbarlaridir.

Firuza Abdurahimovaning “Dirijyorlik” darslaridagi asosiy pedagogik jihatlarini alohida ta’kidlaydigan bo'lsak - u o‘z shogirdlarini doimo dadil va hissiyotli bo‘lishga o‘rgatar, asarlarning umumiy tahlilini bilishni, partituralarni puxta o‘rganishni talab qilar, dirijyorlik harakatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishni, mimikani kuzatishni, ijrochilarga xushmuomalalik bilan murojaat qilishni o‘qitadi. U doimo dirijyorning qo‘l texnikasi va sahnalashtirishiga, shuningdek, jamoa bilan ishlashda psixologik-pedagogik, artistlik, hissiy-irodaviy kayfiyat, dirijyorning shaxsiy fazilatlariga e’tibor qaratgan. Dirijyorlik darslarida u doimo ta’kidlardiki, eng murakkab vazifa bu musiqa ijrochilarining professional ishonchini qozonishdir, chunki ijro jarayonida dirijyor va orkestr yaxlit bir butun bo‘lishi kerak. Aynan shu lahzada mo‘jiza sodir bo‘ladi – musiqa tug‘iladi.

Orkestr bilan ishlash, dirijorlikka o‘rgatish usullari, orkestr ijrochiligi asoslari bo‘yicha 1991-yilda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib “So‘g‘diyona” nomli xalq cholg’u asboblari orkestrini yaratdi. AQSHda bo‘lib o‘tgan “Oltin Trophy” xalqaro tanlovining 1-darajali laureati. “So‘g‘diyona” orkestri o‘z faoliyati davomida Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Isroil, AQSH, Misr,

Koreya Respublikasi, Indoneziya, Shveytsariya, Yaponiya kabi mamlakatlar musiqachilari bilan xalqaro loyihalarni amalga oshirdi. “Sug‘diyona” milliy cholg’ular davlat kamer orkestri 100 dan ziyod repertuarlarni ijro etgan. Bular, “Oy shulasi”, “Saraton”, “Shabada”, “Boqiy navolar”, “Rivoyat”, “Qonun nag’masi”, “Chanqovuz ussullari” va boshqalar.

Firuza Abdurahimova 2001-yil O‘zbekistonda ansambl va orkestr uchun “Toshkent bahori - 2001” nomli xalqaro festivalini tashkil etdi. 1996 yildan buyon «Navro'z qo'shiqlari» xalq cholg'u asboblari ko'p ovozli ansambllari va orkestrlari Respublika festivali doimiy o'tkazib kelinmoqda, 2015 yildan buyon u xalqaro festivalga aylandi, u yerda tashkilotchi va koordinator hisoblanadi. F. A. ko'p yillar davomida orkestr ijrochiligini rivojlantirish muammolari ustida ishlagan va ushbu sohada bir qator ilmiy- metodik ishlar muallifi bo'lgan: «O‘zbek xalq cholg'ularini modernizatsiya qilish va O'zbekistonda ijro etishning yangi shakllarini yaratish» (1985), «A. I. Petrosyants» monografiyasi Sabirova bilan birgalikda(1994) va «A. Liviyev» (2006); o'rta maxsus va oliy musiqa o'quv yurtlari uchun bir qator o'quv qo'llanmalari : “O'zbekiston musiqasi” (2005), “Orkestr sinfi” (2015,2016, 2018) jamoa ijrochiligi A. Qorabayev bilan birgalikda (2019). Dotsent (1987),professor (2007). Faxriy unvonlar: xalq ta'limi a'lochisi (1984), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist(1997), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (2009). Ikki marta xalq deputatlari Mirzo Ulug'bek raioni Kengashi deputati etib saylangan.

Firuza Abdurahimova bir qancha mukofotlar sovrundori:

1988 – O‘zbekiston xalq maorifi a’lochisi,

1997 – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,

2009 – O‘zbekiston Respublikasi San’at arbobi,

2018 – “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni,

2020 – Rossiya Prezidenti V. V. Putin nomidan G‘alabaning 75-yilligi sharafiga Esdalik medali bilan taqdirlandi

2021 – “Ma’daniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni,

2022 – “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

2023 – yilning eng yaxshi badiy jamoasi “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘u badiiy orkestri g‘oliblik nominatsiyasi bilan taqdirlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Firuza Ravshanova Abdurahimovna dirijorlik san’atida faoliyat yuritayotgan ijodkor. U o‘z kasbiga fidoyilik bilan yondashib, ko‘plab yangiliklar qiladi. Chet el musiqalarini o‘zbek milliy cholg’ularida ham ijro etish mumkinligini, o‘zbek cholg’u asboblarining imkoniyatlarining kenglini ko‘rsatib berib, “So‘g‘diyona” xalq cholg’ulari kamer orkestrini dunyo miqqiyosiga olib chiqdi. Uning «So‘g‘diyona» xalq cholg‘ulari kamer orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijyori sifatidagi faoliyati o‘zbek musiqa an’anasi va madaniyatining o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, uning O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi sifatida e’tirof etilishi uning xalq musiqasini rivojlantirish va ommalashtirish yo‘lida qilgan ulkan mehnatining ifodasidir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, Firuza Ravshanovna kabi insonlar bo‘lajak musiqachilarga ta’lim va tarbiya berishda muhim rol o‘ynaydi, musiqa jamoatchiligiga nafaqat bilim, balki atrofdagi barchani ilhomlantiradigan va rag‘batlantiradigan samimiy fidoyilikni ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asanova D. Musiqa san’ati fidoyisi. // “Toshkent oqshomi”, № 200 (11.511), 13.10.2009.
2. Toshpulatov M. Ezgulik elchisi. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, № 44 (4027), 30.10.2009.

3. Mirzakomilova F. Umrboqiy navolar. // “Jamiyat”. № 39. (208) 24.09.2010.
4. Сабирова Н. Дирижер должен обладать силой духа и верой в свое дело. // “Голос Узбекистана”, № 37 (891), 25.09.2009.
5. Сахиев А. Профессор Фируза Абдурахимова. Слова о наставнике. // https://www.kultura.uz/view_6_r_15572.htm. 22.09.2020.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



UZOQBOYEVA KAMOLA
ZAFARJONOVNA

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Opera tayyorlov” kafedrasi
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar:professor,
HamidovaM.A.

KOMPOZITOR XURSHIDA TURSUNOVA (HASANOVA) IJODIDA BOLALAR QO‘SHIQLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada kompozitor Xurshida Tursunova (Hasanova)ning qo‘shiqlari asosida maktab yoshidagi bolalarning vokal ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish hamda ularning musiqiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Qo‘shiqlarning bolalar ijrosiga mosligi, ularning badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishdagi o‘rni va ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xurshida Hasanova, musiqa, vokal, bolalar, san’at.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования вокально-исполнительских навыков учащихся школьного возраста и развития их музыкально-эстетического мировоззрения на основе песен композитора Хуршиды Турсуновой (Хасановой). Анализируется соответствие песен детскому исполнению, их роль и влияние на расширение художественно-выразительных возможностей детей.

Ключевые слова: Хуршида Хасанова, музыка, вокал, дети, искусство.

Musiqaning inson hayotiga ta’siri beqiyos ekanini hisobga olib, biz bolalarni musiqaga jalb etish, bolalarga ushbu san’at turining go‘zalligi va rang-barangligini ko‘rsatish haqida g‘amxo‘rlik qilishimiz kerak. Bolalarni musiqaga jalb qilish uchun biz bolalarni musiqaga imkon qadar ertaroq tanishtirishimiz,

ularning musiqaga moyilligi va qobiliyatini aniqlashimiz kerak. Bolalar qo‘shiqlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak ijro qilinadigan asarning tarixiy ahamiyatini o‘rganish, va kelajak avlodga singdirish, asarning boy milliy koloritini yo‘qotmagan holda o‘quvchilarga o‘rgatish. Musiqiy ta’limda vokal ijrochiligi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan maqsad va vazifalarimni amalga oshirishda eng muhim va samarali omillardan biri hisoblanadi.

Musiqa janrlari ichida eng “demokratik va ommaviy xususiyatga” ega bo‘lgan tur — bu vokal san’atidir. U insonlarning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni g‘oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalaydi. Xor san’ati ommani estetik ruhda tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni xalq qo‘shiqlari ijodiyoti durdonalari, klassik vokal asarlar namunalari bilan ham tanishtiradi. Respublikamizdagi ijodiy jarayonning yuksalishi bolalar ijodi sohasida ham o‘z aksini topmoqda. 1997 yildan boshlab o‘tkazilgan “O‘zbekiston vatanim manim” qo‘shiq tanlovida boy va qiziqarli tajribalar orttirilgan. Unda barcha kichik yoshdagi xor jamoalari qatnashib, eng zo‘r ijodiy kuchlarni namoyish etishgan. Jamoalarning ijro dasturi rang-barang bo‘lib, unda Sh.Yormatov, N.Norxodjayev, D.Omonullayeva, X.Hasanova, A.Mansurov va boshqa kompozitorlar asarlarini qamrab olgan. O‘zbekiston kompozitorlar ijodida yangi uslublarni mujassam etgan asarlar paydo bo‘lmoqda. Musiqa tarbiyasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o‘qitiladi. Shuning uchun bu o‘quv fanini o‘qitish nazariyasi hamda metodikasini o‘zlashtirishni hozirgi kunda o‘ta ahamiyatli va muhim faoliyatdir. Vokal qo‘shiqlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijrochilik qobilyatlarini shakllantirishga chuquroq yondashadigan bo‘lsak. Maktab yo‘shidagi ta’lim olayotgan bolalarga ilk musiqiy ta’lim jarayonlarini o‘rgatish juda muhimdir. Ular qalbida go‘zallikni xis qilish, Vatanga muhabbat, milliy g‘ururni shakllantirish, bolaning ichki dunyosini boyitish, hamda estetik didini shakllantirish kabi xususiyatlarni musiqa orqali amalga oshirish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan musiqa mashg‘ulotlari badiiy va g‘oyaviy mazmuni bilan bolalarni dunyo qarashini kengaytiradi. Maktab yoshdagi bolalar qo‘shiq aytishi orqali tabiat hodisalari, jonivorlar bilan tanishadi, milliy qadriyat, urf-odat va an’analarning mohiyatini anglab boradi. Yoshga qarab guruhga bo‘lingan tarbiyalanuvchilarga imkoniyatini hisobga olgan holda musiqiy bilim beriladi.

Oxirgi paytda bolalar uchun estrada yo‘nalishidagi, pop-musiqa uslubida asarlarni ijod etish ham yuz bermoqda. Mustaqillik sharoitida xalqning ma’naviy madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlash ishlari muhim, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalariga aylangan. Xalqning an’nalarini va qadimgi “Navro‘z” kabi bayramlarni tiklash, yangi Mustaqillik Konstitutasiyasi, Bilimlar va Murabbiylar bayramlarini joriy etish, xalqaro (“Sharq Taronalari” va boshqa) musiqa festivallarini va anjumanlarini joriy etish – buning hammasi musiqa,shu jumladan xor madaniyati sohasida yangi shakllarni izlab topish faoliyatini jadallashtirish talab etmoqda. O‘zbekiston bolalar ijrochilik madaniyati rivojiga, bu sohada erishilgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, bolalar xor san’ati faol

targ‘ibotchisi Xurshida Tursunova (Hasanova) o‘z hayot va ijod yo‘lida bolalar xori uchun yuzlab kompozitsiyalarga qo‘l urgan. Biz bilamizki Tursunova X. o‘zining 50 nafar qo‘shiqlaridan iborat ‘‘qo‘shiqlar sehri’’ nomli o‘quv qo‘llanmasini chop etirdi. Ushbu qo‘llanma ‘‘Maktab yoshidagi’’ va ‘‘Maktabgacha ta‘lim muassalaridagi’’ bolajonlar uchun yozilgan. Uning asarlari respublikamiz bo‘ylab keng tarqalgan. Aynan kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan asarlar bo‘lganligi uchun va ularning yosh xususiyatlari va diapazonlariga juda mos keladi. Uning asarlari hozirgi kunga qadar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida, musiqa maktabi va maktab repertuarlaridan munosib o‘rin olganini ta`kidlash joiz. Tursunova X. asarlari bolalar xor ijrochiligida o‘rni beqiyos, sababi har bir asarda bola intonatsiyasi uchun qulaylik, xalqqa yaqin milliy ohang, she’r so‘zlariga uyg‘unlik va tez quloqqa singadigan melodiyadan iboratligini ko‘rish mumkin.

Bolalar musiqasi ijrochiligi bilan muntazam ravishda shug‘ullangan ijodkor, bolaning xarakteridan kelib chiqib, qanday ohangni bola eslab qolishi, qaysi musiqadan zerikmasdan kuylay olishi, xorda bolalarning ovoz tessituralari haqida chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ldi va ushbu o‘rgangan bilimlarini o‘zining asarlarida foydalandi. Dastlab bolalar uchun qo‘shiq janridan keng foydalangan kompozitor keyinchalik estrada kabi xilma-xil yirik asarlarga qo‘l urgan kompozitor asarlari nafaqat maktab yoshidagi o‘quvchilarga, balki bog‘cha yoshidagi bolalar uchun ham o‘rganishga qulayligi bilan ham xarakterlanadi. Beg‘ubor ba yorqin melodiyalar bolalar qalbiga oson va chuqur singib boradi.

Bunga birgina “ Negadur ’’ asarini misol qilishimiz mumkin. ‘‘Negadir’’asari surati yangrash jihatidan tez bo‘lib 4/4 o‘lchamda, re-major tonalligida yozilgan va asar tantanavor bo‘lib, kvarta kvinta intervallarining jarangdor bo‘lib eshitilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Dastlab 4 takt fortepianodan, keyin xor ijrosidan boshlanadi. Ritmik jihatdan me’yorida yozilgan va ayniqsa eslab qolishga qulay ritmlardan foydalangan va kuy harakati melodik jihatdan juda ham yorqindir. Ovoz tessituralarining joylashishi va xonanadlarning bir-biri bilan konsonans tushishini yanada qulay bastalanganligini ko‘rish mumkin. Kuplet shaklda yozilgan bo‘lib, oddiy ikki qismli shakl elementlarini ko‘rishimiz mumkin. Asarning badiiy mazmuni go‘zal, sehrli, kecha-kunduzning eng zavqli yo‘shlik davri aks ettirilgan. Ya’ni, insonning kuch quvvatga to‘lishi katta hayotga qadam qo‘yishi va hozirgi yaratib berilayotgan shart-sharoitlar hamda ichki kechinmalari ham tasvirlangan. Aynan shu kabi asarlar maktabgacha yoshdagi bolalarning qulog‘iga tezroq singib boradi. Maktab yoshdagi bolalar bilan bu turdagi qo‘shiqlarni ishlash jarayonida bevosita yoshlarga she`r so‘zlari hamda ohang orqali ma‘naviy ozuqa beriladi deyilsa, mubolag`a bo‘lmaydi. Asarning xotimasi ko‘tarinkilik kayfiyatida yakunlanishini ko‘rish mumkin. Bunda asar davomida tonal plan ma’lum darajada almashinib ijrochilarni yuqori tonlarga tomon qiynalmasdan yetib borishlari uchun sharoit yaratib bergan. Undan tashqari, asarning so‘zlari ham musiqa bilan bevosita mos bo‘lganligi uchun intonatsion kuylash uchun qulay tasvirlanganini

ko‘rish mumkin. Asarning ijrochi uchun murakkab bo‘lgan joylarini dastlab harakatli raspevkalar, ritm charxlovchi mashqlar, xorning har tomonga yoyilib ichki sezgilari orqali tushunib kuylashi, undan tashqari, har bir ijrochi boshqa partiyalarni ham melodiyalarini va ularni farqlay ola bilishi kerak. Undan tashqari musiqa maktablarida faoliyat yuritayotgan yosh pedagog-xormeysterlar uchun ham ma’lum bir darajada amaliyot va metodik maktab sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Yosh vokal ustozlari rahbarlari uchun repertuar tanlash va uni bolalar bilan ishlash jarayonlarini bir muncha osonlashtiradi. Yuqorida misol keltirilgan ‘‘Negadur’’ asari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Asarning metodik ishlash jarayoniga kelsak so‘zga matndagi unli va undosh harflarga tayanib ishlash bolalarda ijro ko‘nikmasini tushunishi uchun birmuncha qulaylik tug‘diradi. Asarni badiy jihatdan yoritib berish uchun avallo asarning mo‘tadil tempini aniqlab olishimiz zarur. Ijroning eng muhim taraflaridan yana biri dinamik plani va lirik jihati ustida ko‘proq ishlash kerak bo‘ladi va bu hamma elementlarni hisobga olgan holda bu ijodkor, bolalar repertuarlariga ulkan hissa qo‘shgan kompozitorlardan biri hisoblanadi.

Uning yaratgan qo‘shiqlari tessitura jihatdan qulay bo‘lsada o‘ziga yarasha avjlari mavjud, shu avj nuqtalarga sof erishish uchun bevosita musiqa rahbarlari keng ko‘lamda raspevkalardan foydalanishi kerak yani diksiyaga, yuqori notalarga ansamblga, partiyalar aro unisonga ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kompozitorning barcha asarlari asosan tovushlar orqali mazmunli va hisli yetkazishga qaratilgan. Uning ushbu bolalar uchun yozgan xor asarlarini O‘zbekistonda ijod qilayotgan jamiyki xor jamoalari uchun samarali tarzda foyda beradigan ma’naviy me’ros deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Xor bilan ishlash jarayonida asar qayta-qayta yangrab, xaqlning ko‘ngliga oson kirib boradi va o‘lmas asarlardan biriga aylanadi degan umiddamiz. Yosh xor rahbarlari uchun ushbu asar ma’lum darajada professional amaliyot maktabi vazifasini o‘tashiga ishonchimiz komil. O‘zbekiston kompozitorlari ijodida va ayniqsa Tursunova X. ijodida bolalar xori uchun yozilgan asarlarning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga muxlis qila oladigan, hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Bugungi kunda zamonaviy kompozitorlar tomonidan turli janrlarda yaratilgan asarlari bolalarni vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirishda, barkamol avlod bo‘lib shakllanishida, estetik tarbiyasini rivojlantirishda hamda ezgulikka chorlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunova (Hasanova) Xurshida. Qo‘shiqlar sehri.- T.: Muharrir, 2012. – 180 b.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025

VOXOBOVA XURSANOY
ISLOM QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor,
Matyakubova S.K.

FARG‘ONA AYOLLARI FOLKLORI
(Ye.Ye.Romanovskaya tadqiqotlari misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq folklorining muhim bo‘lagi – ayollar folklori, uning asosiy xususiyatlari, muammolari, Ye.Ye. Romanovskayaning Farg‘ona vodiysiga uyushtirgan ekspeditsiyalari va jarayon davomida vodiy ayollaridan yozib olingan folklor qo‘shiqlari to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, folklor, ekspeditsiya, tadqiqot, Farg‘ona folklori, qo‘shiq, Ye.Ye.Romanovskaya, o‘g‘zaki san’at, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье рассматривается важная часть узбекского народного фольклора — женский фольклор, его основные особенности и проблемы. Также освещаются экспедиции, организованные Е.Е. Романовской в Ферганскую долину, и записанные ею в ходе этих исследований фольклорные песни, исполненные женщинами долины.

Ключевые слова: музыка, фольклор, экспедиция, исследование, ферганский фольклор, песня, Е.Е. Романовская, устное искусство, культурное наследие.

O‘zbek xalqi o‘ziga bek xalq. U boy madaniy merosga ega bo‘lib, uning eng bebaho boyliklaridan biri bu og‘zaki xalq ijodiyotidir. Asrlar davomida shakllanib, taraqqiy topib kelayotgan ushbu ma’naviy xazinaning kelib chiqish ildizlari esa insoniyatninig yaralishi va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liqdir. Og‘zaki san’atimiz uzoq asrlardan buyon avloddan-avlodga o‘tib bugungi kunga qadar sayqallanib kelmoqda.

Boy an’analar asosida qurilgan folklor san’atimiz ko‘plab yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ular orasida ayollar folklori o‘ziga xos mavqe va ahamiyatga egadir. “O‘zbek ayollarining erksiz hayoti o‘z mavzusi, o‘z musiqiy tili, o‘z qo‘shiqlarini yaratmasligi mumkin emas” [5], deb ta’kidlagan edi Ye.Ye.Romanovskaya. Ular shunisi bilan ahamiyatliki, har bir namuna o‘zbek ayolining hissiyotlari, ijtimoiy hayotdagi o‘rni, kundalik turmush tarzi, bundan tashqari faqatgina o‘ziga ayon

bo‘lgan ruhiy holati, noroziligini aks ettiradi. Ularni Farg‘ona vodiysi ayollari folklori misolida Ye.Romanovskaya tadqiqotlariga tayangan holda yoritishga harakat qilamiz.

Farg‘ona vodiysi nafaqat go‘zal tabiati, balki boy folklor an’analari bilan ham mashhurdir. Uning serqirra folklori ayollar ovozi bilan to‘lqinlanadi. Bu qo‘shiqlarda hayot tashvishi, muhabbat, orzu, umid yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ammo bu ovozlar uzoq vaqtlar davomida sahna va tarix uchun sir bo‘lib qoldi.. Bunga ko‘plab ijtimoiy to‘siqlar sabab bo‘lgandi. O‘sha davrlardagi diniy qarashlar, ya’ni ayollarning ochiq ijod qilishi, ayniqsa musiqa sohasida bo‘lishlari, kuylashlari “o‘rinsiz” deb baholanishi, an’anaviy jamiyatda asosan erkak ijrochilar qatnashib, ayollar ijodiga maishiy, “havoiy” deb qaralishi va shu sabab ularning ijodi faqat oila va ayollar davrasidagina ijro etilgani hamda yana bir jihat yozma manbalar yetishmasligini sabablar sifatidada keltirishimiz mumkin.

Ayollar folklorining katta ahamiyatiga qaramay, uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqotlarda chekka qolgan, chunki etnograflar va musiqashunoslar asosan erkaklar ijro uslublariga e’tibor qaratgan. Ammo Ye. Romanovskayaning ishi Farg‘ona vodiysining ayollar musiqiy merosini o‘rganishda katta yutuqqa erishdi. U nafaqat ko‘plab qo‘shiqlarni yozib oldi, balki ularning melodik va ritmik xususiyatlarini tahlil qilib, ayollar ijrosining o‘ziga xos jihatlarini aniqlab berdi. O‘zbekiston bo‘ylab ko‘plab ekspeditsiyalar uyushtirib, ularni o‘rganish, yozib olish va notaga tushirish bo‘yicha salmoqli faoliyat olib bordi va katta kuch sarfladi.

Yelena Yevgenyevna Romanovskaya (1890-1947) – musiqashunos, etnograf, o‘zbek xalq musiqasini o‘rganishga katta hissasini qo‘shgan folklorshunos, targ‘ibotchi. U o‘z ilmiy faoliyati, izlanishlari, V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlar bilan birgalikda turli hududlarga uyushtirgan ekspeditsiyalari asosida o‘zbek folklorining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga intilgan. Aynan Ye. Romanovskaya tadqiqotlarida ayollar folklori, ularnng repertuari, ijro uslubi va an’analari ilk bor o‘rganildi, ular haqida qimmatli manba bo‘lib hizmat qiluvchi ma’lumot va nota yozuvlari qoldirildi. Hamma yig‘ilgan manbalar yordamida folklor janrlarini klassifikatsiya ham qildi. Bu yo‘nalishlarda Ye.Romanovskayaning ilmiy merosi beqiyos qiymatga egadir.

Farg‘ona vodiysiga uyushtirilgan ekspeditsiyalari Ye. Romanovskayaning katta tadqiqot ishlaridan biridir. Birinchi folklor ekspeditsiyasi 1931-yilning yoz oylarida boshlanib, Farg‘onaning Marg‘ilon, Andijon va Osh shaharlarini o‘ziga qamrab oldi. Unda Ye.Romanovskaya, V.A.Uspenskiy, Ilyos Akbarov va uning rafiqasi Hafiyaxon Muhamedovalar qatnashdilar. Jarayon natijasida 200 ga yaqin xalq musiqa namunalari yozib olindi. Ushbu ekspeditsiyada keyinchalik ularning faoliyatini davom ettirgan ilk folklorshunos o‘zbek ayoli Karima Ahmedova ham faol ishtrok etgan edi.

Ye. Romanovskaya va H.Muhamedova to‘plagan barcha namunalar ayollardan yozib olingan bo‘lib, bu o‘zbek musiqa tarixida ayollar folklori tomon tashlangan ilk qadamlardan edi. Ular Andijonda L.Sarimsoqova, Mukarrama Azizova, Xomida Maqsum kabi ayollardan 60dan ortiq, Oshda kolxoz ishchilari va bolalardan 12ta, Marg‘ilonda Zebixon O‘lmasova, Oyimjon Saidova va boshqalardan 33dan ortiq folklor namunalarni yozib olganlar. Ijrochilar orasida bolalar va oddiy uy-bekalaridan tortib ishchilar, teatr artistlarigacha bo‘lgan

vakillar bor edi. Ayollar qo‘shiqlarga dutor va asosan doirani jo‘r qilib kuyladilar va bu cholg‘ular deyarli barcha xonadonlarda uchrar edi. Yozib olingan qo‘shiqlarining katta qismi dutor jo‘rligida ijro etilganligi sabab kuy yo‘lidan tashqari dutor akkompanimenti ham notaga tushirilgan.

Ayollarning dutori erkaklarnikidan hajmi birozgina kichikligi bilan ajralib, yumshoq jarangga ega. Ba’zi ayollar uni qo‘shiq kuyiga ergashgan holda ikki torini parallel kvarta-kvintalar bilan ijro etgan bo‘lasalar, ba’zilari bir torda ovoz kuyini takrorlaganlar. Ba’zida esa turg‘un ohanglar asosida tovushlarni takroran chertish bilan yoki ovozga pauza berilgan payt kichik cholg‘u qism sifatida ijro etish bilan kifoyalanganlar. Shuningdek, melizmli murakkab kuylar ham uchraydi, ya’ni to‘liq erkinlikka ega jo‘r soz qo‘shiq kuyiga ergashmaydi yoki takrorlamaydi, balki mustaqil ravishda harakat qiladi.

«Е.Е.Романовская. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора» to‘plamida Farg‘ona ayollaridan yozib olingan namunalar jamlangan. Qo‘shiqlar tematikasi, ya’ni mazmun doirasi to‘g‘risida esa yuqorida so‘z olib borilagan edi. Quyidagi misollar orqali ayollar qo‘shiqlarini mazmunan ko‘rib chiqamiz

Zulm etib, mazlumlarni xor qilmoq shunchalar,
Cho‘ridek zo‘rlab sotib, ozor bermoq shunchalar!
Hech kishi aytolmagan “inson bu” deb men xorni,
Ixtiyorim qo‘ldan olib zor qilmoq shunchalar!
Sevdigim xijronda kuysa yo‘llarimga intizor,
Sevmagan bir cholga zo‘rlab, yor qilmoq shunchalar[4].

Ushbu qo‘shiq o‘tgan davr ayolining tasviri desak ham mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Romanovskaya tomonidan yozib olingan Muqimiy so‘zlari asosida bastalanib, xalq mulkiga aylangan bu namuna o‘zida bir ayol boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan taqdiri, dard-alamlarini o‘zida mujassam etgan. Unda jamiyatda ayollarni inson emas, balki uy-ro‘zg‘or ishlarini qilishga mahkum etilgan “qul” sifatida ko‘rillishi, bag‘ritosh otalarning o‘z manfaati yo‘lida, boylik, mansab ilinjida qizini yoshi o‘zidan katta erkakka sotishga ham tayyorligi, qizning ko‘ngli, maqsadlari va orzulari haqida biror kimsa o‘ylab ham ko‘rmasligi, qalbida g‘unchalagan muhabbati esa ochilmasdan sarobga aylanishi va eng achinarlisi u bularning bariga ko‘nib yashashga majburligi yorqin aks ettirilgan. Ular shu qo‘shiqlardan taskin topganlar, dilidagi gaplarini kuylab yengil tortganlar.

Shunday taqdir peshonalariga bitilgan bo‘lsada, matonatli o‘zbek ayollari uchun tushkunlik, umidsizlik yod tuyg‘ulardir. “Umuman olganda, mahalliy ayollarni chaqqon, hushchaqchaq va hatto sho‘x desa ham bo‘ladi. Hayotidagi iqtisodiy tanglikka qaramay kayfiyati noxush bo‘lganda ham qahqaha otib kulish, qo‘shiq aytishdan qaytmaydi. Ayniqsa, yoshlik chog‘larida doimo kuylaydi, o‘ynaydi”[3]. Zero ular uchun bu holatlar odatiy, yashash uchun esa kurashmoq, ba’zida esa hatto o‘zini ham yengib, oyoqqa turmoq kerak.

“Ayollar qo‘shiqlarida qaynona va kelin o‘rtasidagi turli-tuman munosabatlar ham o‘z ifodasini topadi”[3]. Ye. Romanovskaya shunday mavzudagi qo‘shiqlarni ham yozib olgan. Misol sifatida “Qaynona-kelin” dialog-qo‘shig‘ini keltiramiz

–Ko‘zim ochib qarasam,
Qorong‘ida ekanman.

Also yopinmagayman
Iflos paranjingizni!
–Qani o‘g‘lim kelsinchi,
Bu gaplarni bilsinchi,
Javobingni bersinchi,
Meni elamay qo‘yding! [4]

Ushbu qo‘shiqning kichik bir parchasida nafaqat qaynonaning kelinga nisbatan munosabati, balki ayollarning erkin yashashga, jamiyatda ularga qo‘yilgan to‘siq va eskirgan qarashlarni yengib o‘z o‘rnini topishga, ilm olib, yorug‘likka tomon intilishga urinishlari yaqqol ko‘rinib turibdi. Umuman olganda folklor san’atining vazifasi ham shunda – xalqning bor-u yo‘g‘ini o‘zida haqqoniy aks ettirishdir

1939-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy yubileyi munosabati bilan uning qo‘shiqlarini yozib olish uchun Farg‘onaga yana bir ekspeditsiya uyushtiriladi. Ye. Romanovskaya va I.Akbarov Hamza hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan shaharlar Farg‘ona, Qo‘qon va Shohimardon, Vodil, Avval qishloqlarida ish olib boradilar. Natijada 25 ta namuna yozib olinib, keyinchalik 1941-yil to‘plam sifatida chop ettiriladi. Va shu yilgi ekspeditsiya Ye. Romanovskayaning Fag‘onaga qilgan ohirgi safari edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ayollar folklori xalq ijodining noyob qatlami, u nafaqat musiqiy an’analarni aks ettiradi, balki kundalik hayot, his-tuyg‘ular va jamiyatdagi ayollarning o‘rnini ham namoyish etadi. Erkaklar ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan qahramonlik va tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgan qo‘shiqlardan farqli o‘laroq, ayollar qo‘shiqlari ko‘proq oila, onalik, mehnat, sevgi va yo‘qotish mavzularini o‘z ichiga oladi.

Ye. Romanovskayaning tadqiqotlari esa nafaqat ayollar folklorini o‘rganishdagi muhim ilmiy yutuq, balki butun bir madaniy qatlamni tiklash va tushunish yo‘lidagi bebaho hissadir. U yozib olgan qo‘shiqlar orqali biz nafaqat ayollar ijrosining o‘ziga xos jihatlarini anglaymiz, balki bu qo‘shiqlarning orqasida yotgan hayotiy kechinmalar, ijtimoiy o‘zgarishlar va tarixiy haqiqatlarni ham chuqurroq his qilamiz. Izlanishlar yana shuni ko‘rsatadiki, ayollar folklori bu oddiy qo‘shiqlar majmuasi emas, balki millatning yuragi, dardu quvonchi, hayot falsafasi va o‘zlik ifodasidir. U bizga o‘tmish avlodlarning ovozini eshitish, ularning hayotini tasavvur qilish va madaniy merosni asrab-avaylash uchun imkon yaratadi. Shunday ekan, Ye. Romanovskayaning izlanishlari nafaqat qimmatli ilmiy meros, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun tarix qaridan taraluvchi ilhom manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova K. “O‘zbek ayoli hayotida musiqa” – T.: “Yozuvchi”, 1996-y.
2. Ковбас М. “Е.Е.Романовская как исследователь узбекской народной музыки”, М. 1967-г.
3. Наликин В, Наливкина М. “Очерк быта женщин туземного населения Ферганы” г.Казань, 1886-г.
4. Романовская Е.Е. “Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора” – Т.:1957-г.

ISBN 978-9910-656-36-1

TOSHKENT-2025



XOLIQNAZAROVA E’ZOZA
ILHOMJON QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“O‘zbek musiqa tarixi” kafedrasi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor,
Ganiyeva I.A.

O‘ZBEK DUTOR IJROCHILIGINING YETAKCHI SIYMOSI – MALIKA ZIYOYEVA

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor, dutor cholg‘usining mohir sozandasi, ustoz pedagog Malika Ziyayevaning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan.Malika Ziyoyevaning noyob ijro uslubi, mashhur shogirdlari va pedagogik faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Fahriddin Sodiqov, musiqa, cholg‘u, dutor, zarb, uslub.

Аннотация: Данная статья посвящена творчеству великолепной исполнительницы на дутаре, заслуженной артистки Узбекистана, профессора Малике Зияевой. В статье даются сведения об её уникальном стиле, манере исполнения и педагогической деятельности.

Ключевые слова: Фахриддин Садыков, музыка, инструмент, дутар, стиль.

O‘zbekistonda san’at va madaniyat rivojlanishi juda uzoq asrlik tarixga ega. Shu jumladan musiqa merosimiz boy va rang-barangligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi boshqa sohalar singari, madaniyat sohasida ham o‘ziga xos jihatlar, qonun-qoidalar, uni rivojlanisi uchun chiqarilgan qarorlar muhim ahamiyatga ega.

Musiqa insonga estetik zavq berish bilan birga, yon-atrofdagi go‘zallikni his etish imkoniyatini beradi. Musiqa ana shunday nozik tuyg‘ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Musiqiy cholg‘ular esa, insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni inson ijodiyoti mahsuli bo‘lib, har bir xalqning ijtimoiy ma’naviy jarayonlarini ifodalovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Cholg‘ulardan taraladigan ohanglar xalqning ruhiyatidan kelib chiqib yaratiladi. O‘zbek xalqi boy qadimiy merosga ega bo‘lib, bunda musiqiy cholg‘ularning o‘rni juda katta.

Ayollar ijrochiligi san’atida sozanda ayollarning o‘rni beqiyos. Bunga qadimda Dalvarzintepa, Ayritom frizi kabi qadimiy shahar xarobalaridan topilgan ayol sozandalar haykalchalari misol bo‘la oladi. Dutor cholg‘usiga to‘xtalar ekanmiz, ushbu yo‘nalishda juda ham ko‘plab san’at fidoiylari yetishib chiqqanlar. Bulardan: Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, G‘ulomjon Qo‘chqorov,Orif Qosimov, Saodat Qobulova, Malika Ziyayeva kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yana bundan tashqari ansambllar tashkil etilgan. Ushbu sozandalar “Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli” da ham faoliyat olib borishgan. G‘anijon Toshmatov rahbarligidagi dutorchi qizlar ansambli tuzilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning shogirdi O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova rahbarligidagi dutorchi qizlar ansambli faoliyat yuritib kelmoqda.

Mazkur maqola O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor, mohir dutor sozandasi, Fahriddin Sodiqov ijro uslubini maktab darajasiga yetkazgan ilm fidoiysi, hozirgi kunda ham Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati institutida talaba yoshlarga o‘z bilim va tajribasini beminnat ulashayotgan jonkuyar ustoz Malika Ziyayeva ijodiga bag‘ishlangan.

Ustoz Malika Ziyoyeva 1956-yil 1-fevralda Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Yoshligidan musiqaga qiziqish bo‘lganligi va aynan dutor cholg‘usiga mehr qo‘yganligi sababli, Farg‘ona shahrida 1-maktab internatiga o‘qishga kiradi.

1969-yil Farg‘ona musiqa bilim yurtiga dutor sinfiga o‘qishga qabul qilinib, Kimsanxon Ahmedovada tahsil oladi. Undan so‘ng, marg‘ilon shahri Ma’murjon Uzoqov nomidagi 1-musiqa maktabining dutor sinfiga o‘qituvchi sifatida ish boshlaydi.

Malika Ziyoyeva maktabda dutor sinfi dasturidagi adabiyotlar yo‘q bo‘lganligi sababli o‘quvchilar uchun o‘zi dutor zarblari va kichik xalq kuylarini dutor uchun moslashtiradi. Partituralar yozib orkestr uchun sozlarga bo‘lib chiqqan va shu orkestrga dirijiorlik qilgan.

1972- yilda yo‘llanma asosida Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘qishga qabul qilinadi. Aynan shu yilda musiqashunos, folklorshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Fayzulla Muzaffarovich Karamatov tashabbusi va rahbarligi ostida Toshkent davlat Konservatoriyasi qoshida sharq musiqasi fakulteti tashkil etiladi. Malika Ziyoyeva shu fakultetga o‘tishga qaror qiladi va “Sharq musiqasi” fakultetida o‘qishni boshlaydi. Mutaxasislikdan esa Fahriddin Sodiqovda tahsil oladi.

Ustozidan ta’lim olish jarayonida Malikaxon Ziyoyeva Faxriddin Sodiqovning dutor ijrochilik mahoratini to‘laligicha o‘zlashtirishga harakat qilardi.

Malika Ziyoyeva Faxriddin Sodiqovdan 2 yil davomida ta’lim olib, talabaligining so‘nggi yilida Abduraxim Hamidov qo‘lida 1979-yilda muvaffaqiyatli tamomladi va “O‘zbekiston teleradio” kompaniyasi huzuridagi “Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli”da ish boshladi.

Ustoz Malika Ziyoyeva ansambldagi sozandalik faoliyati davrida maqom san’ati darg‘alari bilan birgalikda faoliyat olib bordi. Bular Orif Qosimov, Berta Davidova, Komuna Ismoilova, Ismoil va Isroil Vahobovlar, Orifali Mahsumov, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonovlar, Matluba Dadaboyeva va boshqa san’atkorlar bilan birgalikda ishlaydi. Bundan tashqari ansamblning yosh

xonandasi Komila Aminova bilan ijodiy hamkorlik qilib, ilk bor Saida Zununova so‘zi bilan «O‘ttimu» ashulasini yakka dutor jo‘rligida ijro qilishgan. Bu ijrodan ilhomlangan Turg‘un Alimatov Malika Ziyoyevaga bunday yakka dutor jo‘rligidagi ashulalarni ko‘paytirish kerak deb maslahat beradi.[30] Shundan so‘ng, ikki ijrochi Malika Ziyoyeva va Komila Aminova radioda yakka dutor jo‘rligida o‘n oltita ashula: «O‘zgancha», «Ko‘rmadim», «So‘rmading» kabilarni yozishadi.

Malika Ziyoyeva O‘zbekiston xalq artisti Munojat Yo‘lchiyeva bilan birgalikda ashulalarni radio fondiga yozib ola boshlaydilar.Shunday hamkorliklardan so‘ng ikki ijodkorning Shavkat Mirzayev rahbarligidagi jamoasining Respublika va chet el safarlari boshlanadi.

Ular Yevropa bo‘ylab Fransiya, Germaniya, Norvegiya, Shvetsariya, Shvetsiya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya, Norvegiya, Rossiya kabi bir qator davlatlarda katta konsert dasturlarida va festivallarda ishtirok etishdi. Italiyaning “Laskala” teatri sahnasida ham bir necha bor konsert qo‘yishadi. Konsertlar juda muvafaqqiyatli o‘tkaziladi.

Malika Ziyoyevaning pedagogik faoliyatini gapiradigan bo‘lsak, yuzlab shogirdlarni tarbiyalagan. Bular: Ilyos Arabov, Farangiz Mahmudova, Bekzod Safarov, Feruza Ochilova, Dilfuza Yo‘lchiyeva va boshqalardir. Sevimli shogirdlaridan bo‘lgan Ilyos Arabov o‘zining “Bugungi kunda dutor ijrochiligi maktabining rivojlanishi: Malikaxon Ziyayeva ijodi misolida” nomli maqolasida ustoziga shunday ta’rif beradi: “Eng quvonarlisi shundaki, ustoz Malika Ziyayeva juda katta maktab yarata oldilar. Voha-yu vodiy har bir viloyatlarga ularning o‘quvchi sozandalari keng tarqaldi va o‘z yaratgan maktablarini yosh kadrlarga o‘rgatib kelmoqdalar”.[31]

Shu jumladan, qizlari va shogirdi Farangiz Mahmudova ham “Dutor cholg‘u ijrochiligida ayol ijrochilarning o‘rni: Malikaxon Ziyayeva misolida” maqolasida ustoz haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tgan: “O‘zining fidokorona mehnati, samarali ijodi bilan milliy musiqa merosimizni shakllantirish, rivojlantirish va asrab-avaylashga ulkan hissa qo‘shgan ustoz ijrochilarning ijro maktablari va uslublari zamonaviy musiqa san’ati yo‘nalishida yosh ijrochilarni tarbiyalashda ibratli qo‘llanma sifatida foydalanilmoqda”. [32] Yana “Ustoz sozanda Malika Ziyayeva” nomli maqola ham yozgan va ushbu maqolada: “Malika Ziyayevaning shogirdlari nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo‘ylab tarqalgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi” deb aytib o‘tganlar.[33]

Shunday shogirdlaridan, Buyuk Britaniyada ish faoliyatini olib borayotgan Roziyaxon Sultonova, Germaniyalik Anettaxonim va AQSHlik Tanya Merchard kabi shogirdlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Tanya Merchard ***«O‘rta Osiyo sozanda ayollari***» nomli kitob yozgan va bu kitobda Malika Ziyoyeva ijodini to‘la yoritib bergan. 2014-yil Tanya Merchard ustozini AQShning Santa Kruz shahriga

---

[30] Malika Ziyoyeva bilan bo’lgan suhbatdan. 01.03.2025.Toshkent.

[31] Arabov.I “Bugungi kunda dutor ijrochiligi maktabining rivojlanishi: Malikaxon Ziyayeva ijodi misolida”.”Pedagogika” jurnali, 2023-yil. 469-bet

[32] Makhmudova .F. “The role of female performers in the instrumental performance of dutar: on the example of Malikahon Ziyayeva”.// “The European Journal of Arts”. 2025. 51-53 page.

[33] Mahmudova. F. “Ustoz sozanda Malika Ziyayeva”//”Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansanblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag’ishlangan maqolalar to’plami”. Toshkent. 2019-yil. 149-153 betlar.

taklif qilib, Fahriddin Sodiqov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ustoz Malika Ziyoyeva rahbarligida Tanya Merchard tashabbusi bilan konsert qo‘yiladi. Ushbu konsertda amerikalik talabalar ijrosida Fahriddin Sodiqovning dutorga moslashtirilgan asarlari ijro qilinib, olqishlarga sazovor bo‘ldilar.

2005-yilda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida, ustoz sozanda Malika Ziyoyeva rahbarligida «Shukrona» professional dutorchilar ansambli tashkil etildi. Ushbu ansamblni tashkil etishdan asosiy maqsad, bastakor Faxriddin Sodiqovning dutor ijrochilik an’anasi va uslubini yanada keng targ‘ib qilish, rivojlantirish, yetishib chiqayotgan yosh ijrochilar orasida ana shu ijrochilik an’anasini keng yoyishdan iborat edi.

Hozirgi vaqtga kelib ansambl repetuarida: «Sarahbori buzruk», «Rok», «Savti kalon», «Tasnif navo”, “Gardun navo», «Segoh”, “Nasri Segoh”, “Ufari nasri segoh», va yana qator kuylar bo‘lib, barchasi «Shukrona» professional dutorchilar ansambli tomonidan ijro qilib kelinmoqda.

“Shukrona” ansanbli 2018 yil sentyabr oyida, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida o‘tkazilgan I Xalqaro maqom festivalining ochilish marosimida ishtirok etib, tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘ldilar.

Konservatoriyadagi pedagogik faoliyati orqali Malika Ziyoyeva ilmiy faoliyati davomida Faxriddin Sodiqovdan o‘rgangan kuylarini va o‘zbek maqomlaridan ayrim namunalarni dutorga moslashtirib notaga tushirdi. 2007-yilda Malika Ziyoyeva faoliyatining samarasi sifatida O‘zDK tomonidan dotsent ilmiy unvoni bilan taqdirlandi. 2008-yilda barcha nota to‘plamlarini kitob holiga keltirib, «Dutor- Fahriddin Sodiqov ijro uslubi» I o‘quv qo‘llanmasi va 2012-yilda «Dutor-Fahriddin Sodiqov ijro uslubi» nomi bilan II o‘quv qo‘llanmasi nashr qilindi.

“An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” (DUTOR)- bu o‘quv qo‘llanmasida Malika Ziyayeva tomonidan Shashmaqom cholg‘u va ashula bo‘limidagi asarlar, dutor soziga moslashtirib yozib olingan nota yozuvlari, ularning audiolari berilgan bo‘lib, QR kod orqali foydalanib, tinglash tavsiya etiladi.

2024 yil “15 aprel O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at xodimlari kuni” munosabati bilan «Maqom cholg‘u ijrochiligi» kafedrasi professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Malika Ziyayeva “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

2024-yilning 28-sentyabr kuni Malika Ziyayevaga professorlik ilmiy unvoni topshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malika Ziyoyeva bilan bo‘lgan suxbatdan. 01.03.2025.Toshkent.
2. Arabov.I “Bugungi kunda dutor ijrochiligi maktabining rivojlanishi: Malikaxon Ziyayeva ijodi misolida”.”Pedagogika” jurnali, 2023-yil. 469-bet
3. Makhmudova .F. “The role of female performers in the instrumental performance of dutar: on the example of Malikahon Ziyayeva”.// “The European Journal of Arts”. 2025. 51-53 page.
4. Mahmudova. F. “Ustoz sozanda Malika Ziyayeva”//”Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansanblining 60 yillik ijodiy va amaliy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami”. Toshkent. 2019-yil. 149-153 betlar.



O‘zbekiston Ayol Ijodkorlari:
Tarixiy Aspektlar Va Zamonaviy
Istiqbollar

ISBN 978-9910-656-36-1

Professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar
va talabalar Respublika ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami

TOSHKENT-2025

YULDASHEVA AZIZA
BAXROM QIZI

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Musiqa tarixi va tanqidi” kafedrasi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: s.f.n., professor, Kasimxo‘jayeva S.B.

MUSIQA SAN’ATIDA AYOLLARNING O‘RNI

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘zbek ayol kompozitorlarining ijodiy faoliyati va musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Dilorom Saidaminova, Dilorom Amanullayeva, Xurshida Hasanova, Oydin Abdullayeva va Dilnoz Zokirova kabi yetuk kompozitorlarning asarlari va ijodiy yutuqlari tahlil etiladi. Ularning milliy va zamonaviy musiqiy yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirishdagi izlanishlari hamda xalqaro maydonda erishgan muvaffaqiyatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Ijod, musiqa, madaniyat, kompozitor, asar, janr, zamonaviy, milliy, qo‘shiq.

Аннотация: В данной статье освещена творческая деятельность узбекских женщин-композиторов и их вклад в развитие музыкального искусства. Анализируются произведения и творческие достижения таких выдающихся композиторов, как Дилором Саидаминова, Дилором Амануллаева, Хуршида Хасанова, Ойдин Абдуллаева и Дилноз Зокирова. Представлена подробная информация об их поисках в области синтеза национальных и современных музыкальных направлений, а также об успехах на международной арене.

Ключевые слова: Творчество, музыка, культура, композитор, произведение, жанр, современное, национальное, песенное.

Musiqa san’ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishida erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham muhim roli mavjud. Turli davrlar va madaniyatlardagi musiqiy merosni tahlil etar ekanmiz, ayol ijodkorlar, bastakorlar, ijrochilar va musiqashunoslarning san’at olamiga qo‘shgan hissasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Tarixan ko‘plab ijtimoiy va madaniy to‘siqlarga qaramay, ayollar o‘z iste’dodlari va mehnatlari bilan musiqiy merosni boyitgan va yangi san’at yo‘nalishlarini shakllantirishga hissa qo‘shganlar.

Bugungi kunda kompozitorlik ijodida ayollarimiz ildam qadamlar bilan ijod qilishmoqda. Yetakchi kompozitorlardan: Dilorom Saidaminova, Dilorom Amanullayeva, Xurshida Xasanova, Oydin Abdullayeva, Dilnoz Zokirova.

Dilorom Saidaminova Toshkent davlat konservatoriyasida fortepiano ixtisosligi bo‘yicha professor A.M.Litvinovdan va kompozitsiya bo‘yicha professor B.I.Zeydmandan dars olgan. D.Saidaminova ijodida fortepiano va boshqa cholg‘ularga, turli cholg‘u ansambllarga musiqa yaratish ustuvor turadi. Fortepiano uchun yaratgan asarlari orasida “Qadimiy Buxoro devorlari” nomli turkumi, 6 ta ikkita fortepiano uchun pesalar, “Vals”, “Sayyora”, “Tokkatino”, “Noktyurn”, “Sonatina”, “Bolalar bekinmachog‘i” kabi asarlari chop etilgan. Kamer cholg‘u musiqa asarlari orasida torli kvarteti, skripka va fortepiano uchun sonata, fleyta va fortepiano uchun Konsert, 4 ta pyesa, chang uchun sonatina, truba uchun 3 ta pyesa, g‘ijjak uchun 5 ta pyesa, violonchel va fortepiano uchun sonata-improvizatsiya, violonchel uchun “Solo”, chang va fortepiano uchun fantaziya. Kompozitor bir talay qo‘shiqlar ham yaratdi. Ular orasida “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston-keng jahonim”, “Oltin yo‘l”, “Ufq”, “Oqar daryo”, “Quyoshli O‘zbekistan”, “Dalalarda”, “Qorli kun”, “Toshkent haqida qo‘shiq”, “Bodom gullari”, “Yalla”, “Mening yulduzim”, “Mangu olov”, “Toshkent chiroqlar” kabi 100 dan ortiq turli mavzularda yoshlar va bolalar uchun qo‘shiqlar yaratdi. Asosiy janrlari: Vokal-simfonik asarlar, opera, xor musiqasi, romanslar. Milliy va zamonaviy musiqiy uslublarni uyg‘unlashtirib, o‘zbek xalq musiqasi an’analaridan ilhomlangan. Saidaminovaning vokal-simfonik janrdagi asari chuqur dramatizm va lirizm bilan ajralib turadi. Ayniqsa, xor musiqasida xalq ohanglari va zamonaviy garmoniya uyg‘unlashgan.

O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi a’zosi, respublika Yoshlar mukofoti sovrindori bo‘lib, “Mustaqillik” medali bilan taqdirlangan. Mangeymda o‘tkazilgan Xalqaro tanlov laureati. Kompozitorning asarlari Rossiya, AQSh, Germaniya, va boshqa davlatlarda muvaffaqiyatli ijro etib kelinmoqda.

